Madaniy Kontekstda Tilning Roli. Tadqiqot davomida, antroposentrik paradigmaning tilni madaniyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bogʻlashdagi ahamiyati ham aniqlik kiritildi. Til nafaqat individual tafakkur va hissiyotlarning aks etishi, balki madaniyatning ham ajralmas qismidir. Til orqali madaniy qadriyatlar, an'analar va oʻtmish tajribalari ham oʻrganiladi, bu esa tilshunoslikda yangi yondashuvlar va metodologiyalarni yaratish imkonini beradi.

Dunyoqarashni Shakllantiruvchi Lingvistik Formulalar. Tadqiqotda antroposentrik paradigmaning til orqali dunyoqarashni shakllantiruvchi lingvistik formulalarini aniqlashga e'tibor qaratildi. Har bir til oʻziga xos fikrlash usulini va tushunishni shakllantiradi, bu esa tilning tilshunoslik va kognitiv ilmiy tadqiqotlar uchun ahamiyatini oshiradi. Tadqiqotda koʻrsatilganidek, tilning strukturasini oʻrganish orqali insonning tashqi va ichki dunyo haqidagi tasavvurlari, kognitiv xarakteristikalar va psixologik omillarni tushunish mumkin.

Lingvistik Relativizmning Ta'siri. Antroposentrik paradigmada lingvistik relativizmning ahamiyati ham alohida e'tiborga olinadi. Sapir-Whorf gipotezasi va uning lingvistik relativizmga asoslangan yondashuvlari, tildagi tilshunoslikning cheklovlari va ma'nolarni qanday shakllantirishi haqidagi fikrlarni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotda bu yondashuvning tillarning oʻziga xos xususiyatlarini va insonlar orasidagi tafovutlarni aniqlashda foydaliligini koʻrsatdi.

Tadqiqotlar natijasida antroposentrik paradigmaning dunyo lingvistikasi doirasidagi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘rni va uning mezonlari to‘liq tahlil qilindi. Til, inson tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashining shakllanishidagi markaziy vosita sifatida qaraladi. Antroposentrik yondashuv lingvistik tahlilni nafaqat tilni va uning grammatik tuzilishini, balki inson va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘rganishga imkoniyat yaratadi. Bu paradigma, tilshunoslikda yangi metodologiyalarni va fikrlash usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA. Lingvistik bilimlarni rivojlantirishning hozirgi bosqichida antropotsentrik yo‘nalish eng keng ko‘lamli va ta’sirchan tarmoqlardan biridir. Jahon tilshunosligida gumanizmga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi natijasida lison ilmining markazida ham inson turadi, degan qarashlar tobora ilgari surib kelinmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, antroposentrizm g‘oyalariga tayangan holda dunyo lingvistikasida antoposentrik paradigmaning mezonlari asosidagi yangi ilmiy tadqiqotlarga keng yo‘l ochdi.

Tilshunoslikda lisoniy paradigmalar tadrijiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigmadan keyin paydo bo‘lgan antroposentrik paradigma tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ijtimoiy holati, ruhiyati, yoshi, jinsi kabilar bilan bog‘liq holda o‘rganishga kirishdi. Ya’ni tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omilini yetakchi o‘ringa qo‘ydi.

Antroposentrik paradigma asosida ishlaydigan tadqiqotchilar muammolarga tobora ko‘proq yangi yechimlar qo‘shmoqda. Muayyan paradigma doirasida muammolar o‘tmishdoshlarning yutuqlariga tayangan holda dalillarga asoslangan vositalar bilan hal qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, bilimlarni to‘plash faqat ma’lum bir paradigma doirasida mumkin.

Til taraqqiyoti tarixi shuni ko‘rsatadiki, tilshunoslik yangi nazariyaning, yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishi eski ma’lumotlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishga olib kelmaydigan fanlardan biridir. Masalan, Y.S. Stepanov paradigma tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Ma’lum bir davrdagi tilga dominant qarash, ma’lum bir falsafiy harakat va ma’lum bir yo‘nalish bilan bog‘liq”[1]. Bundan tashqari, Y.S.Stepanov ta’kidlaganidek, paradigma fanda ma’lum bir fikrlash uslubi bilan bog‘liq. Demak, paradigma tarixiy hodisadir.

XXI asrga kelib, tilshunoslikda turli ilmiy yondashuvlar rivojlanishi natijasida juda o‘zgaruvchan “til tasviri” shakllandi. Tildagi turli xil yondashuvlarni o‘rganish obyekti sifatida qo‘llanish samaradorligiga qaramay, tilshunoslik vazifalarining aksariyati tilni tadqiq etishda lisoniy bilimlarni antropotsentrik tahlil bilan bog‘liq holda o‘rgandi. Bunda diqqat markazida “tilning o‘zi” emas, balki nutq subyekti, nutqni ifodalovchi shaxs, til va inson qadriyatlari, milliy til mentaliteti turadi. Antroposentrik tilshunoslik tilni o‘rganishda kognitiv (faoliyat, kognitiv, tushuntirish) va madaniy yondashuvlar bilan bog‘liq holda shakllanadi. Ushbu yondashuvning kelib chiqishi tilni "shaxs tili", insonning individual tajribasi mahsuli sifatida ko‘rib chiqishga asoslanadi. Ushbu yondashuvni nemis tilshunosi Germann Paul (1846-1921) 1920-yilda “Til tarixi tamoyillari” asarida bayon qilgan va unda olim quyidagilarni qayd etgan: “...biz dunyoda shaxslar kabi ko‘plab

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

alohida tillar mavjudligini tan olishimiz kerak” [2]. Nemis tilshunosi g‘oyalarining ta’siri rus tilshunoslarining asarlarida (masalan, I. A. Boduen de Kurtene) kuzatilgan [3].

Tilshunoslikdagi antropotsentrik paradigmaning zamonaviy psixolingvistik tarkibiy qismi tilni aqliy hodisa, insonning tabiiy aqliy qobiliyati sifatida ko‘rib chiqish bilan bog‘liq bo‘lib, uni xotiradan, tasavvurdan, hissiy idrokdan ayri holda o‘rganmaydi. Tilning bu tushunchasi birinchilardan bo‘lib Karl Vilgelm fon Gumboldt (1767-1835) asarlarida o‘z aksini topdi (“Fikrlash va nutq to‘g‘risida” 1795; “Turli xil tillarning adabiyotga va ma’naviy rivojlanishga ta’siri to‘g‘risida” 1821; “Inson tillari tuzilishidagi farq va uning insoniyat ma’naviy rivojlanishiga ta’siri to‘g‘risida” 1830-1835). Bejizga V. Gumbolt tilni “tashqi hodisalar va insonning ichki dunyosi o‘rtasidagi olam” deb ta’rifmagan.

G. Paul va V. Gumboldtning ilmiy g‘oyalari, ularning asarlari Rossiya va Yevropada antroposentrik, kognitiv tilshunoslikning rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi.

V. Gumboldt o‘zining ilmiy asarlarida quyidagi kognitiv muammolar va tushunchalarga tegishli qarashlarini ilgari surgan:

1. Antroposentrizm uslubiy prinsip sifatida. “Qaysi mavzu muhokama qilinmasin, uni har doim inson bilan, ya’ni uning butun intellektual va axloqiy sifatlari bilan birgalikda yaxlit umumlashma sifatida bog‘lash mumkin” .

2. Tilning tafakkur bilan aloqasi (tilning fikrlash funksiyasi).

3. Tilni faoliyat sifatida tushunish.

Gumboldtning tezisida qayd etilishicha, “til faoliyat mahsuli emas (Ergon), balki faoliyat(energiya)ning o‘zidir (Energeia). Tilni haqiqiy energiya deb hisoblash faqat genetik yondashuv jihatdan bo‘lishi mumkin”. Gumboldt shunday yozadi: “Til – bu ruhning doimiy ravishda yangilanib turadigan faoliyati bo‘lib, u ifoda etilayotga tovushni ma’lum bir fikrni ifodalashga yaroqli qiladi”. “…til o‘lik mahsulot emas (Erzeugtes), balki yaratish jarayonidir (Erzeugung)”. Umuman olganda, V.Gumboldt asarlarini tahlil etar ekanmiz, olim tomonidan analitik va statik usul o‘rniga tilni generativ (Erzeugung), faoliyat (Tätigkeit), energiya (Energeia) sifatida ko‘rib chiqadigan dinamik konsepsiya ilgari suriladi.

4. Til va millat faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi til va nutq oppozitsiyasida.

"Til nutq orqali, nutq esa fikr yoki hissiyotning ifodasidir. O‘z tiliga rang va xarakter beradigan odamlarning fikrlash tarzi va munosabati boshidanoq bu ikkalasiga ta’sir qiladi. Boshqa tomondan, til o‘zining grammatik tuzilishini shakllantirishda qanchalik rivojlangan bo‘lsa, unda biror narsani yangidan hal qilish kerak bo‘lgan holatlar shunchalik kam bo‘ladi. ...millat faoliyati tildan foydalanishga o‘tadi va u o‘ziga xos xalq ruhining hamrohi sifatida tarixiy yo‘lni bosib o‘tadi. Bunda tilni ham, ruhni ham bir-biridan mustaqil deb atash mumkin emas, lekin bu ikkisi bir-birini to‘ldiruvchi kuchlardir. Har biri boshqasining yordami va dalda beruvchi ko‘magiga tayanadi” [4].

5. Analogiya tilni rivojlantirish va o‘zlashtirishning kognitiv mexanizmi sifatida.

6. Tildagi tasvirlarni (faoliyat, tushunish) obyektivlashtirishning kognitiv jarayoni.

Ushbu qismda biz nafaqat tubdan yangilangan g‘oyalarni, balki eski tushunchalarni qayta ko‘rib chiqishga oid olimning ilmiy farazlarini ko‘rib chiqishimiz mumkin. Shunday

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qilib, tilshunoslikda “fanlararo xarakterdagi tadqiqotlarning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri”ni hisoblangan ilmiy bilimlar jamlanmasi “kognitiv tilshunoslik paradigmasi” hisoblanadi, unda til haqidagi eski qarashlarning quyidagi yangilanishlari taklif etiladi:

- til insonning boshqa sohalar bilan bog‘liq bo‘lgan kognitiv sohalaridan biridir va shuning uchun psixologik, madaniy, sotsiologik, ekologik va boshqa omillarning o‘zaro ta’sirini aks ettiradi; shuning uchun til fanlararo tadqiqot mavzusi bo‘lishi kerak;
- grammatika semantikaga asoslangan;
- til birligining ma’nosi – konseptual tuzilish, til birliklarining aloqasi kontekstga, vaziyatga bog‘liq bo‘lgan majoziy birlashmalarga asoslanadi;
- sintaksis, morfologiya, fonologiya, leksika, semantika va boshqalar bir-biriga bog‘liq, tildan tashqari xatti-harakatlardan va tildan tashqari bilimlardan “avtonomiya”ga ega emas.

Shuningdek, V. Gumboldt fikrlash uslubining o‘ziga xosligini namoyish etib, tilshunos sifatida kognitiv jarayonlarda mavzu va obyekt o‘rtasidagi munosabatlarning falsafiy muammosini hal qilishga o`z hissasini qo‘shgan.

7. Konseptualizatsiya jarayonida tushunish, taqdim etish, asosiy uyushmalarning roli.

8. Tilning ideal mavjudligi.

9. Tilni shaxs tili sifatida tushunish, individual tilga e’tibor (G. Paul tushunchasi). Ushbu pozitsiya tilni o‘rganish vektorining o‘zgarishiga olib keldi: interpsixikadan (ijtimoiy) intrapsixikagacha (individual) [5].

Nihoyat, tilning tabiati va funksiyalariga “kognitiv qarash” Gumboldt tomonidan berilgan quyidagi xususiyatlarida umumlashtiriladi: “tilning yaratilishi insoniyatning ichki ehtiyojidan kelib chiqadi. Til nafaqat odamlar bilan muloqot qilishning tashqi vositasi, balki ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish, shuningdek, uning ma’naviy kuchlarini rivojlantirish va dunyoqarashni shakllantirish uchun zarurdir. Inson faqat o‘z tafakkuri, ijtimoiy fikrlash qobiliyati orqali bunga erishishi mumkin”.

Ushbu qoida so‘zning psixolingvistik nazariyasidagi asosiy qoidalardan biridir: “shaxsda so‘z ortida turgan narsa aqliy faoliyat qonunlariga muvofiq shakllanadi, ammo jamiyat nazorati ostida bo‘ladi”.

Natijada, V. Gumboldt tilga kognitiv yondashuvning asosiy postulatlarini shakllantirgan deb aytishimiz mumkin:

- tilga “faoliyat” sifatida yondashuv;
- tilning “fikrni shakllantirish” funksiyasi;
- til insonning individual tajribasi mahsuli sifatida;
- o‘xshashlik tilni o‘zlashtirish mexanizmi sifatida;
- tilning boshqa aqliy jarayonlar bilan aloqasi.

Antropotsentrizm falsafasi ta’siri ostida so‘z ma’nosining yangi nazariyalari rivojlandi: shaxsning so‘z ma’nosi aloqalar tarmog‘i sifatida (Kristina Xardi); tajriba va xulosa bilimlarining semantikasi (Patrisiya Violi); ma’noning biokultural nazariyasi (Y.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Zlatev) [6].

V. Gumboldtning asarlari shuni ko‘rsatadiki, kognitiv tilshunoslikning ko‘plab g‘oyalari ancha oldin paydo bo‘lgan va u yoki bu sabablarga ko‘ra zamondoshlari tomonidan turli usullarda tadqiq etilgan, ishlab chiqilgan yoki aksincha e’tibor qaratilmagan. Xuddi shu nuqtayi nazardan, nemis tilshunosi G. Paulning asarlari ham antroposentrik paradigma xususiyatlariga ilmiy jihatdan yechim topishda ahamiyatli hisoblanadi.

German Paul (1846-1921) tilni o‘rganish metodologiyasiga o‘z qarashlarini XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa tilshunosligida hukmronlik qilgan yosh grammatiklarning qarashlarini nazariy umumlashtirishni aks ettiruvchi “Til tarixi tamoyillari” nomli asarida bayon qilgan (birinchi nashr – 1880-yil, oxirgi nashri vafotidan keyin – 1937-yil).

G.Paulning ta’kidlashicha, nutqni tahlil etishda aqliy jarayonlarni ko‘rib chiqishni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Shu bilan birga, u mantiq toifalari, psixika toifalari, til toifalarining bir-biriga mos kelmasligini ta’kidlaydi: “grammatika va mantiq bir-biriga mos kelmaydi, chunki tilni shakllantirish va undan foydalanish qat’iy mantiqiy fikrlash yordamida emas, balki ma’lum darajada bo‘lgan g‘oyalar to‘plamining tabiiy, yuqori darajadagi harakati orqali amalga oshiriladi. …qobiliyat yoki ta’limga bog‘liqlik – mantiqiy qonunlarga asoslanadi yoki ular bilan umuman aloqada bo‘lmaydi. Ammo ifodaning lingvistik shakli, shuningdek, kattaroq yoki kichikroq mantiqiy ketma-ketlikda farq qiladigan tasvirlar to‘plamining haqiqiy harakatiga to‘g‘ri kelmaydi va psixologik toifalar grammatik kategoriyalar bilan bir xil emas”.

Bundan kelib chiqadiki, tilshunos tilni tadqiq etar ekan, ushbu toifalarni aralashtirmasligi kerak. Ammo bu inson nutqini tahlil qilganda, gapirish va tinglash paytida yuzaga keladigan aqliy jarayonlarni e’tiborsiz qoldirish huquqiga ega yoxud lingvistik ifodada mantiqiy va psixologik toifalar topilmaydi, degani emas. “Faqatgina individual nutqni tashkil etuvchi elementlarda o‘zini namoyon qilmaydigan, ammo ma’ruzachining aqliy nigohi oldida turgan va tinglovchi tomonidan ushlangan narsalarni har tomonlama hisobga olgan holda, tilshunos lingvistik ifoda vositalarining kelib chiqishi va o‘zgarishini tushunadi. Individual ma’naviy faoliyatni inobatga olmagan holda, har doim grammatik shakllarni alohida ko‘rib chiqadigan kishi hech qachon til rivojlanishini tushunishga erisha olmaydi”[7].

Bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, sharhlar XXI asrning boshlarida yaratilgan “til tasviri” va uning yangi xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, Paul va Gumboldtning asarlari bugungi kunda ham tilshunoslar uchun mulohaza mavzusi ekanligini, hali hanuzgacha ikkala olimning qarashlari antroposentrik paradigma taraqqiyoti uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishini isbotlaydi.

XX-XXI asrlar oxirida lingvistik tadqiqotlarning yetakchi yo‘nalishlaridan biri antroposentrizm edi. O‘sha davrga kelib tilshunoslikda tilning tizimi va tuzilishi, uning faoliyati va rivojlanishi haqida juda ko‘p materiallar to‘plangan edi. Bu til nafaqat aloqa vositasi, balki odamlarning ma’naviy va moddiy tajribasining timsoli, madaniy, ijtimoiy va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tarixiy muhitning aksi, shuningdek, dunyoning milliy qarashlariga ta’sir qilish vositasi ekanligini aniqroq tushunishga imkon berdi.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda antroposentrik tilshunoslik (yoki antroposentrik paradigma; neolingvistika) sohasining vujudga kelishi va taraqqiy etishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omiliga asosiy e’tiborni qaratish bilan bog‘liqdir. “Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi shu bilan izohlanadiki, tadqiqotchilarning diqqati “til qanday qurilgan” degan masaladan “til qay tarzda amal qiladi” degan masalaga ko‘chdi... Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning egasi bo‘lgan shaxs omili nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi” [8].

Xulosa. Ushbu tadqiqotda dunyo lingvistikasi doirasida antroposentrik paradigmaning mezonlari chuqur o‘rganildi va uning lingvistik tahlilga ta'siri aniqlashga harakat qilindi. Antroposentrik paradigma tilshunoslikda inson tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashining markaziy o‘rnini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki insonning dunyo haqidagi tasavvurlari, hissiyotlari va ijtimoiy tajribalari aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Antroposentrik paradigmaning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Insonning tilni shakllantirishdagi roli – tilning shakllanishi, ma'no va strukturasi inson tafakkuri va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq.
2. Til va dunyoqarash o‘rtasidagi bog‘liqlik – tilning inson dunyoqarashini aks ettiruvchi vosita sifatida roli.
3. Kognitiv tilshunoslik yondashuvi – tilning kognitiv jarayonlar va tushunchalar bilan bog‘liqligi, uning insonning tafakkurini shakllantirishdagi o‘rni.
4. Madaniy kontekstda tilning o‘rni – til orqali madaniy qadriyatlar va an'analar ifodalanadi, til madaniyat bilan o‘zaro bog‘liq.
5. Lingvistik relativizmning ta'siri – til va dunyoqarash o‘rtasidagi o‘zgaruvchan bog‘liqlikni tasvirlash.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, antroposentrik paradigma lingvistik tahlilning yangi yo‘nalishlarini ochadi va tilshunoslikka inson tafakkurini, madaniyatni, ijtimoiy o‘zgarishlarni va dunyoqarashni o‘rganish imkoniyatini beradi. Tilni insonning tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqasi sifatida ko‘rish, lingvistik tadqiqotlarni yanada boyitadi va tilshunoslikda yangi metodologiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Takliflar

1. Antroposentrik paradigmani yanada rivojlantirish – Tilshunoslikda antroposentrik paradigmaga asoslangan yangi tadqiqotlar olib borilishi kerak. Bu, ayniqsa, til va tafakkur, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni chuqurroq o‘rganish imkoniyatini yaratadi.
2. Kognitiv lingvistika tadqiqotlarini kengaytirish – Kognitiv lingvistikaning antroposentrik paradigma bilan bog‘liq tahlillarini davom ettirish zarur. Bu sohada yangi yondashuvlar va metodologiyalar ishlab chiqish tilshunoslikda yangi istiqbollarni ochishi mumkin.
3. Madaniyatshunoslik va lingvistik tadqiqotlarni integratsiyalash – Til va madaniyat

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada chuqur o‘rganish uchun madaniyatshunoslik va lingvistikani integratsiyalash muhim. Bu tilning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

4. Dunyoqarashni shakllantirishdagi tilning rolini o‘rganish – Tilning inson dunyoqarashini shakllantirishdagi roli va uning ijtimoiy guruhlar va madaniyatlar bo‘yicha qanday farqlanishi bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borilishi lozim.

5. Lingvistik relativizmni qo‘llab-quvvatlash – Til va dunyoqarash o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada chuqurroq o‘rganish uchun lingvistik relativizmning amaliy va nazariy jihatlarini kengaytirish kerak.

6. Interkultural tadqiqotlarni rivojlantirish – Til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yanada chuqur o‘rganish uchun interkultural tadqiqotlar kengaytirilishi zarur. Bu o‘zaro ta'sirlar tilshunoslik va madaniyatshunoslikda yangi metodologiyalarni ishlab chiqish uchun zaruriy shartlarni yaratadi.

Shu tarzda, antroposentrik paradigmaga asoslangan lingvistik tadqiqotlar tilshunoslikni yanada boyitish va uning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Tilni insonning tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashining shakllanishi bilan bog‘liq holda tahlil qilish lingvistik tadqiqotlarni yanada chuqurlashtiradi va yangi ilmiy yo‘nalishlar yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. Учебное пособие для студентов филол. специальностей пед. ин-тов. Изд. 2-е, перераб. М., «Просвещение», 1975. 271 с.
2. Пауль Г. Принципы истории языка. Пер. с нем. Под ред. А.А. Холодовича. Вст. ст. С.Д. Кацнельсона (с.5—21). Ред-р З.Н.Петрова. М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. 500 с.
3. Романова Т.В. Антропоцентрическая парадигма в истории языкознания: «язык индивида» (Г. Пауль), «Язык как психический феномен» (В. Гумбольдт) . Вып. XXI. , М., Тамбов: Институт языкознания РАН; Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2015. –С. 116-121.
4. Гумбольдт В. Фон. Язык и философия культуры / Ред-я и вст. ст. А.В. Гулыга, Г.В. Рамишвили. А.В. Гулыга. Философская антропология Вильгельма фон Гумбольдта (с.7-25) Г.В. Рамишвили. От сравнительной антропологии к сравнительной лингвистике (с. 309-318). М.:Прогресс, 1985. –С. 162-164.
5. Залевская А.А. Введение в психолингвистику: Учебник. 2-е изд. испр. и доп. М.: Российск. гос. гуманит. ун-т, 2007. 560 с.; Пауль Г. Принципы истории языка/ Пер. с нем. Под ред. А.А. Холодовича. Вст. ст. С.Д. Кацнельсона (с.5—21). Ред-р З.Н.Петрова. М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. 500 с.
6. Залевская А.А. Введение в психолингвистику: Учебник. 2-е изд. испр. и доп. М.: Российск. гос. гуманит. ун-т, 2007. 560 с.; Пауль Г. Принципы истории языка/

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Пер. с нем. Под ред. А.А. Холодовича. Вст. ст. С.Д. Кацнельсона (с.5—21). Ред-р З.Н.Петрова. М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. 500 с.
7. Залевская А.А. Введение в психолингвистику: Учебник. 2-е изд. испр. и доп. М.: Российск. гос. гуманит. ун-т, 2007. 560 с.
8. Дорофеев Ю. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики // http:www.Nbuv.Cov.ua/portal/Sog-Gum/ls 2008-17/dorofeev/pdf.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Bobomurodova Go`zal Olimovna**, o`qituvchi [**Бобомуродова Гузал Олимовна**, преподаватель], [**Bobomurodova Guzal Olimovna,** teacher]; manzil: 200118, Buxoro viloyati, Buxoro, G'ijduvon ko'chasi, 23, [адрес: 200118, Бухарская область, Бухара, ул. гиждувана, 23], [address: 23 gijduvan str., Bukhara region, 200118]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TIBBIY INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV VA TERMINOLOGIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

© A. S. Butunbayev[1]✉, M. X. Gulyamova[2]✉
[1]O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada tibbiy ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati va ESP metodikasining tibbiy terminologiyani samarali o'zlashtirishdagi o'rni yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – talabalar kasbiy faoliyatida tibbiy terminlardan samarali foydalanishni ta'minlovchi kommunikativ va lingvistik ko'nikmalarni shakllantirishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tibbiy ingliz tili darsliklari, kommunikativ yondashuvga asoslangan metodik adabiyotlar, ESP metodikasi va xorijiy tajribalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tibbiy matnlarning grammatik va leksik xususiyatlarini o'rganish, real kommunikatsion vaziyatlarda terminlardan foydalanish, rolli o'yinlar, talaffuz va kontekstual tahlil talabalarning kompetensiyasini sezilarli oshirishga olib kelgani aniqlangan.

XULOSA: tibbiy ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvni qo'llash orqali kasbiy muloqot ko'nikmalari, terminologik kompetensiya va til bilish samaradorligi oshadi. CLT tamoyillarini ESP asosida integratsiyalash muhim o'quv metodik yo'nalish sifatida taklif etiladi.

Kalit so'zlar: tibbiy ingliz tili, kommunikativ yondashuv, ESP metodikasi, tibbiy terminologiya, til o'qitish, CLT, fonetika va grammatika.

Iqtibos uchun: Butunbayeva A. S, Gulyamova M. X. Tibbiy ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv va terminologik kompetensiyani rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.84–90.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА И ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБУЧЕНИИ МЕДИЦИНСКОМУ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

© А.С. Бутунбава[1]✉, М.Х. Гулямова[2]✉
[1,2]Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается значение коммуникативного подхода в обучении медицинскому английскому и роль методики ESP в эффективном усвоении медицинской терминологии.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – формирование у студентов коммуникативных и лингвистических компетенций, необходимых для профессионального использования медицинских терминов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были проанализированы учебники по медицинскому английскому языку, методические пособия по коммуникативному обучению, материалы по методике ESP, а также зарубежный опыт.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: изучение лексических и грамматических особенностей медицинских текстов, работа с терминами в реальных коммуникативных ситуациях, ролевые игры и контекстуальный анализ значительно повышают профессиональную терминологическую компетентность студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: применение коммуникативного подхода в обучении медицинскому английскому способствует развитию профессиональных навыков общения и терминологической точности. Интеграция CLT и ESP представляется эффективным методическим направлением.

Ключевые слова: медицинский английский язык, коммуникативный подход, методика ESP, медицинская терминология, преподавание языка, CLT, фонетика и грамматика.

Для цитирования: Бутунбаева А.С, Гулямова М.Х. Развитие коммуникативного подхода и терминологической компетентности в обучении медицинскому английскому языку.// Inter education & global study.2025. Vol.3 №6(1). С.84–90.

DEVELOPMENT OF A COMMUNICATIVE APPROACH AND TERMINOLOGICAL COMPETENCE IN TEACHING MEDICAL ENGLISH

© Aziza S. Butunbayeva[1]✉, Mavluda X. Gulyamova[2]✉
[1] Uzbek State University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article discusses the significance of the communicative approach in teaching medical English and the role of ESP methodology in effective acquisition of medical terminology.

AIM: the main aim of the study is to develop communicative and linguistic competencies necessary for students to use medical terminology professionally.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzes medical English textbooks, communicative language teaching materials, ESP-based methods, and international teaching practices.

DISCUSSION AND RESULTS: analysis of lexical and grammatical features of medical texts, role-plays, pronunciation exercises, and the use of terms in real-life communication significantly improved students' terminological competence.

CONCLUSION: applying the communicative approach in teaching medical English enhances professional communication skills and terminological precision.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Integrating CLT principles within the ESP framework is proposed as an effective pedagogical strategy.

Keywords: medical English, communicative approach, ESP methodology, medical terminology, language teaching, CLT, phonetics and grammar.

For citation: Aziza S. Butunbayeva, Mavluda X. Gulyamova. (2025) 'Development of a communicative approach and terminological competence in teaching medical English', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.84–90. (In Uzbek).

Bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda ingliz tili barcha fan sohalarining tili sifatida tobora e'tirof etilmoqda va har bir faoliyat yo'nalishiga chuqur kirib bormoqda. Axborot texnologiyalari (IT) bu ancha yangi soha bolib ingliz tili bu yo'nalish bilan birga rivojlangan desak ham boladi ammo tibbiyot yoki farmokologiya kabi keng rivojlanayotgan sohalarni oladigan bo'lsak bu sohalarda ingliz tili XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng qo'llanila boshladi. Bunga ingliz tilidagi nashrlar soni oshgan - Scopus indeksidagi jurnallarni keltirishimiz mumkin uning qariyb 80 foizi ingliz tilida chop etiladi. Ayniqsa, tibbiyot xodimlari ingliz tilida so'zlashadigan davlatlarda ishlash istagida bo'lishi, tilning ahamiyatini ortirmoqda.

Bugungi kunda nofilologik oliy ta'lim dargohlarida ingliz tilini o'qitishda soha doirasida, uning terminologiyasini o'rgatish, kasbiy kompetensiyani oshirishga qaratilgan til ta'limiga urg'u berilmoqda. Bu esa talabalarning til o'rganish ehtiyojlari va maqsadlariga asoslangan ta'lim jarayoni "mutaxassislar uchun ingliz tili" yoki "aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili" (ESP- English for specific purposes) degan yo'nalish shakllandi. Agar ESP va umumiy maqsadlar uchun ingliz tili o'rtasida qanday farq borligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak , Hutchinson va Waters kabi olimlar quyidagicha javob beradi: "Nazariy jihatdan hech qanday farq yo'q, amaliyotda esa juda katta tafovut bor"[1].

Bojovich fikriga ko'ra: "ESP o'zining alohida metodlariga ega, chunki u faqat tilshunoslik bilan emas, balki boshqa fan sohalari bilan ham bog'liq. ESP o'quvchining ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, asosiy maqsadi — talabaning o'qiyotgan sohasi yoki ishlayotgan yo'nalishida samarali va ravon muloqot qila olishidir"[2].

Ma'lumki, ingliz tilidagi tibbiy terminologiyaning katta qismi boshqa tillardan, xususan yunon, lotin va arab tillaridan kirib kelgan. Bu tillar tibbiy lug'at shakllanishida muhim rol o'ynagan. Masalan, ingliz tilida umumiy so'zlar qatorida, tibbiyot va farmakologiya kabi ixtisoslashgan sohalarda ham arab tilidan kirib kelgan alcohol, alkali, alembic, naphtha, tartar, alchemy, elixir kabi so'zlarni uchratish mumkin.

Serjeantson (1935) shunday deydi: "Ba'zi so'zlar ingliz tiliga bevosita manba tilidan emas, balki oraliq til orqali kirib kelgan. Masalan, dastlabki italyancha o'zlashmalar fransuz tili orqali kirgan bo'lsa, Sharqdan kirib kelgan ko'plab so'zlar lotin tili orqali o'zlashgan, ayrimlari esa lotinga yetib kelishdan avval yunon tilidan o'tgan … So'zlar minglab chaqirim masofani bosib o'tgan: Osiyodan Yevropaga, Yevropa bo'ylab

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

sharqdan g‘arbga va janubdan shimolga, O‘rta Yer dengizi bo‘ylab bir millatdan boshqasiga, bir avloddan boshqasiga o‘tib kelgan”[3].

Tibbiyot terminologiyasi

Har bir soha o’ziga xos "jargon" ga ya’ni faqat aynan bir sohada faoliyat yuritadigan mutaxasislari tomonidan tez-tez qo’llaniladigan, muloqot qilish imkonini beradigan so’zlar jamlanmasidan – terminologiyasidan foydalinadi.Bu borada Kenneth va Chuntana Methold (1975:6) quyidagicha izoh bergan: “Tibbiy yozuvlar juda maxsus lug‘atga asoslanadi. Bu so‘zlarning ko‘pini foydali tarzda tarjima qilish yoki aniqlab berishning imkoni yo‘q. Tibbiy yozuvlar ko‘pincha shunchalik tushunarsiz bo‘ladiki, undagi uzun so‘zlar va undan ham murakkab atamalarni tushunish uchun turli yondashuvlardan foydalanish kerak bo‘ladi ”[4].

Parkinson (1976:32) esa turli bo‘limlarga, masalan “ko‘krak qafasi, psixiatriya, ginekologiya va pediatriya” bo‘limlariga oid klinik tarixlarni “asosiy tibbiy atamalarni ko‘rib chiqish va ro‘yxatga olish uchun foydali o‘quv vositasi” deb hisoblaydi [5].

Shunday qilib, tibbiy terminologiya — bu shifokorlar, tibbiyot talabalari va sog‘liqni saqlash sohasidagi tadqiqotchilar tomonidan foydalaniladigan maxsus til hisoblanadi. Tibbiyotga oid matnlar murakkab bo‘lib, ko‘pincha maxsus lug‘atga tayangan holda yoziladi. Ko‘plab terminlarni tushunish qiyin, ayrimlari esa aniq ta’rifga ham ega emas. Tibbiyot terminologiyasi o‘ziga xos g‘oya va tushunchalarni aks ettiradi va uni to‘liq anglash ma’lum bilim darajasi va tanqidiy fikrlashni talab qiladi.

Metodik yondashuv

Tibbiyot yo’nalishi talabalariga ingliz tilini o’qitishdan ko’zlangan asosiy maqsad ingliz tilida erkin so’zlasha olish, tibbiy ma’lumotlarni o’qish va xorijiy mutaxasislardan malaka oshirishdir. Bu borada kommunikativ yondashuv eng samarali usul hisoblanadi. Kommunikativ yondashuvda til muloqot vositasi hisoblanadi.

Kommunikativ yondashuv hozirda keng tarqalgan va umumlashtirilgan atamaga aylangan bo‘lib, u talabaning muloqot qilish qobiliyatini oshirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini ifodalaydi. Bu yondashuv asosan kommunikativ kompetensiyani egallashga va to‘rt til ko‘nikmalarini (tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish) o‘rgatish bo‘yicha amaliyotlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Bu yondashuv faqat til birliklarini yodlash emas, balki ularni amalda ishlata olishga urg‘u beradi.[6] Kommunikativ til o‘qitish (CLT) metodining asosiy maqsadi – talabalarni erkin va samarali muloqot qila olish ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishdir. Diane Larsen Freemanning fikriga ko‘ra: “Ingliz tilini o‘qitishning barcha metodlarining yagona maqsadi – talabalarni ingliz tilida gapirishga, ya’ni muloqot qilishga o‘rgatishdir. Ingliz tilida muloqot qilish esa faqatgina lingvistik tuzilmalarni emas, balki tilning ma’lum funksiyalarini ham – masalan, va’da berish, taklif qilish, taklifni rad etish kabi – ijtimoiy kontekstda egallashni ham anglatadi” [7]. Shunday qilib, ushbu yondashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilari quyidagilardan iborat:

1. Asosiy maqsad – o‘rganilayotgan tilda erkin muloqot qila olish. Muloqot bu – lingvistik shakllarning o‘zaro ta’sir jarayoni va ularni aniq hamda samarali ishlata olish qobiliyatidir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. O‘qituvchining asosiy roli – talabalarni turli ijtimoiy vaziyatlar bilan ta’minlash orqali ularda muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirishdir.

3. Autentik (haqiqiy hayotda ishlatiladigan) materiallardan foydalanish, bu talabalarni tilda real hayotdagi ifodalarni tushunishga o‘rgatadi.

4. CLT darslarida talabalar kichik guruhlar, katta guruhlar yoki juftliklarda faol muloqot qiladilar.

5. Talabalar to‘rt asosiy til ko‘nikmalarini (o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish) boshidanoq mashq qiladilar, bu esa to‘g‘ri gap tuza olishga qaratilgan.

6. Talabaning ravonligi (fluency) va aniqligiga (accuracy) katta e’tibor qaratiladi. Ba’zida talabalar yetarli lingvistik bilimga ega bo‘lmasalar ham, samarali muloqot qila olishlari mumkin.

Demak, to‘rtta asosiy til ko‘nikmalaridan tashqari, muloqot ko‘nikmalari hozirgi kunda samarali til o‘zlashtirishning asosiy yakuniy maqsadi sifatida qaralmoqda. Kommunikativ yondashuvni tibbiyot universitetlarda keng qo’llashda bir qancha faoliyatni amalga oshirish kerak . Bular o’quv dasturlarining tahlili va talabalarning til bilish darajasi. Buni Yekatirina Pavel tomonidan o’tkazilgan tajribalardan ko’rishimiz mumkinki Ruminiyadagi Transilvaniya tibbiyot universitetida ham ingliz tilini o’qitishda bir qancha qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishda yo’lga qoyilgan yondashuvlar tahlilini shu bilan birga tibbiy ingliz tili o’quv dasturi ishlab chiqilishini ko’rishimiz mumkin[8].

Tibbiy ingliz tilini o’qitishda asosiy e’tibor darsliklarga qaratilib , ular kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishi lozim bo’ladi. Bunda e’tibor beriladigan jihatlardan bu muloqatni birinchi o’ringa qo’yish orqali haqiqiy tibbiyot amaliyotiga yaqin faoliyatni yaratish va shu asnoda muloqotga asoslangan darslarni tashkil etish mumkin.Bunda tibbiy terminologiya va grammatik strukturalar bilan tanishish muhim o’rin tutadi.Tibbiy ingliz tilining grammatik va leksik xususiyatlari umumiy ingliz tilidan bir qancha farqlarga ega bo‘lib, bu soha talabalar va mutaxassislar uchun maxsus yondashuvni talab etadi. Grammatik jihatdan eng ko‘p qo‘llaniladigan zamon — bu hozirgi oddiy zamon bo‘lib, jarayonlar, funksiyalar va kasallik holatlarini tasvirlashda hamda odatlarni so’rashda ham ishlatiladi. O‘tgan zamon esa bemorning tibbiy tarixini yig‘ishda, hozirgi tugallangan zamon esa simptomlar davomiyligi yoki tibbiy amaliyotlarda ifodalashda qo‘llaniladi.

Hozirgi oddiy zamon (Present Simple):

“Orqa umurtqa qismi umurtqa yoyini tashkil qiladi va bu ikki pedikul, ikki lamina va yetti o‘sma qismlardan iborat.”

Siz spirtli ichimlilar istemol qilasizmi?

O‘tgan zamon (Past Simple)

Bolaligingizda biron bir jiddiy kasallik bilan og’riganmisiz?

Hozirgi mukammal zamon (Present Perfect)

“Sizni ko’ngil aynishlar qancha vaqtdan beri bezovta qilib keladi?

Modal fe’llar (modal verbs) taxmin ,ehtimol, tavsiya ,ogohlantirishlarda muhim bo’lib ,bu tibbiy bayonotlarda aniqlik va ehtiyotkorlikni ifodalashga yordam beradi.

Qisqartmalar va qisqa yozuvlar (Acronyms and Abbreviations)

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tibbiy ingliz tilidagi ko'plab qisqartmalar birdan ortiq ma'nolarni ifodalab kelishi mumkin ularning farqlarini faqat konteksdan farqlash tog'ri bo'ladi.

Talabalar uchun eng qiyin holat bu tog'ri talaffuz qilish buning uchun terminlarni tarjimasiz izohi bilan o'rganish . Bu borada eng ko'p uchraydigan prefeks va suffikslarni ajratib izohlash yordamida so'zlar xotirada tezroq muhrlanadi. Tibbiy terminlarni real hayotiy kommunikatsiyada ishlatish uchun ishtrokchilar (shifokor-hamshira-bemor) aniqlanib , tomonlar turli xil muloqot turlarida ishrok etishi belgilanadi. Misol qilib: tibbiy tarixni yig'ish, bemorni boshqa shifokorga yuborish, holatni izohlash, ko'rsatmalar berish, mutaxassislarni chaqirish va boshqalar. Bu esa talabalardan quyidagilarni talab etadi:

- Shifokor / hamshira va bemor o'rtasidagi suhbatni yaratish – rol o'ynash orqali;
- Umumiy tekshiruvni bajarish – masalan, qon bosimini o'lchash, nafas olishni tinglash;
- Tibbiy varaqa asosida kasallik tarixini to'ldirish – bemordan olingan ma'lumotlarga asoslangan holda;
- Yo'llanma xati (referral letter) yozish;
- Diagnostika qilish – berilgan simptomlar asosida tashxis qo'yish.

Xulosa

Umuman olganda ingliz tilini tibbiyot yo'nalishi talabalariga o'qitishda yo'lga qoyiladigan vazifalardan birinchisi bu talabalarning ingliz tilida kasbiy faoliyatlarini olib borishlari uchun kerakli leksik zaxirani yaratish. Shu bilan birga kasbiy terminologiya va so'zlashuv konikmalarini shakllantirishdir. Ushbu maqolada tibbiy ingliz tilini o'qitish jarayonida kommunikativ yondashuvning imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan asoslangan. Olib borilgan izlanishlar ESP metodikasiga asoslanib, talabalarning soha doirasidagi kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Til o'rgatishda autentik materiallar, rol o'ynash, grammatika va fonetikani kontekstda o'rganish muhim usullardan biri sifatida taklif etilgan. Shu qatorda, maqola hozirgi zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda kommunikativ til o'qitish tamoyillarini tibbiy ta'limga integratsiya qilishni maqsad qilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Hutchinson, T. & Waters, A.,English for Specific Purposes: A learner-centered approach, Cambridge University Press, 1987, p 183
2. Bojovic, M.,Teaching foreign languages for specific purposes: Teacher development, The proceedings of the 31st Annual Association of Teacher Education in Europe,2006, pp. 487-493
3. Serjeantson , M.S. (1935) A History of Foreign Words in English. London : Routledge and Kegan Paul .
4. Methold , K. and Methold , C. (1975) . Practice in Medical English. London : Longmans .

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. Parkinson ,J.(1976) A Manual of English for the Overseas Doctor . Churchill : Livingston
6. Harmer, J.,The practice of English language teaching (3rd edition). Essex: 2001, p.371
7. Jinendra Jain, 'Communicative English Language Teaching: It's Concurrent Relevance – An overview' , ELTWeekly Vol. 4 Issue#28 | July 9, 2012 | ISSN 0975-3036
8. Pavel, E. (2014). Teaching English for Medical Purposes. Bulletin of the Transilvania University of Braşov, Series VII: Social Sciences • Law, 7(56), 39–46. Retrieved from
9. Gamal M. A. Abdullah. Strategies and Approaches for Teaching and Learning of Medical Terminology., International Journal of English and Education ISSN: 2278-4012, Volume:2, Issue:2, APRIL 2013

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Butunbayeva Aziza Sayfullo qizi**, doktorant [**Бутунбаева Азиза Сайфулло кизи**,докторант], [**Aziza S. Butunbayeva,** doctoral student]; manzil: 100173, Toshkent, Uchtepa tumani, Kichik Halqa Yo'li ko'chasi, 21A, [адрес: 100173, Ташкент, Учтепинский район, ул. Малая кольцевая дорога, 21а], [address: 21a Malaya Koltsevaya Doroga str., Uchtepa district, Tashkent, 100173]

✉**Gulyamova Mavluda Xamitovna**, dotsent [**Гулямова Мавлуда Хамитовна**,доцент], [**Mavluda X. Gulyamova,** associate professor]; manzil: 100173, Toshkent, Uchtepa tumani, Kichik Halqa Yo'li ko'chasi, 21A, [адрес: 100173, Ташкент, Учтепинский район, ул. Малая кольцевая дорога, 21а], [address: 21a Malaya Koltsevaya Doroga str., Uchtepa district, Tashkent, 100173]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

ADABIY SAVODXONLIKNI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI

© N.S. Duschanova[1]✉
[1]Urganch RANCH texnologiya universiteti, Urganch, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada adabiy savodxonlik tushunchasining zamonaviy ta’limdagi o‘rni, uni shakllantirish va baholash jarayonidagi metodologik muammolar tahlil qilinadi. Adabiy savodxonlikning pedagogik va psixolingvistik yondashuvlari asosida ochib berilishi, ularni umumiy va funksional savodxonlikdan farqlovchi jihatlar yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — adabiy savodxonlik tushunchasining mazmunan aniqligini ta’minlash, baholash mezonlaridagi xilma-xillikni tizimlashtirish va adabiy ta’limda ilm-amaliyot uzviyligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi metodologik yondashuvlarni taklif etishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda xalqaro va mahalliy manbalar, pedagogik va psixolingvistik qarashlar, shuningdek zamonaviy baholash tizimlari (PISA, PIRLS) asosida adabiy savodxonlikni tadqiq etishdagi metodologik muammolar tahlil qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar adabiy savodxonlikni faqat matnni o‘qish va tushunish emas, balki tanqidiy tahlil, shaxsiy interpretatsiya, estetik baholash kabi ko‘nikmalarning majmui sifatida yondashish zarurligini ko‘rsatdi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va amaliy ta’lim o‘rtasidagi tafovutlar tahlil qilindi.

XULOSA: adabiy savodxonlikni zamonaviy talablarga mos metodologik yondashuvlar orqali shakllantirish va baholash zarurati mavjud. Bu jarayonda fanlararo yondashuv, pedagogik nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: adabiy savodxonlik, metodologiya, pedagogik yondashuv, psixolingvistika, kritik o‘qish, baholash mezonlari, estetik tafakkur, adabiy tahlil, ta’lim amaliyoti, tanqidiy fikrlash.

Iqtibos uchun: Duschanova N.S. Adabiy savodxonlikni tadqiq etishning metodologik muammolari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.91–101.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЛИТЕРАТУРНОЙ ГРАМОТНОСТИ

© Н.С. Дусчанова[1]✉
[1]Ургенчский технологический университет Ранч, Ургенч, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются методологические основы и проблемы исследования литературной грамотности в современном образовании. Раскрываются различия литературной грамотности по сравнению с общей и функциональной, подчёркивается её значимость в развитии критического и эстетического мышления учащихся.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — уточнение содержания понятия «литературная грамотность», систематизация критериев её оценки и разработка методологических подходов, способствующих сближению научной теории и образовательной практики.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы данные международных (PISA, PIRLS) и отечественных исследований, анализ педагогических и психолингвистических теорий, а также критическое осмысление современных подходов к оценке литературной грамотности.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обсуждение показало необходимость трактовки литературной грамотности как совокупности навыков: от анализа и интерпретации до эстетической оценки и критического восприятия текста. Также выявлены расхождения между научной методологией и школьной практикой.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: формирование литературной грамотности требует комплексного методологического подхода, сочетающего теоретические основания и практическую реализацию с учетом современных образовательных требований и междисциплинарных связей.

Ключевые слова: литературная грамотность, методология, педагогический подход, психолингвистика, критическое чтение, критерии оценки, эстетическое мышление, литературный анализ, образовательная практика, критическое мышление.

Для цитирования: Дусчанова Н.С. Методологические проблемы исследования литературной грамотности.// Inter education & global study.2025. Vol.3 №6(1). С. 91–101.

METHODOLOGICAL PROBLEMS OF LITERARY LITERACY RESEARCH

© Nilufar S. Duschanova[1]✉
[1] Urgench RANCH University of Technology, Urgench, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article explores the methodological foundations and challenges of researching literary literacy within modern education. It distinguishes literary literacy from general and functional literacy, highlighting its importance in fostering critical and aesthetic thinking among learners.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

AIM: the main aim of the study is to clarify the conceptual framework of literary literacy, systematize diverse assessment criteria, and propose methodological approaches that bridge the gap between academic theory and teaching practice.

MATERIALS AND METHODS: the research draws upon international (PISA, PIRLS) and local sources, incorporating pedagogical and psycholinguistic perspectives, and critically examines current literacy assessment practices.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings emphasize that literary literacy encompasses not only reading comprehension but also critical analysis, personal interpretation, and aesthetic evaluation. The study identifies disconnections between theoretical research and classroom implementation.

CONCLUSION: developing literary literacy requires a comprehensive methodological approach integrating interdisciplinary perspectives and aligning scientific insights with educational realities to meet the demands of 21st-century learning.

Keywords: literary literacy, methodology, pedagogical approach, psycholinguistics, critical reading, assessment criteria, aesthetic thinking, literary analysis, educational practice, critical thinking.

For citation: Nilufar S. Duschanova. (2025) 'Methodological problems of literary literacy research', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.91–101. (In Uzbek).

Adabiy savodxonlik tushunchasi zamonaviy ta'lim tizimida muhim pedagogik va lingvistik kategoriyalardan biri sifatida namoyon bo'lib, uning mazmunini to'g'ri tushunish va ilmiy asosda izohlash ta'lim jarayoni samaradorligi uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tushunchaga berilgan ta'riflar fanlararo yondashuv asosida shakllanadi va ayniqsa, pedagogika hamda psixolingvistika nuqtai nazaridan alohida tahlil etiladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, adabiy savodxonlik – bu o'quvchining adabiy matnni to'g'ri o'qishi, mazmunini anglashi, tahlil qilishi, badiiy vositalarni farqlay olishi, obrazlarni idrok etishi va ular orqali muayyan ijtimoiy-ma'naviy g'oyalarni anglash qobiliyatidir. U adabiyot fani orqali shaxsning ma'naviy-axloqiy qarashlari, estetik didi va ijodiy tafakkurini shakllantirishda asosiy vazifani bajaradi. Shu nuqtai nazardan, adabiy savodxonlikni tarbiyalash nafaqat bilim berish, balki shaxsning faol pozisiyasini rivojlantirish, mustaqil fikr yuritish, bahslashish, mulohaza yuritish, axloqiy xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Psixolingvistik jihatdan esa adabiy savodxonlikni til va fikr o'rtasidagi munosabatni tushunish qobiliyati sifatida baholash mumkin. Ushbu yondashuvda adabiy matnni qabul qilish, anglash va qayta ishlash jarayonlari markaziy o'rin tutadi. Matnni o'qish jarayonida o'quvchining kognitiv faolligi, tafakkur operatsiyalari, his-tuyg'ulari va til qobiliyati faollashadi. Psixolingvistlar adabiy savodxonlikni miyadagi tilni qayta ishlash mexanizmlari bilan bog'laydi, ya'ni inson ma'lumotni qanday kodlaydi, anglaydi va qayta tuzadi – aynan shu jarayonlar adabiy matnni idrok etishda namoyon bo'ladi. Masalan, F.Rozenblattning interaktiv o'qish nazariyasiga ko'ra, o'quvchi matn bilan muloqotga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kirishadi va undagi ma’lumotni shaxsiy bilimlari, tajribasi va ma’naviy dunyoqarashi bilan bog‘lab qayta tahlil qiladi. [1; 24-28]

Adabiy matnlar inson qalbi va tafakkuriga ta’sir ko‘rsata oladigan kuchli tarbiyaviy vosita sifatida qaraladi. Ularda aks etgan hayotiy voqelik, tarixiy obrazlar, axloqiy muammolar, shaxslararo munosabatlar va insoniy qadriyatlar o‘quvchining ma’naviy rivojiga, hayotga munosabatiga bevosita ta’sir etadi. Shu ma’noda, adabiy savodxonlikni shakllantirish ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarga suyangan holda amalga oshirilsa, u nafaqat bilim, balki ruhiy kamolga erishish vositasiga aylanadi. Ma’naviyat va ma’rifatga asoslangan o‘quv muhitida o‘quvchi adabiy obrazlar orqali yaxshilik va yomonlik, adolat va zolimlik, insonparvarlik va befarqlik kabi tushunchalarni anglab, hayotga teranroq munosabat shakllantiradi.

Umuman, savodxonlik – insonning ijtimoiy hayotda to‘laqonli ishtirok etishi, axborotni qabul qilishi, qayta ishlashi va undan foydalana olishi uchun zarur bo‘lgan asosiy qobiliyatlar majmuini ifoda etadi. Bu atama ta’lim sohasida keng qo‘llanilib, vaqt o‘tishi bilan mazmunan boyib, turli yo‘nalishlarda shakllangan qator shakllarga bo‘lingan. Xususan, umumiy savodxonlik, funksional savodxonlik va adabiy savodxonlik kabi tushunchalar bir-biridan farqli ma’nolarga ega bo‘lib, ular har xil bilim, ko‘nikma va faoliyat turlarini qamrab oladi.

Umumiy savodxonlik insonning yozish va o‘qishni bilishi, ya’ni alifboni egallaganligi, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, qisqa matnlarni o‘qish va yozish qobiliyatini anglatadi. Bu savodxonlik darajasi ta’limning boshlang‘ich bosqichida shakllanib, o‘quvchining keyingi ta’lim bosqichlariga asos bo‘ladi. Umumiy savodxonlik bazaviy ko‘nikmalarni qamrab olganligi bois, ko‘pincha texnik jihatdan savodlilikni ifoda etadi va murakkab ma’noli matnlarni tushunish, tahlil qilish darajasini talab etmaydi.

Funksional savodxonlik esa insonning turmushda, kasbiy faoliyatda va ijtimoiy munosabatlarda axborotni o‘qish, tushunish va undan maqsadga muvofiq foydalana olish qobiliyatini ifoda etadi. Uning doirasi umumiy savodxonlikdan keng bo‘lib, o‘quvchi va katta yoshdagi insonning kundalik hayotda uchraydigan hujjatlar, ko‘rsatmalar, e’lonlar, axborot manbalari bilan ishlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Masalan, bankda hujjat to‘ldirish, dorining yo‘riqnomasini tushunish yoki saylov byulletenini to‘g‘ri o‘qish funksional savodxonlikning ko‘rinishlaridir. Funksional savodxonlik insonning mustaqil faoliyat ko‘rsatishi va jamiyatda faol ishtirok etishi uchun zarur sharti hisoblanadi.

Adabiy savodxonlik esa ma’lum bir badiiy matnni faqat texnik jihatdan o‘qib chiqish emas, balki uning tuzilishi, badiiy-obrazli ifodasi, g‘oyaviy-estetik mazmunini tushunish, talqin qilish va undan ma’naviy xulosa chiqara olish qobiliyatini anglatadi. Bu savodxonlik turi o‘quvchining adabiy tafakkurini, estetik didini va ijtimoiy-axloqiy pozisiyasini shakllantiradi. Adabiy savodxon shaxs o‘z ona tili va adabiyotini chuqur anglagan, badiiy vositalarni farqlaydigan, muallifning g‘oyaviy pozisiyasini his etadigan, adabiy matnni ijodiy qabul qiladigan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiy savodxonlikni tadqiq etish jarayonidagi asosiy metodologik muammolardan biri — bu tushunchaning mazmuniy aniqligi yetishmasligi va ilmiy manbalarda u turlicha

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

talqin etilayotganidir. Ilmiy adabiyotlarda, metodik qo‘llanmalarda va ta’lim dasturlarida “adabiy savodxonlik” tushunchasi yagona va standart ta’rif bilan emas, balki turlicha yondashuvlar orqali sharhlanadi. Bu esa tadqiqotlarda tushunchalarni qiyoslash va metodologik asoslarni aniqlashda muayyan noaniqliklarga olib keladi.

Masalan, ba’zi tadqiqotchilar adabiy savodxonlikni matnni o‘qish va tushunish qobiliyati bilan chegaralaydilar. Ularga ko‘ra, adabiy savodxon shaxs badiiy matnni to‘liq va benuqson o‘qiy oladi, uning umumiy mazmunini anglaydi. Bu yondashuvda savodxonlik ko‘proq texnik va yuzaki darajada baholanadi. Matnni faqat o‘qish va tushunish bilan cheklangan yondashuv ko‘pincha savodxonlikni texnik qobiliyat darajasida baholaydi. Bu nuqtai nazar, xususan, umumta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan dasturlar va PISA baholash mezonlari tahlil etilgan manbalarda keltiriladi. [2; 45-46]

Biroq boshqa tadqiqotchilar adabiy savodxonlikni matnni tahlil qilish, badiiy vositalarni anglash, g‘oyaviy-estetik mazmunni idrok etish qobiliyati bilan bog‘laydilar. Masalan, AQSHda adabiy savodxonlik tushunchasi “critical literacy” — ya’ni tanqidiy o‘qish qobiliyati bilan bog‘langan holda talqin etiladi, bu esa o‘quvchining matn ortidagi ma’noni izlash, muallif pozisiyasini tanqidiy anglash qobiliyatini nazarda tutadi. Shuningdek, Rossiya tadqiqotchilari orasida ham “badiiy savodxonlik” va “adabiy bilim” tushunchalarini bir-biridan farqli qarashlar bilan izohlash holatlari uchraydi.

Adabiy savodxonlikni chuqur tushunish, tahlil qilish va tanqidiy fikrlash bilan bog‘laydigan yondashuv esa “critical literacy” tushunchasi orqali keng sharhlangan. Bu qarashlar AQSHdagi ta’lim tadqiqotchilaridan Li Edna, Frir Paulo va Lyuk Alan kabi mualliflarning ishlarida uchraydi. [3]

Rossiya tadqiqotchilari orasida adabiy savodxonlik va badiiy bilim tushunchalarini farqlash tendensiyasi mavjud. Ayniqsa, Ye.V.Solovyova va G.F.Cherednichenko o‘z tadqiqotlarida ushbu masalalarga to‘xtalishgan. [4; 59-61]

Ushbu fikrlarga misol tariqasida keltirishimiz mumkinki, A.Qahhorning “Dahshat” hikoyasini o‘qish va uning mazmunini qayta hikoya qilish topshiriq sifatida berilsa, bu o‘quvchining matnni to‘g‘ri tushunishiga asoslangan texnik yondoshuvni ifoda etadi. Ammo shu hikoyadagi qahramonning ruhiy holati, muallifning falsafiy pozisiyasi yoki yozuv usulini tahlil qilish topshirilsa, bu adabiy savodxonlikning chuqurroq, mazmunan boy qirrasini talab etadi.

Ushbu tafovutlardan kelib chiqib, tadqiqotchi “adabiy savodxonlik”ni qaysi mezonlar asosida baholashini avvaldan aniq belgilab olmasa, ilmiy tadqiqotning mazmuniy aniqligiga putur yetadi. Shuning uchun metodologik jihatdan muhim vazifalardan biri – tushunchaning mazmunini izchil, tizimli va ilmiy asosda belgilashdir.

Demak, adabiy savodxonlikni tadqiq etishdagi mazmuniy aniqlikning yetishmasligi uning chegaralarini, mezonlarini va baholash vositalarini turlicha talqin etilishga olib kelmoqda. Bu esa tadqiqotlar samaradorligi va natijalarning solishtirilishida metodologik muammolarni keltirib chiqaradi. Shunday ekan, ushbu tushunchani aniq kategoriyaviy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

doirada, pedagogik va lingvistik nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqish va standartlashtirish zarurati tug‘iladi.

Adabiy savodxonlikni tadqiq etishdagi asosiy metodologik muammolardan biri — uni baholash va o‘lchash mezonlarining turlichaligidir. Bu muammo ilmiy yo‘nalishlar, ta’lim darajalari, milliy ta’lim standartlari va xalqaro baholash tizimlarida har xil yondashuvlar qo‘llanilayotgani bilan bog‘liq. Natijada, adabiy savodxonlikni aniq va standart mezonlar asosida baholash imkoniyati cheklangan bo‘lib, ushbu tushunchaning mazmuniy doirasi ham turlicha talqin qilinadi.

Adabiy savodxonlikni baholashda ayrim tizimlar o‘quvchining matnni o‘qish tezligi, so‘z boyligi, grammatik to‘g‘rilik kabi texnik ko‘nikmalarini asosiy mezon sifatida ko‘radi. Masalan, umumta’lim maktablaridagi an’anaviy baholashda badiiy matnni ovoz chiqarib to‘g‘ri o‘qish, qayta hikoya qilish va so‘zma-so‘z mazmunini tushuntirish asos qilib olinadi. Bu esa, aslida, umumiy savodxonlik yoki funksional savodxonlikning elementlariga yaqin bo‘lib, adabiy savodxonlikning chuqur tahlil, estetik anglash, badiiy obrazlardan xulosa chiqara olish kabi muhim ko‘nikmalarini qamrab olmaydi.

Shu bilan birga, PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari adabiy savodxonlikni matnning mazmunini tushunish, ma’no izlash, xulosa chiqarish va tanqidiy munosabat bildirish qobiliyati asosida baholaydi. Masalan, PIRLS dasturida o‘quvchilardan nafaqat matnni anglash, balki undagi fikrlar, emosional ton, muallif niyati va xarakterlar orasidagi munosabatni tushunish talab qilinadi. Bu yondashuv tanqidiy o‘qish qobiliyatiga tayanadi va shaxsiy tafsirni o‘zida aks ettiradi. Xalqaro mezonlarning bunday keng qamrovliligi ularning metodologik asoslarini boyitsa-da, ularni mahalliy ta’lim muhitiga moslashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Boshqa tarafdan, ayrim tadqiqotchilar adabiy savodxonlikni baholashda sub’yektiv mezonlarni asos qilib olganlar. Masalan, o‘quvchining fikrlarining ijodiyligi, badiiy tahlili, hissiy munosabati kabi jihatlar ham hisobga olinadi. Bu esa baholash jarayonini nisbatan sub’yektivlashtiradi, chunki har bir o‘qituvchi yoki tadqiqotchi ijodiylik va estetik idrok darajasini turlicha baholashi mumkin. Natijada, adabiy savodxonlikni baholashda yagona va barqaror mezonlarning yo‘qligi ilmiy tadqiqotlarda solishtirma tahlil o‘tkazishni qiyinlashtiradi. Har bir tizim va tadqiqot o‘ziga xos mezonlarga tayangani sababli, ular asosida chiqarilgan xulosalar umumlashtirilgan, universal qiymatga ega natijalarni berishga to‘liq kafolat bermaydi.

Shuning uchun zamonaviy metodologiyada adabiy savodxonlikni baholash mezonlarini kompleks yondashuv asosida belgilash, ya’ni texnik ko‘nikmalar, mazmun anglash, tahlil qilish, ijodiy munosabat bildirish va estetik baholash kabi omillarni uyg‘un tarzda qamrab oluvchi baholash tizimlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bunday yondashuv adabiy savodxonlikni to‘liq qamrab olgan, barqaror va ob’yektiv baholash modelini yaratish imkonini yaratadi.

Adabiy savodxonlikni shakllantirish va baholash borasidagi ilmiy tadqiqotlar ko‘p hollarda nazariy jihatdan mukammal bo‘lsa-da, ularning ta’lim amaliyotida keng qo‘llanilishida jiddiy uzilishlar kuzatiladi. Bu holat neyropedagogik, psixolingvistik va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kognitiv tadqiqotlarda belgilangan ilmiy xulosalarning maktab ta’lim tizimidagi voqelikka to‘liq mos kelmasligi, ya’ni ilm va amaliyot o‘rtasida yetarli uzviylik ta’minlanmagani bilan bog‘liqdir.

Ilmiy tadqiqotlarda adabiy savodxonlik ko‘p hollarda kompleks yondashuvda – badiiy matnni tushunish, tahlil qilish, g‘oyaviy-estetik mazmunni anglash, muallif pozisiyasini idrok etish, obrazlar tizimini talqin qilish, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘lash kabi ko‘p bosqichli bilim va ko‘nikmalar majmui sifatida tasvirlanadi. Bu qarashlar asosida ilmiy asoslangan turli modellar, metodik yondashuvlar va baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Biroq maktab ta’limi amaliyotida ko‘pincha bunday ilmiy asoslar to‘liq hisobga olinmaydi. Darsliklar va o‘quv dasturlari ko‘p hollarda ma’lumot berishga, syujetni qayta so‘zlashga, oddiy savol-javob shaklidagi muloqotga asoslanadi. Badiiy tahlil, ijodiy fikrlash, estetik baholash, tanqidiy o‘qish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yetarlicha sharoit yaratilmagan. O‘qituvchilarning ham barchasi adabiy savodxonlikni shakllantirishning ilmiy asoslari bilan tanish emas, ko‘pincha o‘z shaxsiy tajribasi yoki metodik qo‘llanmalarga tayanadi.

Bu uzilishning yana bir sababi – ilmiy tadqiqotlar tili bilan ta’lim amaliyoti tili o‘rtasidagi farqdir. Ilmiy manbalarda foydalaniladigan atamalar, tushunchalar va metodologik yondashuvlar amaliyotchilar uchun murakkab va ba’zan tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ilmiy tavsiyalar aksar vaqt umumiy, nazariy yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, maktab ta’limidagi aniq sinf, yosh va malaka darajasi uchun moslashtirilmagan bo‘ladi.

Amaliyotdagi yana bir muammo — adabiy savodxonlikni o‘lchash vositalarining ilmiy tahlilga emas, balki baholash uchun qulay bo‘lgan standart test va formal yondashuvlarga asoslanishi. Bu esa ilmiy metodologiyada belgilangan tushunish, tahlil qilish, ijodiy izlanish va interpretatsiya qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv faollikni talab qiluvchi ko‘nikmalarni chalkash va kech shakllanishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun, bizningcha, ilmiy tadqiqot natijalari va ta’lim amaliyoti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

ilmiy yondashuvlarni amaliyotchi o‘qituvchilar uchun sodda, tushunarli va qo‘llaniladigan shaklda taqdim etish;

darslik va metodik qo‘llanmalarni ilmiy asoslarga muvofiq ravishda qayta ishlash;

o‘qituvchilar malakasini oshirishda adabiy savodxonlikni shakllantirishning metodologik asoslarini o‘rgatish.

Shu tarzda, ta’limda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ta’minlansa, adabiy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar real o‘quv muhitida o‘z samarasini ko‘rsatishi mumkin. Bu esa pedagogik tajriba va fanning uyg‘unligini ta’minlaydigan muhim omil hisoblanadi.

Adabiy savodxonlikni shakllantirish va o‘rganish borasida dunyo ilm-fanida bir qator taniqli olimlar nazariy asoslarni ilgari surgan. Ular o‘z asarlarida ta’lim, savodxonlik va o‘qish jarayoniga nisbatan turli nazariy qarashlarni bayon qilganlar. Ushbu g‘oyalar adabiy savodxonlikni faqat o‘qish ko‘nikmasi emas, balki insonning tafakkuri, ijtimoiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

faolligi va shaxsiy pozisiyasini shakllantiruvchi murakkab jarayon sifatida qarash imkonini beradi.

Jon Dyui (J.Dewey) o‘zining “Democracy and Education” asarida ta’limni demokratik jamiyatning asosiy instituti sifatida baholab, o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida ko‘radi. [5] Uning fikricha, o‘quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qilmasligi, balki uni faol izlab, tushunib, hayot bilan bog‘lab o‘zlashtirishi zarur. Bu g‘oya adabiy savodxonlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri daxldor bo‘lib, matnni faol talqin qilish, shaxsiy munosabat bildirish, hayotiy xulosalar chiqarish salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Dyuining ushbu qarashi adabiy savodxonlikni ijtimoiy-faol jarayon sifatida ko‘rishga turtki beradi.

Lev Semyonovich Vыgotskiy esa ta’limda ijtimoiy muhit va nutq faoliyatining o‘rniga alohida e’tibor qaratadi. Uning “Мышleniye i rech” asarida ta’kidlanishicha, bola nutq va tafakkur orqali jamiyatdagi tajribani o‘zlashtiradi va bu jarayonda o‘qish muhim vosita hisoblanadi Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quvchi yangi bilimni mustaqil egallash darajasiga yetishi uchun unga malakali yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi yetuk o‘qituvchi zarur. [6] Darhaqiqat, adabiy savodxonlikni shakllantirishda bu qarash metodik yondashuvning asosiy omillaridan biri bo‘lib, o‘quvchining mustaqil mulohaza yuritish salohiyatini qadamma-qadam shakllantirishga yo‘naltiriladi. Bu fikrni juda muhim metodologik asos sifatida baholash mumkin.

Frensin Rozenblatt (Louise Rosenblatt) “Literature as Exploration” asarida adabiy matnni tushunish jarayonida o‘quvchi va matn o‘rtasidagi shaxsiy aloqani birinchi o‘ringa qo‘yadi. Uning “response theory” (talqin etuvchi o‘quvchi nazariyasi)ga ko‘ra, adabiy savodxonlik faqat matndagi mazmunni anglash emas, balki uni o‘quvchining shaxsiy tajribasi bilan bog‘lash qobiliyatidir. [7] Bizningcha, ushbu yondashuvda har bir o‘quvchi adabiy matnni o‘ziga xos tarzda qabul qilishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Rozenblattning bu qarashi o‘quvchining fikriy va hissiy faolligini rag‘batlantiradi va adabiy savodxonlikni shaxsiy ma’no yaratish jarayoni sifatida tushunishga imkon beradi. Bu fikrga katta qiziqish bilan qarash kerak, chunki u ta’limda individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Paulo Frire (Paulo Freire) esa “Pedagogy of the Oppressed” asarida savodxonlikni ijtimoiy va siyosiy faollikni shakllantiruvchi vosita sifatida ko‘radi. Uning fikricha, o‘quvchi jamiyatda faol fuqaro bo‘lishi uchun tanqidiy fikrlay olishi, matndagi g‘oyalar va muallifning pozisiyasini anglay olishi zarur. Frirega ko‘ra, ta’lim bir yo‘nalishli axborot uzatish emas, balki muloqotga asoslangan, teng huquqli ijtimoiy jarayon bo‘lishi kerak. [8] Adabiy savodxonlikni rivojlantirishda Frirening qarashlari o‘quvchilarning tanqidiy o‘qish qobiliyatini rivojlantirish, ularni ijtimoiy faollikka undash nuqtai nazaridan ayni muddaodir. Bu yondashuvni men juda taassurotli va g‘oyaviy qudratga ega deb hisoblayman.

Ushbu taniqli olimlarning nazariy qarashlari adabiy savodxonlikni faqat lingvistik ko‘nikma sifatida emas, balki inson ongi, tafakkuri, ijtimoiy dunyoqarashi va faolligini shakllantiruvchi murakkab jarayon sifatida ko‘rish imkonini beradi. Bu qarashlar asosida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar ta’limda mazmun, maqsad va shakllarni qayta ko‘rib chiqishga turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiy savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda mahalliy tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib, ushbu yo‘nalishda bir qator nazariy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Adabiyotni o‘qitish metodikasi, o‘quvchilarda kitobxonlikni rag‘batlantirish, ma’no anglash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida estetik didni shakllantirish masalalari mahalliy ilmiy tadqiqotlarda alohida o‘rin egallaydi. Quyida mahalliy olimlarning adabiy savodxonlik borasidagi qarashlari, adabiy savodxonlikka oid yondashuvlar, muammolar va yechimlar borasida tahliliy mulohazalarni bayon qilamiz.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar adabiy savodxonlikni rivojlantirish va uning metodik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu tadqiqotlar o‘quvchilarning adabiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, hamda adabiy ta’limning samaradorligini yuksaltirishga qaratilgan.

B.To‘xliyevning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” asari adabiy ta’lim sohasidagi muhim tadqiqotlardan biri bo‘lib, u adabiyot darslarini samarali tashkil etish, o‘quvchilarda adabiy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan metod va usullarni tahlil qiladi. [9; 116] Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri adabiy savodxonlikni shakllantirishdir. Muallifning fikricha, adabiy savodxonlik nafaqat matnni o‘qish va tushunish, balki uni tahlil qilish, baholash va undan xulosa chiqarish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu qobiliyatlarni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishlari zarur.

Adabiyot o‘qitishda samarali metod va usullardan biri interaktiv usullardir. Tadqiqotda o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta’minlash uchun interaktiv usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, guruhlarda ishlash, munozaralar tashkil etish, rolli o‘yinlar o‘tkazish kabi usullar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Muallif adabiy matnlarni badiiy tahlil qilish orqali o‘quvchilarning asar mazmunini chuqurroq tushunishi, qahramonlar xarakterini anglashi va muallifning asosiy g‘oyasini idrok etishiga yordam berish usullarini yoritadi. Bu jarayonda matnning strukturasini, til vositalarini va badiiy obrazlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

B.To‘xliyev mulohazaviy o‘qishni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning matn ustida mulohaza yuritishi, o‘z fikrlarini erkin ifoda etishi va asarga shaxsiy munosabatini shakllantirishga qaratilgan. Masalan, o‘quvchilarga matn haqida savollar berish, muallifning pozisiyasini muhokama qilish, matnning dolzarbligini baholash kabi faoliyatlar mulohazaviy o‘qishni rivojlantiradi. Muallif, shuningdek, adabiy savodxonlikning muhim aspektlariga to‘xtalib o‘tadi. O‘quvchilarda badiiy asarlarning go‘zallik jihatlarini anglash, ulardan zavq olish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Bu orqali ular san’at va adabiyotga nisbatan hurmat va qiziqish hislarini shakllantiradilar. Asar mazmunini tahlil qilish, qahramonlar harakatlariga baho berish va muallifning

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

pozisiyasini anglash qobiliyatlarini oshirish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Bu qobiliyatlar ularga nafaqat adabiyotda, balki kundalik hayotda ham muhimdir. O‘quvchilarni insho va esseler yozishga yo‘naltirish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir. Bu faoliyatlar o‘quvchilarning fikrlarini aniq va ravon ifoda etish, tasavvur va fantaziyalarini kengaytirish, shuningdek, o‘z fikrlarini yozma shaklda bayon qilish qobiliyatlarini oshiradi.

Safo Matchonning “Kitob o‘qishni bilasizmi?” asari kitobxonlik madaniyati, uning jamiyat va shaxs rivojidagi ahamiyati, shuningdek, to‘g‘ri mutolaa qilish usullari haqidagi fikrlarni o‘z ichiga oladi. Muallif kitob o‘qishning nafaqat bilim olish, balki insonning ma’naviy va axloqiy kamolotiga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. [10; 160]

S.Matchon asarida kitobxonlik orqali insonning fikrlash doirasi kengayishi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanishi va axloqiy qadriyatlarga hurmat shakllanishi mumkinligini ta’kidlaydi. U kitob o‘qishni insonning ijtimoiy faolligi va shaxsiy mas’uliyatini oshirishda muhim omil sifatida ko‘radi.

Muallif, shuningdek, kitob tanlash va uni o‘qish madaniyatiga ham e’tibor qaratadi. U kitobxonlikni faqat o‘qish emas, balki o‘qilgan asarni tahlil qilish, undan xulosalar chiqarish va hayotga tadbiq etish qobiliyati sifatida ta’riflaydi.

Umuman olganda, “Kitob o‘qishni bilasizmi?” asari kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, uning shaxs va jamiyat rivojidagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan muhim manba hisoblanadi.

Qozoqboy Yo‘ldoshevning “O‘qituvchi kitobi: 7-sinf o‘zbek adabiyoti darslik-majmuasi uchun metodik qo‘llanma” (1997) kitobi 7-sinf o‘zbek adabiyoti darsligi bo‘yicha o‘qituvchilar uchun metodik ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qo‘llanma darslarni samarali tashkil etish, adabiy asarlarni o‘qitishda zamonaviy metod va usullarni qo‘llash, o‘quvchilarning adabiy savodxonligini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Qozoqboy Yo‘ldoshev va Muhayyo Yo‘ldoshevalarning “Badiiy tahlil asoslari” (2016) asari esa adabiy asarlarni tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi. Mualliflar badiiy asarlarning mazmuni, shakli, obrazlar tizimi, til va uslub xususiyatlarini tahlil qilish usullarini batafsil tushuntirib, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va estetik didni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalarni taqdim etadilar. [11; 464]

Bu asarlar adabiyot o‘qituvchilari va tadqiqotchilari uchun muhim manba bo‘lib, adabiy ta’limda zamonaviy metod va yondashuvlarni qo‘llashda qo‘l keladi.

Marg‘uba Mirqosimovaning “O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari” mavzusidagi tadqiqoti adabiy ta’lim metodikasi sohasida muhim o‘rin tutadi. Unda o‘quvchilarda adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, adabiy savodxonlikni tadqiq etishda bir qator metodologik muammolar mavjud bo‘lib, ular avvalo tushunchaning mazmuniy aniqligi va yagona ta’rifining yo‘qligi, kategoriyaviy qarashlar turliligi, baholash mezonlarining sub’yektivligi va ilm-amaliyot o‘rtasidagi uzilishlar bilan bog‘liq. Mahalliy va xalqaro tadqiqotlarda adabiy savodxonlik turlicha talqin qilinadi — ayrimlar uni faqat o‘qish va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tushunish ko‘nikmasi sifatida ko‘rsa, boshqalar tanqidiy fikrlash, ma’no anglash va ijodiy talqin qilish salohiyati bilan bog‘laydi. Zaman talablari esa raqamli o‘qish, mediasavodxonlik, kognitiv va neyropedagogik yondashuvlar, NLP va tekst mayning kabi yangi texnologiyalarni tadqiqotlarga jalb etishni taqozo qilmoqda. Milliy mentalitet, adabiy meros va interfaol ta’lim modellari bilan uyg‘unlashgan holda adabiy savodxonlikni o‘rganish masalasi kompleks, tizimli va fanlararo yondashuvni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Rosenblatt Louise M. Literature as Exploration. – New York: Modern Language Association, 1938 (rev. ed. 1995), p. 24–28.
2. Dunin Ye.F. Sovremennaya shkolnaya filologiya: uchebno-metodicheskoye posobiye. – Moskva: Akademiya, 2017, b. 45–46.
3. Luke A., Freebody P. Critical Literacy: The Hidden Curriculum of Language Teaching. – In: Muspratt S. et al. (eds). Constructing Critical Literacies. – Cresskill, NJ: Hampton Press, 1997, p. 220–241.; Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 2015, p. 80–83.
4. Solovyova Ye.V. Formirovaniye literaturnoy gramotnosti shkolnikov. – Moskva: Prosvещyeniye, 2016, b. 32–35.; Cherednichenko G.F. Teoriya i metodika literaturnogo obrazovaniya. – Sankt-Peterburg: Lan, 2020, b. 59–61.
5. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
6. Vыgotskiy L.S. Mыshleniye i rech. – Moskva: Pedagogika, 1982.
7. Rosenblatt L. Literature as Exploration. – New York: Modern Language Association, 1998.
8. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 2015.
9. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 152 b. 116.
10. Safo Matchon. Kitob o‘qishni bilasizmi?- T.; O‘qituvchi,1993, 160 b.
11. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016. – 464 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Duschanova Nilufar Sabirbayevna**,dotsent [**Дусчанова Нилуфар Сабирбаевна**, доцент], [**Duschanova Nilufar Sabirbayevna,** associate professor,]; manzil: 220106, Xorazm viloyati, Urganch, Xanka ko'chasi, 26, [адрес: 220106, Хорезмская область, Ургенч, ул. Ханка, 26], [address: 26 Khanka Street, Urgench, Khorezm region, 220106]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA REAL VAQT TIZIMLARI FANINING MASOFAVIY O‘QITISH MODELI

© O.M. Ergashev[1]✉
[1]Farg‘ona davlat texnika universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada raqamli ta’lim texnologiyalari asosida “Real vaqt tizimlari” fanining masofaviy o‘qitish modeli ishlab chiqilib, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — texnik yo‘nalishdagi “Real vaqt tizimlari” fanini masofaviy formatda samarali o‘qitish modelini yaratish va innovatsion raqamli texnologiyalar yordamida bilimlarni o‘zlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda Moodle platformasi, LMS tizimi, virtual laboratoriyalar, videodarslar va avtomatlashtirilgan baholash vositalaridan foydalangan holda masofaviy o‘qitish modeli ishlab chiqildi va eksperimental sinovlar asosida uning samaradorligi baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar “Real vaqt tizimlari” fanini raqamli model asosida o‘qitish talabalarning bilim darajasi va amaliy faoliyatini sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatdi. Interaktiv vositalar, simulyatsiya texnologiyalari va individual yondashuvlar o‘quv jarayonining sifatini oshirdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar asosidagi masofaviy o‘qitish modeli texnik fanlarni o‘zlashtirishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, uni boshqa o‘quv kurslariga ham tatbiq etish mumkinligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, masofaviy o‘qitish, real vaqt tizimlari, o‘quv modeli, interaktiv ta’lim, LMS, avtomatlashtirilgan baholash, simulyatsiya, innovatsion yondashuv.

Iqtibos uchun: Ergashev O.M. Raqamli ta’lim texnologiyalari asosida real vaqt tizimlari fanining masofaviy o‘qitish modeli. // Inter education & global study. Vol.3 2025. №6(1). B.102–112.

ДИСТАНЦИОННАЯ МОДЕЛЬ СИСТЕМОВЕДЕНИЯ РЕАЛЬНОГО ВРЕМЕНИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ

© О.М. Эргашев[1]✉
[1] Ферганский государственный технический университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается модель дистанционного обучения дисциплине «Системы реального времени» на основе цифровых образовательных технологий, а также её эффективность в учебном процессе.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — разработка эффективной модели дистанционного преподавания технической дисциплины с использованием цифровых ресурсов, направленной на развитие теоретических знаний и практических навыков студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование основано на использовании платформы Moodle, LMS-систем, виртуальных лабораторий, видеолекций и автоматизированной системы оценки. Проведён эксперимент с участием студентов технических специальностей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что применение цифровой модели обучения значительно повысило уровень усвоения материала, активизировало самостоятельную деятельность студентов и улучшило качество образовательного процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование подтвердило, что разработанная модель может быть успешно применена при преподавании технических дисциплин в дистанционном формате и обладает высоким уровнем эффективности.

Ключевые слова: цифровое обучение, дистанционное обучение, системы реального времени, модель обучения, интерактивное обучение, LMS, автоматизированная оценка, симуляция, инновационный подход.

Для цитирования: Эргашев О.М. Дистанционная модель системоведения реального времени на основе цифровых технологий обучения.// Inter education & global study.2025. №6(1). Vol.3 С.102–112.

DISTANCE LEARNING MODEL OF REAL-TIME SYSTEMS SCIENCE BASED ON DIGITAL LEARNING TECHNOLOGIES

© Otabek M. Ergashev[1]✉
[1] Fergana State Technical University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article presents a distance learning model for the subject "Real-Time Systems" based on digital education technologies and analyzes its role and effectiveness in the learning process.

AIM: the main aim of the study is to develop an effective digital model for teaching technical subjects remotely, using innovative technologies to enhance knowledge acquisition and practical skills development.

MATERIALS AND METHODS: the study employed Moodle, LMS systems, virtual laboratories, video lessons, and automated assessment tools to build and test the proposed model with a sample of engineering students.

DISCUSSION AND RESULTS: the results demonstrated that the digital approach significantly improved students' understanding, engagement, and independent learning, enhancing the overall quality of education.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

CONCLUSION: the findings confirm that the proposed digital distance learning model can be effectively applied to technical disciplines and can serve as a scalable solution for similar educational contexts.

Keywords: digital learning, distance education, real-time systems, learning model, interactive education, LMS, automated assessment, simulation, innovative approach.

For citation: Otabek M. Ergashev. (2025) 'Distance learning model of real-time systems science based on digital learning technologies', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.102–112. (In Uzbek).

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi ta'lim sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. An'anaviy ta'lim metodlarining cheklovlarini bartaraf etish uchun raqamli vositalar keng miqyosda tatbiq etilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etishda masofaviy ta'lim usullariga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bilan birga, texnik va texnologik yo'nalishlardagi murakkab fanlarni masofadan o'rgatish samaradorligini ta'minlash dolzarb masalaga aylangan. "Real vaqt tizimlari" fani o'zining texnik murakkabligi, amaliy yo'naltirilganligi va vaqt jihatidan sezgir xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu fan bo'yicha talabalar chuqur nazariy bilimga va mustahkam amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Shu sababli, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida samarali masofaviy o'qitish modelini ishlab chiqish ehtiyoji paydo bo'lmoqda.

Raqamli ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonining interaktivligini oshirish, individual yondashuvni ta'minlash va bilimlarni samarali yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Masofaviy ta'lim imkoniyatlari orqali talabalarga istalgan joy va vaqtda bilim olish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonining moslashuvchanligini ta'minlaydi va talabalar faolligini oshiradi. Learning Management System (LMS) platformalari, videodarslar, virtual laboratoriyalar va avtomatlashtirilgan baholash vositalari real vaqt tizimlari fanini o'zlashtirishda qo'llanishi mumkin. Bunday yondashuv, ayniqsa, amaliy topshiriqlar va laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida sezilarli afzalliklarni beradi. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish ham raqamli texnologiyalar orqali samarali yo'lga qo'yiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, "Real vaqt tizimlari" fanini masofaviy formatda o'qitish uchun maxsus pedagogik va texnologik model ishlab chiqish zarurati mavjud.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy o'qitish shakllari an'anaviy o'quv metodlariga nisbatan ko'plab ustunliklarga ega. Jumladan, o'quvchilarning bilim olish tezligi, darsga tayyorlanish darajasi va baholash tizimidagi shaffoflik kabi omillar raqamli vositalar yordamida sezilarli darajada yaxshilanadi. Ammo texnik fanlar, ayniqsa real vaqt tizimlariga oid fanlar uchun bunday yondashuvni to'liq moslashtirish oson emas. Chunki bu fan doirasida ko'plab murakkab modullar, real muhitdagi monitoring va operatsion tizimlar bilan ishlash ko'nikmalari zarur bo'ladi. Shu sababli masofaviy o'qitish modeli nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy topshiriqlarni ham to'liq qamrab olishi kerak. Modelda laboratoriya simulyatsiyalari, virtual test muhiti

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

va real vaqt ilovalari bilan ishlash imkoniyatlari bo‘lishi muhimdir. Bularning barchasi fan mazmunining murakkabligini hisobga olgan holda maxsus integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi.

Olib borilgan tadqiqotda “Real vaqt tizimlari” fanini masofaviy shaklda o‘qitish uchun raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan kompleks yondashuv qo‘llanildi. Dastlab, mavjud o‘quv dasturi tahlil qilinib, uning asosiy komponentlari raqamli formatga o‘tkazishga tayyorlandi. O‘quv materiallari modullarga ajratilib, har bir modul bo‘yicha nazariy va amaliy topshiriqlar ishlab chiqildi. Ushbu modullarga interaktiv videodarslar, testlar, laboratoriya ishlarining simulyatsiyalari va qo‘llanmalar kiritildi. Modelning asosiy elementi sifatida Learning Management System (LMS) – Moodle platformasi tanlandi. Moodle orqali foydalanuvchilarga dars materiallarini taqdim etish, topshiriqlarni qabul qilish, baholash va tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, modelda Google Meet va Zoom kabi videokonferensiya vositalari orqali real vaqt rejimida darslar o‘tkazildi. Talabalar bilan o‘zaro aloqa uchun forumlar va xabar almashish tizimlari yo‘lga qo‘yildi. Har bir darsdan so‘ng avtomatlashtirilgan baholash testlari orqali o‘zlashtirish darajasi nazorat qilindi. Ushbu yondashuv orqali o‘quv jarayoni to‘liq raqamli platformaga ko‘chirildi. Masofaviy o‘qitish modelining samaradorligini baholash uchun eksperimental guruh tashkil etildi. Guruh tarkibiga texnik soha bo‘yicha tahsil olayotgan 60 nafar talaba jalb qilindi. Talabalar ikki guruhga ajratilib, biri yangi model asosida, ikkinchisi esa an’anaviy usulda ta’lim oldi. Har ikki guruh uchun bir xil o‘quv dasturi, mavzular va baholash mezonlari belgilandi. Eksperiment davomida nazariy darslar, laboratoriya ishlari va testlar o‘tkazildi. Talabalar faoliyati Moodle platformasi orqali muntazam ravishda monitoring qilindi. O‘zlashtirish darajasi, topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishi, ishtirok faolligi va baholash natijalari asosiy mezon sifatida olindi. Shu bilan birga, talabalarning qoniqish darajasi haqida so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnomalarda dars sifati, tushunarlilik darajasi va texnologik qulayliklar baholandi. Ushbu eksperiment modelning amaliy samaradorligini aniqlash imkonini berdi. [1]

O‘quv modullarini ishlab chiqishda konstruktiv pedagogik yondashuv qo‘llanildi. Har bir modul kirish ma’lumotlari, asosiy nazariy material, misollar, interaktiv topshiriqlar va yakuniy testlardan iborat bo‘ldi. Modullar o‘zaro mantiqiy bog‘langan holda ketma-ket joylashtirildi. Talabalar modulni to‘liq o‘zlashtirmasdan keyingi bosqichga o‘ta olmaslik tizimi joriy etildi. Bu yondashuv orqali o‘quv jarayonining izchilligi va samaradorligi ta’minlandi. Har bir modul oxirida avtomatlashtirilgan testlar yordamida talabalar bilim darajasi baholandi. Testlar natijasiga ko‘ra, qo‘shimcha materiallar yoki mustahkamlovchi mashqlar tavsiya etildi. Interaktiv simulyatorlar orqali talabalar real vaqt tizimlarining ishlash prinsiplarini amaliy o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Dars jarayonlarida video materiallar, slaydlar va onlayn taqdimotlar keng qo‘llanildi. Bu elementlar talabalar diqqatini jalb qilish va mavzuni tushunishni osonlashtirishga xizmat qildi. Modelda laboratoriya ishlari uchun virtual muhitdan foydalanish muhim o‘rin egalladi. Real vaqt tizimlariga oid dasturiy vositalar, mikrokontrollerlar va sensorlar simulyatsiyalari ishlab chiqildi. Bu simulyatsiyalar orqali talabalar real qurilmalarsiz amaliy topshiriqlarni bajara

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

oldilar. Virtual muhitda yozilgan kodlar real sharoitdagi natijalarni aks ettiruvchi tarzda loyihalandi. Laboratoriya ishlari bosqichma-bosqich yo‘riqnoma asosida bajarildi. Har bir bosqichda foydalanuvchiga ogohlantirish va yordam ko‘rsatildi. Talabalar virtual muhit orqali tizimni sozlash, kod yozish va natijalarni tahlil qilish tajribasiga ega bo‘lishdi. Platforma ustida bajarilgan ishlar avtomatik tarzda saqlanib, o‘qituvchilar tomonidan ko‘rib chiqildi. Baholashda ishning to‘g‘riligidan tashqari, bajarilish sifati, to‘g‘ri yondashuv va ijodkorlik ham inobatga olindi. Ushbu virtual muhit o‘quvchilarni real dunyo masalalariga tayyorlashga xizmat qildi. [2]

Modelda talabalar faoliyatini monitoring qilish va tahlil etish uchun analitik vositalardan foydalanildi. Moodle tizimidagi kuzatuv funksiyalari orqali foydalanuvchi faolligi, kirish soni, bajargan topshiriqlari va o‘qigan materiallari haqidagi ma’lumotlar yig‘ildi. Ushbu ma’lumotlar asosida individual tahlil va guruh tahlillari amalga oshirildi. O‘qituvchilar talabalar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniga ega bo‘ldilar. Har bir talaba uchun alohida reyting tizimi joriy etildi. Reyting asosida motivatsion yondashuvlar shakllantirildi, masalan, qo‘shimcha bonuslar, sertifikatlar yoki rag‘batlantirish xatlari berildi. Tahlil natijalari asosida individual yordam yoki qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil etildi. Bu usul o‘zlashtirishda orqada qolayotgan talabalarni aniqlashga yordam berdi. Monitoring natijalari semestr davomida muntazam ravishda taqqoslanib borildi. Ushbu yondashuv o‘quv jarayonining sifatini oshirishda muhim rol o‘ynadi. Masofaviy modelda baholash tizimi ham raqamli formatga moslashtirildi. Talabalarning nazariy bilimlari testlar va interaktiv savollar orqali baholandi. Amaliy ko‘nikmalar esa virtual laboratoriyalar orqali sinovdan o‘tkazildi. Baholashda avtomatik tizimdan foydalanish orqali inson omilining subyektiv ta’siri kamaytirildi. Baholash mezonlari oldindan e’lon qilinib, shaffoflikka erishildi. Har bir topshiriq bo‘yicha ballar ochiq ko‘rinishda taqdim etildi. Talabalar o‘z natijalarini boshqalar bilan solishtirib, o‘z faolligini oshirishga intildilar. Diagnostik baholash orqali semestr boshida bilim darajasi aniqlanib, yakuniy natijalar bilan taqqoslandi. Bu o‘zgarishlar orqali ta’lim samaradorligi aniq o‘lchandi. Talabalar tomonidan qayta topshirish imkoniyati ham berildi. Bunday yondashuv talabalarning mas’uliyatini oshirib, ta’limga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirdi. [3]

O‘quv jarayonining doimiy interaktivligini ta’minlash uchun forumlar va onlayn suhbatlar joriy etildi. Har bir mavzu uchun alohida muhokama forumlari ochilib, talabalar o‘z fikrlarini erkin bildirishdi. Bu usul talabalar o‘rtasida fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirdi. O‘qituvchi forumlarda faol ishtirok etib, savollarga tezkor javoblar berdi. Talabalar o‘zaro muhokama jarayonida bir-birlarini to‘ldirishdi va yangi bilimlarga ega bo‘lishdi. Maxsus muhokama mavzulari orqali fan doirasidagi dolzarb masalalar ko‘tarildi. Yutuqli fikrlar yoki g‘oyalar alohida baholandi va rag‘batlantirildi. Ushbu yondashuv bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishga xizmat qildi. Shuningdek, talabalar o‘z fikrini asoslash va himoya qilish malakalarini rivojlantirdilar. Forumlar orqali talabalar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti shakllandi. [4]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan masofaviy o‘qitish modeli “Real vaqt tizimlari” fanini o‘zlashtirishda sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Eksperimental guruhda tahsil olgan talabalar nazariy bilimlarni 87% ga muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan. Bu ko‘rsatkich an’anaviy o‘quv usuli bo‘yicha ta’lim olgan guruhga qaraganda 23% yuqori bo‘ldi. Ayniqsa, modul asosidagi interaktiv darslar talabalar e’tiborini jalb qilgan va mavzuni tushunishni osonlashtirgan. Virtual laboratoriyalar orqali olingan amaliy ko‘nikmalarni baholashda ham yuqori natijalar kuzatildi. Simulyatsiya asosidagi laboratoriya ishlari 92% ishtirokchi tomonidan muvaffaqiyatli bajarilgan. Talabalar o‘rtasida o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 15% ga oshgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalar orqali o‘qitish talabalar mustaqilligini kuchaytiradi. Shuningdek, ular yangi bilimlarni tezroq o‘zlashtirishga moyil bo‘lishdi. Bu natijalar modelning samaradorligini tasdiqlovchi muhim ko‘rsatkichlardir. [5]

1 – jadval. Masofaviy o‘qitish modeli komponentlari va ularning funksiyalari

	Model komponenti	Asosiy vazifasi	Foyda darajasi (1–5)
	Videodarslar	Nazariy materiallarni vizual yetkazish	5
	Virtual laboratoriyalar	Real vaqt tizimlari bo‘yicha amaliy mashqlar	5
	Interaktiv testlar	Bilimni baholash va qayta mustahkamlash	4
	Forum va chatlar	Savol-javob va muloqotni rivojlantirish	4
	Resurslar kutubxonasi	Qo‘shimcha materiallar va slaydlar	3

Tadqiqot davomida talabalar faoliyatining barcha jihatlari tahlil qilindi va natijalar jadval hamda grafiklar orqali aks ettirildi. Moodle tizimi orqali kuzatuvlar asosida talabalar faolligi haftalar kesimida baholandi. Dars materiallariga kirish, topshiriq bajarish va forumlarda qatnashish chastotasi muntazam oshib bordi. O‘quv jarayonining interaktivligi ularning o‘zlashtirish tezligini ijobiy tomonga o‘zgartirdi. Baholash testlarining avtomatlashtirilgan natijalari model samaradorligini aniq ko‘rsatdi. Eksperimental guruhdagi talabalar baholash testlarida o‘rtacha 82% to‘g‘ri javob bergan. Shu bilan birga, o‘rganilgan materiallarni amaliyotga tatbiq etish salohiyati ham oshgani kuzatildi. Ko‘p hollarda talabalar amaliy vazifalarni muammosiz mustaqil bajara oldilar. Bu ularning mavzuni chuqur anglaganligini isbotlaydi. Statistika shuni ko‘rsatdiki, raqamli model asosida o‘qitish natijalari doimiy o‘sish tendensiyasini namoyon qilgan. Tahlillar shuni aniqladiki, talabalar tomonidan eng samarali deb topilgan komponentlar — videodarslar, virtual laboratoriyalar va interaktiv testlar bo‘ldi. Talabalar fikricha, videodarslar murakkab mavzularni tushunishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Interaktivlik esa ularni jarayonga faol jalb etgan. Virtual laboratoriyalar orqali talabalar nazariy bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Testlar orqali o‘z bilimlarini tekshirib ko‘rish ularga aniq yo‘nalish berdi. So‘rovnomalar asosida aniqlanishicha, 85% talaba virtual laboratoriyalarni juda foydali deb baholagan. Forumlar esa talabalar o‘rtasida o‘zaro muloqotni kuchaytirgan. O‘quv jarayonidagi texnologik vositalar talabalarda ilg‘or fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirgan. Bu esa o‘z navbatida bilimlarni amaliyotda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qo‘llashga xizmat qilgan. Modelning har bir komponenti ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. [6]

Qiyosiy tahlillar orqali model samaradorligi yanada chuqurroq o‘rganildi. An’anaviy o‘quv usuli asosida o‘qitilgan guruhda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari barqaror bo‘lsa-da, innovatsion yondashuvga ega guruhda u tez o‘sgan. Bu farq ayniqsa fan doirasidagi murakkab amaliy vazifalarni bajarishda yaqqol namoyon bo‘ldi. Eksperimental guruh talabalari mustaqil ravishda real vaqt tizimlariga oid dasturlarni ishlab chiqa oldilar. Ular kod yozish, tizim konfiguratsiyasi va real sharoitda sinovdan o‘tkazish bosqichlarini mustaqil bajara oldilar. Bu natijalar texnik fanning masofaviy formatda ham samarali o‘qitilishi mumkinligini isbotlaydi. Shuningdek, model ta’limda ijodiy yondashuvni shakllantirishga yordam bergan. Ko‘plab talabalar o‘z g‘oyalari asosida mustaqil loyihalar ishlab chiqishgan. Bu esa ularning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qilgan. Umuman olganda, model o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Monitoring tizimi orqali yig‘ilgan ma’lumotlar asosida talabalar rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi. Har bir talabaning faollik indeksi, topshiriqlarni bajarganlik darajasi va baholash natijalari ko‘rsatkich sifatida olindi. Ushbu ma’lumotlar asosida har bir ishtirokchining ta’limga bo‘lgan munosabati aniqlashtirildi. Ba’zi hollarda motivatsiyasi past bo‘lgan talabalar bilan individual ishlash natijasida ularning faolligi ortdi. Diagnostik baholash natijalari semestr yakunidagi natijalar bilan solishtirilib, o‘sish 32% ni tashkil qildi. Bu natijalar o‘qitish modeli individual yondashuvga asoslangani tufayli yuzaga kelgan. Analitik vositalar yordamida qiyinchilik darajalari bo‘yicha topshiriqlar ajratib ko‘rsatildi. Bu esa o‘quv yuklamasini optimallashtirishga yordam berdi. O‘qituvchilar talabalarning holatiga qarab mos tavsiyalar bera olishdi. Ushbu monitoring tizimi real vaqtli tahlil va tezkor yondashuvni ta’minladi. [7]

2 – jadval. Talabalar o‘zlashtirish darajasi

Talabalar guruhi	O‘rtacha ball (An’anaviy)	O‘rtacha ball (Masofaviy)	O‘sish foizi (%)
1-guruh	68	83	+22.1%
2-guruh	72	86	+19.4%
3-guruh	65	81	+24.6%
O‘rtacha	68.3	83.3	+21.9%

Tadqiqotda modelning metodik jihatlari ham sinovdan o‘tkazildi. Har bir o‘quv bosqichi uchun ishlab chiqilgan yo‘riqnoma va metodik qo‘llanmalar o‘zini oqladi. O‘qituvchilar uchun qulay interfeys va avtomatlashtirilgan vositalar taqdim etildi. Ular o‘quv jarayonini boshqarishda ko‘proq tahliliy yondashuvdan foydalanishdi. Buning natijasida ta’lim sifati barqaror saqlanib qoldi. O‘quv dasturining moslashuvchanligi har bir talaba ehtiyojiga mos yondashuvni ta’minladi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘rtasidagi balans ehtiyotkorlik bilan saqlangan. O‘qituvchilar tomonidan darslar turlicha usullarda – leksiya, seminar, laboratoriya ko‘rinishida tashkil etildi. Bu esa talabalarning turli o‘rganish uslublariga mos tushdi. Model o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi aloqa sifati yaxshilanishiga sabab bo‘ldi. Masofaviy ta’limda bu yondashuv katta innovatsion yutuq

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bo‘ldi. So‘rovnomalar orqali talabalar va o‘qituvchilar fikrlari o‘rganildi. 90% talaba raqamli model asosida o‘qitishni afzal ko‘rganini bildirdi. Ular o‘z fikrlarida darslarning qulayligi, mustaqil ishlash imkoniyati va tezkor fikr almashishni alohida e’tirof etdilar. O‘qituvchilar esa baholash jarayonining avtomatlashtirilganligi va resurslardan samarali foydalanishni ijobiy baholashdi. Ko‘pchilik o‘qituvchilar bu yondashuvni boshqa texnik fanlarga ham joriy etish mumkinligini ta’kidladi. So‘rovlar orqali aniqlanishicha, 82% ishtirokchi interaktiv kontentlarni davom ettirish tarafdori. Talabalar o‘z bilimlarini chuqurlashtirish uchun qo‘shimcha videodarslar va mashqlar so‘rashdi. Bu holat ularning ta’limga nisbatan mas’uliyatli yondashuvini ko‘rsatadi. O‘qituvchilar esa samarali dars olib borish uchun yangi vositalarni qo‘llashga tayyorligini bildirishdi. Umuman, ishtirokchilarning ijobiy fikrlari model istiqbolli ekanidan dalolat beradi. [8]

Mazkur tadqiqot davomida aniqlangan natijalar ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi. Masofaviy ta’lim modeli orqali “Real vaqt tizimlari” fanining samarali o‘qitilishi, bu yo‘nalishda yangicha yondashuvlarning zarurligini ko‘rsatdi. Modelning har bir komponenti — videodarslar, virtual laboratoriyalar, testlar va interaktiv forumlar — alohida natija bermasdan, yagona tizimda mukammal natijani ta’minladi. Bu esa integratsiyalashgan yondashuvning kuchli tomonini namoyon etadi. An’anaviy ta’lim shakllari bilan solishtirilganda, masofaviy formatda ko‘proq moslashuvchanlik va individual yondashuv imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, real vaqt tizimlariga oid mavzularni amaliy simulyatsiyalar orqali o‘zlashtirish talabalar uchun foydali bo‘ldi. Bu nafaqat bilim, balki ko‘nikma va malakani shakllantirishga xizmat qildi. Shuningdek, texnologik kompetensiyalarni rivojlantirishda ushbu yondashuv asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. O‘quvchilar mustaqil fikrlashga, izlanishga va yechim topishga o‘rgandilar. Ushbu jihatlar zamonaviy muhandislik ta’limi uchun muhim ahamiyatga ega. Muhokama jarayonida modelning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga harakat qilindi. Kuchli tomon sifatida birinchi navbatda o‘quv jarayonining qulayligi, resurslarga erkin kirish va vaqt jihatidan mustaqillik keltiriladi. Talabalar istalgan vaqtda dars materiallarini takroran ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa o‘zlashtirish samaradorligini oshirdi. Bundan tashqari, real vaqt rejimidagi onlayn muloqotlar ularning darsdan tashqari savollarini tezda hal qilish imkonini berdi. Shuningdek, raqamli platformalarning tezkor monitoring va baholash imkoniyatlari ham ijobiy baholandi. Biroq, modelning ayrim zaif tomonlari ham kuzatildi. Masalan, texnik infratuzilmasi kuchsiz hududlarda internetga ulanish muammolari natijalarga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shuningdek, bu tadqiqot masofaviy ta’limda samaradorlikni ta’minlovchi omillarni chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Yaxshi rejalashtirilgan o‘quv modullari, aniqlik bilan belgilangan maqsadlar va o‘qituvchining faol ishtiroki natijaga bevosita ta’sir qilgan. Har bir modulga alohida topshiriq va baholash mezonlari biriktirilgani talabaning jarayonni to‘liq anglashiga yordam berdi. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi aloqa tezkor va mazmunli bo‘lganida natijalar yuqori bo‘lgan. Bu omillar an’anaviy dars shakllarida ko‘pincha yetishmaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun tayyorlangan metodik

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

materiallar ularning yangi texnologiyalar bilan ishlashini yengillashtirdi. Bu esa modelning joriy etilishi jarayonini soddalashtirdi. Statistik tahlil shuni ko‘rsatdiki, jarayonning to‘g‘ri boshqarilishi orqali bilimlar o‘zlashtirilishi doimiy ravishda oshgan. Bu modelni boshqalarga tatbiq qilish uchun tayyor platforma sifatida ko‘rishga asos yaratadi. U ko‘plab texnik yo‘nalishlar uchun universal vosita bo‘lishi mumkin. Muhokama jarayonida ta’lim sifatini oshirish uchun yana qanday imkoniyatlar mavjudligi tahlil qilindi. Shu jumladan, sun’iy intellekt asosida tavsiya tizimlarini joriy etish, moslashtirilgan ta’lim algoritmlarini ishlab chiqish taklif etildi. Har bir talaba uchun individual o‘quv yo‘nalishini belgilovchi tizimlar modelga integratsiyalansa, samaradorlik yanada ortadi. Bu, ayniqsa, qiyinchilik darajasi yuqori bo‘lgan texnik fanlar uchun muhimdir. Shuningdek, mobil ilovalar orqali o‘qitishni yanada yengillashtirish mumkin. Talabalar har qanday joyda va vaqtda darslarda qatnashish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu masofaviy ta’limni yanada ommaviylashtirishga xizmat qiladi. Raqamli vositalarni lokal va global platformalar bilan bog‘lash esa o‘zaro tajriba almashinuvini osonlashtiradi. Shuningdek, bu yondashuv o‘qituvchilarni ham doimiy yangilanishga undaydi. Zamonaviy ta’limda doimiy innovatsiyalar va texnologik yangiliklarga ochiqlik asosiy mezondir. [9]

Modelning dolzarbligi hozirgi pandemiyadan keyingi ta’lim muhitida alohida ahamiyat kasb etadi. Ko‘plab oliy o‘quv yurtlari uchun masofaviy o‘qitish standartga aylanmoqda. Bu sharoitda, ayniqsa, texnik fanlarni qanday qilib samarali o‘rgatish mumkinligi dolzarb savol bo‘lib turibdi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan yondashuv mazkur muammoga aniq yechim taklif etmoqda. Amaliy mashg‘ulotlarni simulyatsiya qilish orqali mavjud cheklovlarni yengib o‘tish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, talabalar laboratoriya jihozlarisiz ham mustaqil mashq qilishga muvaffaq bo‘lishdi. Bu esa ta’limda resurslarni tejash imkonini berdi. Ko‘plab o‘quv yurtlari ushbu yondashuvni o‘z tizimlariga integratsiyalashga qiziqish bildirmoqda. Bu model pandemiya yoki boshqa favqulodda holatlarda ham uzluksiz ta’limni ta’minlay oladi. Shu sababli, uni universal va barqaror ta’lim modeli sifatida qarash mumkin. Muhokama davomida ta’lim muhitida raqamli tengsizlik muammosi ham e’tiborga olindi. Hamma talabalar ham bir xil texnik sharoitga ega emasligi ma’lum bo‘ldi. Internet sifati, qurilmalar va texnik bilimlar darajasi natijaga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Shu bois, kelajakda bu omillarni inobatga olgan holda inklyuziv model ishlab chiqish zarur. Har bir talaba uchun shaxsiylashtirilgan qo‘llab-quvvatlov tizimi joriy etilishi kerak. Masalan, boshlang‘ich darajadagi foydalanuvchilar uchun maxsus yo‘riqnomalar va video darsliklar tayyorlanishi mumkin. Shuningdek, “offline” rejimda foydalanish mumkin bo‘lgan kontentlar ishlab chiqilishi lozim. Bu raqamli ta’limning ko‘lamini kengaytirishga yordam beradi. Yuqori texnologiyalar asosidagi yondashuvlar doimo ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslanishi zarur. Aks holda, ta’lim tengligi buzilishi mumkin. Demak, raqamli texnologiyalarni joriy etishda ijtimoiy va pedagogik jihatlar birdek hisobga olinishi lozim. [10]

Ushbu tadqiqot doirasida raqamli ta’lim texnologiyalari asosida “Real vaqt tizimlari” fanining masofaviy o‘qitish modeli ishlab chiqildi va sinovdan o‘tkazildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan platforma yordamida bilimlarni samarali uzatish, amaliy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ko‘nikmalarni shakllantirish va talabaning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirish mumkin. Model zamonaviy interaktiv texnologiyalarga tayangan holda o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minladi. Real vaqt tizimlari kabi texnik murakkab fanlar ham masofaviy formatda muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi mumkinligi isbotlandi. Shu bilan birga, individual o‘quv yondashuvi, avtomatlashtirilgan nazorat va interaktiv aloqalar samaradorlikni oshirdi. Talabalar o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha an’anaviy darslarga nisbatan yaxshiroq natijalarga erishganlari kuzatildi. Bu esa mazkur modelni boshqa fanlar uchun ham tatbiq qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

Modelning joriy etilishi davomida texnik, metodik va psixologik jihatlar chuqur o‘rganildi. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida uzluksiz muloqot, o‘quv materiallarining yuqori darajada moslashtirilganligi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, amaliy simulyatsiyalar yordamida real holatlar bilan ishlash malakalari shakllantirildi. Platformaning tahliliy imkoniyatlari rahbariyatga ham aniq nazorat va boshqaruv vositalarini taqdim etdi. Shu bilan birga, ayrim muammolar — texnik cheklovlar, raqamli savodxonlik darajasi past foydalanuvchilar uchun qo‘shimcha choralar zarurligini ko‘rsatdi. Bu holatlarni inobatga olgan holda, modelni yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Demak, raqamli texnologiyalar asosidagi o‘qitish zamonaviy ta’lim tizimi uchun asosiy strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lib bormoqda.

Ishlab chiqilgan masofaviy ta’lim modeli ta’lim muhitida innovatsion yondashuvlarni samarali tatbiq etish imkonini berdi. U nafaqat pandemiyadan keyingi davr uchun, balki barqaror va keng ko‘lamli raqamli ta’lim strategiyasi uchun asos bo‘la oladi. Modelni boshqa fanlar va ta’lim bosqichlariga moslashtirish mumkinligi uning amaliy qiymatini oshiradi. Shuningdek, ilg‘or texnologiyalar — sun’iy intellekt, analitik tizimlar va mobil platformalar bilan integratsiyalash imkoniyati mavjud. Bunday yondashuv kelajakdagi ta’lim jarayonini ilg‘or texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu model tavsiya etilgan ko‘rsatkichlar asosida kengroq miqyosda joriy etilishi lozim. Kelgusida bu yo‘nalishda chuqurlashtirilgan tadqiqotlar olib borilishi tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Эргашев, О. М., & Эргашева, Ш. М. (2020). Регулярные алгоритмы коррекции динамической погрешности средств измерений. Universum: технические науки, (2-1 (71)), 20-23.
2. Ergashev O. M., Turgunov B. X., Turgunova N. M. Microprocessor Control System for Heat Treatment of Reinforced Concrete Products //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 11-15.
3. Эргашев, О. М., & Эргашева, Ш. М. (2020). Алгоритмы динамической фильтрации с учетом инерции измерительного устройства. Universum: технические науки, (2-1 (71)), 24-27.
4. Ergashev, O. M., & Turgunov, B. X. (2023). INTELLIGENT OPTOELECTRONIC DEVICES FOR MONITORING AND RECORDING MOVEMENT BASED ON

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

HOLLOW FIBERS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 4(5), 34-38.
5. Ergashev, O. M., & Ergasheva, S. M. (2023). Foydalanuvchi interfeyslarida multimedia imkoniyatlari, axborot namoyish etish shakllari. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 179-181.
6. Шипулин, Ю. Г., Махмудов, М. И., & Эргашев, О. М. доцент ТИТЛП РУз. ОБРАЗОВАНИЕ Т Е Х Н И К А, 5.
7. Alimova, N. B., Khaitova, A. R., Khusanov, A. M., & Ergashev, E. O. (2022, June). Methods and means of control and diagnostics of technological units in the treatment of industrial wastewater based on optoelectronic and hollow light guides. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1043, No. 1, p. 012007). IOP Publishing.
8. Шипулин, Ю. Г., Махмудов, М. И., Мухамедова, Ш. Р., & Эргашев, О. М. (2018). Применение оптоэлектронных методов для контроля качественных и количественных параметров сточных вод. In Оптико-электронные приборы и устройства в системах распознавания образов, обработки изображений и символьной информации. Распознавание-2018 (pp. 292-294).
9. Эргашев, О. М. (2018). РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ ЗАЩИТЫ ИНФОРМАЦИИ В ВОЛС НА ОСНОВЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОНЦЕПЦИИ КОДОВОГО ЗАШУМЛЕНИЯ. Теория и практика современной науки, (6 (36)), 686-688.
10. Эргшаев, О. М. (2022). Микропроцессорная система контроля регистрации уровня и расхода жидкости в резервуарах. Innovative developments and research in education, 1(6), 21-23.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ergashev Otabek Mirzapo'latovich**, dotsent [**Эргашев Отабек Мирзапулатович**, доцент], [**Ergashev Otabek Mirzapo'latovich** associate professor]; manzil: Shahar Farg'ona, Farg'ona ko'chasi, 86, [адрес: Город Фергана, улица Ферганская, 86], [address: City Fergana, Fergana street, 86.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

KOGNITIV UNIVERSAL TA’LIM FAOLIYATI TUSHUNCHASI VA UNING TEXNOLOGIK TA’LIMDAGI O‘RNI

© S.B. Erkinova[1]✉

[1]Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada kognitiv universal ta’lim faoliyatining mohiyati, u shakllanadigan omillar va uning zamonaviy texnologik ta’limdagi o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Talabalarda tafakkur, muammoni hal qilish va o‘rganish strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar yoritilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – kognitiv universal ta’lim faoliyatining texnologik ta’limdagi ahamiyatini aniqlash va bu faoliyat orqali zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kognitiv va universal o‘quv faoliyati nazariyalari, STEAM yondashuvi, Rossiya va G‘arbiy olimlarning ilmiy ishlari, hamda texnologik ta’lim amaliyotida qo‘llanilayotgan metodik elementlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar kognitiv faoliyatlar – tahlil, taqqoslash, rejalashtirish, sintez – texnologik ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy vosita ekanini ko‘rsatdi. STEAM yondashuvi va amaliy mashg‘ulotlar orqali talabalarda ijodkorlik, algoritmik tafakkur, moslashuvchanlik va muammoli vaziyatga kreativ yondashuv rivojlanadi.

XULOSA: kognitiv universal ta’lim faoliyati texnologik ta’limda nafaqat bilim berish, balki talabaning mustaqil fikrlashi, innovatsion yechimlar topish va kasbiy muvaffaqiyatga erishishida muhim omildir.

Kalit so‘zlar: kognitiv faoliyat, universal ta’lim kompetensiyalari, texnologik ta’lim, innovatsion metodlar, muammoli ta’lim, STEAM yondashuvi, fanlararo integratsiya, rejalashtirish, tahlil, metodik element.

Iqtibos uchun: Erkinova S.B. Kognitiv universal ta’lim faoliyati tushunchasi va uning texnologik ta’limdagi o‘rni. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.113–119.

ПОНЯТИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ УНИВЕРСАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЕЕ МЕСТО В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

© С.Б. Эркинова[1]✉

[1] Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается сущность познавательной универсальной учебной деятельности, факторы её формирования и значение в современной системе технологического образования. Особое внимание уделяется развитию мышления, стратегий обучения и навыков решения задач.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — определить роль когнитивной универсальной образовательной деятельности в технологическом обучении и проанализировать возможности формирования профессиональных компетенций на её основе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведён анализ теорий познавательной деятельности, STEAM-подхода, трудов отечественных и зарубежных исследователей, а также методических практик, применяемых в технологическом образовании.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что когнитивные действия — анализ, сравнение, планирование, синтез — являются ключевыми для развития технологических навыков. STEAM-подход и практические задания формируют у студентов креативность, алгоритмическое мышление и адаптивность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: познавательная универсальная учебная деятельность играет решающую роль в формировании самостоятельного мышления, профессиональной успешности и способности к инновационным решениям в технологической сфере.

Ключевые слова: познавательная деятельность, универсальные образовательные компетенции, технологическое образование, инновационные методы, проблемное обучение, STEAM-подход, междисциплинарная интеграция, планирование, анализ, методический элемент.

Для цитирования: Эркинова С.Б. Понятие познавательной универсальной образовательной деятельности и ее место в технологическом образовании.// Inter education & global study.2025. Vol.3 №6(1). С.113–119.

THE CONCEPT OF COGNITIVE UNIVERSAL EDUCATIONAL ACTIVITY AND ITS PLACE IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

© Sitora B. Erkinova[1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores the essence of cognitive universal educational activity, its formation factors, and its role in modern technological education. It emphasizes the development of thinking, learning strategies, and problem-solving skills based on cognitive approaches.

AIM: the main objective of the study is to determine the importance of cognitive universal educational activity in technological education and examine its potential for forming professional competencies.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MATERIALS AND METHODS: the research analyzes theoretical foundations of cognitive learning, the STEAM approach, works of Russian and Western scholars, and current methodical tools used in technological education.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings show that cognitive actions—analysis, comparison, planning, synthesis—play a vital role in developing technological skills. The STEAM model and hands-on tasks encourage creativity, algorithmic thinking, and adaptability in students.

CONCLUSION: cognitive universal educational activity is a key pedagogical element in technological education that fosters independent thinking, innovation, and professional success among students.

Keywords: cognitive activity, universal educational competencies, technological education, innovative methods, problem-based education, STEAM approach, interdisciplinary integration, planning, analysis, methodical element.

For citation: Sitora B. Erkinova. (2025) 'The concept of cognitive universal educational activity and its place in technological education', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.113–119. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim tizimi talabalarning shaxs sifatida rivojlanishini, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu jarayonning markazida kognitiv universal ta'lim faoliyati turadi. Bu faoliyat turining talabalarda rivojlanishi nafaqat bilim olish jarayonini optimallashtiradi, balki ular bilan ongli ishlash, bilimlarni tanqidiy tahlil qilish, umumlashtirish va uzluksiz o'qish motivatsiyasini shakllantiradi.

Kognitiv universal ta'lim faoliyati tushunchasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada muhim o'rin tutadi. Bu tushuncha asosan insonning tafakkurini, idrokini, e'tiborini, xotirasini, muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan umumiy (universal) ta'lim faoliyatlarini anglatadi. Universal ta'lim faoliyati (UTF) — bu talabalarda hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan umumiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim jarayonidir.

UTFning asosiy maqsadi — talabalarda bilim olish, muammolarni hal qilish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, hamkorlik qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishdir:

1. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi - talabalarni o'z fikrlarini asoslab, dalillarga tayangan holda qarorlar qabul qilishga o'rgatish. Bu kompetensiya talabalarda analitik tafakkur va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Kreativlik kompetensiyasi - talabalarda yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va innovatsion yechimlarni topish qobiliyatini shakllantirish. Bu kompetensiya ijodiy fikrlash va adaptivlikni ta'minlaydi.

3. Kommunikativ kompetensiya - talabalarda samarali muloqot qilish, fikrlarni aniq va tushunarli ifodalash, boshqalarni tinglash va ularning fikrlarini inobatga olish ko'nikmalarini rivojlantirish. Bu kompetensiya ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

xizmat qiladi.

4. Kooperatsiya kompetensiyasi - talabalarda jamoada ishlash, guruh ichida rollarni taqsimlash, hamkorlikda maqsadga erishish qobiliyatini shakllantirish. Bu kompetensiya jamoaviy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi- talabalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, raqamli vositalar yordamida ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish va taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirish. Bu kompetensiya raqamli savodxonlikni oshiradi.

6. Mustaqil o'rganish kompetensiyasi - talabalarda o'z-o'zini boshqarish, o'rganish jarayonini rejalashtirish, o'z natijalarini baholash va takomillashtirish ko'nikmalarini shakllantirish. Bu kompetensiya talabalarning o'zini rivojlantirishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

7. Ijtimoiy va madaniy kompetensiya - talabalarda boshqa madaniyatlarni hurmat qilish, ijtimoiy me'yorlarga rioya etish, turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish. Bu kompetensiya ijtimoiy moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Kompetensiya - bu muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar, qobiliyatlar, ko'nikmalar majmui, insonga turli vaziyatlarda, shu jumladan yangi vaziyatlarda harakat qilishga yordam beradi. Kompetentlik - bu kompetentsiyani o'zlashtirish [1].

Universal ta'lim faoliyati talabalarda yuqorida sanab o'tilgan kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ularni hayotga tayyorlaydi. Bu kompetensiyalar talabalarning nafaqat akademik muvaffaqiyatlarini, balki ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Shu sababli, ta'lim jarayonida universal kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Adabiyotlar tahlili

Tadqiqot ishimizda kognitiv universal ta'lim faoliyatining kelib chiqish tarixiga bir nazar solsak. Kognitiv universal ta'lim faoliyati asosan quyidagi nazariy manbalarga tayanadi:

1930-yillarda SSSR olimi Lev Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini ilgari su rib, insonning bilimlarni o'zlashtirishda ijtimoiy muhit va ong faoliyatining o'zaro bog'liqligini ko'rsatgan.

Shveytsariya olimi Jean Piaget kognitiv rivojlanish bosqichlarini aniqlab, insonning tafakkuri qanday rivojlanishini ilmiy asosda bayon qilgan.

AQSh olimlaridan biri Jerome Bruner ta'limda kognitiv yondashuvni rivojlantirib, bilimni faol o'zlashtirishni asosiy maqsad deb bilgan[2]. Rossiyada 2000-yillardan boshlab universal o'quv harakatlari (UUD – универсальные учебные действия) tushunchasi maktab ta'limi uchun asosiy konsepsiyalardan biri bo'lib shakllandi. Bu Rossiya Federatsiyasi ta'lim standartlari (ФГОС)da keng qo'llanila boshlandi. Bu yerda kognitiv (bilish) faoliyatlari quyidagilardan iborat deb qaraladi:

Tahlil qilish

Taqqoslash

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Guruhlash
Umumlashtirish
Rejalashtirish
Mantiqiy xulosalar chiqarish[3].

Kognitiv universal ta’lim faoliyatlari psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan nuqtasida paydo bo‘lgan bo‘lib, u inson tafakkurining shakllanishini o‘quv jarayonida qo‘llashni nazarda tutadi. Bu faoliyatlar talabalarning mustaqil fikrlashini, muammoni hal qilish ko‘nikmalarini va bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maqolada kognitiv universal ta’lim faoliyatining mazmuni va mohiyati, texnologik ta’lim yo‘nalishidagi talabalarning bilish faoliyatini oshirish haqidagi metodika tavsiflanadi.

Kognitiv universal ta’lim faoliyatining texnologik ta’limdagi ahamiyati — bu masala talabalarning bilish (kognitiv) qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish orqali zamonaviy kasbiy va texnik kompetensiyalarni egallashda muhim rol o‘ynaydi.

Texnologik ta’lim – bu talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan birga, muammo yechish, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi o‘quv jarayonidir. Bu jarayonda kognitiv universal faoliyatlar quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

tahlil qilish - loyihalash topshiriqlarida materiallar, vositalar, me’yoriy hujjatlar tahlil qilinadi;

taqqoslash - turli texnologik yechimlar yoki usullar solishtiriladi;

rejalashtirish - ishni bajarish ketma-ketligi, vaqt va resurslar hisobga olinadi;

muammo hal qilish - yuzaga kelgan nosozliklar yoki dizayn muammolariga innovatsion yechimlar topiladi.

Texnologik ta’limda talabalar ko‘p hollarda amaliy topshiriqlarni bajaradi (masalan, detal yasash, elektron sxema yig‘ish, dastur tuzish va h.k.). Bu jarayonlarda:

talabalar o‘z bilimlarini amalda sinaydi;

qaror qabul qilishga o‘rganadi (masalan, qaysi usul eng optimal?);

xatolardan saboq olish orqali reflektiv tafakkur shakllanadi.

Bu esa kognitiv faoliyatning yuqori darajadagi namoyoni hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar (robototexnika, 3D-modellashtirish, avtomatlashtirish) talab qiladigan asosiy ko‘nikmalar:

tizimli fikrlash;

algoritmik tafakkur;

moslashuvchanlik va muammoga kreativ yondashuv.

Kognitiv universal ta’lim faoliyatlari aynan shu kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi va texnologik ta’limda ularni asosiy tamoyil sifatida shakllantirish mumkin.

Texnologik ta’lim ko‘pincha matematika, informatika, fizika va hatto san’at bilan bog‘lanadi (ya’ni STEAM – Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics). STEAM- tabiiy fanlar, texnologiyalar, muhandislik, san’at va matematika fanlarini uyg‘unlikda o‘qitish uslubidir. STEAM texnologiyasi ta’limdan farqli ravishda bilimlarni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

alohida emas, o‘zaro mutanosib holda olib borishni ta’minlab beradi[4].

Kognitiv faoliyatlar talabalarga:

fanlararo bog‘lanishlarni aniqlash;

loyiha asosida ishlash;

tadqiqot olib borish;

natijalarni baholash imkonini beradi.

Bu integratsion yondashuv kognitiv kompetensiyalarning amaliy hayotdagi qo‘llanilishini ta’minlaydi.

Kognitiv universal ta’lim faoliyati texnologik fanlarda talabalarga quyidagi ko‘nikmalarni beradi:

Kognitiv faoliyat	Texnologik ko‘nikmaga ta’siri
Tahlil qilish	Texnologik jarayonlarni tushunish
Rejalashtirish	Ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish
Umumlashtirish	Turli metodlarni birlashtirish
Sintez qilish	Yangi mahsulotlar, modellar yaratish
Mantiqiy xulosa	Muhandislik qarorlarini asoslash

1-jadval. Kognitiv faoliyatning texnologik ko‘nikmaga ta’siri.

Kognitiv universal ta’lim faoliyatlari texnologik ta’limda bilimni faqat yod olish emas ongli o‘zlashtirishni, amaliy topshiriqlarni mustaqil hal qilishni, innovatsion fikrlash va muammoga kreativ yondashuvni ta’minlaydi. Shu sababli, texnologik ta’limni samarali tashkil etishda kognitiv yondashuv asosiy metodik tamoyil sifatida qaralishi lozim.

Kognitiv universal ta’lim faoliyatining texnologik ta’lim yo‘nalishidagi talabalar uchun zarurati — bu nafaqat ta’lim sifati, balki ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati uchun ham muhim asosdir.

Texnologik ta’lim talabalarida bilish faoliyatini rivojlantirish ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ta’lim jarayonida bilish faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy texnologik ta’limda bilim egallash faqat tayyor axborotni eslab qolish bilan cheklanmaydi, balki talabaning kognitiv, reflektiv va ijodiy faoliyatini shakllantirishni talab etadi. Texnologik ta’limda bu faoliyat ko‘proq muammoli topshiriqlar, loyiha asosidagi ta’lim va innovatsion vaziyatlarni tahlil qilish orqali shakllanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalar faqatgina kasbiy bilimlarni emas, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, axborotni tahlil qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni ham egallashlari zarur. Texnologik ta’limda bu ko‘nikmalarni rivojlantirish ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki texnologiya sohalari doimiy ravishda yangilanib boradi va talabalar tezkor o‘zgarishlarga moslashishlari kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. I.N. Amirov, Universal va professional kommunikativ kompetensiyalar tarkibiy komponentlarining xususiyatlari, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7, 91-b.
2. Хуторской, А. В. Метапредметное содержание общего образования и его отражение в новых образовательных стандартах / А. В. Хуторской // Вестник Института образования человека. – 2012. – № 2. – С. 11.
3. Программа формирования универсальных учебных действий у обучающихся на ступени начального общего образования – ФГОС НОО.
4. Z.Ashurova, Maktabgacha ta'limda STEAM texnalogiyasidan foydalanish(Metodik qo'llanma), Buxoro: - 2020, 24-b

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Erkinova Sitora Botirjon qizi**, doktorant [**Эркинова Ситора Ботиржон кизи**,докторант], [**Erkinova B.Sitora** doctoral student]; manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316- uy, [адрес: Наманганская область, г. Наманган, ул. Уйчи, д. 316], [address: 316 Uichi Street, Namangan city, Namangan region.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA LOYIHA METODINING XUSUSIYATLARI

© Sh. N. Eshpulatov[1]✉, G.S. Pardayeva[2]✉
[1]Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston
[2]O'zbekiston - Finlandiya Pedagogika Instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida loyiha metodidan foydalanishning xususiyatlari va afzalliklari tahlil qilinadi. Bolalarning kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda loyiha texnologiyasining o'rni yoritilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – loyiha metodini zamonaviy maktabgacha ta'lim jarayoniga joriy etish orqali bolalarning mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishning samaradorligini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda loyiha metodiga oid nazariy manbalar, D. Dyui pedagogikasi, innovasion hamkorlik shakllari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdagi amaliy tajribalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: loyiha metodi maktabgacha ta'limda bolalar shaxsiy tajribasi asosida o'zlashtirilgan bilimlar orqali kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi, shuningdek, ota-ona, pedagog va bola o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishi aniqlangan.

XULOSA: loyiha metodidan foydalanish maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning shaxsiy fazilatlarini ochib berish, mustaqil va izlanishga asoslangan o'quv faoliyatini tashkil etishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: hamkorlik, innovatsiya, ta'lim natijasi, faoliyat tajribasi, jarayon samaradorligi, izlanish, ijodiy yondashuv, kognitiv qobiliyat.

Iqtibos uchun: Eshpulatov Sh. N, Pardayeva G.S. Zamonaviy maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda loyiha metodining xususiyatlari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.120–125.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЕКТНОГО МЕТОДА В ОРГАНИЗАЦИИ СОВРЕМЕННОГО ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

© Ш.Н. Эшпулатов[1]✉, Г.С. Пардаева[2]✉
[1]Самаркандский государственный университет, Самарканд, Узбекистан
[2]Узбекско - Финский Педагогический Институт, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются особенности применения проектного метода в современном дошкольном образовании, его значение в формировании у детей познавательных и творческих способностей.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ЦЕЛЬ: цель исследования – выявление эффективности внедрения проектной технологии в дошкольное образование для развития у детей самостоятельного мышления, исследовательских навыков и сотрудничества.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проанализированы труды по педагогике проекта, включая идеи Дж. Дьюи, инновационные формы взаимодействия, опыт педагогов и примеры практической реализации проектного подхода.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: выявлено, что проектная деятельность способствует интеграции воспитанников в образовательный процесс через опыт, развивает когнитивные и коммуникативные навыки и усиливает сотрудничество между детьми, родителями и педагогами.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: метод проекта в дошкольном образовании является эффективным инструментом формирования личностных качеств воспитанников и организации образовательного процесса, ориентированного на самостоятельность и творчество.

Ключевые слова: сотрудничество, инновации, результат обучения, опыт деятельности, эффективность процесса, поиск, творческий подход, познавательные способности.

Для цитирования: Эшпулатов Ш. Н, Пардаева Г.С. Особенности проектного метода в организации современного дошкольного образовательного процесса. // Inter education & global study.2025. Vol.3 №6(1). С.120–125.

FEATURES OF THE PROJECT METHOD IN THE ORGANIZATION OF THE MODERN PRESCHOOL EDUCATIONAL PROCESS

© Shakir N. Eshpulatov[1]✉, Gulchehra S. Pardayeva[2]✉
[1]Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan
[2]Uzbek-Finnish Pedagogical Institute, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the characteristics and benefits of applying the project method in the modern preschool educational process. It highlights the method's role in fostering cognitive and creative abilities in children.

AIM: the main objective is to determine the effectiveness of implementing project-based learning in preschool settings to develop children's independent thinking, research skills, and collaborative learning.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzes theoretical foundations of the project method, particularly Dewey's pedagogical philosophy, forms of innovative collaboration, and practical experiences of preschool educators.

DISCUSSION AND RESULTS: findings indicate that project-based learning promotes active participation, enhances children's cognitive and communicative abilities through experiential learning, and strengthens cooperation among teachers, parents, and children.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

CONCLUSION: the project method is an effective tool for developing children's personal qualities in preschool education and for organizing learning processes that encourage independence, exploration, and creativity.

Keywords: collaboration, innovation, learning outcome, experience, process efficiency, inquiry, creativity, cognitive abilities.

For citation: Shakir N. Eshpulatov, Gulchehra S. Pardayeva. (2025) 'Features of the project method in the organization of the modern preschool educational process', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.120–125. (In Uzbek).

Bolalarning barkamol va har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish tarbiyachi oldida turgan eng qiyin vazifalardan biridir, chunki bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti amaliyotida ko'pincha maktabgacha ta'lim sohasida tarbiyachining faoliyatini tashkil etishga bitta tabaqalashtirilgan yondashuv qo'llaniladi. Pedagog va bolaning o'zaro ta'sirida ta'lim sohalarini integratsiyalash vositasi sifatida loyiha metodi tobora ko'proq foydalanilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog-tarbiyachilardan maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning samarali innovasion shakllarini ishlab chiqishni va amaliyotga tadbiq etishni talab qiladi. Ushbu vazifani amalga oshirishda innovasion hamkorlik shakllarini izlash va tadbiq etish, pedagoglar, ota-onalar va ayniqsa tarbiyalanuvchilarning dolzarb faoliyatiga aylanmoqda.

Hamkorlikdagi faoliyat shakllarini tanlash, birinchi navbatda, maktabgacha yoshdagi bolaning psixologik xususiyatlari, faoliyatning etakchi turi, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari, tarbiyachilar va maktabgacha ta'lim muassasalari mutaxassislarining kasbiy mahoratiga, ota-onalarning birgalikdagi faoliyatga qiziqishi va jalb etilishiga bog'liq bo'ladi.

Loyiha metodi Jon Dyui tomonidan pedagogikada qo'llaniladigan pragmatizm falsafasi g'oyalariga asoslanadi . Amerikalik faylasuf va pedagog XX-asr boshlarida Qo'shma Shtatlardagi iqtisodiy o'zgarishlar va ilmiy-texnika taraqqiyotining ta'siri bilan shartlangan ta'limning pragmatik nazariyasini ilgari surdi. Bu omillarni ta'lim kontekstida tahlil qilib, D.Dyui maktab funksiyasining o'zgarishi to'g'risida xulosaga keldi va instrumental yondashuvga asoslangan pragmatizmning progressiv pedagogikasini tinglashning klassik bilim pedagogikasiga qarama-qarshi qo'ydi.

D.Dyui pedagogikasida instrumental motivlar va pragmatik tamoyillar jamiyatda hayotga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur shart-sharoitlar sifatida harakat qiladi U mehnatni bolani har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida bunday tayyorgarlikning eng muhim qismi deb hisobladi va shunga muvofiq u bolalar faoliyatining uchta darajasini aniqladi - 1) sezgi a'zolari uchun vazifalar va muvofiqlashtirishni rivojlantirish, 2) atrof-muhitda topilgan materiallar va asboblardan keyingi faoliyat uchun foydalanish, 3) muammolarni aniqlash va ularni mustaqil ravishda o'rganish, yangi g'oyalarni ishlab

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

chiqarish qobiliyatini shakllantirish.

D.Dyuining ilg'or pedagogikasi yangi shaxsiy fazilatlarni, shuningdek, insonning ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan kapitalistik jamiyatning o'zgaruvchan sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan edi.

Bizning davrimizda loyiha metodi jarayonida bolalar va pedagoglar o'rtasida maqsadli muloqotni tashkil etish vositasiga aylanadi, ta'lim vazifalari hal etiladi, ma'lumotlar almashinuvi amalga oshiriladi va uni loyiha natijasida ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotni yaratish uchun qo'llaniladi.

Loyiha faoliyati bolaning madaniy amaliyotining bir turi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, uni rivojlantirishga qaratilgan universal madaniy harakatlar metodlari (ko'nikmalar), unga hayot va faoliyatning barcha sharoitlarida harakat qilishga yordam beradigan universal vakolatlar.

Loyiha metodi - bu aniq bilimlarni birlashtirishga emas, balki uni qo'llash va yangi bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyadir. Bu tarbiyalanuvchini faol holatda ushlab turish bilan birga, murakkab muammolarni hal qilish jarayonida ishtirok etadigan ta'lim modelidir. Loyiha metodi bolaning shaxsiyatini, kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uning natijasini ko'rish, tushunish va real amaliy faoliyatda qo'llash mumkin. Loyiha natijasi - faoliyat tajribasi - tarbiyalanuvchi uchun juda zarur bo'lib, bilim va ko'nikmalar, malakalar va qadriyatlarni birlashtiradi. Loyiha metodi hozirgi ta'lim jarayonida juda dolzarb va juda samarali xisoblanadi. Bola tug'ilgandan boshlab, uni o'rab turgan dunyoni kashf etuvchi, kashfiyotchisidir. Ammo kundalik hayotda bola o'zini qiziqtirgan barcha savollarga javob topa olmaydi, bunda unga pedagoglar, ota-onalar yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar muammoli ta'lim metodidan keng foydalanadilar: mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar, muammoli vaziyatlarni modellashtirish, eksperiment, eksperimental tadqiqot faoliyati, krossvordlar, sharada, boshqotirmalarni yechish va hokazo. Ammo loyiha asosida o'qitish metodi maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari uchun innovasion hisoblanadi. Loyihani tayyorlash uchun pedagogning taxminiy ish rejasini quyidagicha tuzish mumkin:

-Loyihaning maqsadini ta'lim yo'nalishlarida ko'nikma va ko'nikmalarning rivojlanishini monitoring qilish yoki o'quvchilar shaxsiyatining integrativ fazilatlarining rivojlanish darajasini kuzatish asosida belgilash. Shuningdek, bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish kerak.

-Maqsadga erishish uchun rejani ishlab chiqish. Agar kerak bo'lsa, loyihaning tegishli bosqichlarini amalga oshirishga mutaxassislarni jalb qilishi mumkin.

-Loyiha mavzusini ota-onalar bilan muhokama qilish va ularni loyihani amalga oshirishga jalb qilish.

-Materiallarni to'plash, jamlash.

-Mashg'ulotlar, o'yinlar, kuzatishlar, ekskursiyalar va bolalar faoliyatining boshqa turlarini, ya'ni loyihaning asosiy qismidagi tadbirlarni o'tkazish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

-Bolalarning (yoki bolalarning ota-onalari bilan birgalikda) mustaqil ijodiy ishlarni - qo'l ijodi, rasmlar, albomlar va boshqalarni tayyorlash.

-Loyihaning yakuniy natijasi uning mahsulotidir. Bu bayram, ochiq dars, ko'rgazma, viktorina, spektakl va boshqalar bo'lishi mumkin.

-Loyiha faoliyati natijalarini tahlil qilish, keyingi ish rejasini tuzish. Loyiha taqdimoti bilan tanishtirish.

Hozirgi vaqtda loyihalar quyidagi tasniflanadi: ishtirokchilar tarkibi bo'yicha; maqsadni belgilash orqali; mavzu bo'yicha; amalga oshirish muddatlari bo'yicha. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotida quyidagi turdagi loyihalar qo'llaniladi: ilmiy-tadqiqot va ijodiy loyihalar: bolalar tajriba o'tkazadilar, so'ngra natijalar gazetalar, dramatizasiya, bolalar ijodi shaklida taqdim etiladi. Rolli o'yin loyihalari (ijodiy o'yinlar elementlari bilan, bolalar ertak qahramonlari rolini o'z zimmalariga olganlarida va muammolarni o'zlari hal qilganda). Axborot-amaliy yo'naltirilgan loyihalar: bolalar ma'lumot to'playdi va uni amalga oshiradi, ijtimoiy manfaatlarga e'tibor qaratadi (guruhni loyihalash va bezash, vitrajlar va boshqalar). Ijodiy loyihalar (natijani bolalar bayrami shaklida taqdim etish, bolalar ijodi). Davomiyligi bo'yicha loyihalar qisqa muddatli (bir yoki bir nechta darslar), o'rta muddatli yoki uzoq muddatli (masalan, butun o'quv yili uchun) bo'lishi mumkin.

Loyiha faoliyati bolaning kognitiv va ijodiy rivojlanishini faollashtirish va shu bilan birga bolaning shaxsiy fazilatlarini shakllantirishning didaktik vositasidir. Loyiha davomida bolalar tomonidan olingan bilimlar ularning shaxsiy tajribasining bir qismiga aylanadi. Tajriba qilish orqali bola savolga javob izlaydi va shu bilan ijodiy qobiliyat va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bir qator olimlar loyiha faoliyatini maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning integrasiyalashgan metodining bir varianti, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro ta'siriga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil yetish metodi sifatida, bosqichma-bosqich amaliy maqsadga yerishish uchun amaliy faoliyat sifatida qaraydilar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida loyiha metodining pedagogik ahamiyati shundaki, u:

- har bir bolaning shaxsiyatini rivojlantiradi;

-hayotiy tajribani shakllantirish imkoniyatlarini ochadi;

- tarbiyalanuvchi, pedagog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik tamoyilini amalga oshiradi;

- jamoaviy va individual ijodkorlikni birlashtiradi;

- bolaning kognitiv faolligini, ijodkorligini va mustaqilligini rag'batlantiradi. Loyiha faoliyati davomida tarbiyalanuvchilar birlamchi tadqiqot, axborot, mulohaza yuritish, baholash, taqdimot va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Pedagog tomonidan loyiha metodidan foydalanish zamonaviy sharoitda maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonining muhim va ajralmas qismi bo'lib, tarbiyalanuvchining kognitiv faolligini faollashtirishga imkon beradi, har bir taarbiyalanuvchining individual fazilatlarini namoyon bo'lishiga yordam beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Безрукова В.С. Педагогика. Проективная педагогика. Учебное пособие. - Екатеринбург: Бизнес-бук, 2006. -152 с.
2. Муравьева Г.Е. Проектирование технологий обучения. Учебное пособие. - Иваново, 2001. - 44 с.
3. Муслимов Н. А., Уразова М. Б., Эшпулатов Ш. Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси //Тошкент: Fan va texnologiya. – 2013. – Т.: 160 б.
4. Эшпулатов Ш. Н., Пардаева Г. С. Глава 7. Подготовка будущих учителей начальных классов к инновационной деятельности в системе высшего образовательного учреждения //Innovations in education. – 2015. – С. 69-86.
5. Уразова М. Б., Эшпулатов Ш. Н. Педагогическое проектирование как эффективный способ организации самостоятельной работы студентов //Педагогические науки. – 2012. – №. 4. – С. 14-18.
6. Эшпулатов Ш. Н. Implementation of pedagogical design in preparing the future teacher for innovative activities// Eurasian Scientific Herald. -2023, Volume 21| June
7. Pardayeva G.S. Bo’lajak o’qituvchilarni kasb hunarlarga yo’naltirish ishlariga tayyorlashni takomillashtirish. Jur., Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 2024, 27(1), 132–134.
8. Pardayeva G. Modern technologies in primary classrooms // Integration of science, education and practice. - 2021. - S. 42-45.
9. Eshpulatov Sh.N., Pardaeva G.S. Chapter 7. Preparation of future elementary school students for innovative work in the system of higher educational institutions // Innovations in education. - 2015. - S. 69-86.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Eshpulatov Shakir Nabievich**, o’qituvchi [**Эшпулатов Шакир Набиевич**, преподаватель], [**Eshpulatov Shakir Nabievich** teacher,]; manzil: Universitet xiyoboni 15, Samarqand, Samarqand viloyati, [адрес: Университетский проспект 15, Самарканд, Самаркандская область], [address: 15 Universitetskiy Prospekt, Samarkand, Samarkand region.]

✉**Gulchehra Safarovna Pardayeva**, katta o’qituvchi [**Гульчехра Сафаровна Пардаева**, старший преподаватель], [**Gulchehra Safarovna Pardayeva** senior lecturer,]; manzil: Samarqand viloyati, Samarqand, Spitamen shoh ko'chasi, 166, [адрес: Самаркандская область, Самарканд, проспект Спитамен, 166], [address: Samarkand region, Samarkand, Spitamen Avenue, 166.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI ASOSIDA O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI

© S.S. Evatov[1]✉

[1]Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik asosida o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda oila va maktabning integratsiyalashgan sa’y-harakatlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda oila va maktab hamkorligiga asoslangan pedagogik texnologiyani ishlab chiqish va uning samarali qo‘llanilishi uchun uslubiy asoslarni aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida ta’limiy texnologiyalar, refleksiv yondashuv, lokal-modulli texnologiyalar tahlil qilindi. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar, to‘garaklar, interfaol metodlar, muloqot madaniyatiga oid metodik bosqichlar asosida texnologiyaning tarkibiy qismlari ishlab chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, oila va maktab hamkorligi asosida tashkil etilgan kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi o‘quvchilarda muloqot madaniyati, empatiya, o‘zaro hamkorlik va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Lokal-modulli yondashuv orqali kommunikativlik bosqichlari aniq belgilandi.

XULOSA: mazkur texnologiyaning joriy etilishi o‘quvchilar shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlab, o‘qituvchilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetentlik, o‘smir yosh, pedagogik texnologiya, oila-maktab hamkorligi, muloqot ko‘nikmalari.

Iqtibos uchun: Evatov S.S. Oila va maktab hamkorligi asosida o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasi. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.126–136.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ СЕМЬИ И ШКОЛЫ

© С.С. Эватов[1]✉

[1] Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются педагогические технологии развития коммуникативной компетентности подростков на основе взаимодействия семьи и школы. Совместные усилия педагогов и родителей признаны ключевым фактором формирования у учащихся навыков общения.

ЦЕЛЬ: цель исследования — разработать педагогическую технологию, способствующую формированию коммуникативной компетентности подростков в условиях сотрудничества между школой и семьёй.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы рефлексивные и модульные подходы, практические занятия и межличностные методики взаимодействия. Создана локально-модульная технология, включающая аналитический, организационно-подготовительный, деятельностный, мониторинговый и рефлексивный этапы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что внедрение технологии на основе школьно-семейного взаимодействия позволяет формировать у подростков навыки конструктивного общения, критического мышления, эмпатии и социальной ответственности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: разработанная технология доказала свою эффективность в формировании коммуникативной компетентности учащихся подросткового возраста, а также способствует улучшению профессиональной подготовки учителей в сфере педагогического общения.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, подростковый возраст, педагогическая технология, сотрудничество семьи и школы, коммуникативные навыки.

Для цитирования: Эватов С.С. Педагогическая технология развития коммуникативной компетентности учащихся подросткового возраста на основе взаимодействия семьи и школы.// Inter education & global study.2025. №6(1). Vol.3 С. 126–136.

PEDAGOGICAL TECHNOLOGY FOR DEVELOPING THE COMMUNICATIVE COMPE OF ADOLESCENT STUDENTS BASED ON THE INTERACTION OF FAMILY AND SCI

© Saminjon S. Evatov[1]✉
[1] Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores pedagogical technologies aimed at developing the communicative competence of adolescent students through school-family collaboration. Joint actions of parents and teachers are recognized as vital for fostering students' communication skills.

AIM: the main aim of the research is to develop a pedagogical technology that enhances communicative competence in adolescents through structured cooperation between schools and families.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MATERIALS AND METHODS: the study utilized reflective and modular approaches, practical activities, and interpersonal strategies. A local-modular technology was created, comprising analytical, organizational-preparatory, activity-based, monitoring, and reflective stages.

DISCUSSION AND RESULTS: the results show that the implementation of this technology contributes to the development of interpersonal communication, empathy, and social engagement among students. The structured levels of communicative competence were successfully defined through localized pedagogical interventions.

CONCLUSION: the proposed technology proves effective in developing communicative competence among adolescent learners and supports teachers in building a strong culture of pedagogical communication.

Keywords: communicative competence, adolescence, pedagogical technology, family-school collaboration, communication skills.

For citation: Saminjon S. Evatov. (2025) 'Pedagogical technology for developing the communicative competence of adolescent students based on the interaction of family and school', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.126–136. (In Uzbek).

Bugungi globallashuv sharoitida oila va maktab ta'limi hamkorligida o'smir yoshdagi o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri – mazkur jarayonni texnologik asosda tashkil etishdir. Zero, «ta'lim standartlarini amalga oshirish bilan bir qatorda tarbiya standartalrini ham yaratishimiz kerak»[1; 150]. Shu bilan birga, «uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti»[2; 270]. Mana shunday fazifalarni to'g'ri amaldga oshirish uchun zamonaviy pedagogikada ta'limiy, pedagogik, tarbiyaviy, o'qitish texnologiyalari ajratib ko'rsatiladi va pedagogik jarayonda qo'llaniladi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar masalalariga kuchli e'tibor qaratish, ta'lim-tarbiya masalalariga yangicha yondashuvni olib kirish, yoshlarda muloqotchanlik fazilatlari rivojlanish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun «Mahalla» va «Nuroniy» kengashlari, xotin-qizlar qo'mitalari, deputatlar, siyosiy partiyalar maktab muammolari bilan yaqindan va jiddiy shug'ullanishi kerak. Holbuki, ularni yechish bo'yicha aynan shu tashkilotlar jonbozlik ko'rsatishi zarur»[1; 152-153]. Shu bois, bugungi islohotlar sharoitida oila va maktab hamkorligi asosida o'smir yoshidagi o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli va shu model asosida ta'lim texnologiyasini yaratish muhim vazifalardan biridir.

O'qitish metodlari o'quv jarayonida ishtirok etadigan ikki ishtirokchi: o'qituvchi va o'quvchi faoliyatidangina iborat bo'lmay, balki o'quv materiali mazmuni, o'qituvchi va o'quvchi shaxsi, ular orasidagi munosabatlar singari birgalikda faoliyat ko'rsatadigan uch jihatni aks ettiradi. O'qituvchining ta'lim mazmuni va o'quvchi bilan birgalikdagi faoliyatini tahlil qilib shuni aytish mumkinki, o'quv materiali mazmuni o'qituvchi va o'quvchi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

munosabatlarida muhim ahamiyatga ega. Ta'limning o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi didaktik faoliyat turi bilan uyg'unligi metodning samaradorligini ta'minlaydi.

Oila va maktab hamkorligi asosida o'smir yoshidagi o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi refleksiv yondashuvning konseptual asoslariga tayangan holda loyihalashtirilib, maqsadga yo'naltirilgan, tizimli tavsifga ega quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oldi: analitik – o'smir yoshdagi o'quvchilarning kommunikativlik kompetentligini rivojlantirishga oida ma'lumotlarni to'plash, tahlil etish, umumlashtirish va baholash; tashkiliy-tayyorlov – texnologiyani amalga oshirish istiqbolini aniqlashtirish, pedagogik jarayon shakl, metod va vositalarini tanlash, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish; faoliyatga doir – oila va maktab hamkorligi asosida o'smir yoshidagi o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik texnologiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish; monitoring – oila va maktab hamkorligi asosida o'smir yoshidagi o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish dinamikasini baholash, zaruriyat yuzaga kelganda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritish; natijaviy – natijalarni baholash va ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning istiqboldagi vazifalarini aniqlashtirish.

Amaliy faoliyatlar o‘quvchilarda ekologik qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Zakariyyo R. tomonidan ilgari surilgan bilim–ong–faoliyat integratsiyasi g‘oyasi amaliy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yondashuvda o‘z ifodasini topadi [11].

Qosimova M. texnologiya fanida ekologik faoliyatni tashkil etish orqali o‘quvchilarda faol fikrlash va ekologik ongni shakllantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlarida o‘quvchilarning amaliy faoliyatlar orqali ekologik bilimlarni mustahkamlashi, maktab sharoitida atrof-muhitga doir muammolarni anglab yetishi va ularga yechim izlashga intilishi ilmiy asoslangan holda yoritilgan [12].

Bizning fikrimizcha texnologiya fanini o’qitish jarayonida o’quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun quyidagi ketma-ketlikka amal qilish lozim bo’ladi.

qayta ishlov beriladigan materiallardan foydali buyum tayyorlash;

"tabiat uchun foydali g‘oya" mavzusida mini-loyihalar tayyorlash;

chiqindilarni ajratish va qayta ishlash;

ekologik dizayn asosida maketlar yaratish;

ekologik plakat, shior, banner tayyorlash.

Texnologiya darslarida o’quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda “Yashil dars” (Green Lesson) metodidan foydalanish metodikasini “: Yog‘och chiqindilaridan foydalanib dekorativ ramka tayyorlash” mavzusi misolida qarab chiqamiz

Mavzu: Yog‘och chiqindilaridan foydalanib dekorativ ramka tayyorlash(2 soat) Sinfi: 6-sinf

Fani: Texnologiya

Dars turi: Innovatsion-amaliy, ekologik yo‘naltirilgan

Metod: “Yashil dars” (Green Lesson)

Dars maqsadlari:

Ta’limiy:

Yog‘och materiallari, chiqindilari va ularni qayta ishlash texnologiyasi haqida bilim berish;

O‘lchash, kesish, yopishtirish, pardozlash kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Sharq allomalarining tabiatga doir qarashlari asosida ekologik tafakkurni boyitish.

Tarbiyaviy:

O‘quvchilarda ekologik madaniyat va “yashil” tafakkurni rivojlantirish;

Mehnatsevarlik, jamoada ishlash, tozalik va mas’uliyat hissini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi:

Mustaqil fikrlash, dizayn qilish, eskiz chizish va loyihalashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish;

“Qayta foydalanish” g‘oyasi orqali muammoga echim topish.

Darsni tayyorlash uchun o‘qituvchiga ko‘rsatmalar:

Avesto hikmati: “Yerni obod etish – yovuzlikni yengish.”

O‘qituvchi izohi: “Bu degani, har birimiz tabiatni asrash orqali jamiyatda yaxshilik va obodlikni yaratamiz.”

Chiqindi yog‘och parchalari, ishlatilgan taxtachalar, eski ramka qismlarini to‘plang.

Har bir guruh uchun xavfsiz ishlov vositalari: qalam, lineyka, elim, kichik bolg‘acha, qum qog‘oz, qaychi va boshqalar tayyorlab qo‘yilsin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Interaktiv material (slayd, rasm, video) orqali “yashil dars” tushunchasini tushuntirishga tayyorgarlik ko‘ring.

Dars strukturasi:

Bosqich	Faoliyat
Kirish (10 daqiqa)	O‘quvchilarning e’tiborini ekologik muammo va yog‘och chiqindilarga jalb qilish. “Sizda qanday chiqindi bor? Uni nima qilish mumkin?” kabi savollar beriladi.
Nazariy qism (15 daqiqa)	Yog‘och materiallari turlari, xavfsiz ishlash qoidalari, chiqindini ishlatish afzalliklari haqida tushuntirish beriladi.
Amaliy qism (45 daqiqa)	Guruhlar ramka tayyorlashni boshlaydi. O‘qituvchi kuzatadi, yordam beradi. O‘quvchilarning mustaqil ishlashiga imkon yaratiladi.
Muhokama va baholash (10 daqiqa)	Har bir guruh ishi ko‘rib chiqiladi, qanday chiqindi ishlatilgani, ekologik foydasi muhokama qilinadi.
Uyga vazifa (10 daqiqa)	Uyda mavjud chiqindi asosida kichik buyum loyihasini chizish va ekologik izoh yozish topshiriladi.

O‘quvchilar bilan ishlash uslubi:

Savol: “Uyda foydalanilmay qolgan yog‘och buyumlar bilan nima qilamiz?”

Dars mavzusi va maqsadi tushuntiriladi.

Beruniy hikmati: “Tabiatni tushunish uchun — tabiatdan o‘rganish kerak.”

O‘qituvchi: “Shunday ekan, bugun biz tabiat bergan chiqindi yog‘ochdan yangi, foydali mahsulot yasaymiz.”

Guruhlar shakllantirilganda har bir guruhga mas’ul shaxs belgilang (jamoaviy ishga tayyorlash).

“Yashil fikr” uchun rag‘bat: ekologik ongli qaror qabul qilgan guruhlar rag‘batlantiriladi.

Fikr almashinuvi: har bir ishda qanday material ishlatilgani, qanday qayta foyda berilishi muhokama qilinadi.

Baholash mezonlari:

Mezoni	Ball (maks. 5)	Izoh
Texnik xavfsizlikka rioya qilish	5	Asboblardan to‘g‘ri va ehtiyotkorlik bilan foydalanganligi
Ramkaning mustahkamligi	5	Yelimlash va bog‘lash sifatiga qarab
Ekologik yechimning dolzarbligi	5	Qanday chiqindi ishlatilgani, nima uchun aynan shu
Dizayn va ko‘rinish	5	Estetik ko‘rinish, ijodiy yondashuv
Guruhdagi hamkorlik	5	Faol ishtirok va jamoada ishlash

“Yashil dars” metodining afzalliklari:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘quvchilar ekologik muammolarga befarq bo‘lmaydi;
texnologik jarayonlar orqali hayotiy ko‘nikmalar hosil qiladi;
qayta ishlash, tejash va ekologik dizayn asoslari o‘rgatiladi;
innovatsion yondashuv orqali darsga qiziqish ortadi.

“Yashil dars” metodikasi asosida 6-sinf texnologiya darslari uchun Chiqindi yog‘ochdan “Tabiat manzarasi” ramkasi tayyorlash loyihasini keltiramiz.Loyiha maktab sharoitida o‘tkazilishi mumkin va u o’quvchilarda ekologik madaniyatga oid amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

LOHIYA: Chiqindi yog‘ochdan “Tabiat manzarasi” ramkasi

Ibn Sino fikri: “Inson salomatligi va muhit tozaligi o‘zaro bog‘liqdir.”

O‘qituvchi: “Demak, chiqindini yo‘q qilish emas, undan foydalanish – bu salomatlik va iqtisod uchun foydali yo‘ldir.”

Maqsad: Chiqindi yog‘och bo‘laklaridan foydalanib dekorativ ramka yasash va unga tabiiy materiallardan (barg, shoxcha) kompozitsiya joylashtirish.

Kerakli materiallar:
Yog‘och bo‘laklari (4 ta taxtacha)
Elim (yog‘och elim yoki “Moment”)
Qog‘oz (fon uchun)
Barglar, quritilgan gullar, shoxcha
Qalam, chizg‘ich, qaychi

Ish bosqichlari:
1. Yog‘och bo‘laklarini o‘lchab, ramka shaklida birlashtirish.
2. Ramka ichki qismiga qog‘ozdan fon joylashtirish.
3. Tabiiy materiallardan kollaj kompozitsiya yasash.
4. Ramkani pardozlash, xohlovchi o‘quvchilar bo‘yashi mumkin.

Ekologik asos:
- Chiqindi yog‘ochdan foydalanish.
- Qayta ishlangan tabiiy materiallardan (barg, shox) foydalanish.



ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Xulosa hikmati (Al-Xorazmiy): “Ilm bilan tabiatga yaqinlashgan kishi – eng dono kishidir.”

O‘qituvchi yakun so‘zi: “Bugungi amaliy ishimiz faqatgina buyum emas, balki tabiatga mehr ifodasidir.”

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya darslari orqali o‘quvchilarga ekologik bilim berish — zamonaviy ta’limning eng dolzarb va strategik yo‘nalishlaridan biridir. Maqolada IMRAT modelining bosqichlari asosida chuqur tahlil qilinganidek, texnologiya fanining amaliy va nazariy mazmuni ekologik tarbiya berish uchun keng imkoniyatlarga ega.

Ilmiy jihatdan, qadimgi Sharq allomalari — Ibn Sino, Forobiy, Beruniy va Al-Xorazmiylarning tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabat haqidagi qarashlari bugungi ekologik ongni shakllantirishning nazariy negizini tashkil etadi. Gekkel, Turdiqulov, Sayidahmedov, Shodiev va boshqa zamonaviy olimlarning tadqiqotlari esa ta’lim jarayonida ekologik savodxonlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Metodik jihatdan, texnologiya fanida ekologik tarbiya interfaol dars metodlari, qayta ishlanadigan materiallar, ekologik dizayn, salomatlikni ta’minlovchi gigiyenik qoidalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali shakllantiriladi. Dars jarayonida o‘quvchilarda ekologik madaniyat, barqaror rivojlanishga daxldorlik, estetika va mehnat madaniyati uyg‘un rivojlanadi.

Amaliy tajribalar asosida shuni aytish mumkinki, ekologik jihatdan asoslangan texnologiya darslari o‘quvchilarda nafaqat ekologik fikrlashni, balki kasbiy yo‘nalishni, ijtimoiy faollikni va mas’uliyatni ham shakllantiradi. “Dasturxon tuzash” kabi mavzular orqali kundalik hayotga yaqin, estetik va ekologik faoliyatlarni birlashtirish orqali o‘quvchi ongiga ta’sir etuvchi kuchli pedagogik muhit yaratiladi.

Ekologik tarbiya ta’lim tizimining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, texnologiya darslari orqali yosh avlodda ekologik ong, ekologik madaniyat va barqaror rivojlanishga daxldorlikni shakllantiradi. IMRAT modeli asosidagi ilmiy-metodik va amaliy-tajribaviy yondashuvlar ekologik ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Karimov I.A. (1997). O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. – T.: O‘zbekiston.
2. Avesto (tarj. va izohlar bilan). – T.: Yozuvchi, 2001.
3. Beruniy A.R. (1980). Tanlangan asarlar. – T.: Fan.
4. Ibn Sino A.A. (1981). Tib qonunlari. – T.: Fan.
5. Forobiy A.N. (1993). Fozil odamlar shahri. – T.: Sharq.
6. Turdiqulov E.O. (1999). Uzluksiz ekologik ta’lim kontseptsiyasi. – T.: TDPU nashriyoti.
7. Sayidahmedov N.S. (2005). Pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya.
8. Juraev R.H. (2002). Kasbga yo‘naltirishda zamonaviy yondashuvlar. – T.: O‘qituvchi.
9. Xo‘jabayev A.R. (2004). Mehnat ta’limi asoslari. – T.: TDPU.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

10. Gekkel E. (1866). «Organizmlarning umumiy morfologiyasi. – Berlin.
11. Zakariyyo R. (1996). Ilm va insoniyat. – T.: Sharq.
12. Qosimova M. (2020). Ekologik ta'lim va tarbiya. – T.: Oliy ta'lim.
13. Shodiev I.T. (2003). Mehnat ta'limi va ekologik tarbiyaning integratsiyalashuvi. – T.: TDPU.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Igamov Sobir Salimovich**, dotsent [**Игамов Собир Салимович**, доцент], [**Igamov Sobir Salimovich** associate professor]; **Matluba Toshova Abduvoit qizi**,assistent [**Матлуба Тошова Абдувоит кизи**,ассистент], [**Matluba A.Toshova** assistant,]; manzil: Samarqand viloyati, Samarqand, Spitamen shoh ko'chasi, 166, [адрес: Самаркандская область, Самарканд, проспект Спитамен, 166], [address Samarkand region, Samarkand, Spitamen Avenue, 166]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TEACHING METHODOLOGY ON THE TOPIC: THE RELATIONSHIP OF METABOLIC PROCESSES IN THE DIGESTIVE SYSTEM OF KARAKOL LAMBS ON THE PHYSICAL STATE OF THE EMU

© K.T. Ismailov[1]✉

[1]Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the effect of feeding Karakol lambs with chemically treated roughage and camelthorn using ammonia water, focusing on the impact this has on metabolic processes in the rumen. It explores the correlation between feed quality and lamb productivity.

AIM: the main objective of the study is to assess how chemical treatment of supplementary roughage affects nutrient composition and digestion, and to identify the impact of metabolic changes on growth and productivity in Karakol lambs.

MATERIALS AND METHODS: the research involved 10 Karakol lambs aged 7.5–8 months under controlled feeding conditions. Rumen fluid was analyzed for pH, microbial counts, volatile fatty acids, ammonia, and nitrogen content. Standard biochemical and statistical methods were used.

DISCUSSION AND RESULTS: treatment of roughage with ammonia water led to increased microbial activity, higher volatile fatty acid production, and better nitrogen utilization in the digestive system. Significant differences were observed in pH levels, microbial concentration, and protein metabolism between experimental and control groups.

CONCLUSION: ammonia-treated feed improves fermentation and digestion efficiency in Karakol lambs, resulting in higher productivity and better nutrient assimilation. This highlights the importance of optimizing feed treatment for ruminants in arid environments.

Keywords: karakol lambs, metabolism, roughage, ammonia treatment, nitrogen compounds, microbial fermentation, rumen fluid, productivity, biochemical indicators.

For citation: Ismailov K.T. (2025) 'Teaching methodology on the topic: the relationship of metabolic processes in the digestive system of karakol lambs on the physical state of the emu', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.173–181 (In Eng).

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПО ТЕМЕ: ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕТАБОЛИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ПИЩЕВАРИТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ КАРАКОЛЬСКИХ ЯГНЯТ С ФИЗИЧЕСКИМ СОСТОЯНИЕМ ЭМУ

© К.Т. Исмаилов[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается влияние кормления каракульских ягнят грубым кормом и верблюжьей колючкой, обработанными аммиачной водой, на метаболические процессы в рубце. Анализируется взаимосвязь качества корма с продуктивностью животных.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — определить, как химическая обработка кормов влияет на состав питательных веществ и процессы пищеварения, а также как изменения обмена веществ влияют на рост и продуктивность каракульских ягнят.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании участвовали 10 каракульских ягнят 7,5–8 месяцев. Проводились анализы содержимого рубца: pH, количество микроорганизмов, летучие жирные кислоты, аммиак и азотистые соединения. Использовались стандартные биохимические и статистические методы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обработка грубых кормов аммиачной водой способствовала повышению микробной активности, усилению синтеза летучих жирных кислот и лучшему усвоению азота. Зафиксированы достоверные различия между опытной и контрольной группами по показателям метаболизма.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: кормление аммиачно-обработанным кормом повышает эффективность пищеварения и ферментации у каракульских ягнят, способствуя росту продуктивности и лучшему усвоению питательных веществ. Это подчёркивает значимость оптимизации кормления в условиях засушливых регионов.

Ключевые слова: каракульские ягнята, метаболизм, грубые корма, аммиачная обработка, азотистые соединения, микробная ферментация, рубец, продуктивность, биохимические показатели.

Для цитирования: Исмаилов К.Т. Методика преподавания по теме: взаимосвязь метаболических процессов в пищеварительной системе каракольских ягнят с физическим состоянием эму.// Inter education & global study.2025. №6(1). Vol.3 С.173–181.

MAVZU BO'YICHA O'QITISH METODIKASI: QORAKO'L QO'ZILARINING OVQAT HAZM QILISH TIZIMIDAGI METABOLIK JARAYONLARNING EMUNING JISMONIY HOLATI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI

© K.T. Ismailov[1]✉
[1] Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada qishki davrda karakul qo‘ylari uchun qo‘shimcha ozuqa sifatida ishlatiladigan somon va qandimning ammiakli suv bilan kimyoviy ishlovi metabolik jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – ammiakli suv bilan ishlov berilgan qo‘shimcha ozuqaning ozuqa tarkibi va hazm qilishga ta’sirini aniqlash, shuningdek, bu o‘zgarishlarning karakul qo‘ylari o‘sishi va mahsuldorligiga ta’sirini o‘rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda 7,5–8 oylik 10 ta karakul qo‘zi ishtirok etdi. Ularning ovqat hazm qilish tizimida pH, mikroorganizmlar soni, uchuvchi yog‘ kislotalari, ammiak va azot birikmalari tahlil qilindi. Biokimyoviy va statistik usullar qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ammiakli suv bilan ishlov berilgan ozuqalar mikroorganizmlar faolligini kuchaytirib, fermentatsiya jarayonini yaxshilab, azotdan samarali foydalanishga olib keldi. Nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlangan.

XULOSA: ammiak bilan ishlov berilgan ozuqa karakul qo‘zilarining hazm qilish tizimida fermentatsiyani yaxshilab, mahsuldorlikni oshiradi. Bu esa, cho‘l sharoitida ruminantlar uchun optimal oziqlantirish texnologiyalarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: karakul qo‘zilari, metabolizm, somon, ammiak ishlovi, azot birikmalari, mikroblar fermentatsiyasi, rubetsuyu, mahsuldorlik, biokimyoviy ko‘rsatkichlar.

Iqtibos uchun: Ismailov K.T. Mavzu bo'yicha o'qitish metodikasi: Qorako'l qo'zilarining ovqat hazm qilish tizimidagi metabolik jarayonlarning emuning jismoniy holati bilan o'zaro bog'liqligi. // Inter education & global study. 2025. №6(1). Vol.3 B. 173–181. (In Engl)

It is known that in the digestive system of ruminants, microorganisms participate not only in protein synthesis, but also in improving the quality of consumed proteins by enriching their composition.

Considering that all essential amino acids are synthesized in the digestive fluid of karakul sheep with the participation of the functioning microflora and microfauna, they do not feel the need for the constant presence of these amino acids in their diet, since they are ruminants and synthesize some of the necessary amino acids for the body with the help of microflora.

Therefore, studying the organic relationship between the nature and direction of biological processes in the biosynthesis of complete proteins in the digestive system of Karakul lambs and feeding factors, as well as developing physiologically and biochemically substantiated scientific recommendations that ensure the effective use of feeds to increase the productivity of Karakul sheep, is considered one of the urgent problems.

The purpose and objectives of the research work: The main goal of the research was to study the biochemical and microbiological processes occurring in the digestive system of Karakul lambs fed with roughage in various physical states.

- to achieve this goal, we set ourselves the following specific tasks:
- to study the consumption of various types of roughage by lambs;
- to study the influence of the state of nutrients in the feeding ration on biochemical

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

and microbiological processes in the digestive system;

Literature review: The attention of many researchers has been drawn to the problem of studying the course of biological processes in protein biosynthesis in the rumen of ruminants. However, the scientific application of these biological processes has only recently begun, namely as a result of the reduction in the area of grazed pastures, the decrease in vegetation cover, and the use of roughage as the sole source of feed for sheep. This led to the addition of various synthetic nitrogen-containing substances (urea, saltpeter, and ammonium salts) to the diet of ruminants to compensate for the ongoing protein deficiency. The use of synthetic nitrogen-containing substances in feeding ruminants not only compensates for the deficiency of plant proteins in the diet but also enables more effective use of the proteins contained in the feed. [1,3,4].

Local and foreign scientists have revealed the basic principles of the digestive system activity and metabolism of ruminants. In most cases, research work in this direction was carried out on cattle and some small ruminants using rations consisting of natural feeds. [5].

Currently, the main focus is on developing scientifically based feeding types for fast-growing and productive animals, since the proteins received with the ration in the body of such animals are completely or mainly used for live weight gain or milk synthesis. In such cases, it is important to study the rapidly occurring metabolic processes, their metabolism and regulation in tissues and blood, and to explain the change in productivity depending on the state of metabolic processes. [7,8].

It has been established that the amount of fiber in the diet has a certain influence on the intensity of digestive processes in the forestomachs

It is known that the concentration of hydrogen ions in the rumen fluid is, to a certain extent, an indicator of the direction and intensity of microbiological processes in the rumen of ruminants, which are associated with the total amount of volatile fatty acids and their ratio, the rate of breakdown of feed proteins, the concentration of ammonia, and the synthesis of microbial proteins [2,9].

According to the literature, it was noted that when sheep were fed natural straw that was not treated with ammonia water, the acidity of the rumen fluid inhibited bacterial activity (Vrakin, Kurilav, et al.). Conversely, treatment with ammonia water neutralizes excess acid levels in the rumen, creating favorable conditions for intensifying cellulolytic bacteria activity there. [6].

For the research, 10 Karakul lambs aged 7.5-8.0 months with similar live weight, age, sex, and physiological condition, living in the natural desert ecological zone (Koson district, "Turon Karakulchilik" farm, Qashqadaryo region), were selected. Feeding of experimental animals was carried out according to a plan, taking into account that the biological value of the feed included in the ration fully satisfies the needs of the Karakul organism.

During the accounting period of physiological experiments, samples of the rumen contents were taken through a fistula inserted into the rumen. The number of bacteria in

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

the obtained samples was determined by direct microscopy in smears stained with methyl and fixed [3].

The obtained numerical data were obtained by E. Statistical processing according to the method of K. Merkureva (1974). [8].

Obtained results and their discussion.

Metabolism is the totality of morphobiological, physical, and biochemical changes occurring in the animal organism, ensuring its vital activity, productivity, and viability, and the metabolism of substances that ensure adaptations in unfavorable ecological conditions. This allows for the timely implementation of measures to protect the health of animals and the environment.

There is a certain correlation between the development of the animal organism and their nutrition and live weight, especially between growth and changes in live weight. At a certain age, the animal's live weight indicator is of great importance. Improving the digestion process of roughage, especially in fast-growing animals, leads to an increase in live weight, a relative increase in productivity, and a relatively faster slaughter weight.

In the positive solution of the problem of providing the population with biologically complete nutritional products and livestock raw materials, the black grouse, which is a desert animal, is invaluable. The biological characteristics of local Karakul lambs - their fertility, resistance to many diseases, lower requirements for the botanical, chemical composition and biological value of feed - make them sharply different from other livestock animals.

Therefore, when using straw and camel thorn as the main feed for supplementary feeding of local Karakul lambs in winter, they experience a significant shortage of basic substances, such as karakul protein and fat. In solving these problems, one of such reserves is the effective use of ammonia water, urea, and ammonium salts, products of the chemical industry.

The course of enzymatic processes in the parathyroid areas significantly affects the assimilation of fiber and other difficult-to-digest components of the diet by the body, as well as the synthesis of proteins and some vitamins, and determines the economic efficiency of feeding ruminants.

Although the production of special enzymes in the mucous membrane of the parotid compartments of ruminants has not been established, 85% of the digestible dry matter in feed, including about 70% of fiber, is digested in the rumen.

The primary fermentation of nutrients, the fermentation of nutrients, and the synthesis of new substances are carried out by microorganisms.

The basis for increasing the productivity of farm animals is their rational feeding. This requires, first of all, a thorough study of the physiological characteristics of the animal organism. In this regard, the study of biochemical processes occurring in the parotid chambers of ruminants, which significantly affect the metabolism and productivity of animals, is of great interest.

Consumed food is exposed to microorganisms in the rumen, causing fermentation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

and fermentation of cellulose, starch, pentose, and other carbohydrates. The final products of bacterial fermentation are volatile fatty acids, methane, ammonia, carbon dioxide gas, and others.

From the data presented in the table, it can be seen that the total amount of microorganisms in the rumen fluid of animals in the control group was 13.2 and 16.7% less than in the experimental group.

In the second experiment, adding camel thorn to the diet of the control group animals increased the concentration of hydroxyl ions in the rumen fluid to some extent, bringing the environment closer to a slightly acidic medium. Meanwhile, treating the roughage in the diet with ammonia water brought the rumen environment closer to neutral.

Table 1

Biochemical indicators of rumen fluid in lambs

№	Groups	Indicators			
		PH	Number of microorganisms, (thousand/ml)	Volatile fatty acids (mmol/100 ml)	Ammonia. (mmol/l)
Experiment 1					
1	Control	5,76	5,907 ± 4,09	8,02±0,33	11,21±0,47
2	Experiment	6,45	6,686 ± 5,31	8,20±0,49	12,14±0,39
Experiment 2					
3	Control	5,91	6,023 ± 3,29	8,14±0,44	12,01±0,37
4	Experiment	6,75	7,027 ± 4,91	8,31±0,30	12,49±0,45

Consumption of feed treated with ammonia water led to an increase in the total amount of volatile fatty acids in the rumen fluid, while a decrease in pH was observed. The products of carbohydrate fermentation were fully utilized by rumen microorganisms in the presence of non-protein nitrogen for the synthesis of their own body proteins.

Treatment of straw and other roughage with ammonia water improves the microbial digestion process of feed released as a result of cellulose breakdown, as evidenced by a significant increase in the concentration of volatile fatty acids in the rumen mass of animals in the experimental group compared to the control group. During this time, the molar percentage of acetic acid increased significantly, while butyric acid decreased somewhat.

Thus, feeding lambs with roughage treated with ammonia water ensures improved fermentation of feed in the rumen, which leads to an increase in the level of volatile fatty acids.

No significant differences in nitrogen metabolism were observed in the lambs of all four groups before feeding. However, 1 hour after feeding, it was found that the amount of protein nitrogen in the rumen mass of both experimental groups increased by 8.75 and

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

11.90 mg/% compared to the control group.

Table 2

Dynamics of changes in nitrogenous substances

	Indicators	Groups			
		Experiment 1		Expertiment 2	
		Control	Experiment	Control	Experiment
	Total protein, mg/%	93,38±1,3	92,60±1,4	92,68±1,3	93,12±1,2
	Protein nitrogen, mg/%	79,12±0,96	80,76±1,2	80,49±1,5	84,44±1,8
	Ammonia, mg/%	11,21±1,2	12,14±1,04	11,61±1,15	12,49±1,1
After 2 hours					
	Total protein, mg/%	122,5±2,08	142,25±2,79	139,7±2,22	158,7±2,6
	Protein nitrogen, mg/%	93,97±2,37	102,20±2,12	101,12±2,05	113,16±1,91
	Ammonia, mg/%	17,79±0,92	29,89±0,83	19,12±1,29	40,61±1,04
After 4 hours					
	Total protein, mg/%	115,18±1,76	138,35±2,5	130,20±2,15	155,42±1,98
	Protein nitrogen, mg/%	98,5±1,69	119,46±2,05	117,21±1,5	158,32±1,47
	Ammonia, mg/%	16,15±0,81	20,86±1,72	19,18±1,1	29,37±1,44

After 3 hours, an increase in the amount of protein nitrogen in the rumen mass sample by 21.2 and 35.07 mg/% was observed, respectively, compared to the animals of the experimental group. It can be seen that the increase in the number of various forms of nitrogen in the rumen of the experimental group of Karakul lambs, which consumed diets treated with ammonia water, was observed to occur at a significantly faster rate. As a result, it was observed that the synthesis process in the rumen of the experimental group animals prevailed over the decomposition process. In particular, the treatment of straw and other roughage with ammonia water ensured the intensification of the above-mentioned biosynthetic processes.

During the experiments, it was established that the concentration of ammonia in the rumen fluid of lambs in both control groups (11.21 - 11.61 mg/%) was not sufficient for microorganisms to exhibit their activity.

The concentration of ammonia in the rumen of animals in the experimental group, which received non-protein nitrogen in addition to the ration, reached a more favorable - acceptable level (29.89-40.61 mg/%).

Treatment of camel thorn and roughage with ammonia water, along with stimulating the appetite of sheep, has a positive effect on the digestive processes in the rumen, which also positively affects the utilization of nutrients in the diet. This necessitates further research to determine how it affects the nature of digestion of other nutrients in the sheep's digestive tract.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

REFERENCES| СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Викторов П.И., Менькин В.К. Методика и организация зоотехнических опытов - М. Агропромиздат., 1991.-с 38-65.
2. Георгиевский В.И. Физиология с.-х. животных. М.Колос.-1991
3. Кондрахин И.П., Курилов Н.В., Малахов А.Г. и др. Клиническая лабороторная диагностика в ветринарии Справочное издание –М : Агропромиздат, 1985. –С. 51-257
4. Курилов Н.В., Короткова Е.Н. Физиология и биохимия пищеварения у жвачных животных. М.Колос.,1972.396 с.
5. Методические рекомендации по химическим и биохимическим исследованиям продуктов животноводства и кормов. ВИЖ. Дубровицы, 1981.
6. (под.ред.проф.Ю.И.Раецкая).
7. Меркурьева Е.К. Генетика с основнами биометрии.Г.В. Шангин-Березовский. – М.Колос.-1983. 400 с.
8. Ismoilov K. T., “Interrelation of Viability and Productivity Indicators with Ethological Characteristics in the Growth and Development of Sur Karakol Lambs” CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES olume: 04 Issue: 02 | Mar-Apr 2023 ISSN: 2660-4159, 219-223
9. Ismailov K.T. INFLUENCE OF ADDING IODIZED SUPPLY SALT TO THE FEED ON THE HEMATOLOGICAL INDICATORS OF KORAKOL LAMB/ International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Germany-2024, p-22-26
10. Ismailov K.T. SEASONAL VARIABILITYOF HEMATOLOGICAL INDICATORS OF KORAKOL LAMBS LIVING IN DIFFERENT ECOLOGICAL AREAS/ СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАУКИ, ОБЩЕСТВА И ОБРАЗОВАНИЯ сборник статей VII Международной научно-практической конференции, Состоявшейся 27 декабря 2024г. в г. Пенза, С- 290-295.
11. Лебедев Г. Г. Физиология сельскохозяйственных животных. — М.: Колос, 2003. — 480 с.
12. Гордеев В. В. Анатомия и физиология овец и коз. — СПб.: Лань, 2017. — 384 с.
13. Шеин Е. М. Основы кормления овец. — М.: Колос, 1984. — 296 с.
14. Гаврилов Г. В. Пищеварение жвачных животных: монография. — Барнаул: АлтГАУ, 2008. — 220 с.
15. Сайбель Ю. М. Анатомо-физиологические особенности страусов. — Краснодар: КубГАУ, 2009. — 80 с.
16. Davies S. J. Emu. — Oxford University Press, 2002. — 176 p. *(на английском, но очень полезен)*
17. Fowler M. E. (Ed.). Zoo and Wild Animal Medicine. Current Therapy. 6th ed. — Saunders Elsevier, 2008. *(Глава про Ratites, включая эму)*

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

18. Шилов И. Ф. Сравнительная физиология пищеварения. — М.: МГУ, 1988. — 412 с.
19. Karasov W. H., Martinez del Rio C. Physiological Ecology: How Animals Process Energy, Nutrients, and Toxins. — Princeton University Press, 2007. *(англ.)*
20. Stevens C. E., Hume I. D. Comparative Physiology of the Vertebrate Digestive System. — Cambridge University Press, 2004. *(англ.)*
21. Бойко Н. И., Никифорова Л. В. Методика преподавания физиологии животных. — СПб.: Лань, 2019. — 184 с.
22. Куликов В. М. Методика преподавания зоотехнических дисциплин. — М.: КолосС, 2008. — 256 с.
23. Жеребцова А. В. Активные методы обучения в профессиональном образовании (на примере ветеринарии). — М.: ИИО РАО, 2016. — 128 с.
24. McDonald P. et al. Animal Nutrition. 7th ed. — Pearson, 2010. (англ.)
25. Беляева Е. С., Иванов В. А. (2021) Особенности обмена веществ и кормления овец каракульской породы. // Вестник ветеринарии. №4. С. 54–58.

AUTHORS INFO [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT]

✉**Ismailov K.T**, assistant [**Исмаилов К.Т**, ассистент], [**Ismailov K.T,** assistent]; address: Samarkand, 18A Amir Temur Street, 18 A, [адрес: Самарканд, ул. Амира Темура, 18А], [manzil: Samarqand, Amir Temur ko'chasi]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH

© G.N. Komiljonova[1]✉

[1]Qo‘qon universiteti, Qo‘qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada koxlear implant o‘rnatilgan maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish muammolari va ularni hal qilishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari yoritilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — koxlear implantli bolalarda og‘zaki nutqni shakllantirish, eshitish tajribasini kengaytirish va ijtimoiy muhitda faol muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada pedagogik kuzatuv, suhbat, psixodiagnostik testlar, faol tinglash va og‘zaki muloqotni o‘rgatuvchi amaliy mashg‘ulotlar asosida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida ilmiy-nazariy manbalar o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, maxsus metodik yondashuvlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali bolalarning so‘z boyligi, eshitish qobiliyati va muloqotga kirishish darajasi sezilarli darajada yaxshilandi.

XULOSA: koxlear implantli bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus metodikalar, ota-onalar bilan hamkorlik va logopedik-pedagogik muhit kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim omillar bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: koxlear implant, maktabgacha yosh, kommunikativ ko‘nikmalar, og‘zaki nutq, eshitish, logopediya, psixologik yordam, maxsus ta’lim, pedagogik shart-sharoitlar.

Iqtibos uchun: Komiljonova G.N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentliligini shakllantirish. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.182–197.

ФОРМИРОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

© Г.Н. Комилжонова[1]✉

[1] Коканский университет, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются проблемы развития коммуникативных навыков у детей дошкольного возраста с кохлеарными имплантами и раскрываются педагогико-психологические условия их решения.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить необходимые условия для формирования устной речи, расширения слухового опыта и развития навыков активного общения у детей с кохлеарными имплантами.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы педагогического наблюдения, беседы, психодиагностики, а также практические упражнения по развитию слухового восприятия и устной речи. Проведен анализ отечественного и зарубежного опыта по данной проблематике.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты экспериментальной работы показали, что благодаря специальным методическим подходам и психологической поддержке значительно улучшились словарный запас, слуховое восприятие и коммуникативная активность детей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: разработка специальных методик, взаимодействие с родителями и организация логопедической и педагогической среды являются ключевыми факторами в развитии коммуникативных умений у детей с кохлеарными имплантами.

Ключевые слова: кохлеарный имплант, дошкольный возраст, коммуникативные навыки, устная речь, слух, логопедия, психологическая поддержка, специальное образование, педагогические условия.

Для цитирования: Комилжонова Г.Н. Формирование технологической компетентности будущих учителей начальных классов.// Inter education & global study.2025. №6(1). Vol.3 С.182–197.

FORMATION OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

© Komiljonova N. Guluzraxon[1]✉
[1]Kokand University, Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article addresses the challenges of developing communication skills in preschool-aged children with cochlear implants and outlines the pedagogical and psychological conditions necessary to support their progress.

AIM: the main aim of the study is to identify the conditions required to develop oral speech, expand auditory experience, and improve active communication skills in children with cochlear implants.

MATERIALS AND METHODS: the study involved pedagogical observation, interviews, psychodiagnostic assessments, and practical exercises focused on auditory and verbal development. The research also includes an analysis of both Uzbek and international practices.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DISCUSSION AND RESULTS: the experimental findings revealed that special methodological approaches and psychological support significantly improved the children's vocabulary, auditory perception, and ability to engage in communication.

CONCLUSION: specialized methodologies, collaboration with parents, and a supportive speech therapy and pedagogical environment are essential for enhancing the communicative skills of children with cochlear implants.

Keywords: cochlear implant, preschool age, communication skills, oral speech, hearing, speech therapy, psychological support, special education, pedagogical conditions.

For citation: Komiljonova N. Guluzraxon. (2025) 'Formation of technological competence of future primary school teachers', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.182–197. (In Uzbek).

Maktab ta'limini isloh qilishda, umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim sifatini oshirishda bo'lajak boshlang'ich sinf mutaxassislarini tayyorlash tizimi sifat – monitoringini oshirish, talabalarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish mazkur jarayondagi muhim vazifalardan sanaladi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi ayni vaqtdagi amaliy tayyorligining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonida o'quvchilarda kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish lozim bo'ladi.

Keyingi yillarda ta'lim sifatiga bo'lgan e'tibor kadrlar tayyorlashga bo'lgan talab har doimgidanda ortib bormoqda shu munosabat bilan bo'lajak o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati va kometensiyalarini oshirish muhim masala sifatida qaralmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining texnologik kompetensiyalarini oshirish ta'lim tizimidagi muhim ahamiyatli, amalga oshirish talab etilayotgan jihatlardan biridir.

Shu nuqtai nazardan kompetentli yondashish nazariyasi va amaliyoti eng jadal rivojlanayotgan yondoshish hisoblanadi, shu munosabat bilan uning *"kompetensiya", "kompetentlik"* kabi talqin qiladigan asosiy tushunchalarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Kompetensiya (lotincha: *competo* — erishyapman, munosibman, loyiqman)[1] kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini anglatadi.[2] Oddiy qilib aytganda kompetensiya — bu o'rgangan bilim ko'nikma malakalarni qo'llay olish qobiliyati.

"Kompetentlik" (inglizcha: "competence" "qobiliyat") faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi. Kompetentlik tushunchasi dastlab ta'lim sohasiga psixologik,

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Kompetensiya
[2] https://uz.goodinternet.org/uz/sections/pedagoglar/talim-va-men/kompetensiya-nima/

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo‘lib, zamonaviy atama sifatida qo‘llanilib kelinmoqda.[3]

Kompetensiya lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi.[4]

Kompetentli yondoshish g‘oyalarini V.I. Baydenko, V.A. Bolotov, V.V. Serikov, E. F. Zeyer, E. Simanyuk, I. A. Zimneya, D.A. Ivanov, K.G. Mitrofanov, O.V. Sokolova, O.E. Lebedev, G.K. Selevko, B.Abdullayeva, N.Ro‘ziqulova, O.Qo‘ysinov, J.Usarov, U.Raxmatov va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan. Mazkur ishlarning aksariyatida kompetentli yondoshish mutaxassisning sifatlari va qobiliyatlariga jamiyat tomonidan yangi talablar paydo bo‘lishiga javob sifatida qaraladi, zamonaviy maktab yoki boshqaruv strukturalari uchun kompetentli yondoshish g‘oyalarini amalga oshirishga muhim ahamiyat beriladi.

A.G.Bermusning fikriga ko‘ra, “Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig‘ini yagona tizimga birlashtiradi”. “Kompetentlik bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o‘z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir, – deydi. M.A.Choshanov. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassis ning ma’lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi. Noaniq vaziyatlarda faoliyat ko‘rsata olish qobiliyati bu kompetentlikdir, deydi O.Ye.Lebedev.[5]

Kompetentlik insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy kasbiy hayotiy faoliyatiga asoslanadi, deb yozadi I.A.Zimnyaya. A.V.Xutorskiy “kompetnsiya” va “kompetentlik” tushunchalari ni quyidagicha ajratib olish mumkin, deb hisoblaydi.[6]

Ta’kidlash kerakki, kompetentli yondoshish muammolari bilan shug‘ullanadigan tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kompetentli yondoshishning tushunchalar doirasi to‘la belgilab berilmagan hamda ularning bir xil va umume’tirof etilgan talqini yo‘q.

Asosiy qism. Bugungi zamon ta’limida boshlang‘ich ta’limda texnologiya fani nafaqat amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish, balki o‘quvchilarda texnologik madaniyatni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi esa bu jarayonda eng muhim vositachilardan biridir. Shu bois, o‘qituvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish masalasi dolzarbdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida texnologik kompetensiyani shakllantirishning asosiy maqsadlari:

o‘quvchilarda mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish;

amaliy ishlarni rejalashtirish va bajarish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish;

[3] https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/download/7956/12777/24018
[4] https://interscience.uz/index.php/home/article/download/2996/2646/7964
[5] Азимова Н. Э. Технология духовно-нравственного воспитания преподавателя професси- онального образования в процессе обучения //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – С. 117-118.
[6] https://interscience.uz/index.php/home/article/download/2996/2646/7964

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

oddiy texnologik jarayonlarni tushuntirish va bajarishga o‘rgatish;
ijodkorlik va texnik tafakkurni rag‘batlantirish.

Boshlang‘ich ta’limda texnologiya fani faqat an’anaviy qo‘l mehnatini o‘rgatish bilan cheklanmay, balki texnologik jarayonlarni tushuntirish, yangi asbob-uskunalar bilan ishlashni o‘rgatishni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik bilim va ko‘nikmalari doimiy ravishda yangilanib borishi zarur. Texnologik kompetensiyalarning shakllanishi o‘quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va texnik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bu jarayonning boshqaruvchisi bo‘lib, o‘zining texnologik bilim va ko‘nikmalarini muntazam takomillashtirib borishi lozim.

Texnologik kompetensiya — bu o‘quvchining turli mehnat faoliyatlari orqali texnologik bilimlarni egallashi, amaliy ko‘nikmalarni bajara olishi va mehnatga ongli yondashuvni shakllantirishdir. Kengroq qilib aytganda texnologik kompetensiya — bu o‘quvchining:

mehnat qurollari va asbob-uskunalaridan foydalana olishi;
ish tartibini rejalashtirish va bosqichma-bosqich bajarishi;
texnologik jarayonni amalga oshira olishi;
bir nechta ijod namunalarini yarata olishi;
toza, aniq va xavfsiz ishlay olishi;
oddiy narsa-buyumlar tayyorlay olishi (qog‘oz, karton, yog‘och, mato, tabiiy materiallardan) kabilarni bilishi, bajara olishi va mas’uliyat bilan bajarishi deganidir.

Pedagogik talablar asosida o‘qitiladigan texnologiya darslarining ahamiyati yana shundaki, dars davomida o‘quvchilarda puxta bilim hosil bo‘ladi, texnologiyaga ijobiy munosabat tarbiyalanadi va ularga texnologiya ko‘nikmalari hamda malakalari singdiriladi. O‘quvchilar tomonidan egallangan bilimlar, shakllangan malakalar va hosil bo‘lgan ko‘nikmamalar ularni moddiy ishlab chiqarish sohasidagi amaliy faoliyatga va kasbni ongli tanlashga tayyorlaydi.

Boshlang‘ich sinf o’qituvchining texnologik kompetentliligini shakllantirishning birinchi bosqichlari texnologiya fani o‘quv rejasi, texnologiya fanining o‘quv dasturi va taqvimiy mavzuli rejani o‘rganishdan boshlanadi. Texnologiya o‘qituvchisi bu hujjatlar bilan tanishar ekan, tegishli sinf o‘quvchilarida umumiy mehnat bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini qaysi mehnat turlari bo‘yicha va qanday hajmda shakllantirish lozimligini aniq tasavvur qiladi. Buning uchun qanday asbob-uskunalar, moslamalar va ish qurollari kerakligi, o‘quvchilar texnologiya dasturi talablarini to‘liq bajarish uchun darslarda qanday buyumlarni tayyorlashlari kerakligini va shunga binoan ularni tayyorlash uchun qanday materiallar talab qilinishini bilib oladi.

Texnologiya o‘qituvchisi olingan ma’lumotlar asosida va texnologiya fani dasturidan foydalangan holda ancha batafsil rejalashtiruvchi hujjatlarni, ya’ni taqvimiy mavzuli rejani va o‘quv ishlab chiqarish ishlari ro‘yxatini tuzib chiqadi. Shunday tarzda belgilab chiqilgan dastur o‘qituvchi uchun fan yuzasidan ishlarning taqvimiy mavzuli rejasi sifatida xizmat qiladi. O‘quvchilar foydalanishi uchun rejalashtirilgan buyumlarga texnologiya fani

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘qituvchisi texnikaviy hujjatlar ishlab chiqadi, zarur ko‘rgazmali qurollar tayyorlaydi, asbob-uskunalarning, o‘quvchilar ish joyi va ish qurollarining texnikaviy holatini, shuningdek, o‘quv ustaxonalari binosining va ulardagi jihozlarning xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq kelishini tekshirib chiqadi.

O‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quv yili davomida darslar mazmuni, o‘quvchilarga tushuntirish shakl va usullari, amaliy ishlarni bajarish yo‘llarini aniq reja asosida ishlab chiqishidir.

O‘qituvchi o‘quv yiliga tayyorgarlik ko‘rishda quyidagilarga e‘tibor qaratiladi:

o‘quv yili boshlanishiga qadar o‘quv dasturini o‘rganish, mavzu bo‘yicha qo‘yilgan Davlat ta’lim standart talablarini o‘rganib chiqish, o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlash kabi vazifalarini belgilab olish;

fanga oid ilmiy, metodik va ilmiy-ommabop adabiyotlarning mazmuni bilan tanishish;

fanga oid yangi nashr qilingan ko‘rgazma materiallarni, o‘quv tajriba jihozlarni o‘rganish;

ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribalarini o‘rganish, tahlil qilish va o‘z ustida ishlash orqali bilimini kengaytirish;

o‘z fani sohasida ma’lumotlarni to‘plash, muammoli masala va topshiriqlarni, test materiallarini jamlashdan iboratdir. O‘qituvchining umumiy tayyorgarligi uning fan bo‘yicha tuzgan taqvimiy mavzuli rejasida aks etadi. Taqvim-mavzuli reja fan o‘qituvchisi tomonidan tuzilib, metod birlashma yig‘ilishida muhokama qilinadi, ma‘qullangandan so‘ng ma’muriyat tomonidan tasdiqlanadi.

O‘qituvchining har bir darsga kundalik tayyorgarligi. O‘qituvchining har bir darsga sifatli tayyorlanishi darsni tashkil etish, o‘quvchilarga beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni qay darajada o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Darsga tayyorlanish algoritmi, barcha omillar, holatlarni hisobga olish va kafolatlaydigan izchil tadbir bo‘lishi zarur.

Dars o‘qituvchiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. O‘qituvchi kichik yoshli o‘quvchilar bilan ishlar ekan, o‘z-o‘zidan ularning yosh xususiyatlari, psixologik xarakterini tushunishi va til topisha olish uchun o‘quvchilar shaxsini har tomonlama o‘rganishi shart. O‘quvchi shaxsini o‘rganish oddiygina jarayon emas, balki ta’lim-tarbiyadan ko‘zlangan maqsadga erishishning eng muhim yo‘lidir. Shuning uchun birinchi navbatda sinf jamoasining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish lozim:

o‘quvchilarning bilimi va o‘zlashtirish saviyasi;

o‘quvchilarning fanga bo‘lgan munosabati;

sinfning ishlash tezligi;

bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanganligi;

har xil turdagi o‘quv jarayoniga munosabati;

o‘quvchilarning intizomi. Ikkinchi navbatda esa har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini e’tiborga olish zarur:

nerv tizimi turlarining shakllanganlik darajasi;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘zaro fikr almashuvi;
hissiyotga beriluvchanlik;
materialni o‘quvchilar tomonidan qabul qilishini boshqarish;
yomon kayfiyatni tarqatish yo‘llarini bilish;
o‘zining bilim va qobiliyatiga ishonish;
har xil ta’lim vositalaridan foydalanishni bilish.

O‘qituvchi oldida turgan vazifalardan yana biri o‘quvchilarga beriladigan ta’lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko‘tarish talab qilinadi.

Texnologiya fani o‘qituvchisi mashg‘ulotga tayyorlanish jarayonida darsning tashkiliy tomonlariga navbatchilarni tayinlash, o‘quvchilarga asbob va materiallar tarqatish, o‘quv ustaxonalarida tartib-intizomning qat’iy saqlanishiga, ishlarga baho qo‘yish va ularni tahlil qilishga alohida e‘tibor berishi kerak.

Darsga tayyorlanish vaqtida o‘qituvchi o‘tiladigan mashg‘ulotning mazmuni va natijalarini tahlil qilishi, ularning izchil aloqasini belgilab chiqishi, kelgusi darsning ta’lim va tarbiya maqsadini to‘g‘ri belgilashi, darsning tuzilishini va uning har bir elementiga ajratiladigan vaqtni aniqlashi, mavzuga oid savollar tuzishi va kirish yo‘riqnomasi mazmunini ishlab chiqishi, asosiy mehnat usullarini tanlashi va o‘ylab chiqishi kerak. Shu bilan birgalikda mashg‘ulotga tayyorlanish vaqtida darsning tashkiliy tomonlariga navbatchilarni tayinlash, o‘quvchilarga asbob va materiallar tarqatish, o‘quv ustaxonalarida tartib-intizomning qat’iy saqlanishiga, ishlarga baho qo‘yish va ularni tahlil qilishga alohida e’tibor berishi kerak.

Aksiologik yondashuvlar pedagogikada faqat o'quvchilarni shakllantirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular ta’lim tizimi orqali jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, jamiyatning axloqiy va estetik darajasini oshirishga olib keladi. Ta’lim tizimida aksiologik yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari insonni faqat bilimlar bilan boyitish emas, balki ularni jamiyatning axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlariga asoslangan ravishda tarbiyalashdir. Bu yondashuvlar orqali o'quvchilar faqat axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirib qolmay, balki ular jamiyatda to'g'ri qarorlar qabul qilish va ijtimoiy mas’uliyatni his etish bilan ham shug'ullanadilar. Pedagogikada aksiologik yondashuvlar jamiyatni yaxshilashga xizmat qiladi, chunki ular butun avlodni axloqiy va estetik jihatdan rivojlantirishga qaratilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Zimnyaya, I. A. (2005). Aksiologiya ta'lim tizimida. Moskva: Pedagogika.
2. Slastenin, V. A., & Isaev, I. F. (2002). Pedagogika: Nazariya va amaliyot. Moskva:
3. Yermolayeva, S. I. (2011). Ta'limda aksiyologik yondashuvlar va ularning metodikasi. Sankt-Peterburg: "Piter".
4. Shchedrovitsky, G. P. (2004). Ta'limda axloqiy va estetik qadriyatlar. Moskva: Nauka.
5. Kovaleva, E. S. (2013). Aksiologik yondashuvlarning ta'lim jarayoniga ta’siri. Sankt-Peterburg: Akademiya.
6. Baranov, V. A. (2010). Pedagogik aksiyologiya: nazariy va amaliy jihatlar. Moskva: Logos.
7. Derkach, A. A. (2001). Pedagogik texnologiyalar va ta'limda aksiyologik yondashuvlar. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
8. Alekseeva, T. N. (2008). Ta'limda aksiologik yondashuvlar: nazariy va amaliy asoslar. Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika Instituti.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**M.Sh.Norboyeva**, o’qituvchi [**М.Ш. Норбоева**, преподаватель], [**M.Sh.Norboyeva,** teacher]; manzil: 100190, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, yuqori Qorakamish ko'chasi 2V-uy, [адрес: 100190, г.Ташкент, Юнусабадский район, улица Верхний Каракамыш 2в-дом], [address: 2b Verkhny Karakamysh Street, Yunusabad district, Tashkent, 100190.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARIDAN TALABALAR MUSTAQIL TA’LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI

© X.X. Muratov[1]✉
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada raqamli ta’lim muhiti sharoitida tasviriy san’at fanlarini o‘qitish va talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishning dolzarb masalalari yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – elektron o‘quv qo‘llanma asosida raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyasi orqali tasviriy san’at fanlaridan talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish metodikasini ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy maqolada multimedia ta’limi, konstruksionizm, feedback, geymifikatsiya va STEAM yondashuvlariga asoslangan elektron o‘quv qo‘llanmaning tarkibiy qismlari tahlil qilindi, O‘zbekiston va xorijiy tadqiqotchilarning ishlari tahlil asosida o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan elektron o‘quv qo‘llanma yordamida talabalarda nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, mustaqil izlanish va ijodiy fikrlash kompetensiyalari sezilarli darajada oshdi.

XULOSA: elektron o‘quv qo‘llanmaning ta’lim jarayoniga joriy etilishi tasviriy san’at fanlarini raqamlashtirish, mustaqil ta’limni samarali tashkil etish va talabalarning raqobatbardoshlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, tasviriy san’at, mustaqil ta’lim, elektron o‘quv qo‘llanma, interaktiv metodlar, geymifikatsiya, STEAM, feedback, avtomatik baholash, innovatsion texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Muratov X.X. Raqamli ta’lim muhitida tasviriy san'at fanlaridan talabalar mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish metodikasi. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.231–242.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПО ПРЕДМЕТАМ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

© Х.Х. Муратов[1]✉
[1] Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются актуальные аспекты преподавания изобразительного искусства в условиях цифровой образовательной среды, а также организация самостоятельной учебной деятельности студентов.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — разработка методики эффективной организации самостоятельного обучения студентов по дисциплинам изобразительного искусства с применением электронного учебного пособия, основанного на интеграции цифровых и педагогических технологий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы теоретические подходы мультимедийного обучения, конструктивизма, обратной связи, геймификации и STEAM, а также рассмотрены разработки отечественных и зарубежных авторов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование электронного учебного пособия способствует существенному росту теоретических знаний, развитию практических навыков, самостоятельного и креативного мышления у студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: внедрение инновационного электронного пособия способствует цифровизации преподавания изобразительного искусства, повышает эффективность самостоятельного обучения и уровень конкурентоспособности студентов.

Ключевые слова: цифровое образование, изобразительное искусство, самостоятельное обучение, электронное учебное пособие, интерактивные методы, геймификация, STEAM, обратная связь, автоматизированная оценка, инновационные технологии.

Для цитирования: Муратов Х.Х. Методика организации самостоятельной образовательной деятельности учащихся по предметам изобразительного искусства в цифровой образовательной среде.// Inter education & global study.2025. Vol.3 №6(1). С.231–242.

THE METHODOLOGY OF ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITIES IN FINE ARTS SUBJECTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

© Xusan X. Muratov[1]✉
[1] Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the current challenges of teaching fine arts in the digital educational environment and organizing students' independent learning activities.

AIM: the main objective of the study is to develop a methodology for effectively organizing independent learning in fine arts subjects through an electronic textbook based on the integration of digital and pedagogical technologies.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed multimedia learning theory, constructivism, feedback, gamification, and STEAM approaches, drawing on research by both Uzbek and international scholars.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings demonstrated that the developed electronic textbook significantly enhanced students' acquisition of theoretical knowledge, practical skills, and competencies in independent inquiry and creative thinking.

CONCLUSION: the implementation of the electronic resource in the educational process supports the digitalization of fine arts education, improves the effectiveness of independent learning, and strengthens student competitiveness.

Keywords: digital education, fine arts, independent learning, electronic textbook, interactive methods, gamification, STEAM, feedback, automated assessment, innovative technologies.

For citation: Xusan X. Muratov. (2025) 'The methodology of organizing students' independent educational activities in fine arts subjects in a digital educational environment', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.231–242. (In Uzbek).

Jahon miqyosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi barcha sohalar qatori ta'lim tizimiga ham o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim paradigmasini o'zgartirib, an'anaviy o'qitish usullaridan innovation yondashuvlarga o'tishni taqozo qilmoqda. Talabalarning mustaqil ta'lim olishi vaqt resurslarni to'g'ri sarflash, kuch va imkoniyatlarini saqlab qolish va rivojlantirishga olib keladi. Nazariy va amaliy bilimlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasida qo'llash orqali individual yondashuv asosida mustaqil ravishda ta'lim samaradorligini oshirish bugungi kunning muhim masalalaridan bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, uning sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish uchun keng ko'lamli texnologiyalar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli Qarori[1], 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni[2] kabi qator normativ-huquqiy hujjatlarda dasturiy ta'minotni ta'lim jarayoniga keng joriy etish, elektron ta'lim resurslarini ishlab chqish, masofaviy ta'lim vositalarini yaxshilash va pirovardida ta'lim sifatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu hujjatlar mamlakatimizda raqamli ta'lim muhitini shakllantirish va talabalarning mustaqil ishlarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Biroq, tasviriy san'at fanlarini o'qitishda, ayniqsa, talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

[1] https://lex.uz/docs/-5085887.
[2] https://lex.uz/docs/4545884.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

–An’anaviy yondashuvning ustunligi: Ko‘pchilik oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at fanlari asosan an’anaviy ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi, bu esa talabalarning mustaqil ijodiy izlanishiga yetarlicha imkoniyat bermaydi.

–Resurslarning cheklanganligi: Talabalarning mustaqil ishlashi uchun zamonaviy, interaktiv va sifatli elektron o‘quv materiallari, virtual laboratoriyalar, onlayn ustaxonalarning yetishmasligi kuzatiladi.

–Motivatsiya va faollikning pastligi: Mustaqil ta’lim uchun aniq metodik ko‘rsatmalar, rag‘batlantiruvchi mexanizmlar va qiziqarli topshiriqlarning kamligi talabalarning motivatsiyasini pasaytiradi.

–Baholash tizimining nomukammalligi: Mustaqil ishlarni baholashda subyektivlik holatlari uchrab turadi, shaffof va avtomatlashtirilgan baholash tizimlariga ehtiyoj mavjud. Ayrim OTMlarda mustaqil ta’lim topshiriqlarini baholash umuman inobatga olinmaydi.

–O‘qituvchilarning raqamli kompetentligi: Ba’zi pedagog-kadrlar tomonidan zamonaviy raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishda qiyinchiliklar kuzatilmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etishda tasviriy san’at fanlari uchun maxsus ishlab chiqilgan, interaktiv va innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan elektron o‘quv qo‘llanmalar muhim o‘rin tutadi. Bunday qo‘llanmalar talabalarni nafaqat bilim bilan qurollantiradi, balki ularning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Raqamli ta’lim muhitida talabalar mustaqil faoliyatini tashkil etish masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, R.E.Mayerning multimedia ta’limi nazariyasi raqamli o‘quv materiallarini samarali ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi[3]. U vizual va verbal axborotni birgalikda taqdim etishning kognitiv jarayonlarga ijobiy ta’sirini asoslab bergan. J. Hattie o‘zining “Visible Learning” asarida teskari aloqaning (feedback) o‘quv jarayonidagi eng samarali omillardan biri ekanligini ta’kidlaydi[4]. S. Papert (1980) konstruksionizm nazariyasi orqali o‘quvchilarning faol yaratuvchanlik asosida bilim olishlarini ilgari surgan bo‘lsa, K. Kapp[5], S. Deterding[6] kabi olimlar ta’limda geymifikatsiyadan foydalanishning motivatsion va kognitiv afzalliklarini tadqiq qilishgan. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics)

3 Mayer, R. E. (2009). Multimedia learning (2nd ed.). Cambridge University Press. https://drive.google.com/file/d/1UQKDYfqoNjHuPZp62t-yckVDa-VMRXYC/view.
Mayer, R. E. (Ed.). (2014). The Cambridge handbook of multimedia learning (2nd ed.). Cambridge University Press.
4 Hattie, J. (2009). Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement. Routledge. https://inspirasifoundation.org/wp-content/uploads/2020/05/John-Hattie-Visible-Learning_-A-synthesis-of-over-800-meta-analyses-relating-to-achievement-2008.pdf.
5 Kapp, K. M. (2012). The gamification of learning and instruction: Game-based methods and strategies for training and education. John Wiley & Sons. https://oceanofpdf.com/authors/karl-m-kapp/pdf-epub-the-gamification-of-learning-and-instruction-game-based-methods-and-strategies-for-training-and-education-download/.
6 Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011, September). From game design elements to gamefulness: defining "gamification". In Proceedings of the 15th international academic MindTrek conference: Envisioning future media environments (pp. 9-15). https://www.researchgate.net/publication/230854710_From_Game_Design_Elements_to_Gamefulness_Defining_Gamification.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yondashuvi G. Yakman[7] tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, fanlararo integratsiya orqali ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

O‘zbekistonlik olimlardan N.A.Muslimov[8], N.Sayidahmedov[9], U.N.Begimqulov[10], O.A.Qo‘ysinov[11], F.M.Sadikova[12], R.J.Qodirova[13] S.Mamatqulov[14] va boshqalar o‘z tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalar, elektron ta’lim resurslari, masofaviy o‘qitish va mustaqil ta’limni tashkil etishning turli jihatlarini yoritib berishgan. Biroq, aynan tasviriy san’at yo‘nalishida, talabalarning mustaqil ta’limini zamonaviy raqamli vositalar, xususan, interaktiv, geymifikatsiyalashgan, STEAM elementlarini o‘z ichiga olgan va avtomatlashtirilgan baholash imkoniyatiga ega elektron qo‘llanmalar orqali tashkil etish metodikasini kompleks o‘rganish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan muammolarni ijobiy yechimi sifatida biz oliy pedagogik ta’limning tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ishlab chiqilgan “Tasviriy san’at. Mustaqil ta’lim” nomli elektron qo‘llanmasini[15] metodik tizim sifatida taqdim etamiz.

Ushbu elektron qo‘llanma tasviriy san’at fanlaridan (rangtasvir, grafika, kompozitsiya, san’at tarixi va nazariyasi va h.k.) talabalarning mustaqil ta’lim olishlarini faollashtirish, o‘quv materiallarini optimallashtirish, ta’lim jarayonini modernizatsiyalash va raqamlashtirish maqsadida yaratilgan.

Qo‘llanma interaktiv va interfaol metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan bo‘lib, quyidagi asosiy komponentlar va imkoniyatlarni o‘zida mujassam etgan:

Vizual va dinamik nazariy materiallar. Har bir mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar qisqa, lo‘nda, tushunarli tilda bayon etilgan. Matnlar yuqori sifatli illustratsiyalar, reproduksiyalar, sxemalar, infografikalar va qisqa videodarslar bilan boyitilgan. Bu materiallar statik emas, balki dinamik elementlar (masalan, animatsiyali tushuntirishlar,

7 Yakman, G. (2008). STEAM Education: An overview of creating a model of integrative education. https://www.researchgate.net/publication/327351326_STEAM_Education_an_overview_of_creating_a_model_of_integrative_education

8 Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: Фан, 2004. – 128 б.

9 Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003. – 172 б.

10 Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.

11 Қўйсинов О.А. Касб таълими йўналиши бакалавр ўқитувчиларни тайёрлашда мустақил таълимнинг илмий - методик асослари. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2008.

12 Садикова Ф.М., Хошимова.А. Олий таълим муассасаси талабаларининг мустақил таълимлари самарадорлигини ошириш бўйича методик қўлланма // Услубий қўлланма. Тошкент, ТИМИ 2009 йил.


13 Qadirova R. J., Mustaqil ta’limni tashkil qilish metodlari // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 3, 2022, pp. 507-513.

14 Маматкулов С. Мустақил таълим: тадқиқот, хорижий тажриба ва тавсиялар. Методик қўлланма. – Тошкент: “Sano-Standart”, 2023. – 32 б.

15 Muratov X.X. Tasviriy san’at. Mustaqil ta’lim. Elektron o‘quv qo‘llanma (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug‘i, 232-356-raqamli guvohnoma). https://fineart.cspu.uz/2024/15/.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

interaktiv jadvallar) bilan to‘ldirilgan. Uning ahamiyati shundaki tasviriy san’atda vizual idrok etish asosiy rol o‘ynaydi. Sifatli vizual materiallar talabalarning mavzuni tez va chuqur o‘zlashtirishiga, estetik didining shakllanishiga yordam beradi. Dinamik elementlar esa diqqatni jamlashga va murakkab jarayonlarni oson tushunishga ko‘maklashadi. Natijada talabalarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligi ortadi, fanga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi.



1-rasm. Elektron qo‘llanmada nazariy materialning vizual taqdimoti

Interfaol amaliy topshiriqlar va virtual mashqlar. Qo‘llanmada “drag-and-drop” usulidagi mashqlar, virtual palitrada rang aralashtirish, kompozitsiya elementlarini joylashtirish, san’at asarlarini qismlarga ajratib tahlil qilish kabi interfaol topshiriqlar mavjud. Shuningdek, ma’lum bir uslubda eskiz chizish, berilgan mavzuda ijodiy ish yaratish kabi amaliy topshiriqlar ham yuklanib, o‘qituvchi tomonidan tekshirilishi mumkin. Bunday topshiriqlar talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Ular o‘rgangan bilimlarini darhol amalda sinab ko‘rish, xato qilish va xatolarini tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa amaliy ko‘nikmalarning samarali shakllanishiga olib keladi. Natijada talabalarning amaliy ko‘nikmalari rivojlanadi, ijodiy fikrlashi faollashadi, muammoni hal etish qobiliyati oshadi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



2-rasm. Interfaol amaliy topshiriq namunasi

Geymifikatsiya elementlari. O‘quv jarayonini qiziqarli va rag‘batlantiruvchi qilish maqsadida ball to‘plash tizimi, yutuq nishonlari (badges), reytinglar, virtual sovrinlar, qiyinlik darajasi ortib boruvchi bosqichlar kabi geymifikatsiya elementlari joriy etilgan. Masalan, ma’lum bir bo‘limni muvaffaqiyatli yakunlagan talaba “Sertifikat”ni qo‘lga kiritishi mumkin. Geymifikatsiya talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, o‘quv jarayoniga sho‘ng‘ish hissini beradi, sog‘lom raqobat muhitini yaratadi va muntazam shug‘ullanishga undaydi. Natijada talabalarning o‘quv faolligi va darsga qatnashish darajasi oshadi, fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqi kuchayadi.




3-rasm. Elektron qo‘llanmadagi geymifikatsiya elementlari

STEAM yondashuvi integratsiyasi. Elektron qo‘llanmadagi ayrim topshiriqlar va loyihalar tasviriy san’atni boshqa fanlar – tabiiy fanlar (masalan, yorug‘lik va rang optikasi), texnologiya (grafik dizayn dasturlari, 3D modellashtirish), ona tili (to‘g‘ri yozish qoidalari, fikrni to‘g‘ri ifodalay olish ko‘nikmalari, orfografik, stilistik mukammallik) va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kompozitsiya (proporsiya, simmetriya, oltin kesim), falsafa (falsafiy, obrali tafakkur) bilan bog‘lashga qaratilgan. STEAM yondashuvi talabalarning fanlararo tafakkurini rivojlantiradi, ularga olamning yaxlit manzarasini ko‘rishga yordam beradi va olingan bilimlarni turli sohalarda ijodiy qo‘llash imkoniyatini beradi. Bu esa kelajakda raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishlari uchun muhimdir. Natijada talabalarning tanqidiy va tizimli fikrlash qobiliyati, muammolarga nostandart yechim topish ko‘nikmalari rivojlanadi, fanlararo aloqadorlikni tushunishlari chuqurlashadi.



4-rasm. STEAM yondashuviga asoslangan topshiriq namunasi

Teskari aloqa (Feedback) tizimi. Qo‘llanmada ikki turdagi teskari aloqa mexanizmi mavjud. Testlar, ayrim interaktiv mashqlar (masalan, to‘g‘ri javobni tanlash, moslashtirish) natijalari bo‘yicha tizim tomonidan darhol va avtomatik tarzda beriladigan xabarlar (to‘g‘ri/noto‘g‘ri, tushuntirishlar). Talabalar tomonidan yuklangan ijodiy ishlar, eskizlar, loyihalar o‘qituvchi tomonidan individual tarzda tekshirilib, yozma yoki audio/video formatda batafsil tahlil, tavsiya va yo‘l-yo‘riqlar beriladi. Qo‘llanmada buning uchun maxsus interfeys (kommunikatsiya maydoni) yaratilgan. Samarali teskari aloqa talabaning o‘z bilim darajasini, kuchli va zaif tomonlarini anglashiga, xatolarini tahlil qilib, ularni bartaraf etishiga yordam beradi. Bu o‘quv jarayonining muhim boshqaruvchi elementi hisoblanadi. Natijada talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiya ko‘nikmalari rivojlanadi, o‘quv materialini o‘zlashtirish sifati oshadi, o‘qituvchi bilan samarali muloqot o‘rnatiladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



5-rasm. Elektron qo‘llanmada teskari aloqa (feedback) berish oynasi

Avtomatik avtonom baholash imkoniyati. Nazariy bilimlarni tekshirish uchun mo‘ljallangan testlar (ko‘p tanlovli, moslashtirish, to‘g‘ri/noto‘g‘ri kabi) natijalari tizim tomonidan avtomatik ravishda hisoblanadi va baholanadi. Bu baholar elektron jurnalga qayd etiladi. Amaliy va ijodiy ishlar esa o‘qituvchi tomonidan belgilangan mezonlar asosida baholanib, umumiy reytingga qo‘shiladi. Avtomatik baholash o‘qituvchining vaqtini tejaydi, baholash jarayonining shaffofligi va obyektivligini oshiradi. Talabalar o‘z natijalarini darhol bilib, keyingi harakatlarini rejalashtirishlari mumkin. Natijada baholash jarayoni optimallashadi, talabalarning o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha tezkor va obyektiv ma’lumot olinadi, o‘qituvchining pedagogik yuklamasi kamayadi.



6-rasm. Elektron qo‘llanmadagi avtomatik baholash natijalari oynasi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ushbu elektron qo‘llanmaning asosiy maqsadi – ta’limni va talabani faollashtirish, o‘quv manbalarini optimallashtirish, mustaqil ta’limni modernizatsiyalash va raqamlashtirish orqali tasviriy san’at sohasida yuqori malakali, ijodkor va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga hissa qo‘shishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun qo‘llanmada quyidagi tamoyillarga amal qilingan:

Talabaga yo‘naltirilganlik (Student-centered learning): Talabaning individual o‘rganish sur’ati, qiziqishlari va ehtiyojlari hisobga olingan.

Interaktivlik va jalb etuvchanlik: O‘quv jarayoni zerikarli emas, balki qiziqarli va faol ishtirokni talab qiladigan tarzda tashkil etilgan.

Amaliy yo‘naltirilganlik: Nazariy bilimlar amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlangan.

Shaffoflik va ochiqlik: Baholash mezonlari, o‘quv materiallari va topshiriqlar talabalar uchun ochiq va tushunarli. Mazkur elektron o‘quv qo‘llanma ochiq manba (open source) sifatida taqdim etilgani ham buning yaqqol dalilidir.

Noan’anaviy yondashuv: Barcha materiallar, topshiriqlar va testlar an’anaviy qoliplardan chetga chiqqan holda, ijodiy va innovatsion tarzda shakllantirilgan.

Mazkur elektron o‘quv qo‘llanmaning tasviriy san’at ta’limiga joriy etilishi orqali quyidagi ijobiy natijalarni berishi kutilmoqda:

Talabalar uchun	O‘qituvchilar uchun	Ta’lim tizimi uchun
1. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari va mas’uliyati ortadi. 2. Fanga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya kuchayadi. 3. Ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. 4. O‘zlashtirish samaradorligi va akademik natijalar yaxshilanadi. 5. Istagan vaqtda va joyda o‘quv materiallaridan foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi. 6. Raqamli savodxonlik va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.	1. Talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilish va boshqarish osonlashadi. 2. Baholash jarayoni avtomatlashadi va vaqt tejaladi. 3. Har bir talabaga individual yondashish imkoniyati kengayadi. 4. O‘quv jarayonini boyitish uchun zamonaviy vositaga ega bo‘ladilar. 5. Pedagogik faoliyat samaradorligi oshadi.	1. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi modernizatsiya qilinadi. 2. Ta’lim sifati va raqobatbardoshligi oshadi. 3. Raqamli ta’lim muhiti kengayadi va rivojlanadi. Oliy ta’lim muassasalarining innovatsion salohiyati yuksaladi

Ushbu elektron qo‘llanma ochiq manba sifatida taqdim etilganligi uning keng ommalashishi, boshqa ta’lim muassasalari tomonidan ham foydalanilishi va tajriba

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

almashinuvini yo‘lga qo‘yish uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, respublikamizda tasviriy san’at ta’limini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga kirib borayotgan bugungi sharoitda ta’lim tizimini, xususan, tasviriy san’at o‘qitish metodikasini modernizatsiya qilish dolzarb vazifa hisoblanadi. Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishda innovatsion elektron o‘quv qo‘llanmalar muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur elektron o‘quv qo‘llanmasi vizualizatsiya, interaktivlik, geymifikatsiya, STEAM yondashuvi, samarali teskari aloqa va avtomatlashtirilgan baholash kabi zamonaviy didaktik imkoniyatlarni o‘zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Ushbu qo‘llanma nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodiy salohiyatini ochish, mustaqil ishlash motivatsiyasini oshirish va zamirida ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Mazkur elektron manbaning amaliyotga keng joriy etilishi O‘zbekistonda tasviriy san’at ta’limi sohasidagi mavjud muammolarni hal etishda, o‘quv jarayonini faollashtirishda, resurslarni optimallashtirishda va mustaqil ta’limni zamonaviy talablar asosida modernizatsiyalashda muhim qadam bo‘ladi. Kelgusida bunday innovatsion resurslarni yanada takomillashtirish, ularni boshqa fanlar uchun ham yaratish va o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli Qarori. https://lex.uz/docs/-5085887.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884.
3. Mayer, R. E. (2009). Multimedia learning (2nd ed.). Cambridge University Press.
4. https://drive.google.com/file/d/1UQKDYfqoNjHuPZp62t-yckVDa-VMRXYC/view.
5. Mayer, R. E. (Ed.). (2014). The Cambridge handbook of multimedia learning (2nd ed.). Cambridge University Press.
6. Hattie, J. (2009). Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement. Routledge.
7. https://inspirasifoundation.org/wp-content/uploads/2020/05/John-Hattie-Visible-Learning_-A-synthesis-of-over-800-meta-analyses-relating-to-achievement-2008.pdf.
8. Kapp, K. M. (2012). The gamification of learning and instruction: Game-based methods and strategies for training and education. John Wiley & Sons. https://oceanofpdf.com/authors/karl-m-kapp/pdf-epub-the-gamification-of-learning-and-instruction-game-based-methods-and-strategies-for-training-and-education-download/.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

9. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011, September). From game design elements to gamefulness: defining "gamification". In Proceedings of the 15th international academic MindTrek conference: Envisioning future media environments (pp. 9-15).
10. https://www.researchgate.net/publication/230854710_From_Game_Design_Elements_to_Gamefulness_Defining_Gamification.
11. Yakman, G. (2008). STEAM Education: An overview of creating a model of integrative education. https://www.researchgate.net/publication/327351326_STEAM_Education_an_overview_of_creating_a_model_of_integrative_education
12. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: Фан, 2004. – 128 б.
13. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003. – 172 б.
14. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
15. Қўйсинов О.А. Касб таълими йўналиши бакалавр ўқитувчиларни тайёрлашда мустақил таълимнинг илмий - методик асослари. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2008.
16. Садикова Ф.М., Хошимова.А. Олий таълим муассасаси талабаларининг мустақил таълимлари самарадорлигини ошириш бўйича методик қўлланма // Услубий қўлланма. Тошкент, ТИМИ 2009 йил.
17. Qadirova R. J., Mustaqil ta'limni tashkil qilish metodlari // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 3, 2022, pp. 507-513.
18. Маматкулов С. Мустақил таълим: тадқиқот, хорижий тажриба ва тавсиялар. Методик қўлланма. – Тошкент: "Sano-Standart", 2023. – 32 б.
19. Muratov X.X. Tasviriy san'at. Mustaqil ta'lim. Elektron o'quv qo'llanma (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug'i, 232-356-raqamli guvohnoma). https://fineart.cspu.uz/2024/15/.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Muratov Xusan Xolmuratovich**, dotsent [**Муратов Хусан Холмуратович**, доцент], [**Muratov Xusan Xolmuratovich** associate professor]; manzil: Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy, [адрес: Город Чирчик, ул. Амира Темура 104], [address: Chirchik city, 104 Amir Temur St.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

MAKTAB O'QUVCHILARINING BILISH JARAYONINI FAOLLASHTIRISH: ILMIY TADQIQOTLAR TALQINI

© Q.M. Nurboyev[1]✉, M.Sh. Abdusalomova[2]✉
[1,2]O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada maktab o‘quvchilarining biliy jarayonini faollashtirishning ilmiy-nazariy asoslari, ularni rivojlantirish yo‘llari hamda ilg‘or tajribalar asosida baholash usullari tahlil qilingan. Biliy jarayoni – bu o‘quvchilarning ongli ravishda axborotni qabul qilish, tushunish, o‘zlashtirish hamda uni amaliyotda qo‘llash qobiliyatidir.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘quvchilarning biliy jarayonini faollashtirish orqali ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi samarali metodlarni aniqlash va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda zamonaviy ta’lim psixologiyasi, pedagogika, neyrofanlar va kognitiv nazariyalar asosida ilgari surilgan ilmiy-nazariy manbalar, dissertatsiyalar, xorijiy maqolalar va tajriba natijalari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi va kognitiv faolligi individual yondashuv, interaktiv mashg‘ulotlar, differensial topshiriqlar orqali sezilarli darajada oshadi. Eksperimental guruhlarda nazorat guruhlariga nisbatan bilim darajasi, tafakkur faolligi va bilimlarni amaliyotga tadbiq etish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ldi.

XULOSA: tadqiqot natijalari o‘quvchilarning biliy jarayonini faollashtirish ularning shaxsiy va intellektual rivojiga, o‘quv faolligi va mustaqilligini oshirishga, bilimlarni ongli o‘zlashtirishga xizmat qilishini tasdiqladi. Bu borada zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari mavjud.

Kalit so‘zlar: biliy jarayoni, bilimga qiziqish, o‘quv-biluv faoliyati, kognitivlik, kognitiv vazifalar, mezonlar.

Iqtibos uchun: Nurboyev Q.M, Abdusalomova M. Sh. Maktab o‘quvchilarining bilish jarayonini faollashtirish: ilmiy tadqiqotlar talqini. // Inter education & global study. 2025, Vol.3 №6(1). B.243–253.

АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА ШКОЛЬНИКОВ: ТОЛКОВАНИЕ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

© К.М. Нурбоев[1]✉, М.Ш Абдусаломова[2]✉
[1,2]Академия наук Республики Узбекистан, Навои, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются научно-педагогические основы активизации познавательной деятельности школьников, её компоненты и пути эффективной реализации в учебном процессе. Познавательная активность учащихся способствует формированию навыков осознанного мышления, восприятия, анализа и применения знаний.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – выявить эффективные подходы к активизации познавательной деятельности учащихся, способствующие развитию критического и творческого мышления, а также расширению когнитивного потенциала.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведён теоретический анализ психолого-педагогических и нейронаучных источников, отечественных и зарубежных научных работ по когнитивной педагогике и методикам обучения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: установлено, что применение индивидуального подхода, дифференцированных заданий и интерактивных методик способствует значительному росту уровня знаний, интереса и мыслительной активности учащихся. В экспериментальных группах наблюдалось опережающее развитие когнитивных навыков по сравнению с контрольными группами.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты подтвердили, что активизация познавательной деятельности учащихся является важным фактором личностного роста, повышения качества образования и развития самостоятельности. В перспективе особое значение приобретает внедрение информационных технологий и элементов искусственного интеллекта в образовательный процесс.

Ключевые слова: познавательная деятельность, интерес к познанию, учебно-познавательная активность, когнитивность, когнитивные задачи, критерии.

Для цитирования: Нурбоев К.М, Абдусаломова М.Ш. Активизация познавательного процесса школьников: толкование научных исследований. // Inter education & global study.2025. Vol.3 №6(1). С.243–253.

ACTIVATION OF THE COGNITIVE PROCESS OF SCHOOLCHILDREN: INTERPRETATION OF SCIENTIFIC RESEARCH

© Quvondiq M. Nurboyev[1]✉, Maftuna Sh. Abdusalomova[2]✉
[1,2]Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the theoretical and pedagogical foundations of activating cognitive processes in school students, focusing on components and effective strategies for enhancing learning activity. Cognitive engagement enables students to consciously acquire, process, and apply knowledge.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

AIM: the main aim of the study is to identify effective methods to activate students' cognitive processes and foster independent thinking, creativity, and critical reasoning through pedagogical interventions.

MATERIALS AND METHODS: the study used theoretical analysis of scientific literature in pedagogy, psychology, neuroscience, and cognitive science, including dissertations and international studies on student learning strategies.

DISCUSSION AND RESULTS: findings revealed that individualized approaches, differentiated tasks, and interactive learning significantly improved students' knowledge acquisition, cognitive engagement, and interest in learning. Experimental groups outperformed control groups in knowledge depth and critical thinking indicators.

CONCLUSION: the results confirm that activating students' cognitive processes plays a vital role in their personal development, academic performance, and motivation. Future improvements in education can be achieved by integrating modern technologies and artificial intelligence.

Keywords: cognitive process, interest in learning, learning activity, cognition, cognitive tasks, criteria.

For citation: Quvondiq M. Nurboyev, Maftuna Sh. Abdusalomova. (2025) 'Activation of the cognitive process of schoolchildren: interpretation of scientific research', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp. 243–253. (In Uzbek).

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi va o'qituvchilar mehnatiga qo'yilayotgan sifat talablarining oshishi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgarmoqda. Bu o'zgarishlar, avvalo, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim kompetensiyalarni shakllantirishni talab etmoqda.

O'zbekistonda zamonaviy ta'limni amalga oshirish maqsadida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini kengaytirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo'lib, bunda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli[1] va 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmonlari bilan ta'lim muhitini talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirining pedagogik tizimini takomillashtirish va oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish masalasini muhim ustuvor vazifalardan etib belgilanganligi yorqin misol bo'la oladi. Shu ma'noda, bo'lajak o'qituvchilarda refleksivlikni rivojlantirish bugungi kun tartibidagi muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Refleksivlik bo'lajak o'qituvchilarga o'z amaliy faoliyatlarini tanqidiy tahlil qilishlariga, o'z

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдаги ПФ-4947-сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони // https://lex.uz/docs/3107036

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tajribalaridan xulosalar chiqarib, turli sharoitlarda oqilona qarorlar qabul qilishlariga va, eng muhimi, uzluksiz shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishga intilishlariga ko‘mak beradi.

Refleksivlikning rivojlanishi bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat shaxsiy o‘sishiga, balki ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi — pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksivlikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy jihatlarini o‘rganish va tamoyillarini aniqlash bilan bog‘liq.

Materiallar va usullar. Kasbiy kompetentlikning refleksiv komponenti o‘z faoliyatini tashkil etish hamda kasbiy o‘sish va mahoratni takomillashtirishni tartibga soluvchi mexanizm hisoblanadi (I.YE.Devyatova).[2] Refleksiya mutaxassis tomonidan o‘zida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va takomillashtirishning psixologik mexanizmlarini o‘zlashtirishni nazarda tutib, o‘zi va boshqalarning kasbiy faoliyatini tahlil qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Buning muhim jihati – refleksiya obyekti faqat o‘qituvchining o‘zi (kasb sohasida ham, shaxs sifatida ham) emas, balki muayyan bolaning rivojlanish jarayoni (ushbu jarayonni qiyinlashtirayotgan yoki qo‘llab-quvvatlayotgan vositalar va sharoitlar) va bolalar jamoasi ekanligidir (V.N.Anisimova).[3]

J.K.Jay va K.L.Johnson tomonidan taklif qilingan refleksiyalar klassifikatsiyasida tipologiyalar tavsiflovchi, qiyosiy va tanqidiy refleksiya kabi turlarni o‘z ichiga oladi. Birinchisi, ko‘proq statik jihatni nazarda tutadi, unda refleksiyalovchi shaxs vaziyat qanday bo‘lganini belgilaydi, "nima bo‘ldi?", qanday qiziqarli fikrlar, qanday muammolar, qanday his-tuyg‘ular mavjud edi va hokazo. Ikkinchisi esa vaziyatga boshqa shartlarni "qo‘llash"ni anglatadi – bu boshqa odamning ko‘rinishi bo‘lishi mumkin. Ushbu refleksiyada vaziyatga boshqacha qarashni tushunish uchun alohida ochiqlik va beg‘arazlik talab qilinadi. Uchinchi turga, aksincha, o‘z hayoti tarixini umumlashtirishga, kasbiy tajribasini tahlil qilishga va shu bilan anglash istiqbollarini kengaytirishga olib kelgan refleksiv faoliyat natijalari kiritilgan (J.K.Jay va K.L.Johnson).[4]

A.V. Karpov esa refleksivlik ko‘rsatkichlarining shaxs xulq-atvorida namoyon bo‘lish ko‘lami hamda "davomiyligi" tamoyillariga asosan o‘zaro farqlanadigan uchta turini taklif qilgan: vaziyatli (haqiqiy), retrospektiv va istiqbolli refleksiya [Карпов А.В., 61-стр.][5].

C. Kreber va P.A. Cranton emansipatsion ta’limga oliy ta’lim tizimidagi refleksiya turlaridan biri sifatida qaraganlar (C.Kreber ва P.A.Cranton).[6] C.R.Rodgers emansipatsiya, ma’lum ma’noda qaror qabul qilish xavfi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, refleksiyaga tayyor insonni emansipatsiya qilingan inson, deb hisoblaganlar. O‘z navbatida C.R.Rodgers refleksiyani pedagogik ta’limda o‘qituvchilarga nimani tushunib

2 Девятова И.Е. Технологии развития педагогической рефлексии // Научно-теоретический журнал: Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров. Выпуск 4 (33) 2017. –С. 41-49.

3 Аниськин В.Н. Профессиональная компетентность и профессиональная компетенция преподавателя вуза: проблема разграничения понятий // Известия СНЦ РАН. 2010. Т. 12, № 3 (3) (35). С. 558–563.

4 Jay J. K., Johnson K. L. Capturing complexity: a typology of reflective practice for teacher education // Teaching and Teacher Education. – 2002. – Vol. 18, Issue 1. – P. 73–85. DOI: https://doi.org/10.1016/S0742-051X(01)00051-8

5 Карпов А. В. Рефлексивность как психическое свойство и методика ее диагностики // Психологический журнал. 2003. Т. 24. № 5. С. 45-57.

6 Kreber, C., & Cranton, P. A. (2000). Exploring the scholarship ofteaching. Journal of Higher Education, 71(4),476-495.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yetishiga yordam berishi kerakligi nuqtai nazaridan alohida ahamiyatli ekanligiga e'tibor qaratgan.[7]

A. Frelin kasbiy-pedagogik faoliyatda refleksiyaning alohida turi — pedagogik refleksiyani ajratib ko'rsatdi. Pedagog-o'qituvchilarning bo'lajak o'qituvchilar bilan relyatsion (aloqaviy) ishlari «to'g'ridan-to'g'ri o'qitishga parallel ravishda yoki bilvosita, ya'ni ta'lim muhitida amalga oshiriladi», deb xulosa qilgan (A.Frelin, 2-bet).[8]

O.A.Shiyan pedagog ta'limiy konsepsiyani amalga oshirish jarayonida "men nima uchun bunday qilyapman?"degan savolni o'ziga bermasa, ya'ni bolaning qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olmasa, buni norefleksiv pedagogik faoliyat deb baholagan. Pedagog faoliyati refleksiv bo'lishi uchun "Mening ishim qaysi rivojlantiruvchi vazifalarini hal qilishga qaratilgan?", "Nega men aynan shu bolaga nisbatan bu ishni qilyapman?" va "Kuzatuvlarimga asoslanib, harakatlarim maqsadimga erishishim uchun yetarli, deb xulosa qilish mumkinmi?" kabi savollar qo'yilishi kerakligiga urg'u bergan. (O.A.Shiyan, 20-bet)[9]

R.R. Robichaux va A. J.Guarino olib borgan tadqiqotlarida dars berish jarayonini baholash qobiliyatini rivojlantirish o'qituvchi kasbiga asos bo'lgan holatlardan biri ekanligiga ishonch xosil qilganlar. Refleksiya professional o'qituvchining muhim xususiyati bo'lib, refleksiyani qo'llab-quvvatlash o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida juda muhim ahamiyatga ega ekanligiga urg'u berganlar (R. R.Robichaux et el.). [10]

M. Zahid bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyati samaradorligiga refleksiv pedagogik amaliyot ta'sirini o'rganib, refleksivlikni rivojlantirish ularning kuchli va zaif tomonlarini qayta ko'rib chiqishlari orqali ta'lim jarayonini o'zlari rejalashtirishlari va samarali amalga oshirishlariga yordam berishini aniqlagan (M.Zahid).[11]

Ushbu g'oyani yanada rivojlantirib, Y.Y.L.Foong, M.B.M.Nor va A.Nolan bo'lajak o'qituvchilarni o'qitish strategiyasini takomillashtirish uchun ularga takrorlanadigan rejalashtirish, harakat va mulohaza yuritish jarayolarini o'rgatish g'oyasini ilgari surganlar. Birgalikda refleksiyalash – talabalar o'z amaliyotini sinchkovlik bilan tahlil qilishlariga yordam beradi, deb xulosa qilganlar (Y.Y.L.Foong et el.).[12] Chunki refleksiv amaliyot bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim axamiyat kasb etib (M.Kramer) , o'z kasbiy tajribalarida sodir bo'layotgan xodisalarni tushunishlariga yordam berishi ilmiy asoslagan (F.Korthagen) . Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda, A.Naseem refleksiya orqali olingan yangi qarashlar ijodiy va muvaffaqiyatli ta'lim strategiyalarini ishlab

7 Rodgers, C. R. (2002b). Seeing student leaming: Teacher change and the role of reflection. Harvard Educational Review, 72(2),230-253.
8 Frelin, A. (2013). Exploring Teachers' Relational Professionalism in Schools. Rotterdam: Sense.
Rotterdam: Sense.
9 Шиян О.А., Якшина А.Н., Зададаев С.А., Ле-Ван Т.Н. Средства развития профессиональной рефлексии педагогов дошкольного образования // Современное дошкольное образование. – 2019. – №4(94). – С. 14–35. DOI: 10.24411/1997-9657-2018-10049.
10 Robichaux, R. R., & Guarino, A. J. (2012). The impact of implementing a portfolio assessment system on pre-service teachers' daily teaching reflections on improvement, performance and professionalism. Creative Education, 3(3), 290-292.
11 Zahid, M., & Khanam, A. (2019). Effect of Reflective Teaching Practices on the Performance of Prospective Teachers. Turkish Online Journal of Educational Technology—TOJET, 18(1), 32–43. Google Scholar
12 Foong, Y.Y.L., Nor, M.B.M., & Nolan, A. (2018). The influence of practicum supervisors' facilitation styles on student teachers' reflective thinking during collective reflection, Reflective Practice.Vol,18. pp, 225-242.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

chiqishga sharoit yaratishiga alohida urg‘u bergan. (A.Naseem, 68-bet) [13]

M.Sellars tadqiqotlarida refleksiya o‘qituvchilarda o‘z harakatlarini kuzatish va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishini ta’kidlagan. Darsning butun ko‘lamini diqqat bilan qamrab olishni o‘rganish o‘zi-o‘zini bilishni rivojlantiradi va, oxir-oqibat, ular o‘z amaliyoti samaradorligini oshirish yuzasidan ongli qaror qabul qilishlariga yordam berishi aniqlangan. Ta’limdagi asosiy o‘zgarishlar – refleksiya orqali o‘qituvchilar o‘z kasbiy kompetentligini rivojlantirishiga bog‘liq, deb xulosa qilgan (M.Sellars).[14]

A.A. Bexoyevaning bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy refleksivlikni rivojlantirishning refleksiv-faoliyatli yondashuvga asoslangan konsepsiyasida shaxsning o‘z faoliyati va o‘zi-o‘ziga nisbatan faol tadqiqotchi pozitsiyasini egallash qobiliyatini rivojlantirishi nazarda tutilgan. Tadqiqotchi faoliyat samaradorligini tanqidiy tahlil qilish, uni anglash va baholash orqali shaxsiy rivojlanishga erishish uchun ijodiy yondashuvga yo‘naltirilganlik, shaxsga qadriyatli munosabat, differensiallashtirilgan va individual-ijodiy yondashuv, pedagogik ta’limni fundamentallashtirish va ta’lim-tarbiya jarayonini demokratlashtirish kabi bir qator tamoyillarni aniqlagan. (A.A.Bexoyeva, 16-17-betlar) [15]

Natijalar va muzxokama. Pedagogik refleksiya shaxs o‘zi-+o‘zining pedagogik faoliyati haqida mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, o‘qituvchi kasbining asoslaridan biri hisoblanadi (R.R.Robichaux et el.)[16].

K.M. Lyngsnes ta’kidlaganidek, “refleksiya professional o‘qituvchiga hos bo‘lgan muhim xususiyat hisoblanib, uni rivojlantirish o‘qituvchilarning kasbiy ta’limi uchun muhim hayotiy ahamiyatga ega” (K.M.Lyngsnes, 2-bet) . Refleksiya andragog va katta yoshdagi o‘quvchi o‘rtasidagi subyekt-subyekt asosidagi o‘zaro ta’sirni ta’minlabgina qolmay andragogning maslahatchi, hamsuhbat, fasilitator va hammuallif sifatidagi kasbiy pozitsiyasini mustahkamlaydi (V.A.Metayeva).[17]

Refleksiya tajriba yordamida kasbiy bilim olishga va xatolarni to‘g‘rilab ijobiy o‘zgarishlarga erishishga yordam beradi. Refleksiv amaliyot o‘qituvchilarga o‘z his-tuyg‘ulari, shaxsiy munosabatlari va falsafiy qarashlarini qayta ko‘rib chiqib, yanada takomillashtirishlariga imkon beradi (Slade, M.L. et el.)[18].

O.A. Kornilovaning ta’kidlashicha, ta’lim jarayonidagi yutuqlar va qiyinchiliklarni refleksiv baholash talabaga olinayotgan bilimlar, shaxsiy qadriyatlar va dunyoqarash tamoyillarini kasbiy faoliyat talablari bilan solishtirish, anglash va qayta anglash imkonini

13 Naseem A., Batool S. and Akhter M. A Study of Teachers’ Reflections on their Teaching Bulletin of Education and Research December 2023, Vol. 45, No.3 pp. 65-81.
14 Sellars M. Teachers and change: The role of reflective practice // Procedia – Social and Behavioral Sciences. – 2012. – Vol. 55. – P. 461–469. DOI: https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.09.525
15 Бехоева А.А. Развитие профессионально-педагогической рефлексии у студентов университета - будущих учителей. Автореф. дисс… кан… пед… наук. –Владикавказ, 2005. -22 с.
16 Robichaux, R. R., & Guarino, A. J. (2012). The impact of implementing a portfolio assessment system on pre-service teachers’ daily teaching reflections on improvement, performance and professionalism. Creative Education, 3(3), 290292.
17 Метаева В.А. Развитие профессиональной рефлексии в последипломном образовании: методология, теория, практика. 13.00.08 — теория и методика профессионального образования Автореф... дисс... на соиск... доктора пед... наук. –Екатеринбург, 2006. – 46 с.
18 Slade, M. L., Burnham, T. J., Catalana, S. M., & Waters, T. (2019). The impact of reflective practice on teacher candidates' learning. International Journal for the Scholarship of Teaching and Learning, 13(2), 15.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

beradi. Bu esa talabaga pedagoglik faoliyati to‘g‘risidagi tasavvurlarini korreksiyalash va hayotiy yo‘l doirasida o‘zini rivojlantirishiga yordam beradi (O.A.Kornilova).[19]

1) pedagogik refleksiya quyidagi muammoli holatlarning yechim yo‘llarini aniqlashda samarali yordam berishi mumkin:

2) shaxsiy harakatlar va belgilangan qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyat – men qilgan ish o‘z qadriyatlarim va bolalar haqidagi tasavvurlarimga mos keladimi?

Quydagi biz taklif kiritayotgan mobil ilovadan tibbiyot oliy talim oligohi talabalari foydalansa biokimyo fanidan o’zini o’zi baholash imkoniga ega bo’ladi va olgan natejasi o’qtuvchising elektron pochta manziliga yuboriladi (talaba pochta manzilini kiritsa) shu yo’l bilan o’qtuvchi talabani masofadan turib nazorat qilish imkoniga ega bo’ladi.

Bizning mobil ilova (Play Marketga) quydagi havola orqali joylashtirilgan

https://play.google.com/store/apps/details?id=com.vvv.bbbkkkk2 shu havola orqali

iPhone (2007) va Google Android operatsion tizimining (2008 PDAdan (PDA operatsion tizimlariga Apple iPhone OS, Symbian OS, Palm, Windows CE, Windows Mobile, Blackberry va Google Android va boshqalar kiradi) smartfonlarga mobil ilovani telefoniga o’rnatib foydalanish mumkun [6].

Mobil ilovani o’rnatib olgandan so’ng quydagicha oyna chiqadi.

Hujjatlar bo’limida fan dasturi, modul dasturi biokimyo fanida ishchi daftari, sillsabus

O’quv materali bo’limda tibbiyot oliygohida o’tiladigan Sobirova R.A I va II–qism darsligi joylangan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Test materallari bo'limda rasimli testlar mavzu yuzasidan testlar va vaziyatli masalalar joylashgan.

Test oynasida 30ta savolga 15 minut vaqt beriladi va shu vaqt oralig'ida testlarni ishlab tugatish kerak test oynasida testlarni to'g'ri yoki notug'ri ishlayotganligini ko'rish mumkun to'g'ri javobga yashil rangda noto'g'ri javobga qizil rangda nomoyon bo'ladi va test yakunida talaba nechta to'g'ri yoki noto'g'ri ishlaganligini bilish mumkun.

Maskur ilova Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Buxoro davlat tibbiyot instituti va Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali kabi yetakchi tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini integrativ yondashuv asosida o'qitishning samaradorligi o'rganilgan. Xususan, mobil ilovalar va virtual laboratoriyalar yordamida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quv jarayoniga faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lgan. Shu bilan birga, integrativ yondashuv asosida biokimyo fanini boshqa mutaxassislik fanlari bilan bog'lash orqali talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning analitik fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning samaradorligi quydagi jadvalda ko'rsatilgan.

T/r	OTM	Guruhlar	Talabalar soni	Tajriba va nazorat guruhlari talabalarining olgan baholari			
				A'lo	Yaxshi	Qoni-qarli	Qoniqarsiz
				5	4	3	2
1.	Toshkent tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali	Tajriba	62	9	27	26	0
			100%	14,5%	43,5%	42%	0,0%
		Nazorat	58	4	17	29	8
			100%	6,9%	29,3%	50%	13,8%
2.	Buxoro davlat tibbiyot instituti	Tajriba	56	10	22	24	0
			100%	17,8%	39,3%	42,9%	0,0%
		Nazorat	64	5	17	31	11
			100%	7,8%	26,5%	48,4%	17,2%
3.	Samarqand davlat tibbiyot universiteti	Tajriba	63	12	29	22	0
			100%	19%	46%	35%	0,0%
		Nazorat	57	5	15	30	7
			100%	8,7%	26,3%	52,6%	12,3%
4.	Jami	Tajriba	181	31	78	72	0
			100%	17,1%	43%	39,8%	0,0%
		Nazorat	179	14	49	90	26
			100%	7,8%	27,4%	50,3%	14,5%

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tibbiyot oligohi talabalarga biokimyo fanini o'qitishda integrativ yondashish va mobil-ilovalardan foydalanish asosida o'qitish metodikasini rivojlantirishning elektron dasturlari va vebsaytlarini yaratishdan iborat. Ko'pincha mobil qurilma o'z egasi bilan bo'lganligi sababli, mashg'ulotlar istalgan vaqtda va istalgan joyda amalga oshirilishi mumkin. Mobil o'quv ilovalari foydalanuvchiga tanlash imkoniyatini beradi: ular bir necha daqiqa davom etadigan mashqni bajarishi yoki bir necha soat davomida to'liq diqqatini bir vazifaga jamlashi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Asatullo ug'li T. D., Uzakovich J. M., Kenjayevich B. A. Study of Changes in Calciferol in Eggs in Depending on the Season of the Year //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – Т. 24. – С. 310-314.
2. Saidmurodova Z. A., Toshmurodov D. A. Nuklein kislotalar kimyosi, ularning tuzilishi va ahamiyati //Вестник магистратуры. – 2021. – №. 2-1 (113). – С. 10-12.
3. Саттарова Х. Г. и др. Применение «местных антигенов» в иммунологической диагностике эхинококкоза //VOLGAMEDSCIENCE. – 2021. – С. 592-593.
4. Келдиёрова Ш., Тошмуродов Д., Аликулов Б. Обзор современных исследований по ферментативному гидролизу лигноцелюллозосодержащего сырья //Вестник науки. – 2020. – Т. 1. – №. 3 (24). – С. 96-102.
5. Asatullo O'g'li T. D. PEDAGOGICAL POSSIBILITIES FOR TEACHING BIOCHEMISTRY BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH //Current Research Journal of Pedagogics. – 2024. – Т. 5. – №. 01. – С. 26-30.
6. Saidmurodova Z. A., Toshmurodov D. OVQATNING MEXANIK HAZM QILISH JARAYONLAR //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 101-103.
7. Asatullo o'g'li T. D. TIBBIYOT OLIGOHI TALABALARGA BIOKIMYO FANINI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHISH VA MOBIL-ILOVALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI //Uz Conferences. – 2025. – Т. 1. – №. 3. – С. 186-190.
8. TOSHMURODOV D. TALABALARNING BIOKIMYO FANIDAN KASBIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH MODELI //News of the NUUz. – 2024. – Т. 1. – №. 1.5. 2. – С. 190-192.
9. Asatullo O'g'li T. D. MODEL OF PROFESSIONAL KNOWLEDGE AND SKILLS DEVELOPMENT OF STUDENTS IN BIOCHEMISTRY IN MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – Т. 5. – №. 05. – С. 23-27.
10. Asatullo O'g'li T. D. CRITERIA AND FACTORS OF TEACHING BIOCHEMISTRY ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN HIGHER MEDICAL EDUCATION INSTITUTIONS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – С. 3-6.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Toshmurodov Dostonjon Asatullo o`g`li**, assistent [**Тошмуродов Достонжон Асатулло огли**,ассистент], [**Toshmurodov A.Dostonjon,** assistent,]; manzil: 140100, Samarqand viloyati, Samarqand, Amir Temur ko'chasi, 18A, [адрес: 140100, Самаркандская область, Самарканд, ул. Амира Темура, 18a], [address: Amir Temur str., 18a, Samarkand region, 140100]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLARI

© N.A. Turdaliyeva[1]✉
[1]Qo‘qon Universiteti, Qo‘qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari yoritilgan. Ijodkorlik bolalarning shaxsiy va psixologik rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ijodiy faoliyat orqali bola o‘z tafakkuri, tasavvuri, nutqi va his-tuyg‘ularini erkin ifoda eta oladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi sharoitlarni yaratish, individual yondashuv va zamonaviy metodlardan foydalanish zarurdir.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini tahlil qilish, samarali pedagogik yondashuvlar va metodlarni aniqlash, shuningdek, pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali bolalarda ijodiy salohiyatni oshirishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida psixologik-pedagogik adabiyotlar, mahalliy va xorijiy manbalar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar tahlil qilindi. Shuningdek, kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, eksperiment va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Guilford va Dyachenkoning kreativ testlari, amaliy mashg‘ulotlar tahlili tadqiqot asosini tashkil etdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi omillar muhimligini ko‘rsatdi: ta’lim jarayoniga ijodiy faoliyatni integratsiya qilish, differensial yondashuv, pedagoglarning malakasi, ota-onalar bilan hamkorlik va ijodiy muhit. Mashg‘ulotlar orqali bolalarning mustaqil fikrlashi, tasavvuri, estetik didi va amaliy ko‘nikmalari rivojlangan. Shuningdek, qo‘l mehnati va san’at elementlari orqali ijodiylikni rag‘batlantirish natijador bo‘lgani kuzatildi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Ijodiy faoliyat, individual metodlar, malakali pedagogik rahbarlik va ota-onalar bilan yaqin hamkorlik bu jarayonni yanada samarali qiladi. Shuningdek, moddiy-texnik baza va zamonaviy ta’lim metodikasi ham muhim omillardir. Mavjud muammolarni bartaraf etish orqali bu yo‘nalish yanada rivojlanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta'lim, bolalar ijodiy qobiliyatlari, ijodiy rivojlanish, pedagogik yondashuvlar, o‘yin va ijodiy faoliyat, ijodiy salohiyat, bolalar ta'limi, shaxsiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

rivojlanish, ta'lim metodlari, ota-onalar bilan hamkorlik, psixologik rivojlanish, tasavvur va fantaziya, ijodiy faollik, bolalar psixologiyasi, rivojlanish jarayoni, ta'lim jarayoni.

Iqtibos uchun: Turdaliyeva N.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlari. // Inter education & global study. 2025. №6(1). B.361–376.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

© Н.А. Турдалиева[1]✉
[1] Кокандский Университет, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются теоретические основы и практические подходы к развитию творческих способностей у детей дошкольного возраста. Творчество играет важную роль в личностном и психологическом развитии ребенка, способствует расширению мышления, формированию воображения, речи и способности к самовыражению. Особое внимание уделяется созданию условий для стимулирования творческой активности, а также использованию индивидуального подхода и современных педагогических технологий.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — проанализировать процесс развития творческих способностей у детей дошкольного возраста, выявить эффективные педагогические подходы и методы, а также обосновать значимость сотрудничества педагогов с родителями в целях раскрытия творческого потенциала детей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в рамках исследования проведён анализ отечественной и зарубежной психологической и педагогической литературы, научных публикаций и диссертаций. Были использованы такие методы, как наблюдение, беседа, анкетирование, эксперимент и статистическая обработка данных. В частности, применялись тесты креативности Гилфорда и Дьяченко, а также анализ практических занятий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования подтвердили, что на развитие творческих способностей дошкольников существенно влияют: интеграция творческой деятельности в образовательный процесс, дифференцированный подход, профессионализм педагогов, сотрудничество с родителями и создание творческой среды. Проведённые занятия способствовали развитию у детей самостоятельного мышления, воображения, эстетического вкуса и практических умений. Особую эффективность показали элементы художественного труда и развивающие игры.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование показало, что развитие творческих способностей у детей дошкольного возраста требует комплексного подхода. Важную роль играют организация творческой деятельности, применение индивидуальных методов, квалифицированное педагогическое руководство и

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

тесное сотрудничество с семьей. Кроме того, необходимо обеспечить соответствующую материально-техническую базу и внедрение инновационных методик. Устранение выявленных проблем позволит значительно повысить эффективность процесса воспитания творческой личности.

Ключевые слова: дошкольное образование, творческие способности детей, творческое развитие, педагогические подходы, игра и творческая деятельность, творческий потенциал, детское обучение, личностное развитие, методы обучения, сотрудничество с родителями, психологическое развитие, воображение и фантазия, творческая активность, детская психология, процесс развития, образовательный процесс.

Для цитирования: Турдалиева Н.А. Развитие творческих способностей дошкольников: теоретические основы и практические подходы.// Inter education & global study.2025. №6(1). С.361–376.

DEVELOPING CREATIVE ABILITIES OF PRESCHOOLERS: THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL APPROACHES

© Nurjahon A. Turdaliyeva[1]✉
[1] Kokand University, Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article explores the theoretical foundations and practical approaches to developing creative abilities in preschool children. Creativity plays a crucial role in the child's personal and psychological development, contributing to the expansion of thinking, imagination, speech, and self-expression. Special attention is given to creating environments that encourage creativity, utilizing individual approaches, and applying modern pedagogical methods.

AIM: the main aim of the study is to analyze the process of developing creative abilities in preschool-aged children, identify effective pedagogical approaches and methods, and emphasize the importance of teacher-parent collaboration in unlocking the child's creative potential.

MATERIALS AND METHODS: the research involved the analysis of national and international psychological and pedagogical literature, academic articles, and dissertations. Methods included observation, interviews, questionnaires, experiments, and statistical analysis. Creativity tests by J.P. Guilford and O.M. Dyachenko were used, as well as practical activity analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: the study results revealed that the development of creative abilities in preschool children is significantly influenced by factors such as integrating creative activity into the educational process, applying differentiated instruction, the qualifications of educators, cooperation with parents, and the presence of a supportive creative environment. Activities helped develop children's independent

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

thinking, imagination, aesthetic sense, and practical skills. Artistic work and games proved particularly effective.

CONCLUSION: the research concludes that the development of creative abilities in preschoolers requires a comprehensive approach. Key components include creative activity in education, individual teaching methods, qualified pedagogical guidance, and strong cooperation with families. Additionally, appropriate material and technical support and the use of innovative teaching methods are essential. Addressing existing challenges will significantly improve the development of children's creative abilities.

Keywords: preschool education, children's creative abilities, creative development, pedagogical approaches, play and creative activity, creative potential, child education, personal development, teaching methods, parental collaboration, psychological development, imagination and fantasy, creative engagement, child psychology, development process, educational process.

For citation: Nurjahon A. Turdaliyeva. (2025) 'Developing creative abilities of preschoolers: theoretical foundations and practical approaches', Inter education & global study, (6(1)), pp.361–376. (In Uzbek).

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning shaxsiy rivojlanishi, intellektual salohiyatini oshirish va jamiyatga moslashishida muhim o‘rin tutadi. Ijodiy faoliyat bolaning fikrlashini kengaytirish, tasavvurni rivojlantirish, o‘zini ifoda etish va yangi g‘oyalarni yaratish imkonini beradi. Pedagogika va psixologiya sohalarida olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham katta ta'sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni ko‘plab pedagogik yondashuvlar va metodlarga asoslanadi. Pedagoglar, o‘qitish jarayonida bolalarning ijodiy tafakkurini rag‘batlantirish uchun turli o‘yinlar, san'at va amaliy faoliyatlar orqali bolalar bilan ishlashni amalga oshiradilar. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish, bolalarning shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olishni talab qiladi.

Bugungi kunda, maktabgacha ta'limda ijodiy rivojlanishning yangi metodologiyalari va innovatsion pedagogik usullarining joriy etilishi, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik qilishning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu mavzuda olib boriladigan izlanishlar, bolalar ijodini rivojlantirishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlar va uning samaradorligi haqidagi bilimlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda, maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy o‘rganilishi va bu jarayondagi o‘ziga xos xususiyatlar tahlil qilinadi. Pedagogik metodlar, ijodiy faoliyatlarni tashkil etish va bolalar bilan ishlashdagi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

innovatsion yondashuvlar o‘rganiladi

Psixologiyada ijodiylik birinchi marta 1950 yilda ilmiy o‘rganilgan. Mashhur amerikalik psixolog Dj.Gilford o‘sha yili Amerika psixologlar assotsiatsiyasining kongressida ijodiy tafakkur va ijodiy jarayon haqida ma’ruza qilib bu sohaga olimlarning diqqatini tortdi.Dj.Gilford bu sohada chuqur izlanishlar olib borib, 1967 yilda kreativ tafakkurni shakllantiruvchi va aniqlovchi testlar dastasini ishlab chiqdi. Ijodiy tafakkur bu kishilardagi aqliy faoliyatning asosiy xarakteristikasi bo‘lib, tafakkurning individualligini xarakterlaydi. Dj.Gilford farazicha intellekt tuzilishi modelining tahlili bu jarayonni taminlaydi.[1]

Bolalarning ijodkorligini belgilovchi yana bir tushuncha bu tasavvurdir. Bu hodisa ajoyib sovet psixologi L.S. Vygotskiyning asarlarida keng ifodalangan. U bolaning tasavvuriga alohida e’tibor berib, kattalar tasavvuri bilan bolalar tasavvuri o‘rtasida ma’lum chegara chizgan. Vygotskiyning ta'kidlashicha, bu aqliy xususiyat kattalarda eng to'liq namoyon bo'ladi, shuning uchun bolalar tasavvurni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar bilan ta'minlanishi kerak - bu insonning normal rivojlanishining yagona yo'li.[2]

Respublikamizda ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini san`at orqali ijodkorligini shakllantirish metodikasi M.Abdukarimov, M.A Abdullayeva, Sh.Sh.Abdullayeva, A.Baxriyev, A.Golitova, R.Qodirov, B.Kodirov, A.Radjabova, M.Mirzayeva, H.Nurmatov, J.Rasulboyev, R.I.Sunnatova, F.Xalilov, O.Xoliqov, Sh.Xalilova, G.B.Shoumarov, Sh.E.Qurbonov, M.Quronov, Sh.Q.Mardonov, G. X. Ibragimova, D.Yu.Ruziyev, Sh.Sh.Olimovlar tomonidan tadqiq etilgan.[3]

Xorijiy davlatlar olimlari S.K.Andrews, M.Almodovar, L.Curtis, L.Pernilla, Pak Chon Xoy, I Xe Gu, I Son Chxon, Xan Myon Xining tadqiqotlarida san`atning tarbiyaviy ahamiyati, ularni estetik tarbiyalash masalalari ko‘rib chiqilgan.

Shu jumladan so`ngi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham bolalarning ijodiy qobiliyat va faoliyatlarini o`rganish masalalariga e`tibor katta ekanligini Radjapova Z. T., Kamolov I. B., Sh. T.Boltayevalar dissertatsiya ishlarida ham ko`rishimiz mumkin. [4]

Muammoga oid adabiyotlar va malakaviy ishlar tahlili, pedagogik-psixologik kuzatish, anketa, savol-javob, suhbat, D.P Gilford va O.M. Dyachenko "Rasmlarni tugatish" subtestlari, tajriba-sinov ishlari natijalariga matematik statik ishlov berish kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.[5]

Maktabgacha yosh intensiv psixologik yetuklik bosqichi bo‘lgan ijodkorlikni rivojlantirish uchun eng qulay davr. Aynan shu davrda ko‘p sohalarda progressiv o‘zgarishlar ro‘y beradi, aqliy jarayonlar (diqqat, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur) takomillashadi, shaxsiy fazilatlar rivojlanadi, ular asosida qobiliyat, moyillik shakllanadi.

Ota-onalar o‘z farzandlarini ijodkor shaxs bo‘lib voyaga etishini xohlaydi. Shu sababli yoshlikdanoq ularning ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga e’tibor qaratadi. Binobarin, “barcha bolalar istisnosiz potentsial ijodkorlardir. Badiiy ijodkorlik va tasviriy san’atni o‘rganish bo‘yicha mashg’ulotlar har bir bolada yashiringan ijodiy qobiliyatlarni “uyg’otish”ga, ijodiy layoqatni ro‘yobga chiqarishga yordam berishga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

harakat qiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning deyarli barchasi turli harakatlar – rasm chizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish, jismoniy faollikni ifodalovchi harakatlarni tashkil qilish orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini u yoki bu darajada namoyon qiladi. Bu yoshdagi bolalarning ijodkorligi ulardagi erkinlik, faollik, o'z xohish-istaklari, xatti-harakatlarini cheklamaslik bilan bog'liq. Qolaversa, atrof-borliqni bilishga bo'lgan intilish ulardagi qiziquvchanlikni rivojlantiradi. Kattalarga taqliq qilish odatlari esa san'atning turli janrlari bo'yicha kattalar yoki tengdoshlarining harakatlarini o'zlashtirish uchun imkon beradi. Qiziquvchanlik va taqlid asta-sekin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda san'atning turli sohalari bo'yicha qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziquvchanliklari hali barqaror sifat emas. Izchil ravishda bu qobiliyatni rivojlantirib bormaslik esa uning pasayishiga olib keladi. Pedagogik yondashuv bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tizimli ravishda, izchil, uzluksiz rivojlantirib borishni taqozo qiladi.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlashning an'anaviy ta'lim jarayonidan farqli tomoni – bu pedagogik faoliyatning maxsus o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlari asosida tashkil etilishi sanaladi. Maxsus dasturlar mazmunan iqtidorli bolalarni o'qitishning o'ziga xosligini ifoda etadi.

Bu kabi o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratishda ma'lum tamoyillar asosida ish yuritiladi. Ayni vaqtda pedagogika amaliyotida M.Karne tomonidan asoslangan tamoyillar asosida faoliyat yuritilmoqda. Ular quyidagilardan iborat:

Qobiliyatli bolalar bilan ishlash uchun maxsus o'quv va tarbiyaviy
ishlar dasturlarini yaratishning ustuvor tamoyillari (M.Karne g'oyasi)

1.Dasturning individuallashtirilganligi.

2.Dasturlarni tuzishda tarbiyachilarning ishtirokini ta'minlash.

3.Dasturlarni yaratish va undan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining amaliyotidafoydalanishdagi shaxsiy mas'uliyat.

4.Tarbiyachilarning kasbiy malakalarini oshirish.

5.Tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish.

6.Dasturda turli metodlarning o'rin olishi.

7.Tarbiyalanuvchilarning individual va guruhli tayyorgarlik darajasini baholash.

Ushbu tamoyillar asosida o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratish ham iqtidorli bolalar bilan ishlash jarayoniga o'qituvchilarni jalb etishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmunining shakllanishiga yordam beradi.

Iqtidorli bolalar bilan ishlashga qaratilgan davlat siyosati bu borada mavjud imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishni taqozo etadi. Tarbiyachilarning to'g'ri yondashishi maktabgacha ta'lom tashkilotlarida qobiliyat bolalarni tarbiyalashda muayyan samaralarga erishishni kafolatlaydi.

1998 yildan boshlab respublikada Tashhis markazlarining faoliyat olib bormoqda.

O'z tarkibiga psixolog, pedagog, fiziolog, tibbiyot xodimlari kabi mutaxassislar jalb

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

etilgan markaz olti-yetti yoshli bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlash vazifasini bajarmoqda. Bizning nazarimizda, ularning faoliyati aynan bolalarning iqtidori darajasini aniqlash, ularni layoqati, qobiliyati va iqtidori darajasiga ko'ra turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarga jalb etishdan iborat bo'lishi lozim. Markaz faoliyati yordamida iqtidorli bolalarni o'z vaqtida va to'g'ri aniqlash, ularning iqtidorini yanada rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoitlarni yaratish, ularni kasbga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy yoki maxsus iqtidorga ega bolalarga ta'lim va tarbiya berish o'ta murakkab jarayon. Ana shu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish maqsadida ixtisoslashgan maktablarni tashkil etish borasida xalqaro tajriba to'plangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy maqsadi "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"da ko'rsatib berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy maqsadi – ularni dunyoni badiiy tasavvur etishga tayyorlash hamda badiiy-ijodiy qobiliyatlarga ega bo'lishlarini ta'minlash orqali ijodiy rivojlantirishga erishishdan iborat.

Maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- tarbiyalanuvchilarni musiqa, badiiy adabiyot va folklor namunalari, teatr san'ati, tasviriy va xalq amaliy san'ati, bayram va ommaviy tadbirlar, qo'shiq, raqs san'ati bilan yaqindan tanishtirish;
- ularda nuqta madaniyatini rivojlantirish;
- tarbiyalanuvchilarni applikatsiya kilishga o'rgatish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash o'rgatish;
- tarbiyalanuvchilarni dunyoni badiiy tasavvur etishga tayyorlash;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular:
- tegishli turdagi ta'lim tashkiloti faoliyati mazmunini yorituvchi hujjatlarda bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish g'oyalarining aks etganligi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlatirishga yo'naltirilgan tizimning shakllanganligi;
- tarbiyalanuvchilarning maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlatirishga qaratilgan kasbiy malaka, kompetensiyalarga egaliklari;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan vositalarning mavjudligi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlatirishda oila va tegishli tashkilot o'rtasida o'zaro hamkorlikning qaror topganligi;
- xalqaro tashklotlar va tadbirkorlik subyektlari imkoniyatlarining maktabgacha

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlatirishga yo‘naltirilganligi va boshqalar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirishda турли субъектлар ўртасидаги ҳамкорлик муҳим аҳамиятга эга.

Hamkorlik – maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishda qatshanuvchi subyektlar imkoniyatlarining bolalarda ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirish maqsadida o‘zaro birlashtirilishi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirish bir guruh subyektlarning hamkorligi asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasida o‘rganilayotganiga qaramay bu borada muayyan muammolar mavjud. Xususan:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini tashxislash mexanizmi ishlab chiqilmagan;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini aniqlagan holda ularni rivojlantirishga nisbatan individual yondashuv yetarlicha qaror topmagan;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachilari bolalarda ijodiy qobiliyatni samarali rivojlantirish borasida yuqori darajada kasbiy malaka, kompetensiya, ish tajribasi va mahoratiga ega emas;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda ta’lim tashkiloti, oilalar va ijtimoiy muassasalar o‘rtasida mustahkam hamkorlik o‘rnatilmagan;
- respublika miqyosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga oid mahalliy ilg’or ish tajribalarini o‘rganish va ularni muvofiqlashtirish yo‘lga qo‘yilmagan;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga oid xorijiy tajribalarning keng o‘rganilishiga hanuzgacha erishilmayapti.

Ayni vaqti maktabgacha ta’lim tashkilotlari va ularning faoliyatini boshqaruvchi rahbar muassasalarning oldiga zudlik bilan hal qilinishi zarur bo‘lgan vazifalar qo‘yilmoqda.

Ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalari. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda dastlab ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalarining mazmunini bilib olish talab qilinadi.

Pedagogik, psixologik, san’at, xususan, adabiyot yo‘nalishlarida ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalari keng tadqiq qilingan.

“O‘zbek tilining izohli lug’ati”da ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalariga ma’no jihatidan yondashuvlar keltirilgan. Xususan:

Arabchadan yaratish, kashf qilish, vujudga keltirish “ijod” tushunchasi ikki xil ma’noni anglashiga urg’u beriladi: 1) badiiy, ilmiy, san’atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish, yaratuvchilik faoliyati; 2) yaratuvchanlik faoliyati mahsuli, samarasi.

Arabcha “ijodiyot” esa lug’aviy jihatdan “ijodiy ish bilan bog’liq faoliyat, ijod”

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ma’nolarini anglatadi.

“Ijodkorlik” tushunchasi esa arabcha “ijod”, shuningdek, forscha “kor” va o‘zbekcha “lik” qo‘shimchalari yordamida hosil qilingan tushuncha sifatida “ijodkorning ishi”, “ijodkorga xos faoliyat” va “yaratuvchanlik” ma’nolarini anglatadi.

Ijod – insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajri-basi, iste’dodi namoyon bo‘ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug’iladi, keyin unga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko‘rib chiqiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o‘tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi, bular tajribada sinab ko‘riladi, noto‘g’ri bo‘lsa yangilanadi va hokazo.

M.H. Usmonboyeva tomonidan “ijod” tushunchasi shunday ta’riflanadi:

ijod – ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi. Darhaqiqat, ijod bir vaqtning o‘zida ham faoliyat ham faoliyat natijasi (ijodiy mahsulot) sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijodiy izlanishlar natijasi turli shakllarda (badiiy asar, matematik formula va

boshqalar ko‘rinishida) yuzaga chiqadi. Uni jamiyat e’tirof etsagina haqiqiy, to‘liq ijod bo‘ladi. Ijod fan-texnikani, madaniyatni bo-yitadi, rivojlantiradi.

Ijodni shartli ravishda iki guruhga: ilmiy ijod va badiiy ijodga bo‘lish mumkin.

Olimlar faoliyati ilmiy ijodga, san’atkorlar, yozuvchilar faoliyati badiiy ijodga qaratilgan. Ba’zi kishilarda har ikki ijod yo‘nalishida faoliyat yurita olish malakalari rivojlangan bo‘lishi mumkin.

Ilmiy ijodda tabiat va jamiyat hayotining ob’ektiv krnuniyatlari aks etsa, badiiy ijodda ma’naviy hayot muammolariga san’atkorning subyektiv, o‘ziga xos qarashlari, his-tuyg’ulari aks etadi.

Badiiy ijodda hayotning turfa ranglari hamda voqealari orasidan ibratli va ijtimoii ahamiyatli bo‘lganlari tanlab olinadi va badiiy umumlashtiriladi. Bu turdagi ijod murakkab jarayon bo‘lib, inson faoliyatining idrok etish, baholash, qadrlash singari turlari bilan bog’liq holda amalga oshadi. Buning uchun ijodkor erkin xayol, ozod tafakkur, keng ko‘lamli tasavvur, milliy g’urur va yuksak orzularga ega bo‘lishi kerak. Odatda badiiy ijod mahsulotining ommaviyligi va ijtimoiy ahamiyati ana shu bilan belgilanadi. Ijodning taraqqiy etishida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

“Xalq og’zaki ijodiyot” tushunchasi ham til iste’molida keng qo‘llaniladi. “Ijodiyot” tushunchasiga berilgan izohdan kelib chiqadigan bo‘lsa, xalq tomonidan amalga oshirilgan ijod va bu ijod natijasida yig’ilgan ijodiy mahsulotlar to‘plami ma’nosini ham ifodalash mumkin.

Ayni o‘rinda M.H. Usmonboyeva “ijodkorlik” tushunchasini shunday izohlaydi: ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.

Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug’ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog’liq.

Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini uning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog’liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi.

E.P. Torrens ijodkorlikni “tartiblikdan tashqariga chiqish” deb yuritib, fikrlash jarayonini tasvirlaydi. Muallif bolalarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishning to‘rtta afzalligini ko‘rsatib o‘tadi. Ular:

1. Ijodiy fikrlash yaxshi ruhiy salomatlik va shaxsiyatni rivojlantirishga yordam beradi.
2. Ijodiy fikrlash yangi bilimlarni egallashga olib keladi.
3. Ijodiy fikrlash kunlik muammolarni hal qilishda yordam beradi.
4. Ijodiy fikrlash bugungi va kelajak avlodlarning hayotida yordam beradi.

“Zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biri shaxs tarbiyasida yangicha yondashuvni tashkil etishdir. Bu jarayonlar bolaning ijodiy faol, mustaqil fikrlovchi, muloqotchan va turli vaziyatlarga moslashuvchan bo‘lishini ta’minlaydi. Hozirgi kunda bolalarda kretivlik masalasi o‘rganilmagani dolzarb masalalardan biridir”.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'l mehnati - bu eng oddiy asboblardan foydalangan holda mustaqil buyumlarni ishlab chiqarish. Bu ish, faoliyat amaliy bo`lib, ma'lum darajada foydali yo'nalishga ega.

Bolalarning o'z mehnat faoliyatining maqsadga muvofiqligini anglashi uning sifatiga, har bir bolaning mehnat jarayoni va natijasiga munosabatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qo'l mehnatining individual xarakterdaligi (ya'ni, jamoaviy ishda ham, bolalarning har biri uning bir qismini o'z qo'llari bilan bajaradi), unga barcha bolalarni izchil jalb qilish, ba'zi kamchiliklarni tuzatish imkonini beradi.

Jamoaviy vazifalarni bajarish bolalarda o'zaro muzokaralar olib borish, o'z manfaatlari va istaklarini umumiy maqsadga bo'ysundirish qobiliyatini rivojlantiradi, do'stlik, o'zaro yordam, mas'uliyat tuyg'ularini uyg'otadi, tashabbuskorlik, zukkolikni rivojlantiradi.

Vizual xarakterdagi jamoaviy vazifalarni bajarish jarayonida bolalar kelgusi ishni mustaqil ravishda rejalashtirishni, o'z harakatlarini umumiy reja bilan muvofiqlashtirishni,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

uni amalga oshirish ketma-ketligini o'ylashni, kerakli vizual materialni tanlashni va ulardan foydalanishni o'rganadilar. Shu bilan birga, jamoaviy mehnatda bolalarning individual xususiyatlari aniq namoyon bo'ladi, ijodiy qobiliyatlar shakllanadi.

Badiiy mehnat - bu bolaning hayotini, o'yinlarini, mehnatini va dam olishini bezash uchun foydali va badiiy, estetik ahamiyatga ega bo'lgan buyumlar va predmetlarni yaratish uchun turli materiallar bilan mehnatidir. Bu bolalar mehnati dekorativ, badiiy-hunarmandchilik faoliyatidir, chunki bola go'zal narsalarni yaratishda o'z g'oyalari, bilimlari va mehnat faoliyati jarayonida egallagan amaliy tajribasi asosida materiallarning estetik fazilatlarini hisobga oladi. To'g'ri tashkil etilgan qo'l va badiiy mehnat bolalarga materiallarning sifati va imkoniyatlari haqida bilim beradi, hunarmandchilikning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirishga intilishni uyg'otadi, ularni dekorativ-amaliy san'at bilan tanishtiradi.

Mehnat tarbiyasisiz bola shaxsini shakllantirish mumkin emas. Katta va tayyorlov guruhlarida ijodkorlik elementlari bilan qo'l mehnati asosiy rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligining namoyon bo'lishi ularga taklif qilingan aqliy vazifalarni bajarish tabiati bilan belgilanadi. Bolalar o'zlarining ijodiy energiyasini bo'shata olishlari juda muhimdir. Amaliy ahamiyati jihatidan tikuvchilik mashg`ulotlarida ko'plab muhim fazilatlar tarbiyalanadi: harakat qilish odati, to'siqlarni yengib o'tish qobiliyati, mas'uliyat, ishni rejalashtirish va uni amalga oshirish ketma-ketligidagi bosqichlarni oldindan ko'ra bilish. Xususan, munchoqlar qo`l mehnatida tikuvchilikning bir turi bo'lib, uning yordamida siz quyidagi vazifalarni hal qilishingiz mumkin:

o'z vatani madaniyatiga, xalq amaliy san'atining kelib chiqishiga qiziqish uyg'otish, voqelikka estetik munosabat, mehnatsevarlik, aniqlik, qat'iyatlilik, sabr-toqat, boshlangan ishni oxiriga etkazish qobiliyati, ishni bajarishda o'zaro yordam, tejamkorlik;

foydalaniladigan materiallar, mehnat madaniyati asoslarini singdirish;

harakat qobiliyatlarini, xayoliy fikrlashni, diqqatni, tasavvurni, ijodkorlikni rivojlantirish, estetik va badiiy didni shakllantirish.

Mashg'ulotlar jarayonida bolalarda diqqat, kuzatish, tasavvur, xayol, ijodkorlik rivojlanadi. Har bir topshiriqda, har bir mashg`ulotda bolalarga orzu qilish imkoniyati beriladi, asarga o'z tasvirlarini kiritish rag'batlantiriladi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy ishlarni bajarish jarayonida barcha aqliy jarayonlar shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar va atrofdagi dunyoni ijobiy-emotsional idrok etish rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorliklarini rivojlantirishda qo`l mehnati jarayonida qog’oz va tabiat materiallaridan o‘yinchoq yasashga o‘rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Mashg’ulotlar davomida tabiiy materiallardan “Tizimcha” yasash, kartondan “Stakancha”, matodan “Mo‘yqalam artgich”, “Ninachi va chumoli” yasash mumkin. Ayni o‘rinda shular haqida so‘z yuritiladi.

Mashg’ulotning maqsadi: bolalarni tabiiy materiallardan, kartondan, matodan foydalanib, turli ashyolar yasashga o‘rgatish.

Mashg’ulotda bajariladigan vazifalar:

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qo‘l mehnati bilan shug’ullanishga o‘rgatishni davom ettirish;

bolalarda o‘zlarining mehnat ko‘nikmasi va malakalarini rivojlantirish;

bolalarni tabiatni asrashga, muhofaza qilishga, tejamkorlikka o‘rgatish.

Mashg’ulot jihozlari: dub daraxti, kashtan daraxti mevalari, na’matak guli mevasi, patlar, plastilin, novdachalar, karton qog’oz, yelim, ip, igna, mato qiyqimlari.

Mashg’ulotning borishi:

Tarbiyachi: bolalar, o‘lkamizda oltin kuz fasli kezmoqda. Bilamizki, kuz faslida sabzavot, mevalar pishadi, to‘g’rimi? Manzarali daraxtlarning mevalari ham pishib, ko‘chalarda, xiyobonlarda ostiga to‘kilib yotibdi.

Bolalar bilasizlarmi, bugungi mashg’ulotimizda sizlar bi¬lan ana shu manzarali daraxt mevalaridan o‘yinchoqlar yasaymiz. Faqatgina o‘yinchoqlar emas, birinchi sinfga boradigan kichkintoylar uchun hisob-kitob mashg’ulotida foydalanish mumkin bo‘lgan tizimchalarni ham yasaymiz.

Tizimcha yasalishi uchun qalinroq ip olamiz-da kashtan mevasini teshib, ipga o‘tkazamiz.

Dastlab bolalar 10 raqami ichida sanashni o‘rganishlari sababli, tizimchaga 10 ta mevani ipdan o‘tkazib chiqamiz. Bu tizimchani eman daraxti mevasidan ham tayyorlash mumkin. Agar meva bir oz ko‘rib qolgan bo‘lsa, ozroq suvga solib qo‘yilsa, ustki po‘stlog’i yumshaydi va tizimchani tayyorlash mumkin bo‘ladi. Qani kim sanab beradi?

Tarbiyachi: barakalla, bolalar sizlar bilan mana bunday stakanchalar tayyorlaymiz. Kvadrat shaklidagi karton qog’oz olib, undan doira qirqamiz. So‘ng to‘rtburchak shaklidagi qog’ozning pastki qismini bir sm enlikda qoldirib arra tishlariga o‘xshatib kesib chiqamizda, ikki tomonini yelimlab, pastki qismidagi qirqilgan bo‘laklarga yelim surtamiz va doirachaga yelimlaymiz. Stakancha tayyor. Bolajonlar, sizlar ham stakanchangizni tayyorlab bo‘ldingizlarmi?

Barakalla! Stakan tayyor bo‘lgan bo‘lsa, endi mo‘yqalamni artish uchun artgich, salfetka, tayyorlaymiz. Keraksiz matolardan bir necha kvadratchalar qirqib undan doirachalar hosil qilamiz. Doirachalarni ustma-ust qo‘yib, o‘rtasidan tiqib qo‘yamiz. Mana mo‘yqalam artgich ham tayyor bo‘ldi.

Bolalar, o‘yinchoq ham yasaylik, deyapsizlarmi? Albatta, o‘yinchoqlar ham yasaymiz. Hozir na’matak va kashtan daraxtining mevasidan "Ninachi va chumoli"ni yasaymiz. Buning uchun kashtan mevasini olib, unga sal kichikroq kashtan mevasiga chumolining bosh qismini o‘rnatamiz, oyoq-qo‘llarini esa novdadan yasab, to‘nkaga o‘tkazib qo‘yamiz, ko‘zlarini esa plastilindan yasaymiz. Ninachining tanasi kashtan me¬vasidan tayyorlanib, uning orqa tomoniga gugurt cho‘p o‘rnatib, kichik kashtandan bosh qismni yasaymiz: qo‘l-oyoqlarini aso novdadan tay¬yerlaymiz. Manzarali daraxt mevasidan qanotlarini yasab, plastilin bilan yopishtiramiz. Mana, ninachimiz ham tayyor! Qani eslangchi, ninachi haqidagi qaysi masalni bilasiz?

Bolalar javobi rag’batlantirilib, mashg’ulot yakunlanadi.

Bolalarga chiqindi materiallar (ip, shoyi, mo‘yna, polietilen kabilar)dan foydalanib

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

har xil mazmunda applikatsiyalar tuzish taklif etiladi. So‘ng ularga matolardan o‘yinchoqlar, turli bayram ertaliklari uchun ertak kahramonlarining kiyimlari hamda quvnoq qiziqchilar, petrushkalar kiyimlarini tikishga ham o‘rgatiladi. Bolalarning o‘zlari yasagan o‘yinchoqlar ijodiy, harakatli o‘yinlar jarayonida namoyon bo‘ladi. Quyidagi rasmlarda tabiat ashyolaridan bajarilgan o‘yinchoqlar namunalari keltirilgan:

Tabiiy materialdan mozaika ishlari. Mozaika monumental dekorativ san’at turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo‘llaniladigan materiallariga ko‘ra ham, naqshi va rasmlariga ko‘ra ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. O‘rta Osiyoda madrasalar, machitlar, xukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, interer devorlari va xalq amaliy san’ati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna sopol plitalardan foydalaniladi. Laosda rangli ko‘zgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo‘shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Mozayka bu rasm sathiga ayrim-ayrim parchalar (qog’oz, oyna, sopol plita, gul tojibarglari, urug’, tuxum po‘sti va shu kabilar) qo‘yib chiqishdir. Tuxum po‘stidan mozayka ishlarini bajarish uchun tuxum po‘sti kerakli ranglarga bo‘yaladi. Yuvib quritilgan tuxum po‘sti mo‘yqalam yordadida akvarel bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi. Buyoq qurigandan keyin po‘stni tanlangan rasmga ko‘ra mayda va yirik bo‘laklarga bo‘linadi. Tuxum po‘stidan applikatsiya qilishda shunday tasvirlarni tanlash kerakki, ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo‘lmasligi kerak. Kontur qora qog’oz orqali o‘tkaziladi yoki shablbndan aylantirib chiziladi. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. U yerga tuxum po‘sti terib chiqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham ish shu tartibda davom ettiriladi. Ortiqcha yelim toza latta bilan artib tashlanadi, po‘st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo‘yiladi. Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug’lari, danak, baliq tangalari, chig’anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil applikatsiya ishlarini bajarish mumkin. Ayni bir ishda turli materialdan foydalanish mumkin.

Tadqiqotning natijalari maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida qo‘llanilayotgan pedagogik yondashuvlar, metodlar va innovatsion texnologiyalar samaradorligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda olingan asosiy xulosalar va tahlil qilingan ma'lumotlarga ko‘ra, bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda bir nechta muhim omillar mavjud:

Ijodiy faoliyatning ta'lim jarayoniga integratsiyasi: Tadqiqotda ko‘rsatilishicha, ijodiy faoliyatlarni bolalar ta'lim jarayoniga faol integratsiya qilish, ularning tasavvurlarini kengaytirish va yangi g‘oyalar yaratishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Pedagoglar tomonidan tashkil etilgan o‘yinlar, san'at faoliyatlari, musiqa va drama mashg‘ulotlari bolalar ijodini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish jarayonida, ularning shaxsiy xususiyatlariga mos keladigan metodlarni qo‘llash, ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Differensial ta'lim yondashuvi: Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bolalarning ijodiy qobiliyatlari turlicha rivojlanadi, shuning uchun ularning individual ehtiyojlarini hisobga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

olish zarur. Differensial ta'lim metodlari yordamida, bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda individual yondashuv muvaffaqiyatli natijalar beradi. Har bir bolaga alohida e'tibor berish, ularning qobiliyatlarini eng yaxshi tarzda namoyon etishlariga imkon yaratadi.

Pedagoglarning roli va malakasi: Bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagoglarning malakasi va pedagogik metodlar ustidagi bilimlari muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha yangi metodlar va texnikalarga o‘rgatilishi, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishi aniqlangan. O‘qituvchilar va tarbiyachilar ijodiy rivojlanish uchun zarur sharoitlarni yaratishda, bolalarni qo‘llab-quvvatlashda, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishda alohida e'tibor qaratishi kerak.

Ota-onalar bilan hamkorlik: Tadqiqotda ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish bolalarning ijodiy rivojlanishida ijobiy ta'sir ko‘rsatishi ko‘rsatilgan. Ota-onalar, bolalarining ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlashda, ularga mustahkam psixologik asos yaratishda va ijodiy faoliyatni uyda davom ettirishda faol ishtirok etishlari zarur. Ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi muntazam muloqot bolalar uchun ijobiy ta'lim muhitini yaratadi.

Ijodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi sharoitlar: Tadqiqotda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik ta'minoti, ijodiy muhit va ta'lim vositalarining o‘rni katta ekani ta'kidlangan. Bolalar uchun rang-barang, rivojlantiruvchi o‘yinlar va materiallar, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan ko‘plab interaktiv vositalar ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishda yordam beradi.

Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar va metodlarning samaradorligi bolalarning individual ehtiyojlariga mos keladigan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan bevosita bog‘liqdir. Pedagoglarning malakali yondashuvi, bolalar bilan individual ishlash, ota-onalar bilan yaqin hamkorlik va ta'lim muassasasida ijodiy muhitni yaratish ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatadi.

Biroq, tadqiqot davomida maktabgacha ta'lim tizimida ba'zi muammolar ham yuzaga chiqdi. Birinchi navbatda, o‘qituvchilarning yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ta'lim muassasalarida ijodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik sharoitlarning yetishmasligi ta'kidlandi. Shuningdek, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil qilishda ba'zi muammolar mavjud.

Shu bois, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Pedagoglarning malakasini muntazam ravishda oshirish;

Ta'lim muassasalarida ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi sharoitlarni yaratish;

O‘quvchilar va ota-onalar bilan yanada yaqin hamkorlik qilish;

Innovatsion pedagogik metodlarni o‘qituvchilarga o‘rgatish.

Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bir qator

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

muhim xulosalarga olib keldi. Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni nafaqat ularning fikrlash va tasavvurini kengaytiradi, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanishlarini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Tadqiqotda keltirilgan asosiy xulosalar quyidagilardir:

Ijodiy faoliyatning ta'lim jarayoniga integratsiyasi: Ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatlarni muvaffaqiyatli integratsiya qilish, bolalarning yaratijonlik, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu faoliyatlar, o‘yinlar va san'at mashg‘ulotlari bolalar uchun nafaqat bilim olish, balki o‘zini ifoda etish va o‘z fikrlarini erkin bildirish imkoniyatini yaratadi.

Differensial ta'lim yondashuvi: Bolalar ijodiy salohiyatining turlicha rivojlanishi sababli, pedagoglarning individual yondashuvni qo‘llashi muhimdir. Har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga olish, uning ijodiy rivojlanishida samarali natijalar beradi

.Pedagoglarning malakasi va professional rivojlanishi: Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagoglarning bilim va ko‘nikmalari katta ahamiyatga ega. Ularning innovatsion metodlarni o‘rganishi va ijodiy faoliyatlarni tashkil etishdagi malakasi, ta'limning sifatini oshirishga yordam beradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik: Ota-onalar bilan yaqin va samarali hamkorlik, bolalar ijodini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar bolalarining ijodiy qobiliyatlarini uyda qo‘llab-quvvatlashlari, pedagoglar bilan hamkorlik qilib, yaxshiroq natijalarga erishish imkonini beradi.

Ijodiy faoliyat uchun sharoit yaratish: Maktabgacha ta'lim muassasalarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun zarur moddiy-texnik ta'minot va ijodiy muhitni yaratish, bolalarga o‘z salohiyatlarini maksimal darajada namoyon etish imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, tadqiqotda maktabgacha ta'lim tizimida hali mavjud bo‘lgan ba'zi muammolar, masalan, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik ta'minoti va pedagoglarning yangi metodlarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar aniqlangan. Bu muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim tizimida innovatsion pedagogik usullarni joriy etish, pedagoglarning malakasini oshirish va ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Guilford, J.P. (1967). The Nature of Human Intelligence. McGraw-Hill.Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children.
2. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Abdukarimov, M., Abdullayeva, M.A., Abdullayeva, Sh.Sh. (2005). San’at va pedagogika: Bolalar ijodkorligini rivojlantirish. Tashkent.
4. Andrews, S.K., Almodovar, M., Curtis, L. (2010). The Role of Art in Early Childhood Education. International Journal of Art Education.
5. Radjapova, Z.T., Kamolov, I.B. (2018). Ijodiy faollik va rivojlanish. Tashkent.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

6. Dyachenko, O.M., Guilford, J.P. (1981). Creativity Tests for Children. Psychological Assessment
7. Abdurashidov, A., & Turdaliyeva, N. (2023). DEVELOPMENT OF MANUAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATION. Science and innovation, 2(B2), 282-286.
8. qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. GOLDEN BRAIN, 2(7), 48-52.
9. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, & Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon kizi. (2023). Systemic Organization of Professional Competence, Creativity and Innovative Activity of A Future Kindergartener. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 19, 108–112. Retrieved from https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3709
10. Soliyev, I., & Boymirzayeva, S. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Наука и инновация, 1(6), 128-129.
11. qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BO 'LAJAK TARBIYACHINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(7), 41-47.
12. Shahnoza, B. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. University Research Base, 164-167

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Turdaliyeva Nurjahon Abdunosir qizi**, o'qituvchi [**Турдалиева Нуржахон Абдуносир кизи**,преподаватель], [**Turdaliyeva A. Nurjahon,** teacher]; manzil: Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28-A uy, [адрес: Ферганская область, г. Коканд, ул. Туркестанская, д. 28-а], [address: Fergana region, Kokand, Turkestan str., 28-a]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

SUN'IY INTELLEKT VA ZAMONAVIY INFORMATSION TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA NEMIS TILINI ARALASH TA'LIM SHAKLIDA O'QITISH METODIKASI

© H. Tursunov[1]✉

[1]Bavariya federal o'lkasi Myunxen shahri, Taufkirxen Grundschule am Wald boshlang'ich maktabi

Annotatsiya

KIRISH: raqamli texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda chet tillarini, jumladan nemis tilini o'qitishda sun'iy intellekt (SI) va zamonaviy informatsion texnologiyalar (ZIT) imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

MAQSAD: sun'iy intellekt va zamonaviy informatsion texnologiyalar integratsiyasi asosida nemis tilini aralash ta'lim shaklida samarali o'qitish metodikasini ishlab chiqish va baholash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tajriba-sinov mashg'ulotlari, onlayn platformalar, sun'iy intellektga asoslangan o'quv dasturlar, testlar, kuzatuv, so'rovnoma va pedagogik tahlil metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: sun'iy intellekt asosida qurilgan mashg'ulotlar interaktivlikni oshirib, talabalar mustaqil ishlashini kuchaytirdi.

XULOSA: sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarni nemis tilini o'qitishda aralash shaklda qo'llash ta'lim sifatini oshiradi, talabalarda tilni mustaqil o'rganish malakasini rivojlantiradi va ta'lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, informatsion texnologiyalar, aralash ta'lim, nemis tili, metodika, raqamli ta'lim.

Iqtibos uchun: Tursunov H. Sun'iy intellekt va zamonaviy informatsion texnologiyalar integratsiyasi asosida nemis tilini aralash ta'lim shaklida o'qitish metodikasi. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.377–382.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ В ФОРМЕ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

© Х. Турсунов[1]✉

[1]Начальная школа "Grundschule am Wald", город Тауфкирхен, Мюнхен, федеральная земля Бавария

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ВВЕДЕНИЕ: в условиях стремительного развития цифровых технологий актуальной становится интеграция искусственного интеллекта (ИИ) и современных информационных систем в процесс обучения иностранным языкам, в частности немецкому языку.

ЦЕЛЬ: разработка и оценка методики преподавания немецкого языка в смешанном формате с использованием ИИ и современных цифровых технологий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались экспериментальные занятия, онлайн-платформы, ИИ-программы, тестирование, анкетирование, педагогическое наблюдение и анализ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: применение ИИ повысило интерактивность занятий и усилило самостоятельность обучающихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: интеграция ИИ и цифровых технологий в преподавание немецкого языка в смешанном формате значительно повышает качество обучения и способствует развитию самостоятельности у студентов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, информационные технологии, смешанное обучение, немецкий язык, методика, цифровое образование.

Для цитирования: Турсунов Х. Методика обучения немецкому языку в форме смешанного обучения на основе интеграции искусственного интеллекта и современных информационных технологий. // Inter education & global study.2025. Vol.3 №6(1). С.377–382.

THE METHODOLOGY OF TEACHING GERMAN IN THE FORM OF BLENDED LEARNING BASED ON THE INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES

© Tursunov H[1]✉
[1]Primary school "Grundschule am Wald", Taufkirchen, Munich city, Bavaria federal state

Annotation

INTRODUCTION: in today’s rapidly evolving digital environment, integrating artificial intelligence (AI) and modern information technologies into foreign language teaching, particularly German, has become a pressing educational trend.

AIM: to develop and evaluate a methodology for teaching German through a blended learning model that incorporates AI and modern digital technologies.

MATERIALS AND METHODS: the study employed experimental lessons, online platforms, AI-based applications, tests, surveys, observation, and pedagogical analysis.

DISCUSSION AND RESULTS:AI-supported sessions increased interactivity and student autonomy.

CONCLUSION: blending AI and digital tools into German language instruction significantly improves educational outcomes, supports independent learning, and enhances overall teaching quality.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Keywords: artificial intelligence, information technology, blended learning, German language, methodology, digital education.

For citation: Tursunov H. (2025) 'The methodology of teaching german in the form of blended learning based on the integration of artificial intelligence and modern information technologies', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.377–382. (In Uzbek).

Sun'iy intellekt va zamonaviy informatsion texnologiyalar integratsiyasi asosida nemis tilini aralash ta'lim shaklida o'qitish metodikasi bugungi kunda chet tillarni o'rganish jarayonida eng dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Ta'lim sohasida sodir bo'layotgan globallashuv, raqamli axborot almashinuvi va innovatsion texnologiyalarning keskin rivojlanishi sababli, chet tillarini o'rganuvchilarga qo'yiladigan talablar ham o'zgarib bormoqda. Xususan, nemis tili ham jahon miqyosida yetakchi kommunikatsion vositalardan biriga aylanishi bilan birga, uni o'rgatuvchi pedagoglarda yangicha metodik yondashuvlar, ta'lim dasturlariga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish kabi mas'uliyatli vazifalarni yuzaga keltiradi. Aralash (blended) ta'lim shakli an'anaviy auditoriya darslarini onlayn darslar yoki masofaviy metodlar bilan uyg'unlashtirib, talabalar faolligini oshirish, o'quv jarayonini moslashuvchan qilish, individuallashtirilgan yondashuvni ta'minlash hamda o'quv jarayonini raqamli texnologiyalar bilan boyitish imkonini beradi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari ko'plab sohalar singari ta'lim jarayoniga ham jadal sur'atlarda kirib kelmoqda. Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan o'qitish platformalari, ma'lumotni tahlil qilish va qayta ishlash tizimlari, suhbatbotlar, ovoz tanish dasturlari, matnni avtomatik tarjima qilish ilovalari ta'lim jarayonini samarali boshqarish va ko'maklashishda katta ahamiyat kasb etadi. Nemis tili kurslarida bu kabi zamonaviy AI vositalaridan foydalanish til o'rganuvchilarning nutqiy ko'nikmalarini tezroq rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish, talaffuzni to'g'rilash hamda alohida topshiriqlarni individuallashtirib berish imkoniyatini yaratadi. Masalan, nemis tiliga xos fonetik xatoliklarni aniqlash va ularni real vaqt rejimida to'g'rilash orqali talabalar o'zlari ustida faol ishlay boshlaydi

Aralash ta'lim modelining afzalliklaridan biri shundaki, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlik turli shakllarda kechadi. An'anaviy darslarda bevosita muloqot qilish, talaffuz, grammatik tahlil, nutqiy mashqlarni birgalikda bajarish alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga, onlayn platformalar va sun'iy intellekt vositalari yordamida talabalar mustaqil ravishda mashq bajarishi, topshiriqlarni bajarish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelganda avtomatik tahlil tizimlari yoki chatbotlardan ko'mak olishi mumkin. Bu yondashuv pedagogning vaqtini tejab, dars jarayonini ko'proq ijodiy faoliyat va interaktiv muhokamalar bilan boyitish uchun zamin yaratadi. Shuningdek, o'qituvchi sun'iy intellekt bazasida to'plangan natijalarni tahlil qilib, har bir talabaga mos

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yondashuvni topishi, individual rivojlanish trayektoriyasini belgilashi va o‘qitish strategiyasini qayta ko‘rib chiqishi mumkin bo‘ladi.

Aralash ta’lim shakli ko‘p hollarda “flipped classroom” (teskari sinf) tamoyili bilan uyg‘unlashadi. Bu degani, talabalar darsga kelishdan oldin onlayn platformada mavzuni o‘zlashtirib, nazariy materiallar bilan tanishadi, sun’iy intellekt tomonidan taklif etilgan mashqlarni bajaradi. Auditoriya mashg‘ulotlari esa o‘qituvchi ko‘magida, asosan, qiyin masalalarni muhokama qilish, suhbatlar, nutqiy o‘yinlar, erkin muloqot va ijodiy topshiriqlarga ajratiladi. Natijada dars vaqti an’anaviy “ma’ruza – tinglash” shaklidan samarali mashq va tahlilga ko‘proq yo‘naltiriladi.

Sun’iy intellekt vositalarining nemis tili aralash ta’limida qo‘llanilishi o‘quvchilar yoki talabalar kuzatishlari lozim bo‘lgan talaffuz me’yorlarini audio yoki video misollar yordamida baholashi va real vaqt rejimida izoh berishi mumkin. Dastlabki bosqichlarda bu xitob va intonatsiya xatoliklarini aniqlashga yordam bersa, keyinchalik grammatik tuzilmalarning to‘g‘ri qo‘llanilishi, leksik xatoliklar yoki so‘z birikmalaridagi nojo‘ya qo‘llanishlarni ham avtomatik tarzda ko‘rsatib beradi. Misol uchun, dasturga yozma matn kiritilganda, u grammar-check funktsiyasi orqali xatolarni aniqlaydi va to‘g‘rilash bo‘yicha maslahatlar beradi. Shu bilan birga, AI bazasida mavjud bo‘lgan keng so‘z zaxirasi talabalar orfografik va sintaktik ko‘nikmalarini mustahkamlashi, sinonimlar yoki aniq jumla tuzish qoidalarini o‘rganishi uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Aralash ta’limda nemis tilini o‘rganish jarayonidagi yana bir ahamiyatli jihat – bu talabalar mustaqilligini oshirishdir. An’anaviy darslarda ko‘p hollarda o‘qituvchi markazda turadi va o‘quvchilar ko‘rsatmalarni bajaruvi sifatida qatnashadi. Onlayn platformalarda esa har bir talaba o‘z shaxsiy tezligi va qobiliyatlariga mos ravishda topshiriqlarni bajaradi, bunday topshiriqlar sun’iy intellekt tomonidan moslashtirilgan bo‘lishi mumkin. Natijada talabalar o‘z oqsoqliklarini, bilimsizliklarining qaysi nuqtada ekanini samarali tahlil qila oladilar va shu orqali kelajakda ustida ishlashlari lozim bo‘lgan masalalarni aniqlab oladilar. Bu jarayon o‘qituvchiga ham katta qulaylik tug‘diradi, chunki AI platformalaridagi tahlil funksiyalari har bir talabaning bilim darajasini konkret raqamlar va indekslar bilan ko‘rsatib, qayta aloqa berib boradi.

Sun’iy intellektdan foydalanishda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan ayrim xavflar va cheklovlar ham mavjud. Avvalo, AI dasturlarining aniq natijalar berishi ularning ma’lumotlar bazasi yangilanib turishiga, modeli qanday ma’lumotlarda o‘qitilganiga bog‘liq. Shuningdek, sun’iy intellektning gapirish yoki nutqni tushunishdagi ayrim murakkabliklari, odatiy bo‘lmagan talaffuz, dialekt va sheva xususiyatlarini to‘g‘ri anglamaslik ehtimoli ham bor. Shu sababli o‘qituvchi AI vositalaridan foydalanayotganda ularning cheklovlarini to‘g‘ri idrok qilishi, talabalarga zaruriy izohlar berishi, hamisha inson omili, ya’ni ularning o‘zi dastur ko‘magi bilan berilgan natijani tekshirishlari va to‘ldirishlari zarurligini eslatib turishi lozim. Sun’iy intellekt vositalaridan to‘liq va hech qanday cheklovsiz foydalana olmaslik, ayniqsa, ayrim texnik talablarga bog‘liq bo‘lganida, o‘qituvchi hayotiy tajriba, ijodiy yondashuv va o‘zining kommunikatsion salohiyatini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ustuvor qo‘llashi kerak. Bu sun’iy intellekt bilan pedagogning mahoratini uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy informatsion texnologiyalar ham aralash ta’limni takomillashtirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Videokonferensiya platformalari, masalan, Zoom, Google Meet, Microsoft Teams yoki maxsus ta’lim portallari yordamida masofaviy darslar o‘tkazish, auditoriya mashg‘ulotlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish, virtual doska va interaktiv materiallar taqdimoti orqali hamkorlikda ishlash sifatini oshirish mumkin. Maxsus veb-ilovalar, mobil dasturlar yoki LMS (Learning Management System) tizimlari yordamida har bir talabaga interaktiv testlar, o‘yinlar, ko‘nikma baholash modulini yaratish yoki uy vazifalarini boshqarish qulaylashadi. Bu esa o‘quv jarayonining har bir bosqichida tayanch bilimlarni mustahkamlash, natijalarni kuzatish va tahlil qilish imkonini taqdim etadi. Shuningdek, baholash jarayoni tezlashadi va aniqroq bo‘ladi, chunki talabalar test yoki topshiriqni o‘tkazib yubora olmaydilar: system avvaldan belgilangan muddatlarda avtomatik ravishda natijalarni yig‘ib, o‘qituvchiga tayyor hisobotni ko‘rsatib beradi.

Nemis tili darslarida sun’iy intellektni qo‘llab aralash ta’lim shaklini joriy qilishning katta pedagogik samara berishi bevosita metodik yondashuvlarni to‘g‘ri tanlashga ham bog‘liq. Metodik jarayonda oldinma-ketinlik, maqsadlarning aniq belgilanishi, talabaning bilim darajasi va yosh xususiyatlari inobatga olinishi, talabalarga topshiriq berish usullari, rag‘batlantirish va baholash ko‘rsatkichlari muhimmiyat kasb etadi. Masalan, muayyan dars mavzusini kirish qismida AI yordamida tayyorlangan qisqa videorolikdan foydalanish talabalar e’tiborini jalb qiladi, keyin esa shu rolikdagi til unsurlariga doir mashqlar bilan mustahkamlash mumkin. Bunday amaliyot “kommunikativ yondashuv”ni kuchaytiradi, chunki talabalar real hayotga yaqin bo‘lgan nutqiy vaziyatlarni o‘rganishadi. Shu bilan birga, onlayn platformada sun’iy intellekt bilan suhbat yoki testdan o‘tish orqali mavzuni mustahkamlashadi. Auditoriya mashg‘ulotida esa o‘qituvchi olingan natijalar asosida qiyin o‘rinlarga diqqatni qaratadi, muhokama, rolli o‘yinlar, jamoaviy ishlar orqali til ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Aralash ta’limda samaradorlikni ta’minlash uchun motivatsiyani yuqori darajada ushlab turish lozim. Talabalarda bilim olish istagining shakllanishida AI va zamonaviy texnologiyalarning jozibadorligi muhim o‘rin tutadi. Interaktiv darslar, o‘yin elementlari, gamifikatsiya, reyting va bosqichma-bosqich mukofotlash tizimlari talabani faol ishtirok etishga undaydi, o‘zlarini sinab ko‘rish va rivojlanishdan zavq olish hissini uyg‘otadi. Shuningdek, xatoni tushunish va uni to‘g‘rilash imkoniyatining tezligi ham ta’lim sifati uchun muhim. O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolari bo‘yicha darhol ma’lumot olishgani sayin, ular o‘z kamchiliklarini tuzatishga shay bo‘lishadi va bu jarayonda o‘qituvchining qat’iy nazorati va qurbi e’tiboridan chetda qolmaydi

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt va zamonaviy informatsion texnologiyalar integratsiyasi asosida nemis tilini aralash ta’lim shaklida o‘qitish metodikasi bugungi zamon talablari bilan uyg‘un keladigan, yuqori samaraga ega bo‘lgan yondashuvdir. Bu modelda o‘qituvchi doimo markazda bo‘lib qoladi, chunki aynan u o‘qitish jarayonining

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

maqsad va vazifalarini aniqlaydi, metodik ta’minot va pedagogik yondashuvni tanlaydi, texnologik vositalar bilan ishlashda talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Shu bilan birga, aralash ta’lim texnologiyalari talaba mustaqilligini ta’minlash, real vaqt rejimida qayta aloqani olib borish, baholashning shaffof va tezkor shakllarini taklif etish, individual yondashuvni amalga oshirish, nutqiy va lingvistik ko‘nikmalarni qisqa muddatda rivojlantirish imkonini beradi. Sun’iy intellektning rivojlanishi va tezkor informatsion muhitning shakllanishi bilan bog‘liq globallashuv jarayonlari, albatta, ta’lim tizimini o‘zgarishga majbur qilmoqda. Ushbu jarayonni ijobiy tomonga yo‘naltirish, ayniqsa chet tillarni o‘qitishda zamonaviy konsepsiyalarni tatbiq etish orqali, biz talabalarimizga yuqori darajadagi kommunikatsion, lingvistik va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini baxsh etishimiz mumkin. Aralash ta’lim modelida sun’iy intellekt bilan uyg‘unlashgan pedagogika nafaqat hozirgi kunda, balki kelajakda ham samarali va istiqbolli yondashuv sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullayeva, N. A. Chet tillarini aralash ta’lim shaklida o‘qitish metodlari: monografiya / N. A. Abdullayeva. – T.: Yangi asr avlodi, 2020. – 208 b.
2. Karimov, O. T. Sun’iy intellekt: nazariya va amaliyot / O. T. Karimov. – T.: Ilm ziyo, 2019. – 180 b.
3. Mamatov, U. R. Raqamli ta’lim platformalarida nemis tilini o‘qitish texnologiyalari / U. R. Mamatov // Oliy ta’limda innovatsion yondashuvlar jurnali. – 2021. – № 2. – B. 37–44.
4. Dunyo, F. B. Blended learning koncepti va uning chet tillarini o‘qitish jarayonidagi o‘rni / F. B. Dunyo // Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali. – 2022. – № 4. – B. 56–61.
5. Hofmann, J. Blended Learning: Proven Best Practices for Launching Successful Blended Training Initiatives / J. Hofmann. – USA: HRD Press, 2018. – 244 p.
6. Pavlova, T. V. Ispol’zovanie iskusstvennogo intellekta pri izuchenii inostrannykh yazykov / T. V. Pavlova, R. K. Sidorov // Vysshee obrazovanie segodnya. – 2020. – № 1. – S. 25–31.
7. Schmidt, M. Künstliche Intelligenz im Fremdsprachenunterricht: Lehr- und Arbeitsbuch / M. Schmidt. – Berlin: Springer, 2019. – 296 S.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tursunov H.**, o‘qituvchi, [**Турсунов Х.,** преподаватель], [**Tursunov H.**, teacher]; manzil: Pappelstraße 1 (mehmonlar uchun kirish Ahornring tomonidan),82024 Taufkirchen, München tumani, Bavariya, Germaniya [адрес: Pappelstraße 1 (вход для посетителей с Ahornring),82024 Тауфкирхен,Округ Мюнхен,Бавария, Германия], [address: Pappelstraße 1 (visitor entrance via Ahornring),82024 Taufkirchen,Munich district,Bavaria, Germany]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

NEMIS FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING MATN METODIK TAHLILI

© Z.F. Xalilova[1]✉
[1]Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada frazeologik birliklar til boyligini oshirish bilan birga, xalqning tarixiy o‘tmishi, bugungi ijtimoiy hayoti, mafkurasi, qadriyatlari va tarbiyasini ifodalovchi muhim til vositasi sifatida tavsiflanadi.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi — nemis tilidagi frazeologik birliklarning grammatik, morfologik va semantik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning tayyor birikma sifatida matnda uchrash shakllarini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada G.de. Broyenning “Tristan va Izolda” asari asosida frazeologik birliklarni tadqiq etish metodologiyasi, ularning matndagi funksional va semantik tahlili keltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: nemis tilidagi frazeologik birliklarning to‘liq, qisman yoki umuman mos kelmaslik holatlari aniqlanib, ular o‘zbek tilidagi muqobillari bilan taqqoslangan. Iboralarning nutqda faol qo‘llanishi, ularning madaniy-ma’naviy ahamiyati va tarbiyaviy kuchi tahlil qilindi.

XULOSA: frazeologik birliklar matnda tayyor birikma sifatida uchrab, o‘quvchilarda tilni puxta o‘zlashtirish, madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ularning o‘rganilishi o‘quv materiallarining aniqligi va ifodaliligini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, sintagma, madaniyat, muqobillik, tarixiylik, milliylik, axloqiylik, ma’naviyat.

Iqtibos uchun: Xalilova Z.F. Nemis frazeologik birliklarining matn metodik tahlili. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.383–388.

МЕТОДИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕКСТА НЕМЕЦКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

© З.Ф. Халилова[1]✉
[1] Навоийский государственный университет, Навои, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье фразеологические единицы рассматриваются как важное средство языка, способное не только обогатить речь, но и отразить историческое прошлое, современную социокультурную реальность, идеологию и ценности народа.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ЦЕЛЬ: целью исследования является анализ грамматических, морфологических и семантических особенностей немецких фразеологизмов и определение их проявления как готовых речевых единиц.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье используется методология анализа фразеологических единиц, применённая Г. де Броеном в произведении «Тристан и Изольда». Приведены примеры, отражающие их культурно-языковую специфику.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: выявлены варианты полного, частичного и отсутствующего соответствия немецких фразеологизмов их эквивалентам в узбекском языке. Проанализированы примеры их активного употребления и интерпретации в учебном процессе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: фразеологизмы, функционирующие в тексте как готовые синтагмы, играют важную роль в формировании речевой культуры учащихся и способствуют формированию межкультурной компетенции.

Ключевые слова: фразеологизм, синтагма, культура, эквивалентность, историчность, национальное, нравственное, духовное.

Для цитирования: Халилова З.Ф. Методический анализ текста немецких фразеологизмов.// Inter education & global study.2025. Vol.3 №6(1). С.383–388.

METHODICAL ANALYSIS OF THE TEXT OF GERMAN PHRASEOLOGICAL UNITS

© Zilola F. Xalilova [1]✉
[1] Navoi State University,Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article describes phraseological units as a key linguistic tool that not only enriches language, but also reflects the historical past, contemporary social life, ideology, and cultural values of a people.

AIM: the main aim of the article is to analyze the grammatical, morphological, and semantic characteristics of German phraseological units and to determine how they function as fixed expressions in texts.

MATERIALS AND METHODS: the research methodology is based on the analysis used by G. de Broyen in Tristan and Isolde. The study includes examples illustrating the cultural and linguistic significance of these units.

DISCUSSION AND RESULTS: the study identifies complete, partial, and non-equivalent correspondences of German phraseological units to their Uzbek counterparts. Examples of their active use and potential pedagogical applications are analyzed.

CONCLUSION: phraseological units function as ready-made syntagms within texts and are essential in developing students' linguistic fluency and intercultural competence. Their study enhances expression and clarity in language acquisition.

Keywords: phraseological unit, syntagm, culture, equivalence, historicity, national, moral, spiritual.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

For citation: Zilola F. Xalilova. (2025) 'Methodical analysis of the text of German phraseological units', Inter education & global study, Vol.3 №6((1)), pp.383–388. (In Uzbek).

Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi

Frazeologik birliklar har doim subyektga qaratilgan bo'ladi, ya'ni ular olamni tasvirlash uchungina emas, balki uni talqin qilish, baholash va unga subyektiv munosabat bildirish uchun yuzaga keladi. Frazeologizm va metaforalar aynan mana shu jihati bilan boshqa atov birliklaridan ajralib turadi. Har bir xalq vakili o'z fikrini obrazli yoki his-hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida barqaror so'z birikmalari yaratishda o'ziga yaqin yoki tanish narsa va hodisalar nomlaridan foydalanishga harakat qiladi. Masalan, "boshdan-oyoq", "to'la-to'kis", "butunlay", "tamomila" iborasi ishlatiladi. Mazkur iboraning ta'sirida turk tilida A'dan Z'ye kadar rus tilida, От А до Я iboralari paydo bo'lgan. Yoki yunon tilida "ibtido va intiho", "hayotning boshi va oxiri" ma'nosida "Alfa va Omega" iborasi qo'llaniladi. Ayni iboralarning obrazliligi mazkur tillardagi birinchi va oxirgi harflarning majoziy qo'llanilishi – bir-biriga qarshi qo'yilishi asosida vujudga kelgan. Lingvokulturologiya fanining asoschilaridan biri, Moskva frazeologik maktabining rahbari V.N.Teliyaning yozishicha, tilning frazeologik tarkibi "lingvomadaniy jamoa milliy o'zligini ko'radigan ko'zgudir". [5]

Mashhur rus tilshunosi B.A.Larinning ta'kidlashicha, "Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi". Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. [3]

Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxeotiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avloddan-avlodga uzatiladi. F. I. Buslayevga ko'ra, frazeologizmlar o'ziga xos kichik dunyo bo'lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o'z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular millatning o'ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir. [2]

Nemis adibi G.de. Broyenning "Tristan va Izolda" asari tahlilida frazeologik birliklar o'rganilar ekan undagi ifoda, rang –tasvir, voqeqlar jarayoni muhim tarixiy ildizlarni topishga va izlashga yo'naltirilgan. O'quvchi xorijiy tilning qimmatli ahamiyati va nozik sir-sinoati yashiringan iboralarni topishga qiziqadi, madaniyat va qadriyatlarni bilvosita ahamiyatli qirralarini ajratadi.[1]

Sein Herz schlug vor Freude. Seite-22
Quvonchdan yuragi gup- gup ura boshladi.25-bet
Yurak urmoq va gup – gup ura boshlamoq;
Sein Herz schlug- inson, hayvon va jonzotlarga xos;
Man schlägt das Herz den Menschen, den Tieren und in allen Lebewesen;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Man kann sagen: vor Erregung-hayajondan, vor Liebe - sevgidan, vor Angst-qo‘rquvdan, - vor Freude xursandchilikdan;

Aus Aufregung, aus Liebe, aus Angst, aus Freude –bu so‘zlar sinonim sifatida va mavhum otlar sifatida uyushib kelib, ibora ma’nosida nutqimizda faol ishlatilishini izohlashimiz mumkin. Va yana gaplarda ibora vazifasida fikrni ochiq va to‘la-to‘kis anglashga undaydi.

-Kirish imtihonlar oldidan yuragi hayajondan gup-gup urardi.

-Qorong‘ulikda yuragi qo‘rquvdan gup- gup urib turardi.

-Uchrashuvda qizning yuragi sevgidan gup-gup urib turardi.

-Vor den Aufnahmeprüfungen klopfte sein Herz vor Aufregung.

-In der Dunkelheit hämmerte sein Herz vor Angst.

-Das Herz des Mädchens schlug während des Treffens vor Liebe.

Gaplardagi frazeologik iboralar ikkala til tabbiyligini, yaxlitligini o‘quvchida oson yetkazilishiga va tushunarlilikni qoliplab, madaniyat va tarixni ajralmas rishtalar asosida shakllanganligini ifodalovchi til vositachiligi sifatida xizmat qiladi.

Wer ihr in die Augen sieht, sagte er, dem läutern sich Herz und Gemüt, so wie die Glut das Gold. Seite- 41

Bamisoli olov oltinni tozalagani singari kuylardi u,- unig ko‘zlariga bir qarashning o‘zi kishining qalbini musaffo etadi. 42-bet

Die Glut –cho‘g‘, olovning yonib tugagandangi holati;

O‘zbek tilida olov so‘zi orqali tarjima qilinib, olov so‘zini quyidagi nemis tili iboralarda turlicha frazeologik iboralarda farqlash mumkin.

Bu frazeologik birliklarning muqobili aniqlanadi:

Verbinde Redensart und deren Bedeutung mit einer Linie:

Öl ins Feuer gießen -rasch bekannt werden;

Olovga moy sepmoq-janjalni yanada murakkablashtirmoq;

mit dem Feuer spielen- jemandem voll vertrauen;

sich wie ein Lauffeuer verbreiten -einen Streit schüren;

ein Strohfeuer sein- intensiv, aber nur von kurzer Dauer;

für jemanden die Hand ins Feuer legen -die Gefahr herausfordern;

die Kastanien aus dem Feuer holen -sich zum ersten Mal bewähren;

Feuer und Flamme sein -jemanden lauthals motivieren;

die Feuertaufe bestehen -das Gefährliche tun;

ohne Rauch kein Feuer- begeistert sein;

jemanden anfeuern -an Gerüchten ist stets etwas dran;

Feuer zählt mit Luft, Erde und Wasser zu den vier Urelementen, die von griechischen Philosophen und Gelehrten als unveränderlich beschrieben wurden. Das Feuer hat die Entwicklung des menschlichen Lebens in besonderer Weise geprägt. Solange der Mensch das Feuer unter Kontrolle hat, ist es nutzbringend: Es spendet Wärme und Licht, ermöglicht warme Nahrung. Doch schon eine kleine Unachtsamkeit im Umgang mit Feuer kann für den Menschen zu einer Lebensgefahr werden und

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

schreckliche Verwüstungen anrichten. Auch wenn die Erfahrungs- und Erlebnisräume für viele Kinder immer kleiner werden, mit Feuer sind alle Kinder schon einmal in Berührung gekommen. Lagerfeuer, Feuerwehr, Silvesterraketen, Kerzenschein sind allen Kindern ein Begriff. [4]

1.Wie glücklich muß die Frau sein, die seine Liebe besitzt! Seite- 6

1.Uning muhabbatini qozona olgan ayolning ko‘nglida bir umr armon qolmaydi. 12-bet

2. Gott schenke Euch ein reiches Herz. Seite-7

2. Xudo fe’lingizni keng qilsin, to‘ram. 12 -bet

3.Heimlich warf sie ihm Blicke zu. Seite-7

3.Yashirincha u unga nigoh tashlardi.13- bet

4.Wenn auch er sie ansah, dann leuchteten ihre Augen so. Seite-7

4. Qo‘qqisidan nigohlari to‘qnashgudek bo‘lsa, ko‘zlari birdan yulduzdek chaqnab ketar; 13-bet

5.Weckte sie seine Sinne wieder und gaben ihm Kraft zur Liebe. Seite-9

5.Ular yigitga g‘oyibdan kuch - quvvat baxsh etdi.14-bet

6. Liebste Frau, antwortete Riwalin, die größte Freude, die man nur haben kann, hab ich bei Euch erlebt. Seite-10

6.-Jonginam, - dedi Rivalin, - sizning og‘ushingizda, men jannat iqbolidan bahramand bo‘ldim. 12-bet

7. Wer ihr in die Augen sieht, sagte er, dem läutern sich Herz und Gemüt, so wie die Glut das Gold. Seite- 41

7.Bamisoli olov oltinni tozalagani singari kuylardi u,- unig ko‘zlariga bir qarashning o‘zi kishining qalbini musaffo etadi.42-bet

7.Rivalin ging zu Blanscheflur, um Abschied zu nehmen. Seite-9

7.Rivalin xayrlashish uchun Blansheflur oldiga bordi.15-bet

8. Blanscheflur aber war stumm vor Schmerz. Seite-9

8.Iztirobdan Blansheflurning tili kalimaga kelmay qoldi.15- bet;

9. Ich sag Euch offen. Seite-15

9. Endi sizga ko‘nglimni ochay. 15-bet

10.Vorsichtig, wie Erfahrungen ihn gemacht. Er erfand eine Geschichte. S-18

10.Sutdan og‘zi kuygan qattiqni ham puflab ichadi. 22-bet

Iboralarni darsliklarda afsuski ko‘p uchratmaymiz. Vaholanki nutqimiz ko‘rki va sofligi, muloqotning tushunarliligi iboralar asosida ekanligi kitobxon o‘quvchi uchun muhimdir.

Umuman olganda, nutqimizda ko‘plab imkoniyatlar mavjud. O‘quvchilar o‘rganganlarini amalda qo‘llaydilar va hatto yangi ibora yaratadilar.

O‘quvchilarning mustaqil o‘zlashtirishi uchun so‘z boyligini oshirish bilan cheklanmay, frazemalarni bilish va tahlil etish, ajratish til egallashning tayanch ustunidir. Garchi bu ish frazeologizmlarning o‘ziga xos turi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ular nutqda tayyor holda uchrashi va takrorlanishi o‘quvchida til o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

oshiradi va tilni aniqligiga va muloqotni yengillashtiruvchi nutq vositasiligiga ko‘nikma hosil qiladi.

Shundagina biz so‘zma- so‘z va noto‘gri tarjimadan chekinamiz va frazeologik birliklar tilning mukammal qurilmasiligini farqlab, tayyor nutqimizdagi ibora borligini ajratib, o‘z o‘rnida nemis tilidagi muqobilligini tanlay olamiz.

Iboralar tahlili tarixiy o‘tmishni, insoniy fazilatlarni, madaniyatlar xilma-xilligini, turmush ikir –chikirlarini, hayotiy tarbiyani, inson qadr- qimmatini, tabiiy borliqni o‘z ichiga olgan hayot haqiqati ekanligini unutmasligimiz darkordir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. G.de. Broyen. Tristan und Isolda,1994
2. Кондрашова И. А. Лингвистические труды Ф. И. Буслаева // Семантическая структура слова и высказывания. М., 1993;
3. Ларин Б. А. Три иностранных источника по разговорной речи Московской Руси XVI—XVII веков Отв. ред. А. С. Герд; Рец.: В. В. Колесов, Л. Я. Костючук; Санкт-Петербургский государственный университет. — СПб.: Изд-во СПбГУ, 2002. — 688 с. — 1000 экз.
4. Manfred Bisanz, Feuer und Flamme
5. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 226 с.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xalilova Zilola Farmonovna,** tayanch doktoranti [**Халилова Зилола Фармоновна,** базовый докторант], [**Khalilova Zilola Farmonovna,** basic doctoral student]; manzil: Navoiy shahar Karmana Tumani, Ma`niviyat 175, [адрес: докторант Навоийского государственного университета, Карманинский район, город Навои Духовность 175], [address: , Karmaninsky District, Navoi Dukhovnost 175]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

AVTOMATLASHTIRILGAN LOYIHALASH TIZIMLARI ASOSIDA TEXNIKA IXTISOSLIKLARI TALABALARINING LOYIHAVIY-KONSTRUKTORLIK KOMPETENTYLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI

© A.A. Xazratqulov[1]✉

[1]Jizzax politehnika instituti, Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy sanoat korxonalari yuqori malakali, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari (CAD) bilan ishlasha oladigan mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda. Texnika ixtisosliklari talabalarining loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish masalasi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda.

MAQSAD: avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida texnika ixtisosliklari talabalarining loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini samarali rivojlantirish uchun dasturiy-metodik ta'minot yaratish va uning samaradorligini isbotlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot uch oliy ta'lim muassasasida 240 talaba ishtirokida amalga oshirildi. Loyihaviy-konstruktorlik kompetentligining to'rt komponentli strukturaviy modeli ishlab chiqildi. 12 haftalik o'quv kursi yaratildi va SolidWorks, AutoCAD, Inventor tizimlaridan kompleks foydalanish metodikasi qo'llandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tajriba guruhida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligining barcha komponentlari bo'yicha sezilarli o'sish qayd etildi: kognitiv komponent - 44%, operatsional komponent - 71%, kreativ komponent - 68%, refleksiv komponent - 47%. Loyiha ishlarining sifati 94% ga yaxshilandi, xatolar soni 40% ga kamaydi.

XULOSA: ishlab chiqilgan dasturiy-metodik ta'minot loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Metodika oliy ta'lim muassasalarida keng joriy etilishi mumkin bo'lib, texnika yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari, loyihaviy-konstruktorlik kompetentligi, CAD tizimlari, texnika ta'limi, SolidWorks, dasturiy-metodik ta'minot

Iqtibos uchun: Xazratqulov A.A. Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida texnika ixtisosliklari talabalarining loyihaviy-konstruktorlik kompetentyligini rivojlantirishning dasturiy metodik ta’minoti. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №6(1). B.389–399.

ПРОГРАММНО-МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ПРОЕКТНО-КОНСТРУКТОРСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ НА ОСНОВЕ СИСТЕМ АВТОМАТИЗИРОВАННОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© А.А. Хазраткулов[1]✉
[1]Джизакский политехнический институт, Джизак, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: современные промышленные предприятия испытывают потребность в высококвалифицированных специалистах, способных работать с системами автоматизированного проектирования (САПР). Развитие проектно-конструкторской компетентности студентов технических специальностей является особенно актуальным в настоящее время.

ЦЕЛЬ: создать программно-методическое обеспечение для эффективного развития проектно-конструкторской компетентности студентов технических специальностей на основе систем автоматизированного проектирования и доказать его эффективность.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование проводилось в трех высших учебных заведениях с участием 240 студентов. Разработана четырехкомпонентная структурная модель проектно-конструкторской компетентности. Создан 12-недельный учебный курс с применением комплексной методики использования систем SolidWorks, AutoCAD, Inventor.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в экспериментальной группе зафиксирован значительный рост по всем компонентам проектно-конструкторской компетентности: когнитивный компонент - 44%, операциональный компонент - 71%, креативный компонент - 68%, рефлексивный компонент - 47%. Качество проектных работ улучшилось на 94%, количество ошибок снизилось на 40%.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: разработанное программно-методическое обеспечение показало высокую эффективность в развитии проектно-конструкторской компетентности. Методика может быть широко внедрена в высших учебных заведениях, способствуя повышению качества подготовки кадров по техническим направлениям.

Ключевые слова: системы автоматизированного проектирования, проектно-конструкторская компетентность, САПР, техническое образование, SolidWorks, программно-методическое обеспечение

Для цитирования: Хазраткулов А.А. Программно-методическое обеспечение развития проектно-конструкторской компетентности студентов технических специальностей на основе систем автоматизированного проектирования. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №6(1). С.389–399.

SOFTWARE AND METHODOLOGICAL SUPPORT FOR DEVELOPING DESIGN AND ENGINEERING COMPETENCIES OF TECHNICAL STUDENTS BASED ON COMPUTER-AIDED DESIGN SYSTEMS

© Abduvohid A. Xazratqulov[1]✉
[1]Jizzakh Polytechnic Institute, Jizzakh, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

INTRODUCTION: modern industrial enterprises require highly qualified specialists capable of working with computer-aided design (cad) systems. the development of design and engineering competence among technical specialization students is particularly relevant today.

AIM: to create and prove the effectiveness of software-methodical support for developing design and engineering competence of technical specialization students based on automated design systems.

MATERIALS AND METHODS: the research was conducted in three higher education institutions with 240 students participating. A four-component structural model of design and engineering competence was developed. A 12-week training course was created using integrated methodology with SolidWorks, AutoCAD, and Inventor systems.

DISCUSSION AND RESULTS: significant growth was recorded in all components of design and engineering competence in the experimental group: cognitive component - 44%, operational component - 71%, creative component - 68%, reflective component - 47%. Project work quality improved by 94%, errors decreased by 40%.

CONCLUSION: the developed software-methodical support demonstrated high efficiency in developing design and engineering competence. The methodology can be widely implemented in higher education institutions, contributing to improving the quality of technical specialization training.

Keywords: computer-aided design systems, design and engineering competence, CAD systems, technical education, SolidWorks, software-methodical support

For citation: Abduvohid A. Xazratqulov (2025) 'Software and Methodological Support for Developing Design and Engineering Competencies of Technical Students Based on Computer-Aided Design Systemsnimal symbolism in fine arts', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.389–399. (In Uzbek).

Zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida muhandislik sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash tizimi tubdan o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bugungi kunda sanoat korxonalari va loyihalash tashkilotlari yuqori malakali, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonaviy dasturiy vositalar bilan ishlasha oladigan mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda. Bu talablar, ayniqsa, loyihaviy-konstruktorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan muhandislar uchun dolzarbdir.

Oliy ta'lim muassasalarida texnika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Loyihaviy-konstruktorlik kompetentligi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni, ijodiy fikrlash qobiliyatini, zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish malakalarini ham o'z ichiga oladi.

Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari (Computer-Aided Design - CAD) zamonaviy muhandislik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib qolgan. AutoCAD, SolidWorks, CATIA,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Inventor, NX va boshqa dasturiy mahsulotlar loyihalash jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish, sifatini oshirish va xatolarni kamaytirish imkonini beradi. Shu sababli, texnika ixtisosliklari talabalarini bu tizimlar bilan samarali ishlashga o'rgatish zarurati yuzaga kelmoqda.

Hozirgi vaqtda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida CAD tizimlarini o'rgatish amalga oshirilmoqda, ammo ko'pincha bu jarayon alohida dasturiy vositalarning texnik imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini kompleks rivojlantirish masalasiga etarli e'tibor berilmaydi. Talabalar dasturning buyruqlari va funksiyalarini o'rganadilar, lekin real loyihalash vazifalarini echishda ularni qo'llash metodikasi etarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shuningdek, mavjud o'quv dasturlari ko'pincha bir necha CAD tizimini yuzaki o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, chuqur loyihalash metodologiyasi va loyihaviy-konstruktorlik faoliyatining zamonaviy yondashuvlari etarli darajada qamrab olinmaydi. Bu holat talabalarning loyihaviy-konstruktorlik kompetentligining to'liq shakllanmasligiga olib kelmoqda.

Ilmiy-metodologik jihatdan ham bu soha etarli darajada o'rganilmagan. Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarini o'qitish metodikasi, loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini baholash mezonlari, samarali dasturiy-metodik ta'minot yaratish masalalari chuqur tadqiq etilishini talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan muammolar va zaruratlar ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi. Texnika ixtisosliklari talabalarining loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida rivojlantirish uchun zamonaviy dasturiy-metodik ta'minot yaratish muammosi hal qilinishi lozim.

Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarda keng qiziqish uyg'otmoqda. Mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni bir necha yo'nalishda guruhlash mumkin.

Loyihaviy-konstruktorlik kompetentligining nazariy asoslari bo'yicha E.F. Zeer, A.V. Khutorskoy, I.A. Zimnyaya kabi olimlarning ishlari asos bo'ladi. E.F. Zeerning fikricha, loyihaviy-konstruktorlik kompetentligi nafaqat texnik bilim va ko'nikmalarni, balki kreativ fikrlash, muammolarni tahlil qilish va echim topish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. A.V. Khutorskoy o'z tadqiqotlarida kompetentlikni bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarning uyg'un birligi sifatida ta'riflaydi. I.A. Zimnyaya esa kompetentlikni faoliyat natijasi va shaxsning ichki resurslari o'rtasidagi bog'liqlik nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

CAD tizimlarini o'qitish metodikasi sohasida D. Planchard, M. Lombard, P. Toogood va boshqa xorijiy mualliflarning ishlari diqqatga sazovordir. D.Planchard o'zining "SolidWorks for Engineers and Designers" asarida CAD tizimlarini o'qitishda bosqichma-bosqich yondashuvning muhimligini ta'kidlaydi. M.Lombard "SolidWorks Bible" kitobida amaliy loyihalar orqali o'qitish metodikasini ishlab chiqqan. Bu mualliflar CAD o'qitishda nazariy va amaliy qismlarning muvozanatli birikmasining zarurligini alohida ta'kidlaydilar.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Rossiyalik olimlar orasida A.L. Xomchenko, V.A. Bolshakov, A.A. Bochkov, V.A. Saveliev kabi tadqiqotchilar CAD tizimlarini oliy ta'limda qo'llash masalalarini chuqur o'rganganlar. A.L. Xomchenko o'z tadqiqotlarida loyihalash jarayonida kompyuter grafikasi va 3D modellashtirish texnologiyalarining o'rnini tahlil qiladi. V.A. Bolshakov va A.A. Bochkov birgalikda olib borgan tadqiqotlarida SolidWorks muhitida loyihalash algoritmlari va metodikasini ishlab chiqganlar.

Kompetentlik yondashuvining ta'limdagi tatbiqi masalasiga A.A. Verbitskiy, V.V. Serikov, A.P. Tryapitsynaning ishlari bag'ishlangan. A.A. Verbitskiy kontekstli ta'lim nazariyasini yaratgan bo'lib, unga ko'ra ta'lim jarayoni kelajakdagi kasbiy faoliyat kontekstida tashkil etilishi kerak. V.V. Serikov kompetentlikni shakllantirish uchun muammoli ta'lim yondashuvining muhimligini ta'kidlaydi. A.P. Tryapitsyna kompetentlik yondashuvini ta'lim tizimiga joriy etishning metodologik asoslarini ishlab chiqgan.

Texnika ta'limida zamonaviy texnologiyalar masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida J. Rossiter, R.B. Stone, K. Otto kabi xorijiy olimlarning ishlari ajralib turadi. J. Rossiter o'z tadqiqotlarida muhandislik ta'limida virtual haqiqat va kompyuter simulyatsiyasining o'rnini tahlil qilgan. R.B. Stone va K. Otto birgalikda muhandislik loyihalashda sistematik yondashuvning ahamiyatini ko'rsatganlar.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida S. Toshev, N. Muxamedov, A. Abdullayev kabi olimlar texnika ta'limini zamonavilashtirish masalalarini o'rgangan. S. Toshev o'z dissertatsiyasida texnika oliy ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalarini qo'llash metodikasini ishlab chiqgan. N. Muxamedov muhandislik grafikasi fanini o'qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish masalalarini tadqiq etgan.

Loyihalash jarayonining psixologik jihatlari bo'yicha G.S. Altshuller, Yu.S. Stepanov, V.M. Petrovning ishlari muhim hisoblanadi. G.S. Altshuller yaratgan TRIZ (Ixtirochilik masalalarini echish nazariyasi) metodologiyasi loyihalash jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng qo'llanilmoqda. Yu.S. Stepanov loyihalash faoliyatining kognitiv jihatlarini tahlil qilgan. V.M. Petrov esa texnik ijodkorlik psixologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqgan.

Zamonaviy CAD tizimlarining imkoniyatlar**i** haqida T.J. Duff, R. Bansal, C. Schunn kabi tadqiqotchilarning ishlari mavjud. T.J. Duff o'z tadqiqotlarida CAD tizimlarining fazoviy tasavvurni rivojlantirishdagi ta'sirini o'rgangan. R. Bansal 3D printlash texnologiyasi bilan CAD tizimlarining integratsiyasi masalalarini tahlil qilgan. C.Schunn muhandislik ta'limida loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqgan.

Ta'lim samaradorligini baholash masalasiga D. Kirkpatrick, R. Stake, M. Scriven kabi olimlar o'z hissalarini qo'shganlar. D.Kirkpatrick to'rt bosqichli baholash modelini taklif etgan bo'lib, bu model ta'lim samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. R. Stake responsiv baholash yondashuvini ishlab chiqgan. M.Scriven formativ va summativ baholash konsepsiyalarini yaratgan.

Blended learning va onlayn ta'lim sohasida C.J. Bonk, C.R. Graham, F.J. García-Peñalvo kabi tadqiqotchilarning ishlari e'tiborga loyiq. C.J. Bonk va C.R. Graham aralash

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ta'lim modellarini ishlab chiqish bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borganlari. F.J. García-Peñalvo texnik fanlarni onlayn o'qitish metodikasi ustida ishlagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, CAD tizimlarini o'qitish metodikasi va loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish masalalari alohida-alohida o'rganilgan, ammo ular o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sir etarli darajada tadqiq etilmagan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ushbu masalalarga oid kompleks tadqiqotlar kam olib borilgan. Mavjud tadqiqotlarda asosan bitta CAD dasturiga e'tibor qaratilgan bo'lib, turli dasturiy vositalarning qiyosiy tahlili va ulardan kompleks foydalanish metodikasi ishlab chiqilmagan.

Bundan tashqari, loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari etarli darajada aniqlanmagan. Ko'pchilik tadqiqotlarda nazariy jihatlar ustunlik qilgan bo'lib, amaliy dasturiy-metodik ta'minot yaratish masalalariga kam e'tibor berilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar (bulutli xizmatlar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt) bilan CAD tizimlarining integratsiyasi masalalari ham etarli darajada o'rganilmagan.

Yuqorida keltirilgan tahlil ushbu tadqiqot ishining zarurligini va dolzarbligini tasdiqlaydi. Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv va samarali dasturiy-metodik ta'minot yaratish muammosi hal qilinmagan holda qolmoqda.

Tadqiqot ishini amalga oshirish uchun kompleks metodologiya ishlab chiqildi va bir necha bosqichda tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi texnika ixtisosliklari talabalarining loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari yordamida samarali rivojlantirish uchun dasturiy-metodik ta'minot yaratish va uning ta'sirini baholash edi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligining tarkibiy komponentlari va strukturasi aniqlandi. Keng qamrovli nazariy tahlil va mutaxassislar bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligi to'rtta asosiy komponent orqali tavsiflanishi aniqlandi. Kognitiv komponent texnik bilimlar, loyihalash tamoyillari, material va texnologiyalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Operatsional komponent CAD tizimlarida ishlash ko'nikmalari, chizma va modellar yaratish malakalarini qamrab oladi. Kreativ komponent ijodiy yondoshuv, muammolarni noan'anaviy echish qobiliyatini belgilaydi. Refleksiv komponent o'z faoliyatini baholash, xatolarni tahlil qilish va o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatlarini ifodalaydi.

Ikkinchi bosqichda zamonaviy CAD tizimlarining ta'limdagi imkoniyatlari va cheklovlari chuqur tahlil qilindi. AutoCAD, SolidWorks, Inventor, CATIA, NX va boshqa mashhur dasturlar bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazildi. Har bir tizimning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari aniqlandi. SolidWorks tizimi o'rganish osonligi va keng tarqalganligi tufayli boshlang'ich bosqich uchun eng maqbul deb topildi. AutoCAD 2D loyihalash va texnik chizmalar yaratish uchun ajralmas vosita sifatida saqladi. Inventor va NX murakkab 3D modellashtirish va simulyatsiya ishlariga mo'ljallangan ilg'or tizimlar sifatida ajralib turdi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Uchinchi bosqichda talabalarning boshlang'ich holatini baholash uchun keng qamrovli diagnostika o'tkazildi. Toshkent davlat texnika universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti va Farg'ona politexnika institutining texnika yo'nalishlari talabalaridan 240 kishi tajribada qatnashdi. Diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning 85 foizi CAD tizimlar haqida umumiy tasavvurga ega bo'lsalar ham, amaliy loyihalash ko'nikmalari past darajada edi. Faqat 23 foizi oddiy 3D modellar yarata oldi, murakkab yig'ma konstruksiyalar bilan ishlay olganlar soni 8 foizni tashkil qildi.

To'rtinchi bosqichda loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish uchun maxsus metodika ishlab chiqildi. Metodika uch asosiy tamoyilga asoslandi. Bosqichma-bosqich murakkablik tamoyili bo'yicha ta'lim jarayoni oddiy geometrik shakllardan boshlanib, murakkab mexanik tizimlarni loyihalashgacha yo'l bosadi. Amaliyotga yo'naltirish tamoyili real sanoat masalalaridan olingan loyihalar ustida ishlashni nazarda tutadi. Integratsiya tamoyili turli CAD tizimlarini birgalikda qo'llash va ular orasidagi ma'lumotlar almashinuvini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Metodikaning asosiy tarkibiy qismi sifatida 12 haftalik o'quv kursi ishlab chiqildi. Har hafta nazariy qism, amaliy mashg'ulot va mustaqil loyiha ishi uchun vaqt ajratildi. Birinchi to'rt haftada SolidWorks muhitida oddiy 3D modellashtirish ko'nikmalari o'rgatildi. Keyingi to'rt haftada murakkab yig'ma konstruksiyalar va mexanik tizimlar bilan ishlash usullari o'zlashtirildi. Oxirgi to'rt haftada loyiha ishini bajarish va natijalarni taqdim etishga bag'ishlandi.

Loyiha ishlari sifatida real texnika sohasidagi masalalar tanlandi. Masalan, avtomobil mexanizmlari, sanoat jihozlari, qurilish konstruksiyalari va boshqa amaliy obyektlar loyihalash vazifasi berildi. Har bir loyiha texnik topshiriq tayyorlash, konseptual loyihalash, detallashtirish, hisob-kitoblar o'tkazish va hujjatlash bosqichlarini o'z ichiga oldi.

Tajriba-sinov ishlari ikki guruhda amalga oshirildi. Nazorat guruhi (120 kishi) an'anaviy metodika bo'yicha ta'lim oldi, bu erda asosiy e'tibor dasturning texnik funksiyalarini o'rganishga qaratildi. Tajriba guruhi (120 kishi) ishlab chiqilgan yangi metodika bo'yicha ta'lim oldi. Har ikkala guruhda bir xil miqdordagi soat ajratildi va bir xil o'qituvchilar dars o'tkazdi.

Olti oylik ta'lim davri davomida muntazam monitoring o'tkazildi. Har oyda talabalarning bilim darajasi, amaliy ko'nikmalari va loyihalash faoliyatiga motivatsiyasi baholandi. Baholash uchun test topshiriqlari, amaliy vazifalar va loyiha ishlarining sifati tahlil qilindi.

Tajriba oxirida olingan natijalar hayratlanarli bo'ldi. Tajriba guruhida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligining barcha komponentlari bo'yicha sezilarli o'sish qayd etildi. Kognitiv komponent bo'yicha o'rtacha ball 3,2 dan 4,6 gacha oshdi. Bu talabalarning nazariy bilimlarining mustahkamlanganini va loyihalash tamoyillarini chuqur tushunganini ko'rsatdi. Operatsional komponent bo'yicha eng yuqori natijalar kuzatildi - o'rtacha ball 2,8 dan 4,8 gacha ko'tarildi. Bu CAD tizimlarida ishlash ko'nikmalarining keskin yaxshilanganini tasdiqladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kreativ komponent bo'yicha ham ijobiy dinamika kuzatildi. Boshlang'ich 2,5 balldan oxirgi 4,2 ballgacha o'sish ro'y berdi. Talabalar noan'anaviy echimlar topishda, muammolarni turli tomonlardan yondashishda katta o'zgarishlar ko'rsatdilar. Refleksiv komponent bo'yicha ham o'sish qayd etildi - 3,0 dan 4,4 ballgacha. Bu talabalarning o'z faoliyatini tanqidiy baholash, xatolarni tahlil qilish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarining yaxshilanganini bildirdi.

Nazorat guruhida ham o'zgarishlar bo'ldi, ammo ular ancha past darajada edi. Kognitiv komponent 3,1 dan 3,9 gacha, operatsional komponent 2,7 dan 3,6 gacha o'sdi. Kreativ va refleksiv komponentlar bo'yicha o'zgarishlar minimal darajada bo'ldi.

Sifat ko'rsatkichlari ham muhim o'zgarishlarni ko'rsatdi. Tajriba guruhida loyiha ishlarining sifati keskin yaxshilandi. Texnik topshiriqni to'g'ri tushunish darajasi 67 foizdan 94 foizgacha oshdi. Loyihalash jarayonida tizimli yondashuv qo'llash 34 foizdan 89 foizgacha ko'tarildi. Yaratilgan modellar va chizmalarning sifati ham sezilarli yaxshilandi. Xatolar soni 40 foizga kamaydi, ishlash tezligi 60 foizga oshdi.

Motivatsiya ko'rsatkichlari ham ijobiy tomonga o'zgardi. Tajriba guruhida CAD tizimlar bilan ishlashga qiziqish 45 foizdan 87 foizgacha oshdi. Loyihalash faoliyatini kelajakda davom ettirish istagi 38 foizdan 82 foizgacha ko'tarildi. Talabalarning o'z-o'ziga ishonchi ham mustahkamlandi - o'z kuchlariga ishonish darajasi 41 foizdan 79 foizgacha o'sdi.

Loyiha ishlarining tarkibiy tahlili ham qiziqarli natijalarni berdi. Tajriba guruhida talabalar tomonidan yaratilgan loyihalar murakkablik darajasi bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan sezilarli ustunlik ko'rsatdi. Faqat oddiy detallar yaratgan talabalar soni 12 foizni tashkil qildi, qolgan 88 foizi murakkab yig'ma konstruksiyalar ustida ishladi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich 56 foizni tashkil qildi.

Innovatsion echimlar qo'llash darajasi ham yuqori bo'ldi. Tajriba guruhida talabalarning 73 foizi o'z loyihalarida noan'anaviy konstruktiv echimlar taklif qildi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich 28 foizni tashkil qildi. Bu kreativ fikrlash qobiliyatining rivojlanganligini yaqqol ko'rsatdi.

Vaqt samaradorligi ham muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Tajriba guruhida talabalar loyiha ishlarini bajarish uchun o'rtacha 25 foiz kam vaqt sarfladi, ammo natija sifati yuqori bo'ldi. Bu CAD tizimlaridan samarali foydalanish ko'nikmalarining shakllanganini bildirdi.

Talabalar va o'qituvchilar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham ijobiy baholarni ko'rsatdi. Tajriba guruhidagi talabalarning 91 foizi yangi metodikani qo'llab-quvvatladi va uni boshqa fanlarga ham tatbiq etishni taklif qildi. O'qituvchilarning 86 foizi metodikaning samaradorligini yuqori baholadi va uni keng joriy etishni ma'qulladi.

Olingan natijalar matematik-statistik tahlil qilindi va ular ishonchli ekanligi tasdiqlandi. Pearson korrelyatsiya koeffitsienti loyihaviy-konstruktorlik kompetentligining komponentlari orasidagi kuchli bog'liqlikni ko'rsatdi. Student t-mezoni bo'yicha tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi isbotlandi.

Shuningdek, uzoq muddatli ta'sir ham kuzatildi. Tajribadan olti oy o'tgach qayta baholash o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, erishilgan yutuqlar barqaror saqlanib qoldi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Hatto ba'zi ko'rsatkichlar yanada yaxshilandi, bu talabalarning mustaqil rivojlanish qobiliyati shakllanganini bildirdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan metodika va dasturiy-metodik ta'minot loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Kompleks yondashuv, amaliy yo'naltirilganlik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini sezilarli oshirish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqot ishi avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida texnika ixtisosliklari talabalarining loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish masalasini hal qilishga qaratilgan edi. Tadqiqot davomida qo'yilgan maqsad va vazifalar to'liq amalga oshirildi hamda sezilarli ilmiy va amaliy natijalar erishildi.

Tadqiqotning nazariy qismi doirasida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligining strukturaviy modeli ishlab chiqildi. Bu model to'rt asosiy komponent - kognitiv, operatsional, kreativ va refleksiv komponentlar orqali loyihaviy-konstruktorlik faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi. Har bir komponentning mazmuni, rivojlanish bosqichlari va baholash mezonlari aniq belgilandi. Bu yondashuv loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini tizimli rivojlantirish va obyektiv baholash imkonini yaratdi.

Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarining ta'limdagi o'rni va imkoniyatlari chuqur tahlil qilindi. Zamonaviy CAD dasturlarining qiyosiy tahlili natijasida ularning har birining o'ziga xos afzallik va cheklovlari aniqlandi. Ta'lim jarayonida turli CAD tizimlardan kompleks foydalanish strategiyasi ishlab chiqildi. Bu strategiya talabalarning keng doiradagi dasturiy vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash imkonini berdi.

Loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish uchun yaratilgan metodika uch asosiy tamoyilga asoslandi. Bosqichma-bosqich murakkablik tamoyili talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini berdi. Amaliyotga yo'naltirish tamoyili real sanoat masalalarini hal qilish orqali nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish jarayonini ta'minladi. Integratsiya tamoyili turli CAD tizimlarini birgalikda qo'llash va zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutdi.

Ishlab chiqilgan dasturiy-metodik ta'minot kompleksi o'quv dasturi, metodik qo'llanma, amaliy topshiriqlar to'plami va baholash vositalarini o'z ichiga oldi. O'quv dasturi 12 haftalik kurs shaklida tuzildi va har hafta nazariy, amaliy va loyiha ishlarini muvozanatli kombinatsiyasini ta'minladi. Metodik qo'llanma o'qituvchilar uchun har bir mavzu bo'yicha batafsil ko'rsatmalar va maslahatlarni o'z ichiga oldi. Amaliy topshiriqlar real texnika sohasidagi masalalardan tuzildi va talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirildi.

Tajriba-sinov ishlari uch oliy ta'lim muassasasida 240 talaba ishtirokida amalga oshirildi. Olti oylik tajriba davomida tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida sezilarli farq paydo bo'ldi. Tajriba guruhida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligining barcha komponentlari bo'yicha yuqori o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi. Kognitiv komponent bo'yicha 44 foizli,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

operatsional komponent bo'yicha 71 foizli, kreativ komponent bo'yicha 68 foizli va refleksiv komponent bo'yicha 47 foizli o'sish kuzatildi.

Loyiha ishlarining sifat tahlili ham ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Tajriba guruhidagi talabalar tomonidan yaratilgan loyihalar murakkablik darajasi, innovatsion echimlar qo'llash va texnik hujjatlash sifati bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan ustunlik ko'rsatdi. Vaqt samaradorligi ham sezilarli yaxshilandi - loyiha ishlarini bajarish muddati o'rtacha 25 foizga qisqardi, ammo sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'ldi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish uchun kompleks yondashuvning ishlab chiqilishida namoyon bo'ldi. Bu yondashuv pedagogik, psixologik, texnologik va metodologik jihatlarni uyg'un birlashtirdi. Kompetentlikning strukturaviy modeli, CAD tizimlaridan kompleks foydalanish strategiyasi va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim metodikasi o'zaro bog'liq holda yaratildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan dasturiy-metodik ta'minotning oliy ta'lim muassasalarida to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi mumkinligida ko'rinadi. Metodika O'zbekistonning turli oliy ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazildi va ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Bu texnika yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va ularni zamonaviy sanoat talablariga mos ravishda tayyorlash imkonini beradi.

Olingan natijalar shuningdek, boshqa texnik fanlarni o'qitishda ham qo'llanilishi mumkin. Kompetentlik yondashuvining tamoyillari, amaliy yo'naltirilgan ta'lim metodikasi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish strategiyasi muhandislik grafikasi, materiallar qarshiligi, mexanika va boshqa fanlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining barqarorligi va uzoq muddatli ta'siri ham tasdiqlandi. Tajribadan olti oy o'tgach o'tkazilgan qayta baholash erishilgan yutuqlarning saqlanib qolganini ko'rsatdi. Bu metodikaning ta'sirining chuqur va barqaror ekanligini bildiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida bir qancha cheklovlar va qiyinchiliklar ham aniqlandi. Zamonaviy CAD tizimlarining tez rivojlanishi va yangilanishi doimiy ravishda o'quv materiallarini yangilashni talab qiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning tayyorgarligi va texnik ta'minot masalalari metodikaning muvaffaqiyatli joriy etilishida muhim omil hisoblanadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalarini CAD ta'limiga integratsiya qilish yo'nalishida amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda individual ta'lim yo'llarini yaratish va adaptiv ta'lim tizimlarini qo'llash istiqbollari tadqiq etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqot ishi texnika ta'limini zamonavilashtirish va talabalarning loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish masalasiga sezilarli hissa qo'shdi. Yaratilgan dasturiy-metodik ta'minot amaliy qo'llanish uchun tayyor bo'lib, oliy ta'lim tizimida keng joriy etilishi mumkin. Bu esa O'zbekiston sanoatining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan yuqori malakali muhandis kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Abdullayev A.A. Texnika oliy ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalarini qo'llash metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 156 b.
2. Altshuller G.S. Ixtirochilik algoritmi. – Moskva: Moskovskiy rabochiy, 2018. – 298 s.
3. Bansal R. Integration of CAD Systems with 3D Printing Technologies in Engineering Education // International Journal of Technology in Education. – 2020. – Vol. 3, No. 2. – P. 87-102.
4. Bochkov A.A., Bolshakov V.A. SolidWorks 2019. Kompyuternoe modelirovanie v injenernoy praktike. – Sankt-Peterburg: BXV-Peterburg, 2019. – 1040 s.
5. Bonk C.J., Graham C.R. The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. – San Francisco: Pfeiffer, 2021. – 624 p.
6. Duff T.J. The Effects of CAD Systems on Spatial Visualization Skills in Engineering Students // Engineering Design Graphics Journal. – 2019. – Vol. 83, No. 3. – P. 45-58.
7. García-Peñalvo F.J. Online Engineering Education: Current Trends and Future Prospects // Computers & Education. – 2021. – Vol. 165. – P. 104-118.
8. Khutorskoy A.V. Kompetentnostnyy podxod v obuchenii. Nauchno-metodicheskoe posobie. – Moskva: Eydos, 2020. – 73 s.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Hazratkulov Abduvihid Abdurauf o‘g‘li,** mustaqil tadqiqotchi [**Хазраткулов Абдувохид Абдурауф огли,** исследователь], [**Abduvohid A. Xazratqulov**, Independent researcher]; Manzil: O‘zbekiston, Jizzax shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 4-uy. [адрес: Узбекистан, Джизак,ул. Ислома Каримов 4], [Address: 4, Islom Karimov Street, Jizzakh city, Uzbekistan.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

ПРАКТИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ АУДИОЛИНГВАЛЬНОГО МЕТОДА НА СОВРЕМЕННОЕ ОБУЧЕНИЕ ЯЗЫКАМ

© С.А. Арипова[1]✉
[1]Андижанский государственный технический институт, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье проводится всесторонний анализ аудиолингвального метода (АЛМ) преподавания иностранных языков, его научных основ, практического применения и влияния на современные подходы в методике обучения.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — раскрыть суть ключевых принципов АЛМ, охарактеризовать систему упражнений и определить его значимость в условиях современного языкового обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование выполнено на основе историко-сравнительного и теоретического анализа, включая труды бихевиористской психологии и структурной лингвистики, а также современные методические источники.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: АЛМ выделяется акцентом на фонетику, систему автоматизированных речевых упражнений, но подвергается критике со стороны когнитивистов за ограниченность в развитии творческого мышления и спонтанной речи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: аудиолингвальный метод сыграл значимую роль в становлении современной методики и до сих пор эффективно используется в адаптированном виде, особенно на начальном этапе обучения.

Ключевые слова: аудиолингвальный метод, бихевиоризм, структурная лингвистика, речевые навыки, языковые упражнения, методика преподавания.

Для цитирования: Арипова С.А. Практическое влияние аудиолингвального метода на современное обучение языкам. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). С.400–404.

AUDIOLINGVAL USULNING HOZIRGI TIL O‘QITISHGA AMALIY TA’SIRI

© S.A. Aripova[1]✉
[1] Andijon davlat texnika instituti, Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

KIRISH: maqolada audiolingval usulning (ALU) nazariy asoslari, uning tarixiy ildizlari, chet tilini o‘qitishdagi amaliy qo‘llanilishi va hozirgi zamonaviy metodik yondashuvlarga ko‘rsatgan ta’siri chuqur tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – ALUning asosiy prinsiplari va mashq tizimining mohiyatini ochib berish, uning zamonaviy ta’limda tutgan o‘rni va kombinatsion yondashuvlardagi ahamiyatini baholashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqola tarixiy-taqqosloviy, nazariy va metodik tahlil asosida yozilgan bo‘lib, bihevioristik psixologiya va struktural lingvistika manbalari hamda zamonaviy amaliyotdan misollar keltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ALU fonetikaga e’tibor, mashq tizimining soddaligi va avtomatlashtirilgan ko‘nikmalar shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, kognitiv yondashuv tomonidan tanqidlar – ijodiy fikrlash, erkin muloqot va individual yondashuvning yetishmasligi ko‘rsatib o‘tiladi.

XULOSA: audiolingval usul til o‘rgatish metodikasining muhim tarixiy bosqichi bo‘lib, uning mashq tizimi hozirgi metodikalarda, ayniqsa boshlang‘ich bosqichda, kombinatsion shaklda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

Kalit so‘zlar: audiolingval usul, biheviorizm, struktural lingvistika, nutqiy ko‘nikmalar, til mashqlari, o‘qitish metodikasi.

Iqtibos uchun: Aripova S.A. Audiolingval usulning hozirgi til o‘qitishga amaliy ta’siri. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.400–404.

THE PRACTICAL IMPACT OF THE AUDIOLINGUAL METHOD ON MODERN LANGUAGE TEACHING

© Sayida A. Aripova[1]✉
[1]Andijan State Technical Institute, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article presents a comprehensive analysis of the Audiolingual Method (ALM) in foreign language teaching, including its theoretical foundations, historical background, practical application, and influence on modern instructional approaches.

AIM: the main goal of the study is to explain the core principles and structure of ALM, assess its methodological significance, and explore its role in contemporary language teaching practices.

MATERIALS AND METHODS: the research is based on historical-comparative and theoretical analysis, drawing on works in behaviorist psychology, structural linguistics, and current methodological literature.

DISCUSSION AND RESULTS: ALM is characterized by emphasis on phonetics and speech automatization through structured drills. However, it is criticized by cognitive theorists for neglecting creativity, spontaneity, and individual learner differences.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

CONCLUSION: the Audiolingual Method represents a pivotal phase in language teaching methodology and continues to be used effectively in modified forms, especially at the beginner level, in combination with communicative techniques.

Keywords: audiolingual method, behaviorism, structural linguistics, language skills, language drills, teaching methodology.

For citation: Sayida A. Aripova. (2025) 'Practical impact of the audiolingual method on modern language teaching', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.400–404. (In Russ).

В современной лингводидактике сформировалось пять основных методов преподавания иностранных языков: грамматико-переводной, прямой (натуральный), аудиолингвальный, коммуникативный и метод полного физического реагирования [1, с. 45–48]. Каждый из этих методов представляет собой законченную педагогическую систему с собственной теоретической базой, принципами и набором методических приемов.

Среди этих методов особый исторический и методический интерес представляет аудиолингвальный метод (АЛМ), анализ которого позволяет проследить эволюцию языковой педагогики. Его значимость обусловлена тем, что он стал переходным звеном между традиционными и современными подходами, синтезировав ключевые принципы предшественников. Если грамматико-переводной метод делал акцент на аналитическом освоении языка через правила и перевод, а прямой метод – на интуитивном усвоении через погружение, то АЛМ занял промежуточную позицию, сочетая системность первого с устной практикой второго. Возникнув в середине XX века, метод не только вобрал в себя эти элементы, но и заложил основы для последующих методических разработок.

Формирование АЛМ было напрямую связано с практическими потребностями военного времени. Метод сформировался в период Второй мировой войны в США как ответ на острую потребность в быстрой подготовке военных специалистов, владеющих иностранными языками [2, с. 112–115]. Эти обстоятельства обусловили поиск максимально эффективного подхода, что привело к созданию стройной системы обучения, основанной на последних достижениях науки того периода. Его теоретической основой стали два взаимосвязанных научных направления: бихевиористская психология Б.Ф. Скиннера и американская дескриптивная лингвистика, представленная работами Л. Блумфилда и Ч. Фриза. Эти две дисциплины обеспечили методологическую базу для создания стройной системы обучения, основанной на механизмах формирования речевых навыков.

Теоретические основы метода были заложены в работах Скиннера "Вербальное поведение" (1957), где бихевиористский подход рассматривал языковое обучение как процесс формирования устойчивых речевых привычек через систему стимулов и реакций [3, с. 78–82]. Согласно этой теории, правильные

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

языковые реакции должны подкрепляться, а ошибочные — немедленно исправляться. Параллельно в лингвистике структурные лингвисты разрабатывали детальные описания языковых систем, что позволило создать стройную систему языковых моделей для обучения. Таким образом, АЛМ объединил психологические и лингвистические принципы, что сделало его методически обоснованным и технологичным.

Практическая реализация метода выражалась в том, что основной дидактической единицей становился тщательно отобранный диалог, отражающий типичные коммуникативные ситуации [4, с. 56–60]. Процесс обучения строился по строгой последовательности: сначала студенты прослушивали диалог, затем заучивали его наизусть, после чего переходили к отработке через специально разработанную систему. Основными видами такой практики были:

подстановочные упражнения (substitution drills), например: замена "book" на "pen" в структуре "this is a book" → "this is a pen";

трансформационные упражнения (transformation drills), например: изменение утверждения в вопрос ("he goes" → "does he go?");

вопросно-ответные упражнения (question-answer drills), направленные на автоматизацию ("what is this?" – "it is a chair");

упражнения на расширение (expansion drills), например: добавление прилагательных ("a car" → "a red car").

Особое внимание в АЛМ уделяется фонетической стороне речи — правильному произношению и интонации. При этом грамматические правила не объясняются явно, а выводятся студентами индуктивно из отрабатываемых моделей [1, с. 89–93].

Несмотря на явные преимущества в систематизации языкового материала, АЛМ подвергся серьезной критике со стороны представителей когнитивного направления, в частности Н. Хомского [3, с. 82–85]. Основные претензии касались игнорирования творческого аспекта языковой способности, ограниченности в развитии спонтанной коммуникации, механистического характера обучения, а также недостаточного учета индивидуальных особенностей учащихся.

Однако значение АЛМ для современной методики нельзя недооценивать. Многие его элементы сохранились в современной методике, особенно на начальном этапе обучения. Как показывает практика, комбинация аудиолингвальных техник с коммуникативными заданиями дает хорошие результаты в формировании как точности, так и беглости речи [4, с. 60–64].

Таким образом, аудиолингвальный метод представляет собой важный этап в эволюции методики преподавания иностранных языков. Несмотря на историческую обусловленность своего возникновения, разработанная в его рамках система упражнений продолжает использоваться, хотя и в модифицированном виде. Современные исследования подтверждают эффективность комбинированного подхода, объединяющего сильные стороны АЛМ с преимуществами

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

коммуникативного метода.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | ADABIYOTLAR RO‘YXATI | REFERENCES

1. Щукин А.Н. Методика преподавания иностранных языков: Курс лекций. — М.: Филоматис, 2016. — 480 с.
2. Fries Ch. Teaching and Learning English as a Foreign Language. — Ann Arbor: University of Michigan Press, 1945. — 153 p.
3. Skinner B.F. Verbal Behavior. — New York: Appleton-Century-Crofts, 1957. — 478 p.
4. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). — Cambridge: CUP, 2014. — 410 p.
5. Коряковцева Н.Ф. Современная методика организации самостоятельного изучения иностранных языков. — М.: АРКТИ, 2010. — 192 с.
6. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. 4th ed. Pearson Education, 2000. 352 p.

ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ [MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT] [AUTHORS INFO]

✉**Арипова Сайида Абдулахатовна**, преподаватель [**Aripova Sayida Abdullakhatovna**, o‘qituvchi], [**Aripova Sayida Abdullakhatovna,** teacher] адрес: Город Андижан, проспект Бабура 56, 170119, Андижан, Андижанская область;, [manzil: Andijon shahar, Bobur Shoh ko’chasi 56, 170119, Andijon, Andijon Viloyati], [address: Andijan city, 56 Babur Avenue, 170119, Andijan, Andijan region.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025 vol.3

Original paper

O‘ZBEK TILIDA CHET TILLARNI O‘RGATISH METODIKASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

© G.X. Xomidjonova[1]✉
[1]Farg’ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada o‘zbek tilida chet tillarni, xususan, ingliz tilini o‘rgatish metodikasi muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida kuzatilayotgan lingvodidaktik muammolar zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil etilib, metodik takomillashtirish zarurati asoslab beriladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘zbek tilida ta’lim oluvchi guruhlarda chet tilini samarali o‘rgatishga to‘sqinlik qilayotgan metodik va lingvistik muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etishning innovatsion va interaktiv yechimlarini ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda amaliy kuzatuv, yarimstrukturaviy suhbat, so‘rovnoma, kontent-tahlil va CEFR talablari asosida qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. 250 dan ortiq respondent ishtirokida o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari statistik dastur yordamida tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalariga ko‘ra, darsliklardagi til va mazmun mosliklari, o‘quvchilarning motivatsiyasi, metodik yondashuvlarning zamonaviy talablarga mos kelmasligi asosiy muammo sifatida aniqlandi. Kommunikativ metod, CLIL modeli va interaktiv texnologiyalar asosida taklif etilgan yechimlar samaradorlikni oshirishda muhim omil bo‘lishi ta’kidlandi.

XULOSA: o‘zbek tilida chet tilini o‘rgatishda metodik, lingvistik va texnologik yondashuvlar uyg‘unligini ta’minlash, o‘qituvchilar malakasini oshirish va interaktiv vositalardan foydalanish til o‘rgatish samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: chet tili, o‘zbek tili, ta’lim metodikasi, lingvodidaktika, metodik muammolar, zamonaviy texnologiyalar, til o‘rganish.

Iqtibos uchun: Xomidjonova G.X. O‘zbek tilida chet tillarni o‘rgatish metodikasi: muammolar va yechimlar. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.405–410.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ

© Г.Х. Хомиджонова[1]✉
[1] Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025 vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются проблемы методики преподавания иностранных языков, в частности английского языка, на узбекском языке, а также возможные пути их решения. Анализируются лингводидактические трудности, возникающие на разных уровнях образования, и обосновывается необходимость методического обновления.

ЦЕЛЬ: целью исследования является выявление основных методических и лингвистических трудностей, возникающих при преподавании иностранных языков на узбекском языке, и разработка инновационных и интерактивных решений для повышения эффективности обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы методы наблюдения, полуструктурированных интервью, анкетирования, контент-анализа, а также сравнительный анализ в соответствии со стандартами CEFR. Эмпирические данные, полученные от более 250 респондентов, обработаны с использованием статистического ПО.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в результате анализа выявлены ключевые проблемы — несоответствие учебных материалов, низкая мотивация учащихся, ограниченность традиционных методик. В качестве эффективных решений предложены коммуникативный метод, CLIL-модель и применение мультимедийных технологий.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: повышение эффективности преподавания иностранных языков на узбекском языке возможно через интеграцию современных методик, повышение квалификации преподавателей и активное использование цифровых ресурсов.

Ключевые слова: иностранный язык, узбекский язык, методика преподавания, лингводидактика, методические проблемы, современные технологии, изучение языка.

Для цитирования: Хомиджонова Г.Х. Методика преподавания иностранных языков в узбекистане: проблемы и пути решения.// Inter education & global study.2025. Vol.3 №6(1). С.405–410.

METHODOLOGY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND SOLUTIONS

©Gavharoy X. Xomidjonova[1]✉
[1]Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the challenges in teaching foreign languages, especially English, in the Uzbek language within Uzbekistan's education system, and analyzes proposed solutions. Linguodidactic issues across various educational levels are discussed in the context of modern methodological needs.

ISSN 2992-9024 (online)
2025 vol.3

AIM: the main aim is to identify methodological and linguistic obstacles in teaching foreign languages in Uzbek-medium groups and to develop innovative, interactive solutions for improving teaching effectiveness.

MATERIALS AND METHODS: the study employed classroom observation, semi-structured interviews, surveys, content analysis, and comparative analysis based on CEFR standards. Data from over 250 respondents were statistically analyzed using SPSS software.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings reveal key issues such as inconsistency of language materials, low learner motivation, and outdated methodology. Proposed solutions include communicative teaching methods, CLIL integration, and use of multimedia tools to enhance engagement and comprehension.

CONCLUSION: effective foreign language teaching in Uzbek-language settings depends on aligning methodological, linguistic, and technological approaches, improving teacher competence, and actively incorporating interactive tools into the learning process.

Keywords: foreign language, Uzbek language, teaching methodology, linguistic didactics, methodological problems, modern technologies, language learning.

For citation: Gavharoy X. Xomidjonova. (2025) 'Methodology of teaching foreign languages in uzbekistan: problems and solutions', Inter education & global study, Vol.3 (6(1)), pp.405–410. (In Uzbek).

Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim belgilaridan biri sifatida til bilimining ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilining global kommunikatsiya vositasiga aylanishi uni nafaqat xorijiy til, balki zamonaviy bilimlar, texnologiyalar va madaniyatlar bilan tanishish vositasi sifatida muhim o‘ringa chiqardi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori (PQ–5117-son, 2021-yil 19-may) asosida barcha ta’lim bosqichlarida chet tillarini chuqur va tizimli o‘rgatish dolzarb vazifaga aylandi. Bu boradagi islohotlar ta’lim mazmunini yangilash, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish va zamonaviy didaktik vositalarni tatbiq etishga qaratilgan.

Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, o‘zbek tilida ta’lim oluvchi o‘quvchilar uchun chet tilini samarali o‘rganish jarayonida qator metodik va lingvistik muammolar yuzaga kelmoqda. Chunonc hi, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining til jihatdan yetarli darajada moslashtirilmaganligi, pedagogik yondashuvlarning an’anaviylikdan chiqmaganligi, hamda o‘quvchilarning lingvistik tayyorgarlik darajasi o‘rtasidagi tafovutlar chet tilini o‘zlashtirishda sezilarli to‘siqlarga olib kelmoqda. Til o‘rgatishdagi bunday muammolar ayniqsa kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda, madaniyatlararo muloqotga tayyorlashda va individual yondashuvni talab qiluvchi dars jarayonlarida ko‘proq seziladi.

Mazkur maqolada aynan o‘zbek tilida chet tilini o‘rgatish metodikasida mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Ilmiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025 vol.3

asoslangan yondashuvlar orqali metodik faoliyatni takomillashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqotni tashkil etish hamda zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalash masalalari tahliliy yoritiladi.

O‘zbek tilida chet tillarni o‘rgatish metodikasi so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Bu boradagi tadqiqotlar til o‘rgatishda kommunikativ, interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Til o‘qitishda qo‘llanilayotgan an’anaviy metodik yondashuvlar (grammatika-tarjimaviy, struktural yondashuvlar) zamonaviy talablarga javob bera olmay qolmoqda. Shu sababli o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan kommunikativ metod, vazifaga asoslangan yondashuv (Task-Based Learning) va CLIL (Content and Language Integrated Learning) usullari keng qo‘llanila boshladi.

Ba’zi mahalliy tadqiqotchilar, xususan, Q. Xolmatova o‘z izlanishlarida o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi chet tili ta’limining samaradorligida hal qiluvchi omillar ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, O‘zbekistonda chet tillarni o‘rgatishning metodik asoslari bo‘yicha S. G‘ulomova, M. Sharipova, M. Raximova kabi olimlarning asarlarida amaliy jihatlarga alohida e’tibor qaratilgan. Ularning tadqiqotlari asosida o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar — interaktiv ta’lim, AKT vositalaridan foydalanish samaradorligi isbotlangan.

Tadqiqotda ilmiy aniqlik va dalillarga asoslangan yondashuvni ta’minlash maqsadida kompleks tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Birinchidan, amaliy kuzatuv usuli yordamida Toshkent shahri va bir nechta viloyatdagi umumta’lim maktablari, litseylar hamda oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan chet tilini o‘qitish darslari real vaqt rejimida tahlil qilindi. Ushbu kuzatuvlar orqali o‘qituvchilarning metodik yondashuvlari, til o‘rganish uchun yaratilgan muhit, hamda o‘quvchilarning darsdagi faolligi o‘rganildi. Ikkinchidan, yarimstrukturaviy suhbatlar shaklida chet tili fani o‘qituvchilari bilan individual suhbatlar o‘tkazildi. Ular orqali metodik tajriba, mavjud muammolar, resurslar yetishmasligi va individual yondashuvlar to‘g‘risida chuqur tahliliy fikrlar olindi.

Bundan tashqari, yozma so‘rovnomalar vositasida 250 nafardan ortiq respondentning fikrlari yig‘ilib, ularning chet tilini o‘zbek tilida o‘rganishdagi qiyinchiliklari, motivatsiyasi, texnologiyaviy vositalardan foydalanish holati haqida statistik ma’lumotlar olindi. So‘rovnoma savollari Likert shkalasi asosida ishlab chiqildi va SPSS dasturi orqali natijalar tahlil qilindi. Shuningdek, kontent-tahlil metodi asosida ta’lim jarayonida foydalanilayotgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va metodik materiallar tilshunoslik va pedagogika nuqtai nazaridan chuqur o‘rganib chiqildi.

Metodik tahlillarni chuqurlashtirish maqsadida ilg‘or xorijiy va milliy tajribalarni qiyosiy o‘rganish yo‘li bilan ingliz tilini o‘rganishga oid xalqaro standartlar, xususan CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) me’yorlari asosida muvofiqlik darajasi baholandi. Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida o‘zbek tilida chet tilini samarali o‘rgatishning didaktik modeli ishlab chiqildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025 vol.3

o‘rgatish jarayonida yuzaga keladigan metodik muammolarni hal etishda bir necha zamonaviy yondashuvlar asosli ravishda tavsiya etiladi. Avvalo, kommunikativ metodikani amaliyotga keng tatbiq etish zarurati mavjud bo‘lib, bu yondashuv o‘quvchilarda real kommunikativ vaziyatlarda tilni faol ishlatish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetensiya o‘quvchi nutq faoliyatining barcha turlarini (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) muvozanatli rivojlantirish orqali shakllanadi . Shu bilan birga, chet tili va ona tilining o‘zaro aloqasiga asoslangan tarjimon vositachilik modeli o‘quvchilarning tahliliy fikrlash va til oralig‘ida semantik farqlarni anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu model tilshunos olimlar tomonidan interlingval ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vosita sifatida tavsiya etilgan .

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi ham muhim metodik yechim hisoblanadi. Ayniqsa, multimedia vositalaridan – audio va video materiallar, interaktiv platformalar, onlayn lug‘atlar hamda mobil ilovalar (Duolingo, Quizlet, BBC Learning English) orqali dars jarayonining interaktivligi ortib, o‘quvchilarning motivatsiyasi yuqori darajada saqlanadi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, multimedia vositalaridan foydalangan holda olib borilgan ta’lim 47% ga samaraliroq bo‘ladi .

Shuningdek, integratsiyalashgan ta’lim tamoyillarini til o‘rgatish jarayoniga tatbiq etish ta’limning mazmuniy boyishiga xizmat qiladi. Fanlararo integratsiya, ya’ni til o‘rgatishni boshqa fanlar – tarix, geografiya, madaniyatshunoslik bilan bog‘lash orqali kontekstual o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Bunday yondashuv CLIL (Content and Language Integrated Learning) modeli asosida yevropalik metodistlar tomonidan taklif etilgan bo‘lib, O‘zbekistonda ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda .

Ta’lim sifati o‘qituvchining metodik tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liq ekanligini inobatga olgan holda, pedagoglarning malakasini oshirish bo‘yicha muntazam ravishda amaliy seminarlar, treninglar va chet tillarni o‘zbek tilida o‘rgatishga ixtisoslashgan maxsus kurslar tashkil etish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5117-sonli qarori da bu boradagi vazifalar aniq belgilangan bo‘lib, malaka oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida innovatsion metodikalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish qayd etilgan. Shu orqali o‘qituvchilarda metodik kompetensiya, darsda mos strategiyani tanlash va o‘quvchilar ehtiyojiga mos moslashuvchanlik shakllanadi.

Umuman olganda, yuqoridagi yondashuvlar o‘zbek tilida chet tili o‘rgatishda uchraydigan asosiy metodik muammolarni tizimli yondashuv asosida hal qilishga xizmat qiladi va til o‘rgatish samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida chet tillarni o‘rgatish jarayoni lingvistik, metodik va texnologik yondashuvlarning uyg‘unligiga asoslangan murakkab tizim bo‘lib, uning muvaffaqiyati innovatsion pedagogik yondashuvlar, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi hamda o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’limni shaxsga yo‘naltirish bilan bevosita bog‘liqdir. O‘tkazilgan tadqiqotlar ushbu sohada mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun kompleks va strategik

ISSN 2992-9024 (online)
2025 vol.3

yondashuvlar zarurligini ko‘rsatmoqda. Metodik ta’minotni yangilash, interaktiv va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarga ustuvorlik berish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Bu yo‘nalishdagi ilmiy-amaliy izlanishlar til o‘rgatish tizimini takomillashtirish va uni global talablarga moslashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – 5th ed. – New York: Pearson Education, 2007. – 410 p.
2. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 184 p.
3. G‘ulomova S. Ingliz tilini o‘qitishda interaktiv metodlar. – Samarqand: SamDU, 2018. – 112 b.
4. Nurullayeva Z. Chet tilini o‘rganishda zamonaviy AKT vositalari va ularning samaradorligi // Ta’lim va innovatsiya jurnali. – 2020. – №4. – B. 89–92.
5. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 328 p.
6. Sharipova M., Raximova M. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va ularning chet tillarni o‘qitishda qo‘llanilishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 135 b.
7. Xolmatova Q. Chet tilini o‘qitishda motivatsiyaning roli. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 98 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o‘rganishni ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5117-son Qarori, 2021-yil 6-fevral. – Elektron manzil: https://lex.uz/en/docs/-5426736?ONDATE=06.02.2024

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Xomidjonova Gavharoy Xayrullo qizi**, talaba [**Хомиджонова Гавхарой Хайрулло қизи**, студент], [**Xomidjonova Gavharoy Xayrullo qizi,** student,]; manzil: 150100, Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy, [адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19], [address: Murabiylar str., 19, Ferghana, 150100]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

SYNTACTIC AND HEURISTIC APPROACH METHOD FOR AUTOMATIC QUESTION GENERATION SYSTEMS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE

© Yuldashev A. Nodirbek[1]✉
[1]Andijan State technical institute, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the use of syntactic and heuristic approaches in automatic question generation (AQG) systems based on artificial intelligence, with a focus on their application in educational contexts.

AIM: the main aim of the study is to improve the quality and efficiency of automatically generated questions by combining syntactic parsing (POS tagging, dependency analysis) and heuristic methods (rule-based strategies, lexical variations, ranking), resulting in grammatically correct, meaningful, and user-adaptive questions.

MATERIALS AND METHODS: the study applies NLP tools (spaCy, dependency parsing), transformer-based generative models, and adaptive evaluation mechanisms. The system architecture is detailed through tables and a staged design model.

Ключевые слова: EFL, ESL, аутентичный материал, песня, музыка, реализация, метод, атмосфера, рифмовка.

Для цитирования: Юсупходжаева.А. Использование песен в качестве аутентичных материалов в классе EFL. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). С.447–452.

EFL SINFIDA QO'SHIQLARNI HAQIQIY MATERIALLAR SIFATIDA ISHLATISH

© Aziza Yusupxodjayeva[1]✉
[1]Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada ingliz tilini o‘rgatishda qo‘shiqlardan autentik material sifatida foydalanishning afzalliklari va ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Qo‘shiqlar orqali ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish g‘oyasi ilgari suriladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — ingliz tili darslarida autentik material sifatida qo‘shiqlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning tashqi motivatsiyasini oshirish, eslab qolish ko‘nikmalarini kuchaytirish va ta’limga ijobiy munosabat shakllantirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda qo‘shiqlardan foydalanish orqali chet tilini o‘qitish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar, xususan, Krashenning affektiv filtr nazariyasi, Eken tomonidan ilgari surilgan uslublar va boshqa nazariy manbalar o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, qo‘shiqlardan foydalanish darslarda qulay muhit yaratish, avtomatlashtirish va so‘z boyligini oshirish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

orqali o‘quvchilarning eshitish, talaffuz va muloqot ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu yondashuv samarali natija bergan.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ingliz tili ta’limida qo‘shiqlardan foydalanish autentik material sifatida ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni til muhitiga yaqinlashtiradi va mustahkam motivatsiya shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: EFL (chet tili sifatida ingliz tili), ESL (ikkinchi til sifatida ingliz tili), haqiqiy material, qo‘shiq, musiqa, amalga oshirish, usul, atmosfera, qofiya.

Iqtibos uchun: Aziza Yusupxodjayeva . EFL sinfida qo'shiqlarni haqiqiy materiallar sifatida ishlatish. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.447–452.

As English language has already spread its popularity throughout the world, the number of people of different ages who show an interest to learn and speak in this language is also growing. Over a few years, different approaches of teaching English have been encouraged and implemented. Though these days’ language teaching experts claim that mixture of different approaches and methods can be implemented depending on the goal of a student, the most spread and effective teaching method is considered to be CLT (Communicative Language Teaching). This method especially encourages the use of authentic materials, the materials that are not prepared specially for language classrooms but can be implement in the teaching process. Songs that are also considered as authentic material can also be of great use in the language learning classrooms. Very often music is the main source of English outside the classroom. Thus, using it in the lesson seems to be a good idea. There can be distinguished affective and cognitive rationale for playing a song during a lesson. As a matter of fact, affective reasons are connected with Krashen’s Affective Filter Hypothesis. In short, it gives an explanation why some learners learn and others do not. The crucial thing is that students need to develop a positive attitude towards learning has it that, for effective learning the affective filter is must be weak. A weak affective filter means that a positive attitude to learning is present. Hence teachers’ task is to provide a positive atmosphere favourable for learning. In this aspect music and songs may be one of the methods for obtaining weak affective filter. Eken enumerates eight reasons for the use of song in a language classroom. Firstly, a song may be used to present a topic, new vocabulary or a language point. Then, it may also be used as a practice of lexis. Beyond question, songs can be used as a material for extensive and intensive listening. Some teachers may use them to focus on frequent learner errors in a more indirect way. Not to mention that songs are a perfect source for stimulating discussions about feelings and attitudes. Learners may talk over with another in pairs or in small groups what happened in the song and then share their opinions with the rest of students. Additionally, songs may arrange a relaxed classroom atmosphere and contribute to fun and variety in language teaching. Finally, songs may be said to encourage the use of imagination and creativity during foreign

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

language lessons. Songs also give a chance to develop automaticity which is the main cognitive reason for using songs in the classroom. Automaticity is defined as a component of language fluency which involves both knowing what to say and producing language rapidly without pauses. To put it in other words, songs may help automatize the language improvement process. Essentially, the students should be placed in an environment in which it is possible to use the target language in a communicative way. As a matter of fact, the nature of songs is said to be quite repetitive, logical and persistent. Affective Reasons the Affective Filter Hypothesis is one of five proposed hypotheses developed by Steven Krashen. Basically, it is an explanation of how the affective factors relate to language learning. It is particularly appealing to teachers because it provides an explanation to why some learners learn and others do not.

Roger and Medledy said authentic materials as exposure to real language in its own community. In these years the role of authentic materials in an EFL classroom has been discussed and debated by many language teachers. Nowadays their opinions have awesomely been insisting that English taught in the classroom should be authentic so that it can benefit the students' learning processes.

However, Nunam (1999, cited in Oura, 2000,67) has also defined authentic materials as spoken or written language data that has been produced in the course of genuine communication, and not specifically written for purposes of language teaching. Even though authentic materials are created not for learning purposes, they can also be used as learning materials in a language classroom. Martinez (2002) has proposed that teachers can implement authentic materials for the learners to listen for the general information presented and also he makes addition that by using authentic materials teachers can encourage students to learn something new for pleasure.

We are surrounded by music at every step, at home, at work, while shopping, on the bus or in a taxi. We listen to different types of music in different places. At these times, English songs also play in our ears. The use of these songs in an interactive way in lessons is important in strengthening students' skills. For instance: we can have pre, while, and post activities based on the songs to improve learners' listening skill. There are different ways of learning and teaching English thanks to lots of resources available. Some teachers prefer to rely on more authentic materials to enrich their lessons and expose learners to this language as it is spoken in the real world. Through using authentic materials teachers can engage even more students because the process of learning is imaginative and motivated. The best way of authentic material is it can be found everywhere from journals, TV programs, radio broadcasts, leaflets and so on. The single thing to consider is depending on learners' level to select the material.

Among those authentic materials using songs is also one of the best and effective ways to lesson in integrated way. Through listening to music students not only enrich their vocabulary but they feel relaxed atmosphere. Besides that, it's helpful it improves listening skills as pronunciation is very essential for learning a language.

It has been found that the ages from 2 to 6 is important period for brain

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

development. What's more, scientists have found that people can learn new language with native speaker proficiency until they reach critical period. Children under 10 have an ability to perceive new information without much difficulty that makes it also easier for them to learn a new language. However, traditional teaching can be overwhelming for kindergarten students. The burden of learning can be reduced by applying fun activities and games to the learning process. At this point, it should be mentioned that implementing songs in teaching English to younger learners is also greatly helpful. It reduces the feeling that one has to make an effort to learn something which is an important point for learners of younger age especially. After all, the best learning takes place when students have fun.

Songs can be implemented in teaching a new language in various ways and to boost variety of skills. Students of kindergarten age can learn new vocabulary in a fun way, improve their pronunciation with the help of songs. Songs that are made for kindergarten students usually has a lot of rhyming that makes it easier for them to remember. Such vocabularies as numbers, colors, body parts, animals, weather, etc. can be successfully practiced with young students. When children sing along the song, they have a greater success to develop better pronunciation.

Various ways to implement songs in teaching kindergarten students:

- to teach alphabet and one-letter (a, b, c) and two letter (th, ph, ou) sounds;

Teachers can search and find phonics songs of public domain in the Internet that are specially prepared for kindergarten students (e.g. a phonics song by A.J. Jenkins). While listening to a song a teacher can pause after a certain sound and ask students to repeat.

-to teach actions verbs;

A physical activity can be applied while listening that's students can be asked to try to repeat the action they listen in the song.

to teach vocabulary;

songs for children usually have a lot of rhyming and repetition that makes it easier for them to remember. It is easier for children to learn songs rather than separate words. Listening to a song and repeating and learning it can expand their vocabulary greatly. However, it is highly recommended to use follow-up activities to check students' vocabulary comprehension.

REFERENCES | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Brown S, 1999. Institutional Strategies for Assessment In Brown, S. and Glasner, A, (eds) Assessment Matters in Higher Education. Buckingham: SRHE/Open University Press. Pp.3-13
2. Cohen L. et al, 2004. A Guide to reaching Practice 5th edition. London and New York: Routledge

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. Pearson English Blog; Using authentic material from the real world to teach English Steffani Zazulak April 26, 2017

AUTHORS INFO [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT]

✉**Yusupxodjayeva Aziza**, senior lecturer [**Юсупходжаева Азиза**, старший преподаватель], [**Yusupxodjayeva Aziza,** katta o'qituvchi]; address: Tashkent, 15 Amir Temur ave., [адрес: Г. Ташкент, пр. Амира Темура, д. 15], [manzil: Toshkent shahar, Amir Temur shoh ko'chasi 15-uy]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ZAMONAVIY YOSHLAR ONGIGA VIRTUAL MADANIY MANBALAR TRANSFORMATSIYASI

© J.E. Uzakov[1]✉
[1] O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada zamonaviy yoshlar ongiga virtual madaniy manbalar transformatsiyasining ta’siri hamda uning yoshlarning axborot savodxonligi va axborot dunyoqarashi shakllanishidagi o‘rni o‘rganiladi. Virtual haqiqat tushunchasining yoshlarning madaniy va ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinib, oila va ta’lim muassasalarining bu jarayonda faol ishtiroki zarurligi ta’kidlanadi.

MAQSAD: mazkur maqolaning asosiy maqsadi — raqamli texnologiyalar rivoji natijasida shakllanayotgan virtual madaniy manbalar yoshlar ongiga qanday ta’sir qilayotganini o‘rganish, ularning madaniy dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlariga bo‘lgan munosabatdagi o‘zgarishlarni tahlil qilishdir. Tadqiqot yoshlar orasida madaniy ongni shakllantirishda raqamli platformalarning o‘rnini baholashga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi. So‘rovnoma usuli orqali 16–25 yosh oralig‘idagi 200 nafar talaba va o‘smir yoshdagi respondentlar fikrlari o‘rganildi. Shuningdek, kontent-tahlil asosida Instagram, YouTube, TikTok va boshqa ommabop virtual platformalardagi madaniy mazmundagi materiallar tahlil qilindi. Empirik dalillar asosida yoshlar ongida shakllanayotgan madaniy kodlar o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar virtual madaniy manbalarni tez-tez iste’mol qilmoqda va bu ularning axloqiy qarashlariga, qadriyatlar tizimiga va ijtimoiy muomalalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy madaniyat unsurlariga nisbatan qiziqish pasaygani holda, zamonaviy (lekin ba’zan yuzaki) madaniy trendlar ustunlik qilmoqda. Shu bilan birga, ijobiy jihatlar sifatida — interaktivlik, tezkorlik va ko‘lamdorlik yoshlar ongini global madaniyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA: zamonaviy yoshlarning ongiga virtual madaniy manbalar kuchli axborot oqimi orqali kirib borib, ularning qadriyat tizimida yangi tendensiyalarni shakllantirmoqda. Shu sababli, raqamli madaniyatni boshqarish, undagi ijobiy va salbiy jihatlarni tahlil asosida ajratish va yoshlar bilan ishlashda maqsadli platformaviy yondashuvni joriy etish zarur. Madaniyatni raqamli transformatsiyalashda milliy o‘zlik va an’anaviy qadriyatlar muvozanatini saqlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kalit so‘zlar: virtual madaniy manbalar, yoshlar ong’i, axborot texnologiyalari, axborot savodxonligi, axborot dunyoqarashi, virtual haqiqat, madaniyat transformatsiyasi, ta’lim muassasalari, oila, ijtimoiy integratsiya.

Iqtibos uchun: Uzakov.J.E. Zamonaviy yoshlar ongiga virtual madaniy manbalar transformatsiyasi // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.453-460.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ВИРТУАЛЬНЫХ КУЛЬТУРНЫХ РЕСУРСОВ В СОЗНАНИЕ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ

© Дж.Э. Узаков[1]✉
[1]Государственный институт искусств и культуры Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается влияние трансформации виртуальных культурных ресурсов на сознание современной молодежи и ее роль в формировании информационной грамотности и информационного мировоззрения молодежи. Анализируется значение концепции виртуальной реальности в культурном и социальном развитии молодежи, подчеркивается необходимость активного участия семьи и образовательных учреждений в этом процессе.

ЦЕЛЬ: основной целью данной статьи является изучение влияния формирующихся виртуальных культурных ресурсов, обусловленных развитием цифровых технологий, на сознание современной молодежи, а также анализ изменений в их культурном мировоззрении и отношении к социальным ценностям. Исследование направлено на оценку роли цифровых платформ в формировании культурного сознания среди молодежи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались как качественные, так и количественные методы анализа. Путем анкетирования были изучены мнения 200 респондентов в возрасте от 16 до 25 лет, включая студентов и подростков. Также был проведён контент-анализ культурных материалов, размещённых на популярных виртуальных платформах, таких как Instagram, YouTube, TikTok и других. На основе эмпирических данных были изучены культурные коды, формирующиеся в сознании молодежи.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показывают, что молодежь активно потребляет виртуальные культурные ресурсы, что оказывает значительное влияние на их нравственные взгляды, систему ценностей и социальное поведение. Интерес к традиционным элементам культуры снижается, в то время как современные (иногда поверхностные) культурные тренды становятся доминирующими. Вместе с тем положительными сторонами являются

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

интерактивность, оперативность и масштабность, способствующие интеграции молодежного сознания с глобальной культурой.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: виртуальные культурные ресурсы посредством мощного информационного потока активно проникают в сознание современной молодежи, формируя новые тенденции в их системе ценностей. В этой связи необходимо управление цифровой культурой, выделение ее положительных и отрицательных сторон на основе анализа, а также внедрение целенаправленного платформенного подхода в работе с молодежью. При цифровой трансформации культуры особо актуальной становится задача сохранения баланса между национальной идентичностью и традиционными ценностями.

Ключевые слова: история фестивалей, международные конкурсы, культурный обмен, развитие искусства, эстетическое наследие, глобальная культура.

Для цитирования: Узаков Дж.Э. Трансформация виртуальных культурных ресурсов в сознание современной молодежи // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). С.453-460.

TRANSFORMATION OF VIRTUAL CULTURAL RESOURCES IN THE CONSCIOUSNESS OF MODERN YOUTH

© Uzakov J. Erkinovich [1]✉
[1] Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article studies the impact of the transformation of virtual cultural resources on the consciousness of modern youth and its role in the formation of information literacy and information worldview of young people. The importance of the concept of virtual reality in the cultural and social development of young people is analyzed, and the need for the active participation of the family and educational institutions in this process is emphasized.

AIM: the main objective of this article is to study the impact of emerging virtual cultural resources, driven by the development of digital technologies, on the consciousness of modern youth. It also aims to analyze the changes in their cultural worldview and attitudes toward social values. The research is focused on evaluating the role of digital platforms in shaping cultural awareness among young people.

MATERIALS AND METHODS: the study employed both qualitative and quantitative research methods. A survey was conducted to collect the opinions of 200 respondents aged 16 to 25, including students and adolescents. In addition, a content analysis was carried out on cultural materials posted on popular virtual platforms such as Instagram, YouTube, TikTok, and others. Based on empirical data, the cultural codes being formed in the consciousness of youth were examined.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study show that young people actively consume virtual cultural resources, which significantly influence their moral

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

perspectives, value systems, and social behavior. Interest in traditional cultural elements is decreasing, while modern (sometimes superficial) cultural trends are becoming dominant. At the same time, positive aspects such as interactivity, rapid access, and broad reach contribute to the integration of youth consciousness with global culture.

CONCLUSION: virtual cultural resources, through powerful information flows, are actively penetrating the consciousness of modern youth, shaping new trends in their value systems. Therefore, it is essential to manage digital culture by identifying its positive and negative aspects through thorough analysis and to implement a targeted platform-based approach when working with youth. In the process of digital transformation of culture, maintaining a balance between national identity and traditional values remains a highly relevant issue.

Keywords: virtual cultural resources, youth consciousness, information technologies, information literacy, information worldview, virtual reality, cultural transformation, educational institutions, family, social integration.

For citation: Uzakov Dj Erkinovich. Transformation of virtual cultural resources in the consciousness of modern youth // Inter education & global study. 2025. vol.3 №6(1). pp.453-460.

Bugungi raqamli asrda axborot texnologiyalarining keng rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, yosh avlod ongining shakllanishida virtual madaniy manbalar muhim o‘rin tutmoqda. An’anaviy madaniyat shakllari raqamlashtirilishi, ularning global tarmoq orqali tarqalishi hamda yoshlar tomonidan qabul qilinish jarayoni madaniy transformatsiyaning bir ko‘rinishidir.

“Asalning ham ozi shirin”, deydi dono xalqimiz. Chunki bir taomni muttasil iste’mol qilaverish ham me’daga tegib qolishi mumkin. Ammo hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarga shunday tobelik shakllandiki, bu narsa me’daga tegish o‘rniga, aksincha, borgan sari o‘ziga qaram qilib bormoqda. Ana shunday “qaram”lardan bittasi toki ularga o‘chligimga qat’iy meyor qo‘ymagunimcha kamina edim. Keling, ana shu qaramlik davri haqida qisqacha hikoya qilib bersam, balki yana kimgadir ko‘zgu tutarmiz. Hech bir yashiradigan joyi yo‘q, ko‘pchiligimiz bir yo‘la bir nechta ijtimoiy tarmoqlarda faolmiz, ularning aksariyati o‘zaro muloqot uchun bo‘lsa, asosiy qismi ko‘ngilochar kontentlarga ixtisoslashgan platformalardir. O‘ylab qarasam, ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishni boshlaganimga to‘rt yil bo‘ldi. Ularda o‘tkazadigan vaqtim borgan sari kamayish o‘rniga ko‘paya boribdi.

Ilgari ko‘p qolib ketsam, boshim og‘rib qolar hamda telefonni o‘chirib, kitob yoki boshqa bir mashg‘ulot bilan chalg‘ishga harakat qilardim. Biroq borgan sari asab tizimlari ham ijtimoiy tarmoqlarga moslashib, boshim ham og‘rimaydigan bo‘ldi – o‘z-o‘zidan endi kitob o‘qishga ham “vaqt bo‘lmay qoldi”. Ha, aslida, “bosh og‘rimay qolishi”ga sabab organizm moslashuvchanligidan ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlarning algoritmi tufayli sodir bo‘ldi, desak to‘g‘ridir. Chunki ijtimoiy tarmoqlar sizdan hech qanday mehnat talab qilmay, miyaga zavq bag‘ishlash tamoyili asosida ishlaydi. Kitob o‘qish uchun esa diqqatni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

jamlash, fikrlash zarur, odam tabiatan dangasa mavjudot, bu ikki tanlov orasida ongimiz osoniga ko‘proq intilishi tayin[1].

Zamonaviy yoshlarning aksariyatining ijtimoiylashuvi asosan internet orqali amalga oshmoqda. Ko‘plab zamonaviy bolalar kitoblarga qaraganda gadjetlarni ancha erta o‘zlashtiradilar. Yoshlar axborot bilan ishlashda tobora ko‘proq elektron shakldagi materiallarni afzal ko‘rib, haqiqiy ijtimoiy aloqalar tobora ko‘proq virtual aloqalar bilan almashtirilmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, axborot madaniyati jamiyatning umumiy ma’naviy madaniyatining, turli ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslarning eng muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, axborot madaniyati zamonaviy jamiyat madaniyatini aniqlashda xarakterli xususiyatlardan biri sifatida xizmat qiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanishi bilan axborot madaniyati tushunchasi axborot bilan ishlashda yangi yondashuvlarni amalga oshirish uchun asos bo‘lgan fanlardan olingan bilimlarni o‘z ichiga oldi, bu esa axborot inqirozi muammosini hal qilish imkonini berdi.

G‘arbning so‘nggi tadqiqotlarida axborot madaniyati ijtimoiy tarzda umumlashtirilgan xulq-atvor namunalarini, me’yorlar va qadriyatlarni o‘z ichiga olgan tushuncha sifatida ko‘rilib, axborotning ahamiyati va undan foydalanishni belgilaydi. Aslida, katta yoki kichik ijtimoiy guruhlardagi odamlar axborotni qanday talqin qilishi va undan qanday foydalanishi ushbu guruhlarning barqarorligi va birlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, Internet haqiqiy ijtimoiy jarayonlarga tayyorgarlik maydoni sifatida shakllanmoqda.

Bugungi kunda me’yorlar, qoidalar va jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor namunalarini ommaviy axborot vositalari va internet orqali uzatish, guruh ichida qanday xulq-atvor normal hisoblanishini va nimani kutish kerakligini belgilaydi.

Aynan virtual makonda, xususan ijtimoiy hamjamiyatlarda, odamlar turli ijtimoiy harakatlarga tayyorlanadi. Axborot madaniyati nafaqat bilimlar va ko‘nikmalarni, balki axborot texnologiyalari va axborot bilan ishlashga doir muayyan dunyoqarashni ham o‘z ichiga oladi. Axborot dunyoqarashi deb insonning axborot olami va undagi o‘z o‘rni haqidagi qarashlar tizimi tushuniladi; unga qadriyatlar, e’tiqodlar, ideal va bilim hamda faoliyat tamoyillari kiradi.

Axborot madaniyati ikki asosiy elementdan iborat: axborot savodxonligi va axborot dunyoqarashi[2].

Zamonaviy yoshlar ongida virtual madaniy manbalar transformatsiyasi jarayonida axborot savodxonligi va axborot dunyoqarashining o‘rni nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot savodxonligi yoshlarning raqamli makonda samarali, mas’uliyatli va ongli ravishda harakat qilishini ta’minlaydi. Bu ko‘nikmalar yordamida ular turli manbalardan olinayotgan axborotni tanqidiy baholay oladi, noto‘g‘ri yoki manipulyativ ma’lumotlardan himoyalanadi hamda to‘g‘ri va ishonchli ma’lumotlarni ajratib oladi. Shuningdek, axborot savodxonligi yoshlarni internetda axborot olish, saqlash, yaratish va uzatish jarayonlarida faollikka undaydi, ularni zamonaviy texnologiyalarni ijodiy va samarali foydalanishga o‘rgatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Axborot dunyoqarashi esa yoshlarning virtual makondagi o‘z o‘rnini anglashida va axborot olamining murakkab tizimini tushunishida muhim rol o‘ynaydi. Ular axborot texnologiyalari orqali dunyoqarashini kengaytiradi, axborotning madaniy, ijtimoiy va ma’naviy kontekstlarini idrok etadi. Axborot dunyoqarashi yoshlarni axborot bilan ishlashda mas’uliyatni oshiradi, ularni axborotning axloqiy va ijtimoiy jihatlarini hisobga olishga, shuningdek, axborot texnologiyalarining insoniyat taraqqiyotidagi o‘rnini chuqur anglashga yo‘naltiradi.

Shunday qilib, axborot savodxonligi va axborot dunyoqarashi birgalikda yoshlarning virtual madaniy makonda faol ishtirok etishlarini, zamonaviy axborot oqimlarini ongli ravishda qabul qilishlari va ijtimoiy hamda madaniy jarayonlarda samarali rol o‘ynashlarini ta’minlaydi. Bu esa ularning shaxs sifatida rivojlanishi va jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyasiga zamin yaratadi.

Insonning axborot texnologiyalari olami bilan munosabatlari bugungi kunda murakkab va ziddiyatli shakllanmoqda. Bir tomondan, ular insonning rivojlanishiga xizmat qilib, hayotning madaniy maydonini kengaytiradi, yangi ma’no shakllantiruvchi markazlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Boshqa tomondan esa, fikrlash uslubini va mentalitetni, madaniy norma va qadriyatlar o‘lchovini o‘zgartirib, deformatsiyalovchi ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatning global informatizatsiyasi mahsulotlari bilan mavjud sotsiomadaniy o‘zaro ta’sir va meros institutlari orasidagi munosabatlarning aniqlanmagan tabiatlari munozaralar to‘lqini yuzaga keltiradi, ularning ko‘pchiligi interaktiv rejimda olib borilmoqda. Global axborot tarmoqlarining faol joriy etilishi insoniyat madaniy rivojlanishining yangi mexanizmlarini shakllantirish, rivojlantirish va faoliyat ko‘rsatish masalalarini tubdan qamrab oladi. Biroq, ushbu joriy etish natijalariga baholar sezilarli darajada farq qiladi va zamonaviy ilmda “virtual haqiqat” tushunchasi bilan aniqlanayotgan madaniy fenomenning resurslarini yanada puxta ekspertizadan o‘tkazish zaruratini yuzaga keltiradi[3].

“Virtual haqiqat” – bu axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan sun’iy, ammo realga yaqin bo‘lgan muhit bo‘lib, u yoshlarning dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Virtual haqiqat yoshlarni yangi ma’lumotlarga ochiq bo‘lishga, interaktiv o‘rganish jarayonlariga kirishishga va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga undaydi. Shu bilan birga, u yoshlarning o‘zlarini ifoda etishlari, ijtimoiy aloqalarni kengaytirishlari va zamonaviy madaniyatni qabul qilishlarida yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, virtual haqiqat yoshlarning axborot maydonidagi mavjud madaniy me’yorlar va qadriyatlarni anglashida, ularni qayta talqin qilishda ham katta rol o‘ynaydi. Bu tushuncha yordamida yoshlar nafaqat haqiqiy dunyo bilan bog‘liq bilimlarni egallaydi, balki o‘zlarini turli ijtimoiy rollarda sinab ko‘rish, yangi madaniy tajribalarni boshdan kechirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Virtual haqiqatning ta’siri ostida yoshlar o‘zining axborot olamidagi mavqeini yaxshiroq tushunadi, shu orqali ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan yangi identifikatsiya va o‘zaro munosabatlar tizimi shakllanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Natijada, “virtual haqiqat” tushunchasi yoshlarning zamonaviy madaniyat bilan bog‘liqligini mustahkamlashda, ularni yangi axborot texnologiyalari davrida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashda asosiy omil hisoblanadi.

Farzandlarimizning ma’nan komil, axloqan barkamol shaxs bo‘lib yetishishida davlat organlari, ta’lim muassasalari, ota-onalar va ommaviy axborot vositalari hamkorlikda ish olib borishlari zarur. Ta’lim tizimida axborot madaniyati, raqamli xavfsizlik va axloqiy tarbiya bo‘yicha darslar joriy etilishi davr talabi bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, internet faoliyatini monitoring qiluvchi maxsus idoralar samarali ishlashi, yoshlar uchun sog‘lom kontentlar yaratilishiga alohida e’tibor qaratish kerak. Internet – bu cheksiz imkoniyatlar manbai, lekin undan foydalanish madaniyati va mas’uliyati ham shuncha muhim. Shafqatsizlik va zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi materiallarning tarqalishi nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatning ma’naviy holatiga jiddiy xavf solmoqda. Ushbu muammoni hal qilishda qonunchilikni takomillashtirish, davlat va jamiyatning hamjihatligi, oila va ta’lim muassasalarining faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, davlatning bu boradagi mas’uliyatini oshirish, mas’ul tuzilmalarning faoliyatini takomillashtirish zarur[4].

Zamonaviy yoshlar ongiga virtual madaniy manbalar transformatsiyasi jarayonida oila va ta’lim muassasalarining faol ishtiroki nihoyatda zarurdir. Bugungi kunda yoshlar axborot texnologiyalari va virtual muhitning kengaygan imkoniyatlari bilan tanishib, ulardan foydalanishni o‘rganmoqda. Shu sababli, oila va ta’lim muassasalari yoshlarni nafaqat texnologik jihatdan bilim bilan ta’minlab qolmasdan, balki ularning axborot savodxonligi, axborotning ishonchliligi va axloqiy jihatlarini anglashlarida ham muhim rol o‘ynaydi. Oila yoshlar uchun birinchi madaniy va tarbiyaviy muhit bo‘lib, u yerda axborot texnologiyalari bilan to‘g‘ri va ongli munosabat shakllanadi.

Ta’lim muassasalari esa yoshlarni zamonaviy axborot resurslarini oqilona va maqsadga muvofiq foydalanishga o‘rgatadi, ular uchun interaktiv va ijodiy o‘quv muhitini yaratadi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalari yoshlarning virtual madaniyatdagi o‘zaro munosabatlari, xavfsizlik va axborot etikasi masalalarini chuqur o‘rganishiga yordam beradi.

Oila va ta’lim muassasalari o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi yoshlarning virtual makonda sog‘lom ong va madaniyatli xulq-atvorni shakllantirishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, oila va ta’lim muassasalarining birgalikdagi faol ishtiroki yoshlarning virtual madaniy manbalar transformatsiyasida muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Alijonov J. Virtual hayotga qaramlik umrimizni o‘g‘irlamoqda. Gaz// Yangi O‘zbekiston № 188 (1249), 2024
2. Забокрицкая Л. Д. Информационная культура современной молодежи: угрозы и вызовы виртуального социального пространства //Вестник Пермского

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

национального исследовательского политехнического университета. Социально-экономические науки. – 2017. – №. 4. – С. 114-123.

3. Кучмуруков В. В. Виртуальные коммуникации как фактор трансформации культуры информационного общества //авто-реф. дис. канд культурологии.–Улан–Удэ: Тип. ИПК ФГОУ. – 2006.

4. Husanov J. Internetda shafqatsizlik va zo‘ravonlik targ‘iboti: muammo va yechim Manba: https://xabar.uz/8k1i

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Uzakov Jamoliddin Erkinovich,** O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, mustaqil izlanuvchisi [**Узаков Джамолиддин Эркинович,** Узбекский государственный [**Uzakov Djamoliddin Erkinovich,** Uzbek State Institute of Arts and Culture, independent researcher]; Toshkent sh. Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi 127 «A» uy. [адрес: Узбекистан, 117036, Ташкент, Мирзо Улугбекский район, Массив Ялангач, 127 «А» дом.], [address: Uzbekistan, 117036, Tashkent, Mirzo Ulugbek, Yalangoch Street, 127 “A”.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

“JAHON MUSIQA TARIXI” FANINI O‘QITISHDA MUSTAQIL TA’LIMNI O‘RNI VA AHAMIYATI

© A.R. Tursunova[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: "Jahon musiqa tarixi" fanini o‘qitishda talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etish zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu fan orqali talabalar nafaqat musiqiy asarlar, kompozitorlar va ularning uslublari haqida bilim olishadi, balki tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini ham shakllantiradilar. Mustaqil ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish orqali talabalarning fan bo‘yicha bilimlari chuqurlashtirish, ularning kasbiy kompetensiyalari yanada oshirish va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik sifatini yaxshilash imkoni orqali malakali kadrlarni tayyorlashda ijobiy ko‘rsatkichlarga erishish mumkin.

MAQSAD: "Jahon musiqa tarixi" fanini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy asoslarini yoritish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyatini asoslash va ularni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqotda mahalliy va xorijiy adabiyotlar, ilg‘or pedagogik tajribalar, ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Analitik va taqqoslash metodlari yordamida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning talabalarning mustaqil ta'lim jarayonidagi o‘rni o‘rganildi. Shuningdek, o‘zbek oliy ta’lim muassasalarida "Jahon musiqa tarixi" fanini o'qitish tajribasini o‘rganishga asoslangan kuzatuv va suhbat metodlari qo‘llandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: axborot makonining jadal rivojlanishi va mutaxassislarga bo‘lgan talablarning ortib borishi sharoitida oliy o‘quv yurtlarida talabalarning samarali mustaqil ta’limini tashkil etish yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Bu, ayniqsa, "Jahon musiqa tarixi" kabi gumanitar fanlar uchun dolzarb bo‘lib, bu yerda materialni chuqur o‘zlashtirish faol mustaqil ish, tahlil, anglash va ma’lumot qidirishsiz mumkin emas. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bu jarayonni optimallashtirish bilan birga, uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va talabalarni fanni chuqurroq o‘rganishga undaydi. Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va unda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammosi zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu borada mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, ularning natijalari mustaqil ta’limning nazariy asoslari, metodologiyasi va amaliy ahamiyatini yoritishga xizmat qilgan.

XULOSA: zamonaviy pedagogik texnologiyalarning har biri (AKT, Inverslangan (yoki "teskari") sinf texnologiyasi, Loyha, Differensiallangan ta’lim, Geymifikatsiya, Mobil ta’lim va boshqalar) o‘ziga xos mazmun, didaktik omillar va qo‘llanish imkoniyatlariga ega bo‘lib, "Jahon musiqa tarixi" fani bo‘yicha talabalarning mustaqil ta’lim jarayonini mazmunan boyitish, uning samaradorligini oshirish, talabalarning faolligi, qiziqishi va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim o‘rin tutadi. Ularning maqsadli va o‘rinli integratsiyasi nafaqat bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga, balki kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan universal kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi tasdiqlanadi.

Kalit so‘zlar: fan, Jahon musiqa tarixi, mustaqil ta’lim, nazariya, kompetensiya, pedagogik texnologiyalar.

Iqtibos uchun A.R Tursunova. “Jahon musiqa tarixi” fanini o‘qitishda mustaqil ta’limni o‘rni va ahamiyati. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.461–471.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ "ИСТОРИЯ МИРОВОЙ МУЗЫКИ"

© А.Р. Турсунова[1]✉
[1]Государственная консерватория Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: эффективная организация самостоятельного обучения студентов при изучении дисциплины «История мировой музыки» является одной из важнейших задач современного образования. Эта дисциплина позволяет студентам не только получать знания о музыкальных произведениях, композиторах и их стилях, но и развивать критическое мышление, творческий подход и навыки саморазвития. Правильная организация самостоятельного обучения способствует углублению знаний по предмету, повышению профессиональных компетенций студентов и улучшению качества подготовки к итоговому контролю, что в целом способствует подготовке квалифицированных кадров.

ЦЕЛЬ: осветить теоретические основы эффективной организации самостоятельной учебной деятельности студентов по дисциплине «История мировой музыки», обосновать значение применения современных педагогических технологий и разработать практические рекомендации по их внедрению в учебный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведён анализ отечественной и зарубежной литературы, передового педагогического опыта и научных источников по образовательным технологиям. С помощью аналитического и сравнительного методов изучена роль современных педагогических технологий в организации самостоятельного обучения студентов. Также использованы методы наблюдения и

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

интервью, основанные на изучении практики преподавания дисциплины «История мировой музыки» в вузах Узбекистана.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в условиях стремительного развития информационного пространства и роста требований к специалистам организация эффективного самостоятельного обучения студентов в вузах становится одним из ключевых факторов подготовки высококвалифицированных кадров. Особенно это актуально для гуманитарных дисциплин, таких как «История мировой музыки», где глубокое усвоение материала невозможно без активной самостоятельной работы, анализа, осмысления и поиска информации. Применение современных педагогических технологий не только оптимизирует этот процесс, но и значительно повышает его результативность, побуждая студентов к более глубокому изучению предмета. Проблема организации самостоятельного обучения студентов с использованием современных технологий является одной из наиболее актуальных в современной педагогике. В этом направлении проведено множество научных исследований, результаты которых освещают теоретические основы, методологию и практическое значение самостоятельного обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: каждая современная педагогическая технология (ИКТ, перевёрнутый класс, проектное обучение, дифференцированное обучение, геймификация, мобильное обучение и др.) обладает своими содержательными и дидактическими особенностями и возможностями применения. Это позволяет обогатить содержание самостоятельного обучения студентов по дисциплине «История мировой музыки», повысить его эффективность, активность, интерес и реализовать их творческий потенциал. Целенаправленная и обоснованная интеграция таких технологий способствует не только глубокому усвоению знаний, но и формированию универсальных компетенций, необходимых для будущей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: дисциплина, история мировой музыки, самостоятельное обучение, теория, компетенция, педагогические технологии.

Для цитирования: А.Р. Турсунова. Роль и значение самостоятельного обучения в преподавании дисциплины "история Мировой музыки". // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). С.461–471.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF INDEPENDENT LEARNING IN TEACHING THE DISCIPLINE "HISTORY OF WORLD MUSIC"

© Tursunova R. Artikzhanovna[1]✉
[1]State Conservatory of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: organizing students' independent learning effectively in the course "History of World Music" is one of the most important tasks of modern education. This course not only provides students with knowledge about musical works, composers,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

and their styles, but also helps them develop critical thinking, creative approaches, and self-development skills. Properly organized independent learning deepens students' subject knowledge, improves their professional competencies, and enhances preparation for final assessments, contributing to the training of qualified specialists.

AIM: to highlight the theoretical foundations for effectively organizing students' independent learning activities in the "History of World Music" course, justify the importance of using modern pedagogical technologies, and develop practical recommendations for their implementation in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: this study involved analyzing local and foreign literature, advanced pedagogical practices, and academic sources on educational technologies. Analytical and comparative methods were used to examine the role of modern pedagogical technologies in organizing students' independent learning. Observation and interview methods based on studying teaching practices of the "History of World Music" course in Uzbek higher education institutions were also employed.

DISCUSSION AND RESULTS: in the context of rapid development of the information space and growing demands for professionals, organizing effective independent learning for students in higher education becomes one of the main factors in training highly qualified specialists. This is especially relevant for humanities courses such as "History of World Music," where deep mastery of the material is impossible without active independent work, analysis, comprehension, and information seeking. Applying modern pedagogical technologies not only optimizes this process but also significantly enhances its effectiveness, motivating students to study the subject in greater depth. The problem of organizing students' independent learning using modern technologies is one of the most pressing issues in contemporary pedagogy. Many scientific studies, both local and international, have been conducted in this area, shedding light on the theoretical foundations, methodology, and practical significance of independent learning.

CONCLUSION: each modern pedagogical technology (ICT, flipped classroom, project-based learning, differentiated instruction, gamification, mobile learning, etc.) has its own content features, didactic factors, and application opportunities. These technologies enrich the content of students' independent learning in the "History of World Music" course, improve its effectiveness, and help develop students' activity, interest, and creative potential. Their purposeful and justified integration contributes not only to deep knowledge acquisition but also to the formation of universal competencies necessary for future professional activity.

Keywords: subject, history of world music, independent learning, theory, competence, pedagogical technologies.

For citation: Shohsanam Sh. Ayubova. (2025) 'The role and significance of independent learning in teaching the discipline "history of world music"', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.461–471. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Axborot makonining jadal rivojlanishi va mutaxassislarga bo'lgan talablarning ortib borishi sharoitida oliy o'quv yurtlarida talabalarning samarali mustaqil ta'limini tashkil etish yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Bu, ayniqsa, "Jahon musiqa tarixi" kabi gumanitar fanlar uchun dolzarb bo'lib, bu yerda materialni chuqur o'zlashtirish faol mustaqil ish, tahlil, anglash va ma'lumot qidirishsiz mumkin emas. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bu jarayonni optimallashtirish bilan birga, uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va talabalarni fanni chuqurroq o'rganishga undaydi. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va unda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammosi zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanadi.. Bu borada mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, ularning natijalari mustaqil ta'limning nazariy asoslari, metodologiyasi va amaliy ahamiyatini yoritishga xizmat qilgan.

Xususan, mustaqil ta'lim va mustaqil ish nazariyasining fundamental asoslari P.I. Pidkasistыy [1], I.A. Zimnyaya [2], A.V. Xutorskoy [3] kabi rus olimlarining asarlarida keng yoritilgan. Ular mustaqil ishni talaba shaxsining rivojlanishi, uning faolligi, bilish jarayonlarini faollashtirish va kompetensiyalarni shakllantirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslab berishgan. Jon Dyuining "tajriba orqali o'rganish" g'oyalari [4], Jan-Jak Russoning "erkin ta'lim" konsepsiyasi [5] esa talabaning ta'lim jarayonidagi faol subyektini ahamiyatini ko'rsatib bergan.

O'zbekistonda pedagogik texnologiyalar va mustaqil ta'limni tashkil etish muammolariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar olib borilgan. N.N. Azizxodjayevaning "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" (2006), N.A. Muslimov, Z.T. Raximov va boshqalarning "Ta'lim texnologiyalari" (2019, 2021) darsliklari, M. Ochilovning "Yangi pedagogik texnologiyalar" (2000), R.J. Ishmuxamedovning "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari" (2004) kabi asarlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning umumnazariy va amaliy masalalari, ularni OTMda qo'llash yo'llari, talabalarning mustaqil faoliyatini faollashtirishning didaktik asoslari tahlil qilingan. L.V. Golish va D.M. Fayzullayevalarning ishlarida pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu tadqiqotlar oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning umumiy nazariy-metodologik bazasini yaratgan.

Shu bilan birga, musiqa san'ati ta'limi tizimida, xususan, "Jahon musiqa tarixi" fanini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasiga bag'ishlangan kompleks ilmiy-tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Mavjud ishlar, asosan, musiqiy pedagogikaning umumiy jihatlarini, yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining musiqa ta'limida alohida qo'llanishini (masalan, nota yozuvlari bilan ishlash dasturlari, audiolovish vositalari) yoritgan. Biroq, "Jahon musiqa tarixi" fanining o'ziga xos xususiyatlarini (keng xronologik va geografik qamrov, audial va nazariy komponentlarning o'zaro bog'liqligi, madaniyatlararo aloqalar) inobatga olgan holda, inverslangan sinf, loyiha asosida o'qitish,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Muvaffaqiyatli muloqot shartlari to'g'ri muloqotga, o'quv jarayonini qurishga, moslashuvning ijtimoiy-psixologik va boshqa turlariga, talabalarning o'qituvchi va boshqa talabalar bilan aloqasiga, mavjud o'quv materiallariga, shuningdek boshqa ko'plab kerakli komponentlarga bog'liqdir.

So'nggi o'n yillikda ko'plab olimlar muloqot madaniyati va uni shakllantirish muammolarini faol ravishda ishlab chiqdilar, amaliy tavsiyalar berdilar. Muloqot muammosining turli tomonlarini A.A. Boltaboyev, I.S. Kon, A.A. Leontiyev, N.D. Tursunov, A.L. Soliyev va boshqalar. Ammo ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, nopedagogik oliy o'quv yurtlarida muloqot madaniyatini yo'naltirilgan shakllantirish ayniqsa dolzarbdir, chunki ularda o'quv jarayoni imkoniyatlaridan, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish talablari va boshqalar yetarlicha foydalanilmayapti, bir xillik mavjud emas. Yuqoridagilarning barchasi bizga muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi shartli va mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish zarurati bilan chambarchas bog'liqligini, umuminsoniy, insonparvarlik, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish va qo'llash zarurligini ta'kidlash imkonini beradi. Shuningdek, ularni bevosita muloqotda amalga oshirish nafaqat yoshlarning shaxsiy va ma'naviy rivojlanishiga, balki mutaxassisning ijtimoiy, kasbiy salohiyatini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, muloqot madaniyatini anglash kishilar o'rtasidagi muloqot jarayonining borishini ta'minlovchi, ijtimoiy me'yorlarga muvofiq o'ziga xos insoniy xulq-atvorni o'z ichiga oladi. Aksariyat hollarda muloqot o'z-o'zidan maqsad emas, balki boshqa, kommunikativ bo'lmagan vazifalarni hal qilish vositasidir. Muloqot odamlarning jamoaviy va guruh faoliyatida kommunikativ va majburiy rol o'ynaydi. Muloqotning mazmuni va shakli uning tarkibiga kiradigan muayyan faoliyat bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Pedagogik muloqot manfaatlar, fikrlar, his-tuyg'ularning umumiylik darajasiga asoslangan shaxslararo yaqin munosabatlarni o'rnatish sifatida qaraladi; ob'yekt va sub'yekt o'rtasida do'stona, xayrixoh muhitni o'rnatish, bu ta'lim va tarbiyaning eng samarali jarayonini, shaxsning aqliy va intellektual rivojlanishini ta'minlaydi, shaxsiy xususiyatlarning o'ziga xosligi va individualligini saqlaydi.

Pedagogik muloqot ko'p qirrali bo'lib, bu erda har bir jihat o'zaro ta'sir konteksti bilan belgilanadi.

Pedagogik muloqotning funktsiyalari belgilovchi, kognitiv, hissiy, osonlashtiruvchi, tartibga solish, o'z-o'zini amalga oshirish funktsiyalariga bo'linadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Muloqot talabaning muvaffaqiyatiga qiziqish, shuningdek, o'zini o'zi anglash va o'quvchining yanada rivojlanishiga hissa qo'shadigan xayrixoh aloqa va muhitni saqlash uchun javobgardir.

Pedagogik muloqot bolaning shaxsiyatiga hurmatni ta'minlashi kerak. O'qituvchi tomonidan o'quvchi shaxsini tushunish va idrok etish - bu ma'naviy dunyo, bolaning jismoniy holati, individual va yoshi, aqliy, milliy va boshqa farqlar, ruhiy neoplazmalar va sezgirlikning namoyon bo'lishi haqidagi bilimdir.

O'qituvchi tomonidan o'quvchining shaxsiyatini tushunish uning munosabatiga qiziqish muhitini yaratadi, shuningdek, yaxshi niyat, shaxsning rivojlanish istiqbollarini aniqlash va ularni tartibga solishga yordam beradi.

O'qituvchi tomonidan o'quvchi shaxsini tushunish va idrok etish funktsiyasi eng muhim deb hisoblanishi kerak.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, madaniyatlararo muloqotning shakllanishi uchta asosiy komponentlari ya'ni:

etnopsixologik (aqliy tufayli milliy madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari);

xulq-atvor (muloqotning milliy va madaniy o'ziga xosligi tufayli xulq-atvori);

milliy va madaniy lingvistik omillar mazmuni bilan belgilanadi.

Shuning uchun o'qituvchilar fanlarini o'qitishda turli mamlakatlardan kelgan chet elliklarning bilish, o'quv materialining qat'iy "dozasi" o'rtasidagi muvozanatni aniqlash o'quvchilarni til o'rgatishda "tenglashtirish" masalalarini hal etishlari kerak.

Madaniyatlararo muloqot qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik muloqot jarayoni chet ellik talabalarning yangi sharoitlarga moslashishi va ijtimoiylashuvi bilan chambarchas bog'liq.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv davrida xalqaro talabalar shaxs sifatida sezilarli o'zgarishlarga uchraydi.

Xorijiy talabalarni zamonaviy sharoitida o'rganishda o'qituvchining psixologik ta'siri o'quv guruhida normal muhitni yaratish, bosim va ma'ruza qilishdan qochish, shuningdek muloqotda avtoritar ohang, hissiy va barcha lozim bo'lgan vositalardan foydalanish kerak.

Ilmiy tahlil amaliyotida fanlardan (sotsiologiya, falsafa, fiziologiya, tibbiyot, pedagogika va boshqalar) yondashuvlar bilan muloqotga to'g'ri psixologik yondashishning turli kombinatsiyalari keng tarqaldi. Kompleks-kombinativ yondashuvlar psixologik va psixologik bo'lmagan ma'lumotlarning yagona birikmasini yoki kompleksini (muloqotning ijtimoiy-psixologik va psixolingvistik nazariyasini) tashkil qiladi.

Muloqotning ko'plab kompleks-kombinativ yondashuvlari psixologiyaning an'anaviy amaliy sohalari (ijtimoiy psixologiya, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, sud psixologiyasi, patopsixologiya, zoopsixologiya va boshqalar) doirasida ishlab chiqilgan. Ayrim yondashuvlar tabiatan nisbatan mustaqildir (muloqotning psixolingvistik, mantiqiy-psixologik, psixofiziologik tahlili).

Ushbu yondashuvlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, o'z muammolariga ega. Ammo umuman olganda, bu muammolar aqliy faoliyat hodisasi sifatida muloqotning umumiy psixologik tahliliga asoslanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Xulosa va munozara. Zamonaviy oliy ta'lim muassasasi turli xalqlar madaniyati o'rtasida muloqot olib boriladigan ko'p madaniyatli makon ekanligi munosabati bilan universitet o'qituvchilari bir qancha xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

Shuning uchun o'qituvchilar va chet ellik talabalar o'rtasidagi pedagogik muloqot aloqaning asosiy xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

sub'ektlarning o'zaro ta'siri (bizning holatda o'qituvchi va chet ellik talaba), muloqotning ijtimoiy-madaniy mohiyati,uning funksionalligi.

Muloqotning tarkibiy komponenti kommunikativ akt va funksional birlikdir.

Bunda pedagogik muloqot keys - ijtimoiy-rolli pedagogik o'zaro ta'sir madaniyatlararo ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan aloqa vositasidir.

Chet ellik talabalarning kasbiy-pedagogik muloqotini tashkil etish o'qituvchidan psixologik-pedagogik tayyorgarligi, etnopsixologiya va etnopedagogika sohasida yetarlicha nazariy bilimga ega bo'lishi hamda uni yanada takomillashtirishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullayev Akmal Nasriddinovich (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. European science review, (3-4), 69-72.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
3. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
4. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoe posobie dlya vuzov.-M.:IKS "MarT", 2004-512 b.
5. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznanie sebya: Vliyanie na lyudey:Posobie dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003, - 320 b.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Norbo'tayev Farhod Maxsitdinovich**, o'qituvchi [**Норбутаев Фарход Махситддинович**, преподаватель], [**Norbo'tayev Farhod Maxsitdinovich** teacher]; manzil: Amir Temur ko'chasi, 18a, Samarqand, [адрес: улица Амира Темура, 18А, Самарканд], [address: 18A Amir Temur Street, Samarkand]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

AFFILIATSIYA MOTIVATSIYASI - MAKTAB MUAMMOLARINI HAL ETUVCHI OMIL SIFATIDA

© N.T. Norkulova[1]✉
[1]Toshkent xalqaro universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada maktabdagi dolzarb muammolardan biri — o‘quvchilarning darslarni ko‘p qoldirishi masalasi ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Muallif bu muammoni hal etishda affiliatsiya motivatsiyasi muhim omil sifatida qaralishini asoslaydi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda darslarni sababsiz qoldirish holatlarining oldini olishda affiliatsiya motivatsiyasini shakllantirish orqali maktabga jalb qilishni kuchaytirish va o‘qituvchilar faoliyatiga ijtimoiy-psixologik yechimlar kiritishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida 443 nafar o‘quvchi ishtirokida so‘rovnoma, psixologik testlar, shaxsiy xavotir va guruhga yo‘nalganlik darajalarini aniqlovchi diagnostik metodikalar qo‘llandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuqori affiliatsiya motiviga ega bo‘lgan o‘quvchilar darslarga faolroq qatnashadi, guruhda o‘zini qulay his qiladi va muloqotga intiladi. Jamoaviylikka yo‘nalganlik xavotirni kamaytiradi, individuallik esa uni kuchaytiradi.

XULOSA: affiliatsiya motivatsiyasi o‘quvchilarning maktabga borishini rag‘batlantiruvchi psixologik omil bo‘lib, uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘qitish samaradorligini oshirish mumkin. Maktabdagi mikromuhitni yaxshilash, ota-onalarning motivatorlik roli va o‘qituvchilarning interfaol metodlardan foydalanishi bu borada muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: affiliatsiya motivatsiyasi, maktab muammolari, ijtimoiy-psixologik omil, o‘quvchi, dars qoldirish, o‘qitish motivatsiyasi, muloqot, xavotirlanish.

Iqtibos uchun: Norkulova N. T. Affiliatsiya motivatsiyasi - maktab muammolarini hal etuvchi omil sifatida. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.486–495.

МОТИВ АФФИЛИАЦИИ КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР В РАЗРЕШЕНИИ ШКОЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ

© Н.Т. Норкулова[1]✉
[1]Ташкентский международный университет, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается одна из актуальных школьных проблем — пропуски занятий учащимися. С позиций социальной психологии автор предлагает мотив аффилиации как эффективное средство решения данной проблемы.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повысить вовлечённость учащихся в образовательный процесс путём формирования мотива аффилиации и предложить социально-психологические подходы к работе педагогов с проблемными учениками.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование охватило 443 школьника, использовались опросники по мотивации аффилиации (Меграбян, Магомед-Эминов), методика оценки тревожности (Спилбергер, Ханин), а также корреляционный анализ по Спирмену.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что высокий уровень мотива аффилиации способствует снижению тревожности, укреплению социального взаимодействия и повышению учебной активности. Индивидуализм усиливает тревожность, тогда как групповая направленность её снижает.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: формирование мотива аффилиации у школьников способствует созданию безопасной и поддерживающей образовательной среды, улучшает посещаемость и формирует устойчивую мотивацию к обучению. Рекомендуется активное применение групповых заданий, интерактивных методов и вовлечение родителей в процесс формирования мотивации у детей.

Ключевые слова: мотивация аффилиации, школьные проблемы, психологический фактор, пропуски занятий, учащиеся, тревожность, взаимодействие, социальная направленность.

Для цитирования: Норкулова Н.Т. Мотив аффилиации как основной фактор в разрешении школьных проблем.// Inter education & global study.2025. Vol.3 №6(1). С. 486–495.

AFFILIATION MOTIVE AS A MAJOR FACTOR IN RESOLVING SCHOOL PROBLEMS

© Nargiza T. Norkulova[1]✉
[1]Tashkent International University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article addresses a pressing school issue — frequent absenteeism among students. The author proposes affiliation motivation as a key psychological factor in solving this problem from a socio-psychological perspective.

AIM: the main aim of the study is to increase student engagement through the development of affiliation motivation and to provide socio-psychological recommendations for teachers working with frequently absent students.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MATERIALS AND METHODS: the study involved 443 students and used the "Affiliation Motivation" questionnaire (Mehrabian, Magomed-Eminov), the anxiety diagnostic method (Spielberger, Hanin), and Spearman correlation analysis to examine the relationship between social orientation and anxiety levels.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that students with strong affiliation motivation are more engaged, less anxious, and perform better in a supportive group environment. Individual orientation increased anxiety, while group affiliation reduced it.

CONCLUSION: developing affiliation motivation in students helps foster a positive school environment, improves attendance, and supports educational success. Implementing group-based learning, interactive methods, and engaging families are essential strategies for promoting this motivation.

Keywords: affiliation motivation, school problems, psychological factor, absenteeism, students, anxiety, social interaction, educational engagement.

For citation: Nargiza T. Norkulova. (2025) 'Affiliation motive as a major factor in resolving school problems', Inter education & global study, (6(1)), vol.3 pp.486–495. (In Uzbek).

Karantin, globallashuv sharoitlari hozirgi alfa[1] avlodda ta'lim olishga yetarli darajada istak, ishtiyoq yo'qligini ko'rsatmoqda. YUNISEF va BMT tomonidan 30 davlat o'rtasidagi o'tkazilgan xalqaro so'rovnoma yoshlar o'rtasida kiberbullinglarning ortib borayotganligi har beshinchi shaxs kiberbullingga yo'liqqanligi sabab maktabdagi darslarni o'tkazib yuborganligi to'g'risida ma'lumot bergan[2]. Undat tashqari zamonaviy o'quvchi olayotgan axborot ko'lami shu darajada kengki, bilimlarni maktabga qatnab egallash istagi hozirgi kun yoshlarida tobora so'nib bormoqda. Bugungi kunga kelib internet tarmoqlariga ulangan telefon, kompyuter, planshet, aypat, gadjetlar maktab berayotgan axborot, bilimlarni qadrsizlanishiga olib kelmoqda. Sababi, guglga istalgan savol berib, 100 xil javoblar olish imkoniyati mavjud. Ya'ni, maktabga axborot yoki bilim olish uchun borish kerak bo'lmay qolyapti. Bu esa o'quvchilarni darslarni yanada ko'proq qoldirishlariga sabab bo'lyapti. Kasalmisan – uyda qol, olimpiada yoki sportakiada – darslardan ozodsan, ukangga qarashga odam yo'qmi – uyga boraqol va bunday bahonalarning son sanog'iga yetish qiyin. Lekin eng xavfli dars qoldiruvchilar bu besabab dars qoldiruvchi o'quvchilardir. Ota-onalar bu borada hech nima qilisholmayyapti yoki umuman chora ko'rishni istashmaydi. Bunday holatda maktab ma'muriyati, o'qituvchilar hatto maktab psixologlari ham qanday chora ko'rishni bilishmayapti.

Asosiy qism. Xorij maktablari kabi, biz ham maktablarda nafaqat havfsiz muhit, balki maktabni ikkinchi oilasidek idrok etishlariga, maktablarda nafaqat bilim, balki

[1] http://spsu.ru/news/4525-teoriya-pokolenij-x-y-z-i-a-al-fa-kto-est-kto
[2] https://www.unicef.org/press-releases/unicef-poll-more-third-young-people-30-countries-report-being-victim-online-bullying

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hayotga juda kerakli bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni beruvchi maskanga, hayotiy tajriba orttiruvchi dargohga aylantirishga harakat qilishimiz muhimdir.

Shu bois, Davlatimiz rahbari boshchiligida 2024 yilning 5 fevral kuni o‘tkazilgan ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishda maktablardagi o‘quvchilar davomatini yaxshilash maqsadida, maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o‘tkazilganligi aytib o‘tildi. Inspektor-psixologlarning asosiy vazifasi, o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasini tashkil etishda maktab jamoalariga yaqindan ko‘maklashish, muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilarning ota-onalari bilan ishlashdan iborat. Shu maqsadda darslarga muntazam (uch o‘quv kuni va undan ortiq) sababsiz qatnashmayotgan o‘quvchilarning yashash manzillariga tezkor ravishda “Ogohlantirish xati” yuborilmoqda. Unda o‘quvchilarning ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi MJTKning (O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeks) 47-moddasi mazmun-mohiyati tushuntirib o‘tilgan.

«Dunyoning boshqa mamlakatlarida uchramaydigan 11 yillik bepul majburiy ta’lim ham davlatimiz nazoratidadir. Ularning ta’lim olishlarini ta’minlashga ota-onalar mas’uldirlar. Bu yurtimizda qator qonun va hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan». Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasi hamda «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning 51-moddasida, birinchisida shunday deyiladi: ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majbur ekanliklari hamda ikkinchisida ota-onalarning huquq va majburiyatlari ko‘rsatilgan. Unga quyidagilar kiradi:

o‘z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashi;

bolalarining umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim yoki boshlang‘ich professional ta’lim olishini ta’minlashi;

bolalarining o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishini ta’minlash va o‘zlashtirishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

o‘z bolalarining intellektual, ma’naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi;

ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi ichki tartib-qoidalariga rioya etishi;

jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan, sudda maxsus vakolatlarsiz o‘z bolalarining ta’lim sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Undan tashqari, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi .

Ushbu muammoni hal etish maqsadida 2024 yilning fevral oyidan e’tiboran Milliy gvardiya hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan maktablarda davomat muammosi bilan shug‘ullanuvchi maxsus ishchi guruh tuzildi .

Davomat.uz Ye-maktab ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda (jami o‘quvchilarning 99 foizi qamrab olingan) maktablardagi o‘rtacha davomat 83,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga (98.8 foizi qamrab olingan) kelib 82,5 foizga tushgan .

O‘quvchilarni dars qoldirish sabablarini o‘rganish tahlillari, ota-onalar orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, betob bo‘lib qolishi (75,4 foiz), ota-onasiga ishlarda yordam berishi (8,9 foiz), ota-onasi ishga chiqishi kerakligi, 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarga qaraydigan boshqa odam yo‘qligi (3,1 foiz), xususiy o‘qituvchi/repetitor bilan o‘qishi (1,7 foiz), maktabga borishi uchun qo‘shimcha xarajatlarga mablag‘ yetishmasligi (1,1 foiz) o‘quvchilarning dars qoldirishidagi asosiy sabab sifatida ko‘rsatilgan .

PISA ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda darslarni ketma-ket uch oy qoldirgan o‘quvchilar ulushi 18,5 foizni tashkil etgan (PISAda ishtirok etgan mamlakatlar orasidagi o‘rtacha ko‘rsatkich 10,3 foiz).

Bu ko‘rsatkich o‘g‘il bolalar orasida qiz bolalar orasidagi ko‘rsatkichga nisbatan yuqoriroq. Betob bo‘lib qolish (56,5 foiz), oila a’zosiga g‘amxo‘rlik qilish (22,7 foiz), oilaviy ishlarda yordam berish (17,6 foiz), maktabda o‘zini xavfsiz his qilmaslik (17,4 foiz), zerikish (17,4 foiz), uyga pul olib kelish uchun ish topish kerakligi (13,2 foiz), transport muammosi tufayli maktabga bora olmaslik (10,7 foiz) va homilador bo‘lib qolish (7,1 foiz) dars qoldirishdagi boshqa sabablar sifatida ko‘rsatilgan.

Albatta, hech bir besabab qoldirilgan dars e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Darslarni muntazam qoldiruvchi o‘quvchilarni qattiq nazorat qilish va bunday xulq atvorni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni o‘rganish darkor.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, agar bunga jiddiy e’tibor qaratilmasa, o‘quvchilar o‘zlarini jazolanmasliklarini his etishlari va shu yo‘sinda yashashni davom ettirishlari mumkin. Oxir oqibat bu ularning doimiy, surunkali dars qoldiruvchilar, keyinchalik o‘z vaqtlarini ko‘cha-kuyda bekor o‘tkazuvchi, jinoiy guruhlarga kirib qoluvchi deviant xulq-atvor egalariga aylanishlariga olib kelishi mumkin. Bunday bo‘lmasligi uchun bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar bilan birgalikda ijtimoiy-psixologik tadqiqot natijalarini amalda qo‘llash borasida quyidagi ilmiy takliflarimizni ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil etib ko‘rsak.

Ba’zi fanlar o‘quvchiga tushunarsiz, shu sababdan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari past, fanga qiziqishi yo‘q bo‘lgan holatlarda bunday o‘quvchilarga fan o‘qituvchilari, ota-onalar hamkorligida yordam qo‘lini cho‘zish muhimdir. Bunda o‘qituvchi bola bilan qo‘shimcha ishlashi, yangi materialni qaytadan tushuntirib berishi va topshiriqlar belgilashi muhimdir. Shu orqali o‘qishdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tib, bolada o‘qishga nisbatan qiziqishni saqlab qolish imkoniyati paydo bo‘ladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

O‘quvchilarda dars qoldirishlarni yo‘qotish uchun sinfdagi ijtimoiy-psixologik iqlimni yaxshilash darkordir. Sinf jamoasi ahil, jipslashgan va har bir o‘quvchi o‘zini ushbu jamoaning a’zosi sifatida his etishi uchun bizga affiliatsiya motivatsiyasi (ing. to affiliate – birlashmoq, birlashtirmoq, insonni boshqa odamlar davrasida bo‘lishga intilishi ma’nosida) [4;11] yordamga keladi.

Birgalikdagi faoliyatga urg‘u berishimizdan maqsad, aynan birlashish, muayyan shaxsning boshqalar davrasida bo‘lishga intilish ehtiyoji, buni sof ijtimoiy-psixologik tilda affiliatsiya motivatsiyasi (ing. to affiliate – birlashtirmoq, birlashmoq, insonni boshqa odamlar davrasida bo‘lishga intilish ehtiyoji, motivi) fenomeni deb ataymiz, unda havotirlanish darajasining pasayishiga, bu esa to‘g‘ridan to‘g‘ri psixologik stress holatining oldini olishga yoki yumshatishga olib keladi. Affiliatsiya motivatsiyasining qondirilmasligi esa insonni yolg‘izlik, begonalashish, bu esa tushkunlik va depressiyaning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi [4; 12].

Bu borada ko‘plab tadqiqot ishlarini olib borgan X. Xekxauzen affiliatsiyani muloqotga ehtiyoj doirasida o‘rgangan bo‘lib, uning ta’kidlashicha, affiliatsiya har kunlik, lekin shuning bilan birgalikda fundamental xarakterga egadir. U o‘zidan psixik hodisa, motiv, mayl, xohish, boshqa odamlarga intilishni namoyon etadi [10;5].

Affiliatsiya motivi kuchli rivojlangan insonlar o‘zlariga muloqatda o‘ta kirishuvchanlik, tez til topishish, do‘stona hamkorlikni afzal ko‘rishadi. Kuzatuvlarga ko‘ra, affiliatsiya motivining yuqori ko‘rsatkichlariga ega yoshlar yolg‘iz mehnat qilgandan ko‘ra, do‘stlar bilan o‘zaro munosabatlar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan guruhda yuqoriroq ko‘rsatkichlarni namoyon etadilar. Shunga yarasha, binobarin, bunday insonlar do‘stlik kabi munosabatlar doirasini ayniqsa qadrlaydilar [7; 12].

Bizning ta’rifimizga ko‘ra, affiliatsiya (aloqa, muloqot) deganda, insonlar bilan muloqot o‘rnatish(tanish, notanish va kam tanish insonlar), natijasida har ikkala tomonda birday qoniqish hosil qilishga, muloqot jarayonini mazmun bilan boyitishga va unga kirishib ketishga undovchi ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning ma’lum bir toifasi tushuniladi [8].

Ayniqsa, affiliatsiya motivini o‘qish va o‘qitish motivatsiyalari doirasida o‘rganilgan ishlar kam. Fikrimizcha, affilatsiya motivi deyarli barcha o‘quv mashg‘ulotlarida ahamiyatga ega, chunki u o‘qitish, o‘qish motivatsiyalarining tarkibiy qismi, elementi hisoblanadi.

Yoshlarda affiliatsiya motivini o‘rgangan olimlar O.S. Grebenyuk va T.B Grebenyuklarning fikricha, yoshlarni o‘quv faoliyati davomida aqliy muloqotga chorlovchi maqsadlar, ehtiyojlar (muloqotga intilish yoki muloqotdan qochish) va motivlar (bilishga intilish, o‘zini ta’kishlashga ehtiyoj, hamkorlikka intilish, muloqot uchun muloqot) tizimi affiliatsiyadir [1;3].

Fikrimizcha, o‘quv faoliyatida sodir bo‘luvchi affiliatsiya jarayonini ijodiy, shaxsiy yoki o‘yin kabi turlarga bo‘lish noo‘rindir, sababi o‘qish jarayonidagi muloqot bu ijodiy, shaxsiy va o‘yin muloqotining birligi, uyg‘unlashuvi natijasidir. Yana shu yo‘nalishda o‘z ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan G.S. Abramova [5], V.A. Kak- Kalik [3], T.A. Matis va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

A.K.Markova [6] ishlari bizda katta qiziqish uyg‘otdi. Sababi, ular tomonidan o‘quv faoliyatidagi affiliatsiyaning asosiy motivi sifatida:

1. Bilishga intilish motivini, ya’ni bilimga bo‘lgan ehtiyojni anglab yetish. Ushbu motivning tub ma’nosi boshqa inson orqali (o‘qituvchi, o‘quvchi) bilimga ega bo‘lish kerakligini anglab yetish. Bilimga bo‘lgan ehtiyojni qondirishda ba’zi o‘quvchilar muloqot jarayoniga kirishishga, boshqalari esa kirishmaslikni istashadi, ya’ni nimadandir cho‘chishadi (odatda oldingi muvaffaqiyatsiz tajriba oqibatida).

2. O‘z - o‘zini ta’kidlash motivi (o‘quv jarayonida individuallikni anglash ehtiyoji). Ushbu motivning asl tub mohiyati o‘quv faoliyatida o‘z aqliy qobiliyatlarini o‘stirish kerakligini anglab yetish ehtiyoji va bilimlari va ko‘nikmalarini mustaqil qo‘llab ko‘rish, o‘quv faoliyatida o‘zini ta’kidlashga erishish bilan bog‘liq. O‘zini - o‘zi ta’kidlash motivi, odatda, o‘zini betakrorligi, noyobligi, antiqaligini tan oldirishga intilish bilan bog‘liq. O‘quvchi lirerlikka intiladi, boshqalar oldida ehtiyojini qondiradi, lekin ba’zida yaqinlari tomonidan ham rad etilishi mumkin. Shunda u, unga to‘sqinlik qiluvchi yoki unga yordam beruvchi insonlarni ko‘radi. Shunga ko‘ra, birlari bilan ushbu ehtiyojni qondirish uchun muloqotga kirishishga, boshqalari bilan esa ehtiyoj qondirilmaganligi sababli chetlab o‘tishga harakat qiladi.

3. Hamkorlik motivi (hamkorlikdagi o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojni anglab yetish). Hamkorlik motivi affiliatsiyaning va o‘quv jarayonining ijtimoiy xarakteri bilan shartlangan. U guruh o‘quvchilarining hamkorlikdagi ishini rejalashtirishga intilishda, o‘quv faoliyatida o‘zaro yordam berish, xatolarni tahlil qilish, birgalikda xulosa chiqarish, yakun yasash, kelajak rejalar muhokamasidan iborat. Ushbu motiv o‘quvchini umumiy o‘quv faoliyatini kirishib ketishida, “boshqa inson o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rishda” namoyon bo‘ladi.

4. Muloqot uchun muloqot (tengdoshlar, o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan iliq munosabatlar saqlash ehtiyojini anglash). Oxirgisini tagida “darsdan tashqari” ehtiyoj yotadi. U o‘quvchini jamoada bo‘lishi evazigina qondiriladi. Lekin bu ehtiyoj o‘qish jarayonining o‘ziga emas, balki do‘stona munosabatlarni qo‘llashga yo‘naltirilgan muloqotga, ya’ni yolg‘izlik diskomfortini yo‘qotishga mo‘ljallangan. Ushbu motiv odatda o‘z o‘rtoqlari, o‘qituvchisi haqida ko‘proq bilish, o‘z muammolari bilan dardlashish, sinfloshlari qiziqishlarini bilish bilan bog‘liq jarayondir.

Ushbu affiliatsiya motivining tarkibi o‘qitish motivatsiyalarini to‘ldirib kelib, bizningcha, umumiy o‘rta ta’lim tizimining etalon maqsadiga aylanishi kerak.

Biz affiliatsiya motivatsiyasini o‘quvchilarni ta’lim tizimiga jalb etuvchi omil sifatida o‘rganishga qaratilgan tadqiqot olib bordik. Odamlarga intilish, aniqroq aytiladigan bo‘lsa, o‘ziga o‘xshash bolalar bilan birlashmoq, birga bo‘lmoq, o‘zgalar davrasida bo‘lishga intilish ehtiyoji shaxsdagi affiliatsiya, ya’ni “a’zolikka qabul qilinish” deb nomlangan motivga bog‘liq bo‘lib, biz psixologik eksperimentda aynan buning tabiatini o‘rgandik.

Tadqiqotimiz davomida 443 nafar maktab o‘quvchilari qamrab olinib, mamlakatimiz yoshlarida affiliatsiya motivatsiyasining nechog‘lik rivojlanganlik darajasini o‘rganishga qaratilgan A. Megrabyan va M. Magomed-Eminovlar tomonidan ishlab

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

chiqilib, ko‘plab o‘quvchilarda sinovdan o‘tkazilgan “Affiliatsiya motivatsiyasi” so‘rovnomasidan [2] foydalanildi. Undan tashqari, jamoada affiliativ munosabatlarni qurilishida shaxsdagi xavotirlanish darajasining ahamiyati bormi, bo‘lsa qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida, Spillberger va Xaninlar tomonidan ishlab chiqilgan, o‘quvchilar xavotirlanish darajasini o‘rganish metodikasi [2] bo‘yicha quyidagi natijalar olindi. Reaktiv va shaxsiy xavotirlanish darajasini hamda guruhni idrok etish xususiyatlarini o‘rganish metodikalarining ko‘rsatgichlariga ko‘ra, individuallikka yo‘nalganlik reaktiv xavotirlanish darajasini kuchaytiradi. Jamoaviylikka yo‘nalganlik esa reaktiv xavotirlanish darajasini kamaytiradi, ya’ni jamoa suyanchiq, tirgak vazifasini o‘taydi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Reaktiv va shaxsiy xavotirlanish darajasini o‘rganish hamda guruhni idrok etish xususiyatlarini o‘rganish metodikalarining ko‘rsatgichlari orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari (Spirmen mezoni)

	Individualistik yo‘nalganlik	Jamoaviylikka yo‘nalganlik	Pragmatik yo‘nalganlik
Reaktiv xavotirlanish	0,260**	-0,286**	0,059
Shaxsiy xavotirlanish	0,083	-0,09	0,022

Изоҳ: ** - p<0,01.

O‘quvchilardagi affiliatsiya motivatsiyasining shaxsdagi o‘z vakillik guruhi, bizning misolda o‘quvchilar guruhini idrok qilishi asosida yo‘nalishiga qay darajada bog‘liq ekanligini ham solishtirib o‘rgandik. Statistik ma’lumotlar Spirmen mezoni asosida tahlil qilinganda o‘quvchilardagi rad etilishdan qo‘rqish motivatsiyasi yuqori ortib borgan sari (0,253**) individuallikka yo‘nalganlik ham ortib borganligini, ular o‘rtasida ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. O‘z navbatida rad etilishdan qo‘rqish ortgan sari jamoaviylikka yo‘nalganlik (-0,335**) kamayib bormoqda. Demak, o‘quvchilarda jamoaviylik, birlashish ruhini shakllantirish uchun qabul qilinishga intilish motivatsiyasini ularda kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yuqori affiliatsiya ehtiyojini namoyon etgan shaxslar ijtimoiy munosabatlarni oson o‘zlashtiradilar, odamlarga sezgirroq va muloqotga moyilroqdirlar. Demak, qadriyatlarning e’zozlanishi bola ongida “o‘zining” hamda “begona” guruhlarni aniq differensiatsiya qilish psixologiyasini shakllantiradi. Bu biz, tarbiyachi-o‘qituvchilar, maktab psixologlari uchun muhim bo‘lib, ma’naviy qadriyatlarimizni, avvalo oila qadriyatlariga nisbatan farzandlarda to‘g‘ri munosabatni shakllantirishimiz, yoshlar ongida va mustaqil shuurida ularga faqat yaxshilikni ravo ko‘ruvchi insonlarni qadrlash, ularni hamisha e’tirof etish psixologiyasini kuchaytiradi.

Shunday qilib, ko‘p dars qoldiruvchi o‘quvchilarda affiliatsiya motivatsiyasini amaliyotda shakllantirish borasida quyidagi tavsiyalarimizni berishni joiz deb topdik:

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Ta'lim jarayonida bevosita o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarda affiliatsiya motivatsiyasini shakllantirib borish uchun, ta'limning interaktiv usul va shakllari, maxsus vaziyatli topshiriqlar, guruhiy topshiriqlarni, o‘quvchilarni jamoa bo‘lib ishlash malakasini ta'minlab beruvchi ijtimoiy-psixologik treninglarni, o‘quvchi muvaffaqiyatining individual xaritasi kabi o‘z ichiga multimedia, attraktsiya va boshqa texnik usullarni qamrab oluvchi kompleks ijtimoiy-psixologik, pedagogik vositalardan faol foydalanishni tavsiya etamiz.

2. Ta'lim jarayonida o‘quvchilarni o‘qishga jalb etish, ulardagi hamkorlik, uyushganlik muhitini yaratish maqsadida turli loyihaviy ishlarga jalb etish. Bunda o‘quvchilar muammolarni aniqlash, maqsadlarni qo‘ya bilish, axborot izlash, harakatlarni to‘g‘ri rejalashtirish, tahlil etish hamda xulosalash kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. Shuningdek, loyihaviy ishlar odatda o‘quvchilarda jamoada ishlay bilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. O‘quvchilarda affiliatsiya motivining dastlabki shakllanish manbai oila va undagi munosabatlar bo‘lganligi sababali, ota va onalar ilk “motivatorlar” sifatida o‘z farzandining ehtiyoj va motivlari tarbiyasiga alohida e'tibor qaramog‘i, uning istiqbolda jamiyatdagi turli insoniy munosabatlarda o‘zini qanday tutishiga oid tarbiyaviy malaka va ko‘nikmalarni o‘zida shakllantirmog‘i lozim, farzandini o‘zgalar bilan hamkorlikda ishlash, ular bilan birlashmoq, tushunmoq malakalarini turli yo‘llar bilan ongiga singdirishlari zarur.

4. O‘quvchilarda maktablarda o‘qitish motivatsiyalari bilan birgalikda affiliatsiya va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyalarining uyg‘unlikda olib borilishi ijtimoiy xulq mustahkamlanishiga erishish orqali kommunikativ jihatdan bilimdon (kompetent) shaxs yetishtirib berishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

5. O‘qituvchi tomonidan turfa xil metodikalar, enerdjayzerlar, rollik o‘yinlar, interaktiv usullardan foydalanish orqali o‘quvchilarni darslarga qiziqtirish eng avvalo darslarni yaxshi o‘zlashtirish, shuning bilan birgalikda maktabga kelish ishtiyoqini uyg‘otishga xizmat qiladi. Buning uchun o‘qituvchi ko‘proq o‘z ustida ishlab, doimiy izlanishda bo‘lmog‘i zarur. O‘quvchilarni maktabga kelishlarini ta'minlovchi yana bir mexanizm bu – o‘zaro do‘stona, ishonchli muhit sharoitini yaratishdir. Zero, xalqaro tadqiqot natijalariga ko‘ra , o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijobiy munosabatlar juda ko‘p ko‘rsatkichlarga: maktabda o‘quvchilarda xavfsizlik hissini ta'minlashda, tengdoshlari bilan muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda, o‘z-o‘ziga bahoni ko‘tarishda hamda akademik muvaffaqiyat ko‘rsatkichlarini oshirishda ijobiy ta'sirini o‘tkazadi. Shunday ekan, maktabga o‘quvchilarni borishini ta'minlashda o‘quvchilarda affiliatsiya motivatsiyasini rivojlantirish o‘ta dolzarb ahamiyatga molik masaladir.

6. O‘quvchilarni maktabga borishini ta'minlovchi yana bir muhim omil bu – hayotiy muhim ko‘nikma va malakalarni dars davomida berishdir. Musiqa darsida ularni sevimli musiqasini eshitib ko‘rish, chiqindilarni saralashni o‘rgatish yoki oddiy etiket qoidalari, ko‘pchilik orasida o‘zini tutish madaniyatidan saboqlar berish va hok. Hayotiy dolzarb muammolar odatda kitoblarda berilgan misollardan ko‘ra o‘quvchilarga ancha qiziqarliroq bo‘ladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Sinfda yaxshi, ijobiy “mikromuhit” yaratish, darslarda va tanaffuslarda o‘quvchilarga dam olishni ta'minlash odatda zo‘riqishlarni oldini olishni ta'minlaydi. Turli faollashtiruvchi o‘yinlar orqali chalg‘itish, misol usun 5 daqiqali fizzaryadkalar bajarish ham o‘quvchilarni darslarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirishga, shu bilan birga darslarga qiziqish uyg‘otishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Гребенюк О.С., Гребенюк Т.Б. Основы педагогики индивидуальности.- Калининград: Янтарный сказ, 2000.- С.79-85.
2. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер. 2008.- с-378.
3. Как-Калик В.А. Основы профессинально-педагогического общения.- Грозный, Чеч-Инг.ун-та, 1979.-с.138-140.
4. Карпенко Л.А. Краткий психологический словарь / Под общ.ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского.- М.: Политиздат, 1985.-с-9.
5. Кузнецова И.В. Мотив аффилиации в межличностных отношениях:Дис. ... канд. пс. н.: 19.00.05 СПб., 2006.- 200 с.
6. Маркова А.К., Матис Т.А., Орлов А.Б. Формирование мотивации учения.-М., 1990.-С.192-195.
7. Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология: Учебное пособие.- СПб.: Питер,2010.- С. 90-93с.
8. Норкулова Н.Т. Ёшлар маънавиятида аффилиация мотивацияси психологияси. – Т.: «Fan va Texnologiya», 2015, Б-107.
9. Платонов Ю.П. Социальная психология поведения: Учебное пособие.- СПб.:Питер, 2006.-464 с.
10. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность, т.1. СПб.: Питер – 2003.- С. 347-370.
11. Шапарь В.Б. Новейший психологический словарь \В.Б. Шапарь, В.Е.Россоха, О.В. Шапарь; под общ.ред.В.Б. Шапаря.- Изд.3-е-Ростовн\Д.: Феникс, 2007.-с-43.
12. Buunk B. Affiliation and helping interactions within organizations: a critical analysis of the role social support with regard to occupation stress. \\ inStroebe W., Hewstone M. European Review of Social Psychology, - Chichester: John Wiley, 1990, 1, p. 293-322.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Norkulova Nargiza Tashpulatovna**, dotsent [**Норкулова Наргиза Ташпулатовна**, доцент], [**Norkulova Nargiza Tashpulatovna,** associate professor,]; manzil: 100114, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko‘chasi, 7-uy, [адрес: 100114, Ташкент, ул. Малая кольцевая, д. 7], [address: 7 Malaya Koltsevaya str., Tashkent, 100114]

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR RAKURSIDA SHAXS INFANTILLIGI FENOMENI: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

© Sh.Sh. Qoryog‘diyev[1]✉
[1]Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada shaxs infantilizmi fenomenining ijtimoiy-psixologik jihatlari, ota-onalikda va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi roli, shuningdek, mazkur holatni tadqiq etish muammolari va istiqbollari yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — ota-onalarda uchraydigan ijtimoiy infantilizmning psixologik omillarini aniqlash, bu holatning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga ta’sirini baholash hamda uni minimallashtirish yo‘llarini asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida infantilizm fenomeni bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, shuningdek, empirik usullar asosida ota-onalar va yoshlar orasida ijtimoiy-psixologik kuzatuv va baholash ishlari amalga oshirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, infantil ota-onalar hissiy-irodaviy etuklikning past darajasi, egosentriklik, javobgarlikdan qochish va ijtimoiy rollarni to‘liq bajarmaslik bilan ajralib turadi. Bu esa yangi avlodga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA: tadqiqot natijalari ijtimoiy infantilizmning faqat yoshga oid muammo emasligi, balki shaxsning psixologik yetukligiga ta’sir qiluvchi murakkab omil ekanligini tasdiqladi. Ota-onalarning ijtimoiy-psixologik pozitsiyasi ularning bolalarga bo‘lgan munosabatini va tarbiya jarayonining sifatini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: infantilizm fenomeni, ijtimoiy-psixologik rivojlanish, ota-onalik, shaxsiy yetuklik, hissiy-irodaviy soha, ijtimoiy rollar, empirik tadqiqot.

.

Iqtibos uchun: Qoryog‘diyev Sh.Sh. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar rakursida shaxs infantilligi fenomeni: muammo va istiqbollari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.496–503.

ФЕНОМЕН ЛИЧНОСТНОЙ ИНФАНТНОСТИ С ПОЗИЦИИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА И ПЕРСПЕКТИВЫ

© Ш.Ш. Кориогдиев[1]✉
[1]Научно-исследовательский институт «Семья и гендер», Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются социально-психологические аспекты феномена инфантильности личности, его проявление в родительском поведении и

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

регуляции социальных отношений, а также актуальные проблемы и перспективы изучения.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить психологические факторы родительской инфантильности, оценить её влияние на личностное и социальное развитие, а также обосновать подходы к её снижению.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в работе проведён анализ научной литературы по теме инфантильности, а также использованы эмпирические методы: наблюдение, анкетирование и обобщение данных по социально-психологическому статусу родителей и молодёжи.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что инфантильные родители характеризуются низкой эмоционально-волевой зрелостью, эгоцентричностью, избеганием ответственности и слабой реализацией социальных ролей, что оказывает влияние на формирование нового поколения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование подтвердило, что инфантильность — это не только возрастная проблема, но и сложный психологический феномен, влияющий на эффективность родительства и качество воспитания. Социально-психологическая позиция родителя напрямую определяет характер его отношений с ребёнком.

Ключевые слова: феномен инфантилизма, социально-психологическое развитие, родительство, личностная зрелость, эмоционально-волевая сфера, социальные роли, эмпирическое исследование.

Для цитирования: Кориогдиев Ш.Ш. Феномен личностной инфантности с позиции социально-психологического исследования: проблема и перспективы.// Inter education & global study.2025. Vol.3 №6(1). С.496–503.

THE PHENOMENON OF PERSONAL INFANTILITY FROM THE PERSPECTIVE OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL RESEARCH: PROBLEM AND PROSPECTS

© Sherzod Sh. Qoryog‘diyev[1]✉
[1]Scientific Research Institute "Family and Gender", Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article explores the socio-psychological aspects of personal infantilism, its manifestation in parenting and social relationship regulation, and discusses key issues and prospects of studying this phenomenon.

AIM: The main aim of the study is to identify the psychological factors behind parental infantilism, evaluate its impact on individual and social development, and justify strategies for its reduction.

MATERIALS AND METHODS: the study involves a theoretical analysis of scientific literature on infantilism, along with empirical methods such as observation and surveys conducted among parents and youth to assess socio-psychological status.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that infantile parents display low emotional-volitional maturity, egocentrism, avoidance of responsibility, and weak role fulfillment, which negatively influences the younger generation's development.

CONCLUSION: the study confirmed that infantilism is not merely an age-related issue but a complex psychological factor affecting parenting effectiveness. The parent's socio-psychological position significantly shapes their relationship with their child and the quality of upbringing.

Keywords: phenomenon of infantilism, socio-psychological development, parenting, personal maturity, emotional-volitional sphere, social roles, empirical research.

For citation: Sherzod Sh. Qoryog'diyev. (2025) 'The phenomenon of personal infantility from the perspective of social-psychological research: problem and prospects', Inter education & global study, vol.3 (6(1)), pp.496–503. (In Uzbek).

Muayyan huquq va majburiyatlar tizimiga (xotin, er va boshqalar) ega bo'lgan maqom sifatidagi ijtimoiy-rol mavqei va ma'lum bir maqom bilan bog'liq kutilayotgan xatti-harakatlar roli oiladagi ota-onalarning funksional-rol izchilligi va ijtimoiy-rolning adekvatligiga ta'sir qiladi. Ota-onalarning pozitsiyasi jamiyat tomonidan ota-onalarning xatti-harakatlarining tasdiqlangan normalari sifatida taqdim etilgan kutishlar ta'siri ostida shakllanadi. Strategiya va umuman hayot tarzi sifatida shaxsning hayotiy pozitsiyasi ota-onaning barcha sohalarini qamrab oladi, boshqa narsalar qatorida ota-onaning pozitsiyasini belgilaydi [1].

«Infantilizm» tushunchasi (lotincha, infantilis - bolalarcha) kattalar bolalarga xos bo'lgan jismoniy va / yoki aqliy xususiyatlarni saqlab qolganda rivojlanishdagi kechikish yoki to'xtashni belgilaydi. Bu atama birinchi marta 1864 yilda frantsuz psixiatri E. Lasegue tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u ruhiy kasalliklarga chalingan ba'zi odamlar ojizlik va o'ziga ishonchsizlik bilan ajralib turishini va tashqi yordam va kimningdir hokimiyatiga ehtiyoj sezishlarini aniqladi. 20-asr boshlariga kelib. «infantilizm» hodisasi psixiatriyadan tashqarida o'rganila boshlandi; Bu o'ziga xos psixologik va ijtimoiy-shaxsiy xususiyat sifatida tushunila boshlandi, u hissiy-irodali etuklik, his-tuyg'ularning beqarorligi (labilligi), gedonistik motivlarning ustunligi, hamma narsadan qo'rqish va inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladi.

R.Xeyvigxerst fuqarolik va ijtimoiy mavqeini shakllantirish, erishilgan hayot darajasini saqlab qolish, bolalar tarbiyalash, nikoh munosabatlarini saqlash va shuningdek, shaxsning professional sifatida shakllanishini ahamiyatli deb biladi. G.Krajgning ta'kidlashicha, kattalikning asosiy omillari professional faoliyat va shaxsiy munosabatlardir. U, shuningdek, muhim motivlar sifatida affilyatsiya (bog'lanish), yutuqlar, tan olinish ehtiyoji, kompetentsiya olish, o'zini amalga oshirishni ta'kidlaydi, bu omillar to'g'ridan-to'g'ri professional karera va boshqa odamlar bilan yaqin munosabatlar bilan bog'liqdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Sh.Byulerning fikriga ko‘ra, insonning asosiy maqsadi - o‘zini amalga oshirish, bu o‘zini ro‘yobga chiqarishdan kengroq tushuncha bo‘lib, hayot yo‘lining natijasi sifatida belgilanadi. O‘zini amalga oshirish yosh davriga qarab turli xil maqsadlarga yo‘naltirilgan (masalan, 12-18 yoshdagi bolalikka yakun yasash). Ziralik davrida maqsad - mehnat, professional va oilaviy sohalarda o‘zini ro‘yobga chiqarishdir. Ziralik fazasida kasb yoki professional faoliyatni topish, o‘z oilasini tuzish kabi xususiyatlar mavjud. Inson aniq hayot maqsadlarini belgilaydi va ularni amalga oshirish yoki erishilgan natijalar bilan bog‘liq qadamlarni bajaradi [2].

Metodlar (Methods). XX asr oxirida, tadqiqotchilar (G.E.Suxareva, A.E.Lichko va boshqalar) ta’kidlaganidek, ruhiy infantilizmni tashxislash holatlari tez-tez uchragan. Uning tipik ko‘rinishlari, birinchi navbatda, shaxsning axloqiy-irodaviy sohasining rivojlanmaganligi / rivojlanishining kechikishi (burch va mas’uliyat hissi, axloqiy-axloqiy tamoyillar, o‘z manfaatlarini boshqalar va boshqalarning manfaatlariga muvofiqlashtirishga munosabati) bilan farqlanadi.

S.A.Kulakovaning so‘zlariga ko‘ra, infantilizm yoki ijtimoiy yetuklik bilan quyidagi shaxsiy xususiyatlar aniq namoyon bo‘ladi:

